

**ZILOLA XUDAYBERGENOVA**


**TARJIMASHUNOSLIKNING  
TADQIQOT  
METODOLOGIYASI**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI

XUDAYBERGENOVA ZILOLA NARBAEVNA

# TARJIMASHUNOSLIKNING TADQIQOT METODOLOGIYASI

O'quv qo'llanma



Toshkent - 2015

Mazkur o'quv qo'llanma "Qiyosiy tilshunoslik va lingvistik tarjimashunoslik" magistratura mutaxassisligi bo'yicha mutaxassslik fanidan yaratilgan bo'lib, tarjimashunoslik sohasining o'ziga xos xususiyatlari, tarjima turlari, tarjima nazariyasi va amaliyotining asosiy tadqiq yo'nalishlari, tarjimani modellashtirish masalalari ko'tariladi. Bundan tashqari, tarjimon malakasiga qo'yiladigan talablar, tarjimon kompetensiyasi, tarjimani asl matnga muqobilligini ta'minlash darajalari singari mavzular bo'yicha ma'lumot beriladi. O'quv qo'llanmada avval tarjimon mahorati masalalari, tarjimon mahoratini ta'minlovchi omillar tahlil etilsa, keyin tarjima metodologiyasi, usullari, uslublari.yu tarjima modellari tadqiq etiladi. Qo'llanmadagi yaratishda xorij va rus tarjimashunoslari, tilshunoslari tadqiqotlaridan samarali foydalanilgan.

Mas'ul muharrir:

TDSHI Tarjima nazariyasi va amaliyoti kafedrası dotsenti X.Hamidov

Taqrizchilar:

O'zR FA Til va adabiyot instituti katta ilmiy xodimi, f.f.n. E.Ochilov  
TDSHI Turkiy tillar kafedrası mudiri, dotsent, f.f.n. J.Shabanov

O'quv qo'llanma Toshkent davlat sharqshunoslik instituti Kengashining  
2015-yil 5-oktyabrdagi 2-sonli qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

© Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, 2015.

## Kirish

Serquyosh O'zbekistonimiz istiqloli biz uchun ulkan imkoniyatlar eshigini ochish bilan birga, xalqimiz uchun erkin va farovon hayot barpo etish, dunyo hamjamiyatidan munosib o'rin egallashdek yuksak maqsadlar va vazifalar qo'ydi. Chunonchi, Prezidentimiz I.Karimov haqli ta'kidlaganlaridek, "Tabiiyki, uzoq-yaqindagi xorijiy do'stu birodarlarimiz, jahon jamoatchiligi, eng avvalo, bizning zamonaviy adabiyotimiz va milliy adabiyotimizning eng yaxshi namunalarini chet tillarga tarjima qilish va shu asosda xalqimizning hayot tarzi va insoniy fazilatlarini keng namoyish etish borasida ham katta imkoniyatlar paydo bo'lmoqda"<sup>1</sup>.

Binobari, tarjima insonning eng qadimgi faoliyati turlaridan bo'lishiga qaramay, ko'p miqdordagi malakali tarjimonlarni tayyorlash zarurati yaqin kunlarda paydo bo'ldi. Turli qabilalar va xalqlarning o'zaro muloqoti, yuqori ijtimoiy mavqega ega hukmron millatlar madaniyatining e'tirofi, ko'p millatli davlatlar va imperiyalarning mavjudligi, diniy va ijtimoiy ta'limotning tarqalishi tarjimonlarning faoliyati natijasida yuzaga chiqqan. Ayni chog'da ko'p vaziyatlarda mamlakatda tarjimonlar soni sanoqli bo'lgan va ular maxsus tahsil olishmagan. Shunday bo'lsa-da, tarjimonlar o'tmishda yuqori malakali bo'lishgan. Umuman olganda, ko'p tarjimalar saviyasi nihoyatda yuqori bo'lmagan bo'lishiga qarmay, qobiliyatli tarjimonlar tarjimaning durdona asarlarini ham yaratishgan. Shu bilan birga, odatda, o'tmishda, tarjimadagi ijodiylik hattoki rag'batlantirilgan, tarjimonga bo'lgan kasbiy talablar esa faqat umumiy shaklda bayon etilgan.

Bugungi kun tarjimonlariga tamomila boshqacha talablar qo'yilmoqda. Ushbu holat dunyo miqyosida zamonaviy talablarga javob beradigan yuqori malakali tarjimon, tarjimashunoslarni yetishtirish zaruratini kunning dolzarb masalalaridan biri sifatida ilgari surmoqda. Mazkur o'quv qo'llanma aynan shu maqsadda yaratildi.

"Tarjimashunoslikning tadqiqot metodologiyasi" o'quv qo'llanmasining maqsadi sharq tillari bo'yicha tarjima nazariyasi va amaliyoti haqidagi bilimlarini rivojlantirish, malakali tarjimonga qo'yiladigan kasbiy va axloqiy talablar haqida ma'lumot berish, tarjimoni rejalashtirish, tarjima strategiyasi, tarjima uslubi va usullari,

---

<sup>1</sup>Каримов И. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.:Маънавият, 2008. – Б.138-139.

tarjima jarayonini modellashtirish masalalari haqida bilim berishdan iborat.

“Tarjimashunoslikning tadqiqot metodologiyasi” o‘quv qo‘llanmasining **vazifalari**:

- sharq tillaridan ona tiliga, ona tilidan sharq tillariga tarjima qilishning nazariy va amaliy qarashlari, tarjima usullari va modellari haqida tushuncha hosil qilish;

- tarjimonning mahoratini shakllantirishga xizmat qiladigan asosiy omillar va yo‘nalishlar haqida ma‘lumot berish;

- tarjimani rejalashtirish, tarjima oldi tahlili, tarjima va tarjimadan keyingi tahrirni amalga oshirishga o‘rgatish;

- tarjimaning turlari, turli tipdagi matnlarni tarjima qilishda qo‘yiladigan kasbiy va axloqiy talablarni shakllantirish;

- yozma va og‘zaki tarjima usullari, tarjimaning har xil modellari ni ma‘lum bir aniq matnlar hamda asarlarni qiyoslab o‘rganishga va tahlil etishga o‘rgatish.

“Tarjimashunoslikning tadqiqot metodologiyasi” kursini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

#### **Magistr:**

- tarjima turlari va uslublari;

- tarjima strategiyasi va tarjima bosqichlari;

- mahoratli tarjimonga qo‘yiladigan malakaviy va kasbiy talablar;

- tarjima modellari, tarjimani modellashtirish muammolari;

- sharq tillaridan ona tiliga, ona tilidan sharq tillaridagi turli uslubdagi matnlar tarjimasini amalga oshirishning asosiy o‘ziga xos xususiyatlari haqida **bilimlarga ega bo‘lishi**;

- o‘z kasbiy faoliyat sohalarida turli tipdagi matnlarning yozma va og‘zaki tarjima qilish;

- sharq tillaridagi matnlarni tarjima qilish uchun to‘g‘ri tarjima qilish usullarini tanlash;

- sharq tillaridan ona tiliga yoki ona tilidan sharq tillariga qilingan tarjimalarni asl matn bilan solishtirish, tarjimon mahoratini tahlil qilish;

- tarjima asarlarni asl matni bilan solishtirib, tarjimonlar yo‘l qo‘ygan kamchiliklarni aniqlash va ularni tahrir qilish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish **ko‘nikmalarini egallashi**;

- sharq tillaridan ona tiliga, ona tilidan sharq tillariga turli uslubdagi matnlarni tarjima qilish;

- yozma va og‘zaki tarjima usullarini amalda to‘g‘ri qo‘llash;

- sharq tillaridan tarjima qilish muammolarni aniqlash;
- tarjima asarlarni asl nusxasi bilan solishtirib tahlil etish;
- tarjima asarlarni mukammallashtirish bo'yicha takliflar berish;
- tarjima asarlarni baholash **malakalarini egallashi**;
- turli uslubdagi asl va tarjima matnlari asosida o'quv jarayonini tashkil etish;
- ilmiy, publisistik, so'zlashuv, rasmiy va badiiy tarjima matnlarini asl matni bilan solishtirib yuqori saviyada tarjima qilish;
- tarjima qilingan asarlar haqida xulosalar berish;
- tarjima nazariyasi bo'yicha berilgan nazariy bilimlarni amaliyotda to'g'ri qo'llash yuzasidan qarorlar qabul qilish **kompetensiyalarini egallashi lozim**.

O'quv qo'llanma besh bo'limdan tashkil topgan. 1-bo'lim "Tarjimashunoslik sohasining asosiy tushunchalari va tarjimon mahorati" deb nomlanadi mazkur bobda mahoratli tarjimon bo'lib yetishish uchun Tarjimaga o'qish va o'qitish zarurati haqida so'z ketadi. Xususan, "tarjima" tushunchasi va tarjimashunoslikning tadqiq yo'nalishlari to'g'risida ma'lumot beriladi. "Tarjimonning kasbiy kompetensiyasi va xulqiy talablari" deb nomlangan 2-bo'limda Tarjimon mahoratida kompetensiya masalalari, Tarjimon mahoratini shakllantiruvchi omillar, jumladan, Tarjimonlarning kasbiy axloqi mohiyati, Tarjimon mahoratidagi kasbiy yaroqlilik masalasi va kasbiy talablar masalalari ochib beriladi. 3-bo'lim "Tarjimon mahoratini shakllantirishning nazariy asoslari"da "tarjima strategiyasi" tushunchasi, matning tarjima oldi tahlili, tarjima natijalari tahriri masalalari tahlil etilgan. 4-bo'lim "Tarjima metodologiyasi" masalalarini o'rganishga bag'ishlangan. Bu bo'limda tarjima turlari, xususan, og'zaki va yozma tarjima turlari, tarjimada matnga ishlov berishning alohida ko'rinishlari, tarjima invarianti, tarjima birliklari, tarjimashunoslikda "usul" va "uslub" tushunchalari, tarjima usullari masalalari o'rganilgan. "Tarjima modellari" nomli 5-bo'limda tarjimashunoslikda qo'llaniladigan situativ-denotativ model, transformasion model, semantik model, shuningdek, Otto Kadening uch bosqichli tarjima modeli, tarjimaning interpretativ nazariyasi, sathlar ekvivalentligi nazariyasi tahlil etilgan.

Qo'llanmaga foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, glossariy va mustaqil ta'lim uchun savol va topshiriqlar kiritilgan.

O'quv qo'llanma yuzasidan taklif va fikr-mulohazalaringizni quyidagi elektron manzilga yuborishingizni so'raymiz: [aloliz74@mail.ru](mailto:aloliz74@mail.ru), [aloliz@yandex.com](mailto:aloliz@yandex.com).

# 1-BO'LIM

## TARJIMASHUNOSLIK SOHASINING ASOSIY TUSHUNCHALARI VA TARJIMON MAHORATI

**Maqsad:** malakali va mahoratli tarjimonni tayyorlash zarurati haqida tushuncha hosil qilish, "tarjima" tushunchasi va tarjima-shunoslikning asosiy tadqiq yo'nalishlari haqida ma'lumot berish.

### 1.1. Tarjimaga o'qish va o'qitish zarurati

**Tayanch so'z va iboralar:** *tarjima, o'rgatish, o'qitish, tarjimon, "tabiiy tarjima", "sof ikki tillilik", "aralash ikki tillilik", "muvofiq-lashtirilgan ikki tillilik", "subodinatsiyaga uchragan ikkililik", "tabiiy tarjimaga tug'ma qobiliyat"*

XX asrning ikkinchi yarmida vaziyat o'zgardi, jamiyatda, ilm va fanda "informasion portlash" ro'y berdi. Insonlar, xalqlar o'rtasidagi almashinadigan axborot hajmi keskin ortib ketdi. Xaritada yangi davlatlar paydo bo'ldi, ko'plab xalqaro tashkilotlar, xalqaro harakatlar, davlatlarning mintaqaviy ittifoqlari tashkil etildi, natijada xalqaro aloqalar borasida ko'p ishlar amalga oshirildi. Ilmu fan sohasidagi inqilob turli mamlakatlar o'rtasida ilmiy axborotni almashinishga ehtiyoj tug'dirdi. Xalqaro savdo-sotiq, diplomatik faoliyat, xalqaro yozishmalar hajmi ham ortdi. Xalqlar orasidagi madaniy aloqalar kengaydi, xalqaro turizm ommalashdi. Insoniyat hayotida yuz bergan bu o'zgarishlar tarjimonlar va tarjimalarga bo'lgan ehtiyojning misli ko'rilmagan darajada ortishiga olib keldi. Tarjimon kasbi ommalashdi va ko'p miqdorda malakali tarjimonlarga ham ehtiyoj tug'ildi. Bunday tarjimonlarni maqsadli va rejali tayyorlash uchun ko'p mamlakatlarda bo'lajak malakali tarjimonlarni tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari ochildi.

Ammo bo'lajak tarjimonlarni tayyorlash uchun quyidagi uchta savolga javob berish kerak: nima uchun tarjimaga o'rgatish kerak, nimaga o'rgatish kerak va qanday o'qitish kerak.

Birinchi savol ma'nisiz bo'lib ko'rinishi mumkin. Zero, yuqorida qayd etilganiday, tarjimonlarni tayyorlash jamiyatning yangi talablariga javob beruvchi muhim ijtimoiy vazifa sifatida maydonga chiqdi. Biroq tarjima qilishga o'rgatish imkoniyati va zaruriyatiga qarshi ikki xil zid c'tiroz ilgari suriladi. Bir tomondan, tarjima qilish uchun ikki

tilni va tarjima matni predmetini bilish yetarli. Demak, tillarni o'rganish va turli sohalardagi bilimlarini ko'paytirish orqali inson tarjima qilishni o'rganadi. Aslini olganda, chet tilini o'rgatishning ilk bosqichlarida o'qituvchi o'quvchilarga chet tilidagi alohida jumlar yoki matn bo'laklarini ona tiliga yoki aksincha tipdagi tarjimani bajarish vazifasini beradi. Va o'quvchilar tarjima qilishga maxsus o'rgatilmagan bo'lsalar-da, bu ishni bajarishga majbur bo'ladilar. Shu tariqa, tarjimaga maxsus o'rgatishga qarshi bo'lganlarning e'tirozi shundan iboratki, tarjima qilish ko'nikmasi til o'rganish jarayonida hamma ham yo'l-yo'lakay shakllanadi va chet tilini biluvchi har kim tarjimon bo'lishi mumkin. Ikkinchi tomondan, ushbu fikrga mutlaqo zid mulohazaga ko'ra, tarjima qilishga o'rgatib bo'lmaydi, chunki tarjima qilish qobiliyati musiqiy yoki adabiy qobiliyat singari xudo ato etgan tuhfa, shu sababli, shoir singari, tarjimon bo'lib tug'ilish kerak. Basharti tug'ma iste'dod bo'lsa –tarjimon bo'ladi, agar iste'dod tug'ma bo'lmasa, hech qachon yaxshi tarjimon bo'lib yetishmaydi. Shuning uchun faqat tanlangan kam sonli odamlargina tarjimon bo'lishi mumkin.

Bu ikki e'tiroz tarjimashunoslikning nazariy qarashlari bilan ham, amaliy natijalari bilan ham inkor etiladi. Albatta, "tabiiy tarjima" hodisalari mavjud, chet tilini biluvchi ayrim insonlar tarjima sohasida maxsus tayyorlovni o'tmagan bo'lmasa-da, chet tilidagi matn mazmunini tinglovchiga yetkazish qobiliyatiga ega. Ba'zi insonlarda tabiatan ato etilgan tarjimonchilik qobiliyati shu qadar rivojlangan bo'ladi, ular hattoki yetarlicha darajada malakali tarjimani qila olishadi. Hattoki ko'p vaziyatlarda "tabiiy tarjima" qobiliyati haqiqiy malakali kompetensiyaga zamin bo'lib xizmat qiladi. Biroq, tabiiy tarjima talablarga to'la javob bermaydigan, yetarlicha aniq bo'lmagan tarjima ekanligini ham unutmazlik darkor. Ayrim istisnolarni hisobga olmaganda tillarni va mavzu predmetini bilish malakali tarjimonga qo'yiladigan talablarni qoniqtirish uchun yetarli bo'lmaydi.

Ma'lumki, akademik L.V. Sherba ikki tillilikning ikki xil ko'rinishini farqlaydi: "sof ikki tillilik" va "aralash ikki tillilik". Keyinchalik tillar aloqalari nazariyasida ushbu termin mazmuniga yaqin – "muvofiqlashtirilgan ikki tillilik" va "subodinatsiyaga uchragan ikki-lilik" atamaları paydo bo'ldi. "Sof ikki tillilik" tizimida ikki til tizimi inson ongida bir-biriga aloqada bo'lmay turib, mustaqil mavjud bo'ladi hamda o'zaro ta'sir qilmaydi. So'zlovchi har ikkala til tizi-



midan erkin foydalanadi, ammo bir tilga ikkinchi tilda muqobil izlab topishda, qiyinchilikka duch keladi. L.V. Sherbaning taxmin qilishiga ko'ra, bu ko'rinishdagi ikki tillilik chet tilini erta, kichik yoshdalgida, "murabbiya usuli" asosida shakllantirish mumkin. Bunda muayyan bir odam bola bilan faqat chet tilida so'zlashadi, qolganlar esa ona tilida gapiradi. "Aralash ikki tillilik" chet tilini keyinroq o'rganish boshlanganida, ya'ni insonda ona tili asosida o'z tushunchalari tizimi shakllanganida yuzaga keladi. Bunda chet tili birliklari ona tili birliklari orqali o'zlashtiriladi va ular inson ongida o'zaro muvofiqlashadi. Bu ko'rinishdagi ikki til egasi mazkur tillar birliklari o'rtasidagi muqobillik munosabatini tez o'rnatadi, bir tildagi nutqqa ikkinchi tildagi so'z va iboralarni bemalol kiritib qo'llaydi. Ko'rinishdan, bu ikki tillilik "tabiiy tarjima"ga tug'ma qobiliyatga asoslanadi.

"Tabiiy tarjimaga tug'ma qobiliyat" tushunchasi anchadan biri ma'lum va chet tilini o'qitishda keng qo'llaniladi. O'quvchilarga chet tilidagi jummalarni tushunishini tekshirishda va o'rganilgan til birliklari hamda tuzilmalarini qo'llashga qaratilgan mashqlar shaklida tarjima topshiriqlari beriladi. Bunday o'quv tarjimalarida bir tildan ikkinchi tilga o'girish uchun tarjimonga tilga oid zaruriy bilimlarning o'zigina yetarli bo'lib, maxsus tarjima qilishga o'rgatish talab etilmaydi.

«Tabiiy tarjima» kundalik vaziyatlarda, masalan, chet tilini biladigan odam chet tilini bilmaydigan odam uchun mehmonxonada, magazinda, muzeyda vositachi tarjimon sifatida yordam berganida muvaffaqiyatli qo'llanilmoqda. Shunisi tushunarliki, na o'quv tarjimada va na kundalik tarjimada maxsus tayyorgarlik talab etilmaydi va bu yo'nalishda hattoki maxsus fandan dars berilishi ham ko'zda tutilmaydi.

Tarjimonlarni tayyorlovchi fanning yuzaga kelishi XX asrning ikkinchi yarmida yuzaga kelgan professional tarjimonlik faoliyatining ayrim xususiyatlari bilan bog'liq. Bu davrda tarjimon ishining sifatiga talab kuchaydi. Yuqori saviyada amalga oshirilgan tarjimalar asosida davlatlar miqyosidagi qarorlar qabul qilinadi, murakkab texnik operatsiyalar amalga oshiriladi, ko'p millionli shartnomalar tuziladi. Tarjimonning arzimagan xatosi ham jiddiy siyosiy munozaralar, texnik falokatlar yoki katta miqdordagi moliyaviy zararga olib kelishi mumkin. Badiiy tarjimalarga qo'yilgan talablar ham kuchaydi. Asar qahramonlarining ismlarini yoki voqea joylarini o'zgartirish, tarjima

qilinayotgan asarni “to‘g‘rilash” yoki “ijobiy lashtirish” maqsadida qo‘shimchalar kiritishga izn berilgan erkin tarjimalarning davri o‘tdi. Hozirgi zamonda tarjimondan asl asarning individual mualliflik uslubini saqlab qolish va aynan tarjimani amalga oshirish talab qilinmoqda.

Ayni shu paytda tabiiy tarjimaga bo‘lgan tug‘ma qobiliyatning yuqori saviyadagi tarjima uchun yetarli emasligi ma‘lum bo‘lib qoldi. Ikki tilni yaxshi egallagan, hattoki tarjima predmeti haqida ma‘lum darajada bilim va ma‘lumotga ega odamlar ham tarjimonlik qila olmasliklari kunday ravshan bo‘ldi. Bu esa tarjimonlarni yetishtirish masalasini kun tartibiga ko‘ndalang muammo siflatida qo‘ydi. Agarda avvallari kam sonli tarjimonlar amaliyotda zaruriy bilim va ko‘nikmalarni hosil qilish yoki biror tarjima ustasining xususiy shogirdi sifatida ish olib borish orqali, ya‘ni “tarjima qila turib tarjima qilishni o‘rganmoq” tamoyili asosida tayyorlangan bo‘lsa, yangi yuqori darajadagi kasbiy talablarga javob beradigan tarjimon mutaxassislarini ommaviy tarzda tayyorlash tarjimaga o‘rgatish bo‘yicha ta‘lim yo‘nalishlarini ochish, umumkasbiy, ixtisoslik va mutaxassislik fanlarini tayyorlash, ular bo‘yicha o‘quv dasturlari, o‘quv qo‘llanmalarini yaratish zaruriyatining dolzarb ekanligini ko‘rsatdi.

Ammo, tarjima qilishga o‘rgatish mumkinmi? Yuqori sifatli tarjimani amalga oshirish chet tilini o‘rganish jarayonida beixtiyoriy ravishda yuzaga keladigan “tabiiy tarjima” singari “tug‘ma qobiliyat” emasmikin? Axir, bejiz tarjimonning mahorati va qobiliyati haqida ko‘p gapirilmaydi. Ehtimol, yaxshi tarjimon bo‘lib tug‘ilish kerakdir?

Quyida biz tarjimaning maxsus bilimlar ko‘nikmalarga ega bo‘lishni taqozo etuvchi, ma‘lum darajada hissiy yondashuv asosida reallashuvchi, nutqiy-fikriy faoliyatning anchagina murakkab ko‘rinishi ekanligiga amin bo‘lamiz. Bunday bilim va ko‘nikmalarni egalash natijasida (o‘qish jarayonida yoki uzoq muddatli amaliyot olib borish orqali) tarjimachilik sohasidagi muammolarni kerakli shaklda hal qilish bo‘yicha hissiy qobiliyat shakllanadi. Albatta, bunday qobiliyatning shakllanishi va yuqori darajaga ko‘tarilishi ko‘p hollarda o‘quvchining individual xususiyatlariga bog‘liq bo‘ladi. Ehtimol, tarjimachilik faoliyati bo‘yicha tug‘ma qobiliyat sohiblarigina yuqori natijalarga erishishi mumkindir. Alohida iste‘dodli tarjimonlar maxsus tayyorgarliksiz ham yuqori saviyadagi mahoratni namoyish etgan holatlari ham kuzatiladi. Lekin bu boradagi tajriba tarjima qilish tug‘ma qobiliyati bo‘lmagan holatlarda ham bu yo‘nalishda tahsil oluvchilar

tarjimachilik sohasida yuqori malakalarga ega bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi. Shak-shubhasiz, tahsil olishning muvaffaqiyati, bu holda o'quv jarayonini to'g'ri tashkil etish, o'quv dasturlarini va o'qitish metodikasini to'g'ri tanlashga bevosita aloqador bo'ladi.

Demak, tarjimani alohida yo'nalish va fan sifatida o'qitish kerak bo'lib, tarjimonlik mahoratini faqat tug'ma qobiliyatga bog'lab bo'lmaydi. Bu holat umum tomonidan e'tirof etilgan haqiqat bo'lib, hozirda tarjimonlarni tayyorlaydigan oliy ta'lim muassasalarida tarjima nazariyasi va amaliyoti bo'yicha fanlar kiritilgan. Tarjima qilishga o'rgatish metodikasining asosida tarjima qilish va tillarni egallash qobiliyati insonda genetik jihatdan mavjud, shu bilan birga, har bir odamda ushbu qobiliyatlar turli darajada bo'lib, uni rivojlantirish va yuqori darajaga, hattoki mahorat darajasiga yetkazish mumkin, degan ishonch yotadi.

Tarjimaga o'rgatishning amaliy ahamiyati o'quvchilarda zaruriy tarjimachilik malakalarini shakllantirish bilan belgilanadi. Tarjimaga o'rgatishning, shuningdek, umumlingvistik va umumta'limiy vazifalari ham bor. Tarjima bilan shug'ullanish o'quvchilarda til birliklarining nozik semantik ma'no qirralari va konnotativ aspektlariga e'tibor qaratish, tillarning sistem tuzilmasi va faoliyat ko'rsatishdagi o'ziga xosliklarini, har bir til tomonidan yaratiladigan lisoniy manzaralar xossalari, turli til jamoalari vakillarining madaniyati va mushohada tarzidagi umumiyliklar va farqlarni ajratishga rag'batlantiradi. Tarjimonlik malakasining shakllantirilishi bo'lajak tarjimonlar shaxsining har tomonlama rivojlanishiga yo'l ko'rsatadi, ularda diqqatli, mas'uliyatli bo'lish, qo'shimcha manbalar va ma'lumotnomalardan foydalanish, tanlash, tez qaror-qabul qilish, ko'plab lingvistik va ekstralingvistik omillarni aniqlash va qiyoslash hissiyotlarini shakllantiradi.

Tarjimonlarni yuqori malakali qilib tarbiyalash yuqori madaniyatni, keng ensiklopedik bilimni, keng qamrovli qiziqishlar, bilimlarning doimiy to'ldirilib borilishi, muloqotga kirishuvchanlik kabi talablarni qo'yadi. Bu belgilarning barchasi ikki tilda va ikki madaniyatda namoyon bo'ladi.

Tarjimaga o'rgatish ko'p hollarda talabalarning til tayyorgarligi bilan belgilanadiki, bu bilan bog'liq ravishda ikki o'quv vaziyati mavjud. Birinchi vaziyatda tahsil jarayonlarida asl nusxa tilida ham, tarjima tilida ham erkin so'zlashuvchi talabalar ishtirok etadi. Bu holatda

tarjimaga o'rgatish sof tarjimonlik kompetensiyalarini shakllantirish, til vositalarini tillararo muloqotning turli bosqichlarida qo'llash, tarjimonlik ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga yo'naltiriladi.

Ikkinchi vaziyatda tarjimaga o'rgatish tarjima tilini yetarlicha bilmagan talabalar uchun mo'ljallangan bo'lib, bunda butun o'qish jarayoni mazkur chet tilini o'qitish bilan parallel ravishda olib boriladi. Mazkur vaziyatda talabalarda yetarlicha til tayyorgarligining yo'qligini, tarjimonlik faoliyatiga o'rgatish chet tilini o'rganish bilan birgalikda olib borish kerakligini diqqat markazida tutishga to'g'ri keladi.

Tarjimaga nima uchun o'qitish kerak, degan savolga javob shu tariqa beriladi. Nimaga o'qitish kerak, tarjima kursining mazmuni qanday bo'lishi kerak, degan savollarga javob topish ham kam muammoga sabab bo'lmaydi.

Birinchi navbatda, har qanday o'quv fani mazmuni o'qishning yakuniy maqsadi va o'rganilayotgan predmetning o'ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadi. Tarjimonchilik faoliyatining mohiyati bo'lajak tarjimonlarni tayyorlash dasturining negizida yotuvchi tarjima nazariyasini tadqiq etish, o'rganish va tavsiflashga qaratiladi. Ammo tarjima kursining maqsadi talabalarga nazariy bilimlar yig'indisini yetkazishdan emas, balki yuqori malakali tarjimonlarni tayyorlashdan iborat. Shuning uchun ta'lim yo'nalishining katta qismi tarjimonlarning kasbiy tayyorgarligiga, ya'ni tarjima strategiyasi va texnikasining unsurlarini egallash, murakkabligi turli darajada bo'lgan matnlarni o'girish tajribasini orttirishga qaratiladi. Bu ish negizida mutarjimning bilim va ko'nikmalarining hajmi va xarakterini belgilab beruvchi kasbiy kompetensiyasi konsepsiyasi yotadi.

Tarjimashunoslik fani mazmunining aniq tuzilmasi ushbu fanning oliy ta'lim muassasasi o'quv rejasida tutgan o'rni va unga ajratilgan soatlarga asosan quriladi.

Har qanday fanni o'qitishning natijalari nafaqat ta'limning maqsad va mazmunining to'g'ri tanlanishi, balki bu fanni qanday o'qitilishiga ham bog'liq bo'ladi. Tarjimaga o'qitishning metodikasi hozirga qadar ishlanmagan mavzu bo'lsa-da, bu borada ayrim fikrlar bildirilgan. Ularning ayrimlari quyida ham keltiriladi.

Tarjimaga o'qitishni tashkil etish usullari bir qancha farazlarga asoslanadi: .

1. Tarjima murakkab va ko'p qirrali aqliy faoliyat ko'rinishi bo'lib, turli maqsadlarga yo'naltiriladi, har xil sharoitlarda, turli usullar

bilan, farqli omillar ta'sirida amalga oshiriladi.

2. Har qanday faoliyat singari, tarjima o'qish jarayonida ma'lum bir bilimlar, ko'nikmalar (muayyan harakatlarning ongli ijrosi) va malakalar (muayyan harakatlarning yarim avtomat yoki avtomat tarzda bajarilishi)ning reallashuvini talab etadi.

3. Tarjimonlik faoliyati tarjimon tomonidan ongli ravishda (asl matn tahlili va asosli xulosalar natijasida) yoki ichki hissiyotga tayanib amalga oshirilishi mumkin. Turli matnlarni farqli shart-sharoitlarda har xil tarjimonlar tomonidan tarjima qilishda ongga va ichki hissiyotga asoslanish darajasi ham tafovutlanadi. Ongga va ichki his-tuyg'ularga asoslangan holda tarjima qilish qobiliyati (tarjimon malakasi) ta'lim jarayonida va amaliyotda rivojlantirilishi mumkin.

4. Tarjimonlik malakasining reallashuvi tarjimondan yuqori darajadagi bilimdonlikni taqozo etadi. Bunda har tomonlama kognitiv va lingvistik bilimlar, keng umummadaniy aql-zakovat, zaruriy ruhiy sifatlarni nazarda tutiladi. Ushbu sifatlarning barchasi tarjimaga o'rganish jarayonida rivojlantirilishi va rag'batlantirilishi zarur.

5. Tarjimaga o'rgatishdan maqsad – tarjimon har qanday vaziyatda ham avtomatik tarzda tatbiq etishi mumkin bo'lgan qandaydir me'yor, qoida yoki reseptlarni egallashi emas, balki tarjimaning tamoyillari, usullari va uslublarini o'rganish, aniq shart-sharoitlarda turli matnlar tarjimasida ularni to'g'ri tanlab ishlatish mahoratini shakllantirishdan iborat. Tarjima jarayonida mutarjim tomonidan hal qilinadigan xususiy vazifalar ikki xil – tipik va individual bo'lishi mumkin. Tipik vaziyatlarda tarjimon avvaldan o'ziga tanish bo'lgan tarjima usulini qo'llashi mumkin. Individual vaziyatlarda asl matnda tasvirlangan vaziyat va kontekstni hamda tarjimonlik strategiyasining umumiy tamoyillari negizidagi yangicha yondashuvlar talab etiladi. Tarjimada qay usulni qo'llash bo'yicha izlanish olib borish tanish uslubni qo'llash yoki uni o'zgartirib ishlatish yoxud umuman yangicha uslubda o'girish imkoniyatlarini ham o'z ichiga oladi.

6. Birlamchi asl matndagi axborot tarjimachilik faoliyatining ob'ekti hisoblanadi. Matn mazmuni (axborot) semantik va shakliy jihatdan tugallangan butunlik bo'lib, uning komponentlari o'zaro aloqador bo'lishiga qaramay muloqot uchun bir xilda ahamiyatli emas. Butun va bo'laklarning o'zaro munosabati tarjimaning turi va ko'zlangan maqsadiga ko'ra tarjima jarayonida farqli shakllarda

namoyon bo'ladi. Matnning alohida unsurlari ahamiyati darajasiga ko'ra tarjimada nisbatan to'liq va aniq ifodalanishi mumkin. Shu ma'noda butun uning bo'laklariga qaraganda ko'proq yoki kamroq ahamiyatga ega bo'lishi (bo'lmasligi) mumkin.

7. Matnni tashkil etuvchi birliklar alohida olinganda tarjima ob'ekti emas, ammo ular orqali matn mazmuni shakllanadi. Ya'ni matndagi muayyan til vositalarining ishtiroki semantik ahamiyatga ega bo'lib, tarjima vazifalari xarakterini belgilab berishi va tarjima uchun alohida qiyinchiliklarni tug'dirishi mumkin. Bu ma'noda til birliklarining ma'nosini tarjimada berishda ularni matnning keng miqyosli mazmunining qismlari sifatida ifodalash muammosi vujudga keladi.

8. Ko'rsatilgan o'zaro munosabat tarjimaga o'qitishda qo'llaniladigan foydalaniladigan o'quv materiallarining xarakterini belgilab beradi. Birinchi navbatda, o'quv tarjimasini malakali tarjimon ishi darajasiga yaqinlashtirish imkonini beradigan turli tipdagi matnlar, ikkinchi o'rinda, eng kichik zaruriy kontekst tarjimasidagi tipik vazifalar va qiyinchiliklarni ajratishga ko'mak beradigan jumlarlar, matn parchalari qo'llaniladi.

9. Tarjimaga o'rgatish jarayonida o'quv materialini (matn, gap, so'z) o'g'irish usullari emas, balki tarjimaning tipik vazifalarini hal qilish usullari va individual ijodiy yechimlarni topish strategiyasi o'rganilishi zarur. Ayni ma'noda tarjimaga o'rgatish o'quv materialida tarjimaning tipik vazifalarini ajratish, umumiy tamoyillarni va ularni hal qilishning xususiy uslublarini shakllantirish qobiliyatini taqozo etadi. Tarjimaning turli ko'rinishlarida har bir tipi uchun umumiy tamoyillar va uslublar bilan bir qatorda spesifik usullar ham ishlatilishi mumkin.

10. Millatlararo muloqot xarakteri asl matnning ayni bir bo'laklarining tarjimasi ko'p variantli bo'lishini taqozo etadi. Shu sababli, ta'lim jarayonida talabalar oldiga asl matnning yagona to'g'ri nusxasini yaratish vazifasi qo'yilmaydi. Shu bilan birga, ta'lim jarayoni o'quv tarjimalarini tanqidiy baholash va qabul qilib bo'lmaydigan nusxalarni inkor etish vazifalarini ham o'z ichiga oladi. O'qituvchi oldiga asl matn va tarjima matnini qiyosiy-semantik, kontekstual, lingvomadaniy va stilistik tahliliga asoslangan, nomaqbul nusxalarni ko'rgazmali rad etish vazifasi qo'yiladi. Bunday tahlil talabdan tarjimashunoslik va tilshunoslikning zarur atamalarini bilishni talab etadiki, mazkur bilimlar mutanosib nazariy fanlarni o'rganish orqali

egallanadi. Talaba uchun noma'lum bo'lgan atamalar va tushunchalarga oid bilimlar tarjimashunoslik fanlarida o'qituvchi izohlari orqali to'ldirilib boriladi.

### Nazorat uchun savollar

1. Sizningcha, tarjimaga o'qitish nimadan boshlanishi zarur?
2. "Tabiiy tarjimaga tug'ma qobiliyat" haqida nima deb o'ylaysiz?
3. Malakali tarjimon bo'lish uchun "sof ikki tillilik" yetarli bo'ladimi?
4. "Aralash ikki tillilik" yuqori saviyali tarjimani amalga oshirish uchun qanchalik foydali, deb o'ylaysiz?
5. Shaxsiy tajribangizga ko'ra, sharq tilidan tarjima qilishda qnday muammolarga duch kelgansiz?

### 1.2. "Tarjima" tushunchasi va tarjimashunoslikning tadqiq yo'nalishlari

**Tayanch so'z va atamalar:** *Tarjima, tilshunoslik sohasidagi tarjimashunoslik, adabiyotshunoslik sohasidagi tarjimashunoslik, mashina tarjimasi (amaliy, injenerlik tarjimasi), axborot, muqobillik, tarjimaning umumiy nazariyasi, tarjimaning xususiy nazariyasi, tarjimaning maxsus nazariyasi, Tarjima tanqidi, tarjimaga o'qitish metodikasi.*

Tarjima insonlarning eng qadimgi faoliyat turlaridan biri hisoblanadi. Tillar o'rtasidagi farq insonlarni ushbu og'ir, biroq zaruriy mehnat bilan shug'ullanishiga sabab bo'lgan. Zero, tarjima xalqlar o'rtasidagi muloqot va ma'naviy qadriyatlar bilan almashinuv vositasi bo'lib xizmat qilgan va bugungi kunda ham xizmat qilmoqda.

"Tarjima" so'zi ko'p ma'noli bo'lib, uning ikki ma'nosini atama sifatida qabul qilishimiz mumkin. "Tarjima" atamasi bir tildagi mazmunni ikkinchi tilga muayyan til vositalari yordamida o'girish jarayoni bo'lgan aqliy faoliyatni bildiradi. Ushbu jarayonning natijasi – yozma yoki og'zaki tarjima matni ham "tarjima" atamasi orqali ifodalanadi. Bu ikkala tushuncha bir-biridan farq qilsa-da, dialektik aloqadagi bir butunlikni hosil etadi, ularning biri ikkinchisiz yuzaga kelmaydi. Shu o'rinda qayd etish kerakki, tilshunoslikda "tarjima"ga qaraganda keng ma'noli bo'lgan "ikki tilli kommunikatsiya" tushunchasi

ham mavjud. Unda asosiy o‘rinni lisoniy vositachilik egallaydiki, tarjima ham, qayta so‘zlab berish ham, yozma bayon etish ham, moslashtirilgan jumlar ham aynan shu tushuncha tarkibiga kiradi.

Hozirgi paytda dunyo tillarida qo‘llanilayotgan, masalan, roman tillaridagi traduction (*fr.*), traduccion (*ucn.*), traducao (*port.*), traduzione (*it.*), “tarjima qilmoq” (traduire, traduir, traduzir, tradurre) va «tarjimon» (traducteur, traductor, tradutor, traduttore) tushunchalari,<sup>1</sup> faqat XVI asrdagina paydo bo‘lgan. Bu davrgacha qayd etilgan tushunchalar boshqa so‘zlar bilan berilgan.

Tarjimashunoslik sohasining taraqqiyotida uch asosiy yo‘nalish ko‘zga tashlanadi:

- tilshunoslik sohasidagi tarjimashunoslik;
- adabiyotshunoslik sohasidagi tarjimashunoslik;
- mashina tarjimasi (amaliy, injenerlik tarjimasi).

Tilshunoslar asosiy e‘tiborni tarjima jarayonini o‘rganish, tarjimaning gipotetik modellarini yaratish, asl matn va tarjima matnini solishtirish orqali leksik, grammatik va matniy muqobilliklarni aniqlash, tarjimashunoslik qonuniyatlarini aniqlash, asl matn mazmunini berishdagi tarjima usullarini tavsiflash, tarjimada ekvivalentlikni belgilovchi mezonlarni axtarish, tarjimaga o‘qitishning samarali usullarini aniqlash kabi masalalarni o‘rganishga qaratishdi.

Adabiyotshunoslar tarjimaning akseologik aspektlarini<sup>2</sup> tadqiq etishni diqqat markazlarida tutishdi. Odatda ular badiiy asarlarni tarjimalari bilan solishtirib o‘rganish va tarjimaning asl nusxaga estetik nuqta nazardan muqobilligi darajasini baholash, tarjima tilining ma‘naviy madaniyatning rivojida tutgan o‘rnini belgilash,

---

<sup>1</sup> Кайд этиш керакки, масалан, ҳозирги испан тилида таржима жараёнини ифдалаш учун икки атама ишлатилади: traduccion ва interpretacion. Бу сўзларнинг биринчиси умуман “таржима”, “ёзма таржима”, “таржима натижаси бўлган матн” маъноларига эга, иккинчиси эса “изоҳлаш ва таржима қилиш” маъносини билдиради. Шу сабабли ёзма таржимани амалга оширувчиларни испанлар кўпинча traductor, оғзаки таржимонни interpreter деб чақирашади.

<sup>2</sup> Аксиология (қадимги юнонча “қадрият” сўзидан) – фалсафанинг бўлими бўлиб, қадриятлар назарияси маъносини билдиради. Аксиология қадриятлар табиати, уларнинг воқеликдаги ўрни ва роли, турли қадриятларнинг ўртасидаги алоқалар, ижтимоий ва маданий омиллар билан шахсият ўртасидаги муносабатни тадқиқ этади.



tarjimaning davr axloqiy ehtiyojlariga mutanosibligi darajasini tahlil etish kabi masalalar bilan shug'ullanishdi. Adabiyotshunoslar va badiiy adabiyot tarjimonlarining ko'plab ishlari tarjimachilik faoliyatining kasbiy masalalarini o'rganish, tarjimachilik sohasidagi tajriba almashinuv, ma'lum bir tarjima asarlarning yutuqlari va nuqsonlarini baholashga bag'ishlangan.

Mashina tarjimasi yo'nalishi avtomatik tarzda tarjimani amalga oshirish g'oyasi kuchaygan bir davrda paydo bo'ldi va amaliy ahamiyat kasb etdi. Bu yo'nalish mashina tarjimasini modellashtirish muammolari bilan shug'ullanadi, xususan, vositachi til yordamida tarjima qilish yoki uch bosqichli (analiz – qayta shakllantirish – sintez), tarjimani modellashtirish, insonning tarjimonlik faoliyatini qoliplashtirish, lisoniy ma'lumotga samarali qayta ishlov berish usullari topish, tilning sintaktik qurilmalarini aniqlash, leksik birliklar ma'nolarini tavsiflash, ma'lum bir elektron moslama uchun bir tildan ikkinchi tilga o'girish dasturlari va algoritmlarini tuzish kabilar ham aynan mashina tarjimasi yo'nalishining vazifalaridan sanaladi.

Mazkur yo'nalishlar bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlardan adabiyotshunoslik va tilshunoslikka oid ishlarning bir-biri yaqin ekanligini ko'rishimiz mumkin. Masalan, adabiyotshunoslikka oid masalalar tahlilida, xususan, badiiy asar tadqiqida tilshunos estetik baholar va adabiyotshunoslikdagi qarashlarga ham murojaat qiladi. Tarjima bo'yicha tadqiqot olib borayotgan adabiyotshunosning tilshunoslik tushunchalariga e'tibor qilmasligi mumkin emas. Shu sababli bu ikki yo'nalishni bir soha – filologiya sohasida o'rganish maqsadga muvofiq.

“Tarjima” atamasi tadqiqot maqsadlari va olimlariga qarashlariga bog'liq ravishda ta'riflangan. Masalan, rus tarjimashunosligi asoschilaridan biri bo'lgan A. V. Fedorovning e'tirofiga ko'ra, tarjimaning tadqiq materialini o'laroq «faqat nutqiy asar bo'lgan matnlar xizmat qiladi»,<sup>1</sup> ayni chog'da tarjima «bir til vositalari orqali ifodalangan mazmunni ikkinchi til vositalari yordamida to'liq va to'g'ri ifodalash» qobiliyatidir.<sup>2</sup> Struktur tadqiqotlar tarafdori bo'lgan A. A. Chernyaxovskaya “tarjima” bu, «nutqiy asar tuzilmasining qayta shakllanishi bo'lib, mazkur faoliyat natijasida mazmun plani o'zgaragan holda ifoda shakli o'zgaradi, bir til ikkinchisi bilan al-

<sup>1</sup> Федоров А. В. Основы общей теории перевода. М., 1983. – С. 10.

<sup>2</sup> Там же. – С. 10.

mashadi»<sup>1</sup>. Tarjimaga denotativ yondashish tarafdorlarining fikriga ko‘ra, tarjima «asl matn tilida tavsiflangan denotatlarni tarjima tili yordamida bayon etish»dir»<sup>2</sup>; transformasion usul tarafdorlari tarjima – bu «boshlang‘ich til (asl matn tilining) birliklari tuzilmalarini tarjima tili birliklari va tuzilmalariga aylantirish» degan fikrni ilgari surishadi»<sup>3</sup>, semantik nazariya tarafdorlarining ta‘kidlashicha, tarjimaning vazifasi «asl matn va tarjima matni mazmunlari o‘rtasidagi muqobillik munosabatlari mohiyatini ochib berish»dan iborat<sup>4</sup>.

V.V.Vinogradov “tarjima” tushunchasiga quyidagicha ta‘rif beradi: “ijtimoiy zaruriyat tufayli yuzaga kelgan, bir tildagi yozma yoki og‘zaki matnlarda ifodalangan axborot (mazmun)ni boshqa tildagi muqobil matn orqali yetkazish jarayoni va natijasi tarjima” hisoblanadi. Bu ta‘rifga qo‘shimcha izoh berish zarur.

Birinchidan, “axborot” deyilganda, asl matnning butun mazmuni, g‘oyasiga taalluqli bo‘lgan va tarjimada aks ettirish majburiy bo‘lgan barcha xususiyatlar, shuningdek, uslubiy, emotsional-ekspressiv, funksional, baho berish, janrga oid belgilar, asarning estetik yuki tushuniladi. Shu tarzda, axborot deyilganda, kibernetikada o‘rganiladigan emas, balki o‘lchanadigan tushunchalar anglashiladi. N.Vinerning qayd etishiga ko‘ra, «axborot – tashqi dunyoni bizga tanishtirish hamda hissiyotlarimizning unga moslashishi jarayonida qabul qilingan mazmun belgisidir»<sup>5</sup>. Boshqacha qilib aytganda, kibernetikada axborot bilan emas, balki axborotning mutanosib keluvchi so‘zlar, belgilar, ramzlar va boshqalar orqali moddiy ifodasi bilan ish ko‘rishadi. Axborot miqdorining kibernetik o‘lchovi ixtiyoriy belgi yoki ishoraning real mazmuni, so‘z orqali ifodalanadigan ma‘no va hislardan ajralgan, ya‘ni aynan biz uchun bosh tadqiqot ob‘ekti bo‘lgan tushunchalardan ajralib chiqqan.

Ikkinchidan, “muqobillik” deyilganda, asl matnning janridagi o‘ziga xoslik, xususan, undagi turli-tuman axborotning tarjima matnida nisbatan eng to‘liq va aniq saqlangan ko‘rinishi tushuniladi. Faqatgina xizmat ko‘rsatuvchi tildagi ichki ma‘lumotlar tarjimada aks


<sup>1</sup> Черняховская Л. А. Перевод и смысловая структура. -М., 1976. – С. 3.

<sup>2</sup> Комиссаров В. Н. Слово о переводе. М., 1973. – С. 32.

<sup>3</sup> Там же. – С. 38.

<sup>4</sup> Там же. – С. 42-43.

<sup>5</sup> Винер Н. Кибернетика и общество. М., 1958. – С. 51



etmaydi, chunki ular faqat u yoki bu til tizimigagina xos bo'lgan "bo'sh" grammatik kategoriyalar haqidagi ma'lumotni tashiydi (masalan, jins kategoriyasi, sifatning kelishik, son va jins kategoriyasi, ayrim olmoshlar). Tarjimaning asl matnga muqobilligi nisbiy tushunchadir. Muqobillik darajasi va spesifikasi tarjima qilinayotgan matnning janri va tarjima usuliga bog'liq ravishda o'zgaradi. Zotan, ilmiy, rasmiy, badiiy uslubdagi matnlar tarjimalariga ham turlicha talablar qo'yiladi.

**Tarjima nazariyasi** yoki **tarjimashunoslik** sohasiga fan sifatida ko'p vaziyatlarda quyidagi vazifalar qo'yiladi:

- Tarjima jarayoni va uning qonuniyatlarini o'rganish;
- Muayyan asl matnlar va ularning tarjimalarini solishtirish, natijalarni umumlashtirish va bir tizimga solish orqali turli darajadagi tillararo muqobillikni mohiyatini, xarakterini va doimiylikni aniqlash;
- Tarjima usullari va uslublarini tavsiflash;
- Tarjima nazariyasi va amaliyoti tarixini o'rganish;
- Milliy madaniyatning rivojidadagi tarjima rolini ko'rsatib berish.
- Tadqiqot ob'ekt o'laroq turli ko'rinishlardagi tarjima jarayoni, har xil uslubdagi tarjima matnlari va ularning asl nusxalari xizmat qiladiki, ularni qiyoslab o'rganish tarjima nazariyasining taraqqiyoti uchun ob'ektiv manba vazifasini o'taydi.

Tarjimashunoslikning bir necha asosiy bo'limlari mavjudligi e'tirof etiladi:

**Tarjimaning umumiy nazariyasi** tarjima jarayonining universal qonuniyatlarini tadqiq etadi, va umuman olganda, tarjima qilinayotgan matnlarning janriga bog'liq ravishda tillararo, uslubiy, funksional va boshqa muqobilliklarning nazariy asoslarini belgilash, og'zaki va yozma tarjimalar spesifikasini aniqlash kabi masalalarni tahlil etadi. A. V. Fedorov tarjimaning umumiy nazariyasini «turli tillardan turli tillarga har xil tipdagi materiallarni tarjima qilishda tatbiq etiladigan umumlashtirish tizimi» sifatida ta'riflagan<sup>1</sup>.

**Tarjimaning xususiy nazariyasi** ma'lum bir tildan boshqa bir tilga tarjima qilishning o'ziga xosliklari, aniq til birliklari va hodisalari o'rtasidagi muqobilliklar tiplari, okkazonal nutqiy muqobilliklar ko'rinishlari, tarjimonlarning individual uslublari va boshqalar masalalar bo'yicha tadqiqot olib boradi. Boshqacha qilib aytganda, bu soha

<sup>1</sup> Федоров А. В. Основы общей теории перевода. – С. 20.

«aniq bir tildan ikkinchi bir tilga tarjima qilish, shuningdek, materiallarning aniq ko‘rinishi tarjimasini bo‘yicha tadqiqotlar natijasining jamlanmasidir»<sup>1</sup>. Albatta, umumiy va xususiy tarjima nazariyalari o‘zaro uzviy aloqadi. Tarjimaning xususiy nazariyalari boy empirik materialga asoslanadi va xulosalari bilan tarjimaning umumiy nazariyasini boyitadi. Albatta, umumiylik va xususiy ma’lum bir o‘rinda o‘zaro bog‘liq bo‘ladi.

**Tarjimaning maxsus nazariyasi**, deganda tarjimonlik faoliyatining turli ko‘rinishlarini (yozma tarjima, og‘zaki tarjima, sinxron tarjima, tadrijiy tarjima, abzas-jumlali tarjima va h.), shuningdek, tarjima qilinayotgan ishning janriga bog‘liq (badiiy asar, ilmiy, texnik, publisistik asarlar) o‘ziga xosliklar, qonuniyatlarni o‘rganuvchi sohani nazarda tutiladi.

**Tarjima nazariyasi va amaliyoti tarixi** tarjimonlik faoliyatining asosiy yo‘nalishlari va tarixiy bosqichlari, tarjimalarni davrlashtirish, tarjimaning mohiyati haqidagi tasavvurlarning tadqiqi, tarjima asarlarining milliy adabiyot taraqqiyotidagi roli singari masalalarni o‘rganadi.

**Tarjima tanqidi** sohasi tarjimoni qabul qilayotgan madaniyat uchun muhim ahamiyat kasb etadigan tarjimaning asl nusxaga mutanosibligi darajasiga baho beradi. Bu yo‘nalish odatda badiiy asar tarjimalari bilan shug‘ullanadi va tarjimashunoslikning alohida ilmiy asoslangan bo‘limi sifatida endi shakllana boshlandi.

**Mashina tarjimasini nazariyasi** tarjimashunoslikda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu yo‘nalishda ish olib boruvchilar tabiiy tarjima jarayonini modellashtirish, tarjima qiladigan mashinalar, shuningdek, turli tillardagi leksik-grammatik va semantik muqobiliklar haqidagi ma’lumotni saqlovchi injenerlik moslamalarini yaratishga urinish kabi masalalarni o‘rganishni maqsad qilishadi. Mashina tarjimasini nazariyasi informatika, kibernetika, matematika, semiotika singari sohalar natijalariga asoslanadi.

Tarjimashunoslik **tarjimaga o‘qitish metodikasi** sohasi bilan chambarchas bog‘liq. Bu soha bir tildan ikkinchi bir tilga yozma va og‘zaki tarjima qilishning ko‘rinishlari hamda tiplariga o‘rgatishning eng maqbul usullarini ishlab chiqadi. Ayrim tadqiqotchilarning fikricha<sup>2</sup>, zamonaviy tarjimashunoslikda yana ikki

---

<sup>1</sup> Там же.

<sup>2</sup> Қаранг: Попович А. Проблемы художественного перевода. М., 1980. – С. 28.

bo‘lim mavjud: tarjima sotsiologiyasi, tarjima tahriri, tarjima tanqidi metodologiyasini o‘z ichiga oluvchi **tarjima praktikologiyasi**, tarjimonlarni tayyorlash va tarjimonlar uchun o‘quv qo‘llanmalar yaratish masalalarini tadqiq etuvchi **tarjima didaktikasi** bu so‘nggi tilga olingan bo‘lim yuqorida qayd etilgan tarjimaga o‘qitish metodikasi yo‘nalishiga mos keladi.

Avval qayd etilganidek, tarjimashunoslikda inson ongida ro‘y beradigan tarjima jarayoni ham, mazkur jarayonning natijalari bo‘lgan nutqiy asarlar, matnlar ham tadqiq etiladi. Aynan tarjima materiallari tarjima jarayonining moddiy ko‘rinishi bo‘lib, kommunikativ va tarjimachilik qonuniyatlari, asl matndagi turli-tuman ma‘lumotni tarjimada muqobil ifodalash usullari va uslublarini aniqlashga ko‘mak beradigan qiyosiy tahlil uchun asos vazifasini ado etadi. Demak, tarjimashunoslik muayyan mavzular va ma‘lum bir materiallar ustida ish olib borishda fanlararo yondashuvga ehtiyoj sezadi. Tarjimashunoslikda tilshunoslik, adabiyotshunoslik, tarix, sotsiologiya, psixologiya, etnografiya, semiotika, informatika va yana bir qator fanlar natijalaridan foydalaniladi. Ammo muhimi shundaki, tarjimashunoslik bir til jamoasining ma‘naviy madaniyati asarlarini boshqa til jamoasiga yetkazish jarayonlarini tadqiq etish, yozma va og‘zaki tarjimalarni asl matnlari bilan turli mezonlar asosida solishtirib o‘rganishni mo‘ljallaydi. Mazkur fikrlar tarjimashunoslikning tadqiqot ob‘ekti inson ma‘naviy madaniyatining jamiyatdagi ifodachilari bo‘lgan til va matn bo‘lgan gumanitar fanlar sirasiga kirishini yana bir bor dalillaydi.

### **Nazorat uchun savollar:**

1. “Tarjima” atamasiga berilgan ta’riflardan misollar keltirib, tahlil eting. O‘z fikringizni bildiring.

2. Tilshunoslik sohasidagi tarjimashunoslik va adabiyotshunoslik sohasidagi tarjimashunoslik o‘rtasidagi farq va umumiy xususiyatlarni sharhlang.

3. Mashina tarjimasi (amaliy, injenerlik tarjimasi) nima bilan shug‘ullanadi? Bu sohaning afzalligi va kamchiliklari nimada namoyon bo‘ladi?

4. “Axborot” va “muqobillik” tushunchalarini izohlang.

5. Tarjimaning soha yo‘nalishlarini tavsiflang.

## 2-BO‘LIM

### TARJIMONNING KASBIY KOMPETENSIYASI VA XULQIY TALABLARI

**Maqsad:** tarjimon mahoratini shakllantirishdagi kompetensiya, xulqiy va kasbiy talablar o‘rni va ahamiyati haqida tushuncha berish.

#### 2.1. Tarjimon mahoratida kompetensiya masalalari

**Tayanch so‘z va iboralar:** *malaka, kompetensiya, lisoniy kompetensiyasi, kommunikativ kompetensiyasi, ikki tilli muloqot, muloqot, matn, tarjimon strategiyasi.*

Tarjimon o‘z ishini yuqori malakali va sifatli bajarishi uchun bir qator malakalarga – kompetensiyalarga ega bo‘lmog‘i zarur. Tarjimon kompetensiyalariga quyidagilar kiradi:

1. Muloqot ishtirokchilarining lisoniy kompetensiyasi.
2. Kommunikantlarning kommunikativ kompetensiyasi.
3. Kommunikantlarning matn shakllantiruvchilik kompetensiyasi.
4. Ikki tilli muloqot xususiyatlari.
5. Tarjimonlik faoliyatining turli yo‘nalishlarga oidligi.

Quyida ushbu kompetensiyalar va tarjimondan talab etiladigan qobiliyatlar haqida so‘z yuritiladi:

**Muloqot ishtirokchilarining lisoniy kompetensiyasi.** Lisoniy (verbal) shakldagi muloqotni amalga oshirish mazkur muloqotning maqsad va sharoitlariga mutanosib shaklda til vositalarini to‘liq ishlatishni taqozo etadi. Kommunikantlar til orqali fikr almashinishlari uchun ularning xotiralarida bu til haqidagi bilim, til birliklarining shakl va ma‘nolari saqlanishi kerak. Bir odamning tilni ayni darajada bilishi uning lisoniy malakasini tashkil etadi. Ushbu lisoniy malaka mazkur til jamoasi vakillari qo‘llaydigan til vositalarini ozmi-ko‘pmi, ma‘lum darajada in‘ikos ettiradi. Inson lisoniy malakasining darajasi qanchalik yuqori bo‘lsa, u verbal muloqotning har xil ko‘rinishlarida shu darajada muvaffaqiyat bilan qatnashishi mumkin.

Bilamizki, til muloqot vositasidir. Shu bilan birga, til turli shakliy va mazmuniy munosabatlar bilan bir-biriga bog‘langan murakkab belgilar tizimi sifatida namoyon bo‘ladi. Har bir lisoniy belgi muayyan tovush qobig‘iga ega bo‘lib, u shartli ravishda grafik jihatdan ifodalanishi mumkin. Shuningdek, ushbu tilni qo‘llovchilar

xotirasida muayyan belgi shakli orqali ma'lum bir ma'no, fikr ifoda etiladi. Tildan foydalanuvchilar til belgilarini farqlash (identifikatsiyalash) va ularning ma'nolarini eslab qolish qobiliyatiga ega-dirlar. Lisoniy malaka tushunchasi til tizimidagi turli belgilarning shakllari va ma'nolari o'rtasida mavjud bo'lgan aloqalarni (paradigmatik aloqalar), shuningdek, belgilarni muloqot jarayonida birgalikda qo'llashda vujudga keladigan aloqalar (sintagmatik aloqalar)ni o'z ichiga oladi. Til belgilarning muloqot jarayonida qo'llanilishi "nutq" deb nomlanadi. Til tizimidagi belgilar o'rtasidagi aloqalar yig'indisi mazkur til tuzilmasini tashkil etadi. Til tuzilmasi til belgilarining birgalikda qo'llanilishining eng maqbul uslubini belgilab beradi. Aslini olganda, til tuzilmasi tomonidan boshqariladigan til belgilari ishlatilishining barcha imkoniyatlari har bir til uchun o'ziga xos bo'lgan nutqda belgilarni ishlatish qoidalariga muvofiq ro'yobga chiqadi. Mazkur qoidalar majburiy bo'lishi (til me'yorlari) yoki maqbul (nutq me'yorlari yoki uzus) bo'lishi mumkin. Til me'yorlarining buzilishi nutqning noto'g'ri tuzilishiga olib kelsa, uzusning buzilishi uni noodatiy bo'lishiga sabab bo'ladi.

Til birliklari kommunikatsiya maqsadida muloqotning turli doiralarida ishlatiladi. Muloqotning alohida doiralari uning boshqa doiralarida kam ishlatiladigan yoki umuman ishlatilmaydigan til birliklarining ma'lum bir majmuasi ko'proq ishlatilishi bilan ajralib turadi. Bunday majmualar tarkibiga kiruvchi til birliklari ma'lum bir funksional uslubga xos bo'ladi. Bir tilda so'zlashuvchi odamlar yig'indisi lisoniy jamoa deb nomlanadi. Lisoniy jamoani bir xil tarkibda deb bo'lmaydi. Turli geografik hududlarda yashaydigan lisoniy jamoa a'zolari tilning bir qator leksik va grammatik xususiyatlariga ko'ra farqlanuvchi turli ko'rinishlaridan foydalanishlari mumkin (hududiy variantlar, dialektlar, shevalar). Nutqiy muloqot jarayonida til birliklarini tanlash va qo'llash xarakteriga muloqot vaziyati, muloqot qatnashchilarining o'zaro munosabatlari, ularning rolli vazifasi jamiyat va oiladagi o'rni (qattalar va kichiklar, sotuvchi va xaridor va hokazo)ga bog'liq bo'ladi. Tilni vaziyatga mos ravishda ishlatishning o'ziga xos xususiyatlari va rolli vazifasi ma'lum bir nutqiy ro'yxat (registr)ni tashkil etadi (tantanali, rasmiy, kundalik, oilaviy).

**Kommunikantlarning kommunikativ kompetensiyasi.** Insonlarning o'zaro til orqali muloqoti o'ziga xos murakkab yo'l bilan ro'yobga chiqadi, bunda tilni yetarli darajada bilish muloqotning

shartlaridan faqat bittasini tashkil etadi. Gapning tarkibidagi til birliklari orqali yetkazilayotgan axborot uning keng miqyosli ekanligi haqida xulosa chiqarishgagina xizmat qiladi. Bu, “sinekdoxa” (tirnoqqa zor) deb nomlanuvchi uslubiy uslubga o‘xshash bo‘lgan, butunning o‘rnini bosuvchi bo‘lak. Kommunikantlar gapning sof lisoniy mazmunini muloqot sharoiti, dunyo haqidagi bilimlar va tajribadan kelib chiqadigan ma‘lumot bilan to‘ldirishadi. Masalan, “Bugun kun sovuq” gapi turli suhbatdoshlar uchun farqli vaziyatlarda “Keyin kun isishi mumkin”, “Bugun aylangani bormaymiz”, “Issiqroq kiyinish kerak”, “Bugun cho‘milib bo‘lmaydi” kabi ma‘nolarni bildirishi mumkin. So‘zlovchi bu jumlaning tinglovchi o‘zi nazarda tutgani singari, vaziyat va fon bilimlarini hisobga olgan holda tushunadi, deb o‘ylaydi. Nutqiy ifodani anglash uchun zarur bo‘lgan qo‘shimcha bilimlar turli darajada umumiy bo‘lishi mumkin. Ularning ma‘lum bir qismi ushbu til vakillarining barchasiga yoki deyarli barchasiga ma‘lum bo‘lishi mumkin, boshqa qismi maxsus tayyorgarlik ko‘rgan muayyan kasb egalari tanish bo‘lishi mumkin, uchinchi qismi faqat kichik ijtimoiy, hududiy yoki oilaviy guruh vakillariga tushunarli bo‘ladi. Barcha vaziyatlarda bunday bilimlar xarakteri va demak, u haqdagi gaplarni tushunish va sharhlash tarix, turmush tarzi, an‘analari, ta‘lim tizimi, adabiyotini o‘z ichiga olgan madaniyati orqali amalga oshiriladi.

Bir madaniyatga taalluqlilik ko‘pincha bir til jamoasi o‘rtasidagi muloqotning reallashuvini ta‘minlaydi. Insonning inferensiyaga bo‘lgan qobiliyati, ya‘ni fon bilimlari negizida nutqiy ifodalardan ularning to‘liq mazmuni to‘g‘risida to‘g‘ri xulosalar chiqarish qobiliyati uning kommunikativ kompetensiyasini tashkil etadi.

**Kommunikantlarning matn shakllantiruvchilik kompetensiyasi.** Avval qayd etilganidek, nutqiy kommunikatsiya fikr-mulohazalar va matnlar orqali reallashadi. Matnni tashkil etuvchi til birliklari o‘z kontekstual ma‘nolarida qatnashadi, mazkur kontekstual ma‘nolar birliklarning tildagi ma‘nolari asosida kontekstda vujudga keladi. Til birliklari kontekstual ma‘nolarining yig‘indisi va ularning o‘zaro aloqasi fikrning mazmun planini tashkil etadi. Fikrning plan mazmuni mulohaza orqali yetkaziladigan axborotning faqat ma‘lum bir qismini tashkil etadi. Mazmun plani (“lisoniy mazmun”) til egalari bo‘lgan kommunikantlarning ozmi, ko‘pmi ma‘lum darajada bir xil tushunadigan bosh ma‘nosini hosil qilishga zamin vazifasini o‘taydi.



Yetkazilayotgan axborot ma'nosi ayni bir xil emas va o'zgaruvchidir, chunki uning sharhi axborotni qabul qiluvchining fon bilimlari va aqliy salohiyatiga bog'liq bo'ladi. Ifodaning lisoniy mazmuni (qobig'i) axborotni eksplisit shaklda, ya'ni til birliklarining o'z ma'nolari orqali yoki implisit shaklda, ya'ni til jamoasi vakilining ongidagi bu ma'nolarga aloqador ravishda ifodalangan qo'shimcha ma'nolari vositasida yetkazadi. Shu ma'noda nutq axtarlari bevosita yoki bilvosita bo'lishi mumkin. Masalan, "Mabodo eshikni yopib yubora olmasizmi?" savoli shu ishni bajarish haqidagi iltimosni bildiradi, "Men ruldaman" jumlasida "Hozir telefonda gaplasha olmayman" yoki "Spirtli ichimliklar ichmayman yo icha olmayman" degan ma'noni bildiradi. Fikr mazmunidagi bosh xususiyat – xabar jo'natuvchining (muallif, axborot manbai) maqsadi, ya'ni u yetkazmoqchi bo'lgan axborot uchun yaratilgan nutqiy asar.

Muallifning niyati ifodaning ma'no va mazmunini belgilab beradi, ammo ular lisoniy qobiqda ozmi-ko'pmi darajada to'liq aks etadi. Shu sababli matnning mazmuni va ma'nosidan kelib chiqadigan mualliflik maqsadi muallifning sub'ektiv maqsadiga turli darajada mutanosib kelishi mumkin.

Muloqot jarayonida Manbaga "u nimani istagan"ligini tushuntirish yoki o'zini oqlashi ("Bunday deyishni xohlamagandim")ga to'g'ri keladi. Nisbatan murakkab axborotlarni yetkazish uchun jumlar semantik va struktur jihatdan yaxlit bir butunlikka matnga birlashadi.

Muloqot birligi bo'lgan matn bir gapdan ham tashkil topishi mumkin. Matnning butunligini saqlash uchun ma'noviy va shakliy aloqalarning har xil vositalaridan foydalaniladi. Matnning turi va yetkazilayotgan xabarning xarakteri matn tuzilmasini shakllantirish usuli va vositalariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shuni e'tirof etish kerakki, qabul qilingan qoliqlar asosida shakllantiriladigan me'yoriy matnlar bilan bir qatorda nisbatan erkin tuzilmalar asosida yaratilgan nome'yoriy matnlar bor.

Alohida olingan matn o'z tipi (prototipi)ga ma'lum darajada mutanosib kelishi mumkin. Matn tuzilmasida alohida bo'limlar – boblar, bo'limlar, kichik bo'limlar, fasllar, abzaslar, gaplar bo'lishi mumkin. Matnning har xil qismining ahamiyati bir xil bo'lmasligi mumkin, lekin ular o'zaro bir-biriga bog'liq bo'ladi. Shu ma'noda matn kommunikativ butunlik sifatida muayyan bir vazifani bajaradi.

Kommunikativ vazifaga va muloqot vaziyatiga muvofiq ravishda turli tipdagi matnlarni yaratish qobiliyati talab darajasidagi matnni tuzish, til birliklarini qonun-qoidalarga mutanosib holda qo'llash, matnning alohida qismlarining o'rni va o'zaro munosabatini baholash, matnni bog'langan matn sifatida, bir nutqiy butunlik o'laroq qabul qilish tarjimonning matnni shakllantira olish kompetensiyasini tashkil etadi.

**Ikki tilli muloqot xususiyatlari.** Tillararo muloqot jarayonida tilning muloqot vositasi sifatida qo'llashning asosiy qonuniyatlari saqlanib qoladi. Biroq uning ikki tilda ekanligi bir qator o'ziga xos xususiyatlarning paydo bo'lishiga olib keladi. Tarjimon ikki til, ikki tildagi ikki matn, ikki farqli madaniyat bilan parallel ravishda ish olib boradi.

Bu sharoitlarda muloqotga kirishish quyidagi sabablarga ko'ra anchayin murakkab vazifa: avvalombor, asl matn muallifi o'z axborotini tarjima matni Reseptori – kitobxoniga mo'ljallamaydi, shu bois, muvaffaqiyatli muloqot sharti – qabul qiluvchini hisobga olish – asl matn xususiyatlarini shunchaki oddiy qayta tiklash orqali bajarilmaydi, balki tarjima matnini yaratish paytida alohida hisobga olinishi kerak. Tillararo muloqotda qatnashuvchi ikki matn turli vaziyatlarda yaratiladi. Bu matnlardan foydalanuvchi kommunikantlar turli fon bilimlariga ega bo'lishi, shuningdek, mazkur matnlarda eksplisitlik va implisitlikning o'zaro munosabati har xil bo'lishi mumkin.

Avval ko'rsatib o'tilganidek, matnning ikki turli lisoniy va nutqiy tizimga taalluqli ekanligi ularning shakliy va mazmuniy har xil bo'lishiga sabab bo'ladi. Shu tufayli bu vaziyatda muloqot muvaffaqiyatini ta'minlovchi matnlarning qisman va nisbiy mutanosibligiga asoslaniladi.

Bunday muvaffaqiyat uchun shart-sharoitlar yaratish tarjimon tomonidan imkoniy variantlarni tanlash orqali amalga oshiriladi. Bunday tanlov asl matndagi nisbatan muhim tomonlarini ajratish, tarjimada yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan yo'qotishlarni hisobga olish, eng maqbul muloqot darajasini ta'minlovchi "eng kam zarar yetkazish" tamoyiliga amal qilishni taqozo etadi.

Tillararo muloqotning spesifikasi tarjimondan nafaqat har bir tildagi muloqot uchun lisoniy, kommunikativ, nutqiy kompetensiyadan tashqari o'ziga xos tarjimonlik kompetensiyasiga ega bo'lishni taqozo etadi. Bunday kompetensiyaning shakllanishi tarjimaga

o'qitishning eng muhim vazifasi hisoblanadi.

**Tarjimonlik faoliyatining turli yo'nalishlarga oidligi.** Tarjimonlar tillararo muloqotning turli shakllarini ta'minlovchi faoliyatning farqli sohalariga oid tarjimalarni amalga oshirishi bu kasb egalarini tayyorlashni tashkil etish mohiyatini belgilab beradi. Turli ko'rinishdagi matnlarni tarjima qilishga o'rgatish o'ziga xos metodik uslublarni taqozo etadi. Yuqori malakali tarjimon tarjimaning bir yoki bir necha ko'rinishlari bo'yicha mutaxassis bo'lishi mumkin. Tarjimonlik faoliyatining turli sohalarga oidligi tarjimaning turli uslubda va ko'rinishda bo'lishigagina bog'liq emas. Tarjima har xil sharoitlarda, qisqa va uzun muddatlarda, turli maqsadlar yo'lida, har xid buyurtmachilar uchun bajariladi. Tarjima matni asl matn bilan umumiy tarzda tanishish uchun, qandaydir ma'lumotni olish uchun, asl asarni to'la almashtirish maqsadida nashr etish uchun mo'ljallanishi mumkin. Bu vaziyatlarning barchasida tarjimaga farqli talablar qo'yiladiki, tarjimon har qanday vaziyatlarda ham ishlashga tayyor turishi kerak.

Tarjimonning ishiga uni rasmiy mavqei ham ta'sir ko'rsatadi. U biron bir bo'limda, yakka o'zi yoki tarjimonlar guruhi tarkibida ishlashi mumkin. U erkin ijodkor sifatida shartnomalar asosida tarjima qilishi, tarjimalarga muharrirlik qilishi, tarjimonlar guruhining rahbari yoki maslahatchisi bo'lib faoliyat ko'rsatishi mumkin. Va nihoyat, tarjimon ko'plab tarjimon faoliyatiga yaqin ishlarni bajarishi – muzokaralar olib borishi, ish yozishmalarini olib borishi, delegatsiyalarni qabul qilishi va ularga hamkorlik qilishi, qisqacha ma'lumotlarni tuzishi, suhbatlar bayonnomalarini va boshqa hujjatlarni yuritishi mumkin. Tillararo muloqotning spesifikasi va tarjimonlik faoliyati shakllarining turli-tumanligi tarjimonga o'ziga xos tarjimonlik kompetensiyasini shakllantirish zaruriyatini tug'diradiki, bu kompetensiyaning o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

Tarjimonning lisoniy kompetensiyasi tilning har qanday tashuvchisiga xos bo'lgan barcha aspektlarni bilish bilan bir qatorda yana bir necha spesifik xususiyatlarni nazarda tutadi. Lisoniy muloqot ishtirokchisi sifatida tarjimon o'z xotirasida tilning tizimi, me'yorlari va uzusi, uning lug'at tarkibi, grammatik tuzilishi, gap tuzish uchun birliklarni to'g'ri qo'llash qoidalari, muloqotning turli doiralarida ishlatiladigan til birliklarining muayyan majmuasi, til birliklarining hududiy, ijtimoiy va kasbiy qo'llanishidagi farqlar, muloqot shartsharoitlarining va muloqot ishtirokchilarining o'zaro munosabati,

rolli vazifalarining bunday til birliklarini tanlash va ishlatishga ta'siri haqidagi ma'lumotlarni saqlaydi.

Ushbu bilimlarning barchasi va mutanosib psixofiziologik qobiliyatlar va nutqni tushunish mexanizmlari asl matnni tushunish va tarjima matnini yaratish uchun zarur. Shu bilan birga, tarjimonning nutqiy faoliyati spesifikasi uning lisoniy kompetensiyasiga qo'shimcha talablar qo'yadi. Unga ko'ra, tarjimon bir emas, balki ikki til sohasida yetarlicha lisoniy kompetensiyaga ega bo'lishi shart. Avvalombor shuni qayd etish kerakki, odatdagi til egalaridan farqli ravishda tarjimonning til bilish xarakteri va lisoniy kompetensiyasi chegaralari ma'lum darajada tashqaridan majburan qabul qildiriladi. Oddiy kommunikant tilni ma'lum darajada biladi, muloqot shart-sharoitlari, maqsadiga bog'liq ravishda til vositalaridan mustaqil tanlab foydalanadi. Bunda so'zlovchi o'z imkoniyatlaridan ortiq bo'lgan til vositalarini yanada kengroq yoki samaraliroq foydalanish taqozo etiladigan kommunikatsiya aktlarida ishtirok etmaydi va chegaralangan til vositalarini qo'llash bilan cheklanadi. Tarjimon uchun muloqot doirasi va maqsadi, til vositalarining tanlanishi va qo'llash usuli ko'pincha asl matn tomonidan belgilanadi va uning xohishi hisobga olinmaydi. Shuning uchun tarjimon tarjima jarayonida ishtirok etayotgan har ikki til sohasida reseptiv planda ham, produktiv planda, har tomonlama lisoniy kompetensiyaga ega bo'lishi kerak. Albatta, har bir tarjimonning lisoniy kompetensiyasi o'z chekchegaralariga ega bo'lib, bu chegaralarning kengligi tarjimonning kasbiy kompetensiyasi yuqori ekanligini belgilab beradi. Tarjimonning lisoniy kompetensiyasiga qo'yiladigan cheklanmagan talablar tarjimonga o'z lisoniy bilimlarini, ayniqsa, qiyosiy planda, tez kengaytirish va to'ldirishni bilish zaruriyatidan kelib chiqadi.

Tarjimon – hamisha izlanishda bo'ladigan odam. U doimo o'ziga o'zi savol berish bilan mashg'ul bo'ladi: Mana bu so'zni boshqa tilga qanday tarjima qilish mumkin? Bu so'z nima ma'noni anglatadi? Aynan bu vaziyatda bu tilda qanday gapiriladi? Tarjimon tinglar va o'qir ekan, u nafaqat aytilganlarni, balki ularning qay tarzda bayon etilganini ham eshitadi va ko'radi. Tarjimon qo'lidan lug'atni qo'yamaydi, til haqidagi yangi ma'lumotlarni bilish, bilimni orttirish imkoniyatini qo'ldan chiqarmaydi. Shu tufayli, tarjimonning lisoniy malakasi o'ziga xos moslanuvchanligi va egiluvchanligi bilan ajralib turadi. Nutqini tezlik bilan qayta quradi, bir tildan ma'lumotni qabul

qilib ikkinchi tilda qayta tiklab beradi. Qo‘llaydigan leksikasi tipini va sintaktik tuzilmasini o‘zgartiradi, bir uslubdan ikkinchi uslubga o‘tadi. Muloqot jarayonida nutqiy asarlar bilan almashinuv kommunikantlarda matn tuzish kompetensiyasi, mazkur til jamoasi lisoniy qonun-qoidalari va stereotiplariga muvofiq ravishda matn yaratish qobiliyatining mavjudligi taqozo etiladi. Tarjimonning kasbiy malakasi ikki tildagi bu kabi qoidalarining o‘zaro munosabatini bilishni va turli tipdagi matnlarni yozish qobiliyatini o‘z ichiga oladi. Tarjimonning matn qurish kompetensiyasi ikki tildagi matn qurilishidagi umumiyliklar va farqlarni bilish, xususan, matnning ma‘noviy bog‘liqligi xarakterini – matnning kogerentligini (masalan, ruscha matnlarga qaraganda inglizcha matnlardagi implisitlikning ko‘pligi), shakliy aloqadorligini (matnning kogeziyasi) ta‘minlashni (masalan, ingliz tiliga qaraganda rus tilida mantiqiy bog‘lamalarning kengroq ishlatilishi) ham qamrab oladi. Tarjimonning kasbiy malakasi shakllanishida uning kommunikativ kompetensiyasi muhim rol o‘ynaydi. Bilingvist-tarjimon ikki tilda ham kommunikativ kompetensiyaga ega bo‘lishi kerak. Shu bilan birga, tarjimonning kasbiy malakasidan matnlar va jumalarning ma‘nosini sharhlash qobiliyatiga shunchaki bilish taqozo etilmaydi.

Tarjimonning kommunikativ kompetensiyasi tarjima reseptorlarining axborotni anglash imkoniyatlarini asl matndagi fikrga yo‘naltirish qobiliyatini ham o‘z ichiga oladi. Tarjimon doimo tarjima matni reseptorlarining fon bilimlarini va muloqot shart-sharoitlarini hisobga olgan holda, asl matnning lisoniy mazmunini tarjimada aks ettirish asar bosh g‘oyasi haqida to‘g‘ri xulosa chiqarish uchun yetarli bo‘lish-bo‘lmasligi muammosi ustida izlanishi kerak. Va zaruriyat tug‘ilganida, tarjimon yetishmayotgan fon bilimni jumlagi kiritib yoki iqtibos, qo‘shimcha izohlar shaklida tushuntirish berish yo‘li orqali lisoniy mazmun va ifodalangan fikr o‘rtasidagi mutanosiblikni to‘g‘rilaydi shu tariqa, oddiy muloqotga kirishuvchilardan farqli o‘laroq tarjimonning kommunikativ kompetensiyasi qiyosiy dinamik xarakterga ega. Bu qobiliyat nafaqat g‘oyani tushunish, balki ikki til jamoasining anglash imkoniyatlarini solishtirish, tarjimada asosiy fikrni berish maqsadida lisoniy shaklni o‘zgartirish bo‘yicha qaror qabul qilish malakasini ham qamrab oladi.

Tarjimonning kasbiy malakasi bir qator shaxsiy malakalarni ham taqozo etadi. Chunki tarjima murakkab aqliy faoliyat bo‘lib, uning

reallashuvi o'ziga xos ruhiy tayyorgarlikni, xususan, uning moslanuvchanligini, ya'ni bir tildan ikkinchi tilga, bir madaniyatdan ikkinchi madaniyatga diqqatni tezlik bilan qarata olish qobiliyatini ham ko'zda tutadi. Tarjimon oldiga diqqatni jamlash, o'z xotirasi, o'zining aqliy va hissiy imkoniyatlarini to'la ishga solish vazifasi ko'ndalang qo'yiladi. Tarjimon turli mavzudagi matnlar bilan ish olib borali, har xil bilim sohalariga oid matnlar, shuningdek, tor sohaga doir matnlarni tarjima qilishga to'g'ri keladi. Shuning uchun uning qiziqish doiralari keng bo'lishi, o'qimishli, yuqori aql-zakovat sohibi bo'lishi talab etiladi.

Tarjimon yuqori madaniyat va ensiklopedik bilimlar egasi bo'lmog'i darkor. Tarjimonning o'z ustida doimiy ravishda ishlashi, bilimni hamisha boyitib borishi, yangi ma'lumotlarni izlab topishi va har xil ma'lumotnomalar va boshqa manbalarni samarali qo'llashi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Tarjimonlar ularning sohalarida hech qanday bilim ortiqchalik qilmasligini, umumiy savodxonlik darajasining birlamchi rolini yaxshi anglamoqlari zarur. Tarjimonning kasbiy kompetensiyasidagi axloqiy-etik komponentga alohida e'tibor qaratish kerak. Chunki tarjimon o'z ishining sifati uchun ham, chin ko'ngildan qilinmagan tarjimasi yetkazishi mumkin bo'lgan moddiy va ma'naviy zarar uchun javobgardir. Tarjimonning xizmatlaridan foydalanadigan odamlar tarjima ishining ishonchli chiqishi va ob'ektivligiga umid qiladi. Asl matnni o'qish imkoniga ega bo'lmagan buyurtmachilar tarjimon taqdim etgan tarjimani uning to'la muqobili deb qabul qilishadi. Tarjimon faoliyati reseptorlarning ular ishiga bo'lgan to'la ishonchiga asoslanadi. Tarjimon faqat o'z ishiga jiddiy munosabatda bo'lishi, tarjimani yengil-elpi, xo'jako'rsinga qilmasligi evazigagina bu ishonchni oqlashi mumkin.

Tarjimon muloqotning turli shart-sharoitlarida faoliyat ko'rsatadi. U maxfiy siyosiy va tijoratga oid hujjatlarni tarjima qilishi, yuqori darajadagi yopiq munozaralarda ishtirok etishi, ko'p odamlarning shaxsiy hayotiga oid ma'lumotlardan xabardor bo'lishi mumkin. Kamtarlik, o'zini tutishni bilish, sir saqlay olish — tarjimon kasbiy malakasining zaruriy qismi. Tarjimonning yozilmagan axloqiy kodeksi: "Zarar yetkazma!", shakliga ega. Tarjimonning kasbiy kompetensiyasi bu kasbning axloqiy-etik belgilariga mutanosib keluvchi o'ziga xos shaxsning shakllanishini taqozo etadi. Va nihoyat, tarjimonning kasbiy kompetensiyasi maxsus bilim, malaka va ko'nikmalarni — texnik kompetensiyani ham o'z ichiga oladi.

Tarjimachilik bilimlari tarjima faoliyatining mohiyati va vazifalarini tushunish, tarjima nazariyasining asosiy farazlari, tarjima strategiyalari va texnik uslublari ko'rinishlari bilan tanishishni ta'minlaydi.

Tarjimon strategiyasi uch asosiy tamoyillar guruhini o'z ichiga oladi:

- tarjimon strategiyasining boshlang'ich talablari;
- tarjimon xatti-harakatlarining umumiy yo'nalishini tanlash;
- tarjima jarayoni harakatlarining ketma-ketligini va xarakterini belgilash.

Tarjima strategiyasining boshlang'ich talablari asosan tarjimonning vositachilik roli, tarjimon ijodining ikkilamchi xarakteri bilan belgilanadi. Tarjimon faoliyati tillararo muloqot qatnashuvchilarining ishonchlarini oqlaganidagina, foyda keltiradi. Shu sababli tarjimonning umumiy strategiyasi asosida tarjima qilinayotgan matni imkon qadar to'liq tushunish va tarjima tilidan nisbatan to'la mos keladigan muqobillarni topishga intilish yotadi.

Tarjimonning muhim strategik tamoyili o'z-o'ziga, o'z tarjimasiga nisbatan tanqidiy munosabatda bo'lishdan iborat. Basharti asl matn tushunarsiz, umuman g'aliz va bir-biriga zid ko'rinsa, bu muallifning aybi emas, balki tarjimon bilimining yetarsizligidan darak beradi.

Har qanday tarjima qilinayotgan matn tarjimon uchun yashirin yoki oshkora tarjimachilik muammolarini o'z ichiga oladi, shu sababli asl matnga hurmat bilan yondashish, yuzaki yoki yengil-elpi qarorlar qabul qilmaslik zarurati tug'iladi. Shu bilan birga, e'tirof etish kerakki, tipik, ko'p uchraydigan muammolar va ularning odatdagi yechimi mavjud bo'lishi bilan bir qatorda, o'ziga xos, yangi bo'lgan muammolar yuzaga keladiki, ularning yechimi tamomila yangicha usullarni izlab topish yoki ma'lum tarjima usullarini o'zgartirib ishlatishga bog'liq bo'ladi.

Tarjimon strategiyasining bosh tamoyili eng yaxshi variantni topish uchun maksimum darajada harakat qilishdan iborat. Tarjimonning bu tamoyili tarjimaning asosiy maqsadi va uni tarjima qilishning sharoitlarini aniqlashga chambarchas bog'liq bo'ladi.

Tarjima qilinayotgan matn tipini hisobga olgan tarzda, yuqorida qayd etilgan omillarga asoslanish orqali tarjima jarayonini maqsadi belgilanadiki, tarjimon ana shu maqsad sari intiladi. Tarjimon

strategiyasiga texnik sabablar (qisqa muddatlar, diktafon, kompyuterdan foydalanish imkoniyati) ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Tarjima jarayonidagi xatti-harakatlarning ketma-ketligi va xarakteri tarjimonning ruhiyati, bilimi, tajribasiga bog'liq bo'ladi. Biroq ayrim strategik yondashuvlar umumiy xarakterga ega bo'ladi. Anglash tarjimadan avval ro'y beradi, bu tan olingan qoida bo'lsa-da, tarjimon ish jarayonida asl matnga qayta-qayta murojaat qiladi va shu yo'l bilan o'z bilimini chuqurlashtiradi va shunga mos ravishda tarjima matnini tahrir qiladi.

Tarjima qilinayotgan matni ketma-ket mantiqiy bo'laklarga bo'linishi ham tarjimaning umumiy qoidalaridan biri bo'lib, tarjimon oldin biri bo'lagini o'girib bo'lgach, keyingisi tarjimasiga o'tadi. Anglash va talaffuz qilish jarayonlarining bir-biriga bevosita bog'liq bo'lganligi sababli birdaniga katta hajmdagi matnni tarjima qilish imkonsiz. Chunki tarjima qadam-baqadam, jumlama-jumla amalga oshiriladi.

Tarjimon strategiyasining ko'p unsurlari turli ko'rinishlarga ega bo'lib, tarjimonlar ulardan turli sharoitlarda farqlicha darajada foydalanishadi. Bu unsurlar qatoriga quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

- Asl matn predmeti bilan tanishish, uni tarjima tilidagi parallel matnlar bilan, shuningdek, ma'lumotnomalar, lug'atlar, ensiklopediyalar bilan solishtirib o'rganish;

- Asl matn bilan to'liq tanishib chiqish;

- Atamalar va tushunarsiz so'zlar ro'yxatini tuzish va muqobilalarini topish;

- So'zma-so'z tarjimani (yoki qoralama tarjimani) yoxud yakuniy tarjima nusxasini tayyorlash;

- Tarjima parchalarini ovoz chiqarib o'qish;

- Tarjimaga qadar tahlilni amalga oshirish;

- Tarjimadan keyingi tahrirga jiddiy yondashish va h.

Tarjimonning kasbiy texnikasida maxsus malaka va qobiliyatlar hal qiluvchi rolni o'ynaydi. Muvaffaqiyatli tarjima jarayonini ta'minlovchi barcha malakalarni ajratish va tavsiflash mumkin emas. Ularning ma'lum bir qismi kompleks xarakterga ega bo'lib, tahlil qilish murakkab. Tarjimachilikning qobiliyatlari orasida quyidagilari muhim ahamiyat kasb etadi:

**1. Ikki tilda parallel harakatlarni bajarish, bir tildan ikkinchi tilga o'tish qobiliyati.** Bu qobiliyat qisman ikki tillilikning rivoj-



lanishi bilan bog'liq ravishda vujudga keladi, ammo mazkur qobiliyatni yuqori darajadagi malakaga aylantirish kerak. Mazkur maqsadda tarjima usullarini va tarjimaviy muqobilliklarni o'rganish, ayniqsa, matnlar, ularning bo'laklarini hamisha tarjima qilib borish orqali ikki tillilikni rivojlantirish zarur.

**2. Matnni tarjimon sifatida tushunish qobiliyati.** Tarjima jarayonining birinchi bosqichida tarjimon asl matnni Reseptori sifatida qabul qiladi, uning matnning tushunishi boshqalarnikidan teranligi bilan ajralib turadi. Oddiy Reseptorlar ko'pincha matnni taxminiy tushunish bilan kifoyalanishi mumkin. Masalan, turk tilidagi «parlak» yoki «pırlıl pırlıl» so'zini turk eshitsa bu so'zning aniq ma'nosi bilan qiziqmaydi. Turk tili egasi uchun mazkur so'z ijobiy bahoga ega bo'lib, aniqlashtirish talab etilmaydi. Ammo boshqa tilga tarjima qilinsa, masalan, inglizchaga o'g'irishda tarjimon imkoniy sharhlardan birini tanlashi kerak, chunki u brilliant, impressive, graphic, moving, extraordinary so'zlaridan birini muqobil so'z sifatida ishlatishi kerak. O'zbek tilida esa bu so'z uchun **“yorug', yorqin, ravshan, charaqlagan, lovullagan, yorqin, porloq, mashhur, atoqli, ajoyib, ishonchli, ta'sirli, ta'sirchan”** so'zlaridan muqobilini tanlashi kerak.

Tarjimonning asl matnni anglashi ma'lum darajada tarjima tili-ning o'ziga xos jihatlariga ham aloqador bo'ladi. Masalan, o'tgan zamon fe'lini turkchadan o'zbek tiliga o'g'irish uchun tarjimon asl matndan qo'shimcha ma'lumot izlaydi, chunki o'zbek tilidagi fe'lning ko'plab sodda va qo'shma shakllari, ko'makchi fe'lli konstruksiyalardan birini berish uchun qaror qabul qilishi lozim. (Qiyoslang: Istanbuldayken saraya gitmişim – Istanbuldaligimda, saroyga borganman/ boribman/ borgandim/borgan ekanman / borgan emishman).

**3. Tarjima jarayonida ikki tilda parallel ishlash har bir tildagi fikr ifodasida tashqi tuzilmadan ichki chuqur g'oyaga o'tishi va aksincha ichki yashirin g'oyadan tashqi yuzaki tuzilmaga o'tishni bilishni talab etadi.** Zero, tarjimon tarjima tilidagi mos keluvchi tashqi tuzilmani topa olmasa, asl matn tilidagi ifodaning ichki tuzilmasini “Bu gap mohiyatan nimani anglatadi? Muallif bu gap bilan nima demoqchi?” savollariga javob axtarib o'rganadi. Ikkinchi navbatda tarjimon keyingi muammoni hal qiladi: ushbu ichki fikr tarjima tilida qanday usullar bilan berilishi mumkin? Ushbu omil tarjima tilida sinonim bo'lgan tashqi tuzilmalarni qurish va sinonim so'zlarni qo'llashni bilish hamda ular o'rtasidan to'g'ri tanlovni amalga oshirish bilan bog'liq.

4. Tarjimon uchun alohida muhim o‘rin tutuvchi qobiliyatni shartli ravishda “yiroqlashmay turib joyidan jilmaslik” deb nomlash mumkin. Tarjimon bevosita muqobilni topa olmasa asl nusxadan biroz yiroqlashishi mumkin, biroq bu holda u boshlang‘ich g‘oyaga imkon qadar yaqin qolishi kerak. Bunday “kam talofatli” strategiyaga lisoniy shakllarning turli ko‘rinishlarini qo‘llash, jumladan, sinonimlarni ishlatish orqali erishiladi.

5. Tarjimon kompetensiyasi tarjimaning texnik usullarini tanlab, to‘g‘ri ishlatish, asl matn tilining leksik, frazeologik, grammatik va stilistik xususiyatlari bilan bog‘liq qiyinchiliklarni yengib o‘tish malakasini taqozo etadi. Bunday qobiliyat mazkur uslublarni va mutanosib keluvchi xususiy tarjima nazariyasi doirasida yuzaga keladigan tarjima qiyinchiliklarini tavsiflay olish malakasiga asoslanadi.

6. Tarjimonning asosiy qobiliyatlari asl matnni tahlil etish, tarjimaning odatiy va noodatiy muammolarini aniqlash, har bir alohida olingan holatga mos keluvchi yechimlar usullarini tanlash ko‘nikmalarining birgalikda qo‘llay olishda kuzatiladi. O‘z tarjimalari va boshqa tarjima ishlarini tahrir etish, semantik va stilistik nuqsonlarni aniqlash va barataraf etish, taklif etilgan asosli tanqid etish hamda baholash masalalari ham aynan shu malakaga bilan bog‘liq.

Umuman olganda, tarjimonchilik qobiliyati tarjima jarayonida ishtirok etayotganlarning tilni bilish qobiliyati tarkibiga kiruvchi barcha nutqiy ko‘nikmalar majmuasi asosida ro‘yobga chiqadi. Malakalarning ma‘lum bir qismi yarim avtomat yoki avtomat shaklda reallashishi va tarjimonlar tomonidan ichki hissiyot asosida qo‘llanilishi mumkin. Tarjimonning kasbiy kompetensiyasining barcha tarkibiy qismlari tarjimaga o‘rganish jarayonida yoki amaliyotda rivojlanadi. Tarjimon kompetensiyasi konsepsiyasi nazariy va amaliy jihatdan katta qiziqish uyg‘otadi. Bu masalani yanada chuqurroq tadqiq etish, uni tashkil etuvchi omillarni hamda mazkur omillarni shakllanish va taraqqiy etish usullarini aniqlashtirish mahim ahamiyat kasb etadi.

### **Nazorat uchun savollar:**

1. Muloqot ishtirokchilarining lisoniy kompetensiyasi deganda nimani tushunasiz? Tarjimonlarning yuqori malakali bo‘lishida lisoniy kompetensiyaning o‘rni va ahamiyatini izohlang.

2. “Kommunikantlarning kommunikativ kompetensiyasi” tushunchasining mohiyati nimadan iborat? Tarjimon mahoratini ta‘minlashdagi kommunikativ kompetensiyaning rolini izohlang.

3. Kommunikantlarning matn shakllantiruvchilik kompetensiyasi qaysi komponentlardan tashkil topadi?

4. Ikki tilli muloqot xususiyatlarini tushuntirib bering.

5. Tarjimon malakali tarjimani amalga oshirishi uchun qanday qobiliyatlarga ega bo'lishi kerak?

## 2.2. Tarjimon mahoratini shakllantiruvchi omillar

### 2.2.1. Tarjimonlarning kasbiy axloqi mohiyati

**Tayanch soʻz va iboralar:** *etika, tarjimon kasbi, axloqiy tamoyillar, kasbiy xulq meʼyorlari, kasbga yaroqlilik talablari, tarjimonning huquqiy mavqei, tarjimaning texnik taʼminoti, translyator, notiq nutqi.*

Har bir kasb vakillari oʻzini tutish meʼyorlari va qoidalariga ega. Ushbu meʼyorlar va qoidalar yordamida mazkur kasb jamiyatdagi oʻz oʻrnini egallaydi, jamiyat esa, oʻz navbatida bu kasb etikasiga taʼsir koʻrsatadi. Har qanday kasbda ham buzish mumkin boʻlmagan kasbiy axloq meʼyorlari va qoidalari bor. Masalan, vijdonlilik, halollik, poklik, javobgarlik, kasbdoshlarga oʻzaro yordam kabilar har qanday kasbning “tashrif qogʻozi” ekanligi kunday ravshan.

Tarjimon kasbi ham bundan istisno emas. Koʻp asrlar avval paydo boʻlgan bu kasb har doim ham insoniyatga zarur ekanligini isbotlab kelgan. Jamiyatning mazkur kasbga boʻlgan munosabati davr oʻtishi bilan oʻzgargan, tarjimon kasbining axloqiy meʼyorlari ham oʻzgarib turgan. XX asarning boshlarida bu kasbga qoʻyiladigan ayrim talablar shakllangan va butun XX asr davomida oʻzgarib, mukammallashib borgan. Avval qayd etilganiday, tarjimon va tarjimaning ahamiyati faqat XX asrning oʻrtalariga borgandagina toʻla tan olingan. Shu bilan birga, koʻplab zamonaviy tadqiqotchilar tarjimon kasbining ijtimoiy mavqei hali ham yetarlicha yuqori emasligini qayd etishadi<sup>1</sup>. Yevropalik va amerikalik tadqiqotchilar tarjimonlik kasbini koʻplab buyurtmachilar tomonidan past baholanishi, mehnat sharoitlarining qoniqarli emasligi, ijtimoiy himoyaning yoʻqligi sifatida qabul qilishini eʼtirof etishadi.

<sup>1</sup> Przybyłowska M. Uebersetzer im Ueberlebenskampf //U wie Übersetzen. – Wien, 1992. – № 9/10. – S. 23-29; Koller W. Einführung in die Übersetzungswissenschaft. – Wiesbaden, 1997. – S. 25; Wilss W. Kognition und Übersetzen. – Tübingen, 1988. – S. 16 ff. .

Basharti tarjima haqidagi tasavvurlarga diqqat qilsak, ularning yuzaki ekani ko‘rinadi. Bu, ehtimol, barcha insonlar bolaligidanoq osonlik bilan bajaradigan faoliyat turi bo‘lsa kerak. Maktabdagi oddiy topshiriq: «Tarjima qil!» chet tili darslarida birinchi sinfdan boshlaboq ishlatiladi. Bunda o‘qituvchi tarjima qilish uchun nima qilish kerakligini tushuntirmaydi, o‘quvchi xayoliga esa tarjima qilish uchun yana qo‘shimcha nimanidir bilish kerakligi fikri yaqin ham yo‘lamaydi. Deyarli hamma tarjima qilish uchun chet tilini biroz bilsa, bo‘lgani, deb ishonadi. “Filolog” mutaxassisligiga ega odam esa osongina ham og‘zaki, ham yozma tarjimoni amalga oshiradi, degan tasavvur bor, hattoki filologlarning o‘zlari ham shunday deb o‘ylashadi. Barcha – buyurtmachilar ham, tarjimonlar ham tarjima nima ekanini bilishadi, ammo tarjimaning qanday bo‘lishi kerakligi to‘g‘risida hammaning o‘z fikri bor.

Mustaqillikkacha bo‘lgan davrda, albatta badiiy adabiyot va maxsus adabiyot asarlari tarjima qilindi, ularning go‘zal namunalari o‘zbek xalqining dilidan joy oldi. Biroq bu tarjimalarning aksariyati rus tili orqali tarjima qilindi, bevosita g‘arb va g‘arb tillaridan tarjima qilish imkoniyati esa mumlatimimiz mustaqillikka erishib, rivojlangan davlatlar bilan xalqaro aloqalar o‘rnatilgandan keyin boshlandi. O‘zbek tarjimashunosligida ko‘plab ishlar amalga oshirilgan bo‘lsa-da, tarjimon kasbi etikasi masalalari yetarlicha o‘rganilmagan. Bu vaziyat esa tarjimon kasbiy axloqi masalasini alohida ko‘rib chiqishni taqozo etadi.

Zero, xorij va rus tarjimashunosligida ham tarjimon kasbi etikasining asosiy tamoyillarini ishlab chiqish zarurligi e’tirof etilmoqda. Masalan, rus og‘zaki nutq tarjimonlari P. Palajchenko, A. Chujakin, G. Miram, A. Pago bu masalani ko‘tarib chiqishdi<sup>1</sup>. Tarjimashunos olim R. K. Minyar-Beloruhev bu mavzuni bir necha bor muhokamaga qo‘ydi<sup>2</sup>. Tarjimon kasbi etikasiga oid M. Bouen bayon etgan ayrim hazilomiz tamoyillar ingliz tarjimoni Linn Vissonning kitobida keltirilgan<sup>3</sup>. Biroq bular tarjimonning kasbiy etikasiga oid umumiy mulohazalarni o‘z ichiga oladi. Xususan, «Handbuch Translation»

<sup>1</sup> Чужакин А., Палажченко П. Мир перевода, или Вечный поиск взаимопонимания. – М., 1999; Мирам Г. Профессия: переводчик. – Киев, 1999. – С. 145-157; Паго А. Голос из будки // Studio. – СПб., 1999. – № 1. – С. 9-16.

<sup>2</sup> Миньяр-Белоручев Р. К. Как стать переводчиком. – М., 1999. – С. 86-93.

<sup>3</sup> Виссон Л. Синхронный перевод с русского на английский. – М., 2000. – С. 268-269.

nomli ma'lumotnoma shaklidagi qo'llanmada kasbiy axloqning maqsadigina e'tirof etiladi: «bo'lajak tarjimonlar o'z kasbiy mas'uliyatini anglashi va axborotning sirliligini saqlashi kerak»<sup>1</sup>.

Demak, tarjimonga kasbiy axloqi me'yor va qoidalarini belgilab berish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xo'sh, tarjimon kasbiy axloqi me'yorlari va qoidalari nimadan tashkil topadi?

I.S. Alekseyevning e'tiroficha, tarjimonning kasbiy axloqiga quyidagilar kiradi:

- axloqiy tamoyillar;
- kasbiy xulq me'yorlari;
- kasbga yaroqlilik talablari;
- tarjimonning huquqiy mavqei;
- tarjimaning texnik ta'minotini bilish.

**Tarjimonning axloqiy tamoyillari.** Tarjimonning axloqiy tamoyillarini belgilash, ya'ni tarjimonga nima mumkin-u, nima mumkin emasligini chegaralash – oson ish emas. Tarjimonlarining bu boradagi fikrlari farqlanadi. Shunday bo'lsa-da, bu farqli qarashlardan umumiy bo'lganlarini ajratib olish mumkin. Ko'pchilik tarjimashunos olimlar og'zaki tadrijiy tarjimada tajribali tarjimon 80%gacha bo'lgan ma'lumotni yetazishi mumkinligini e'tirof etishgan. Bu, muloqotning ushbu ko'rinishi uchun ob'ektiv ma'lumot. Biroq tarjimonlik etikasiga rioya etmaslik axborotni deyarli to'la yetkazilmasligiga olib kelishi mumkin.

*Toshkent davlat sharqshunoslik institutining o'ziga ishongan talabalaridan biri Erondan kelgan vakilga tarjimon etib tayinlanibdi. Talaba-tarjimon garchi fors tilini yaxshi bilsa-da, umuman vakilning nima haqida gapirishini, nutqi yo'nalishini bilib olish, umuman yaxshi tanishib olish uchun mehmon oldiga salomlashishga boribdi. Eronlik mehmon salomga alik olibdi-yu, boshqa e'tibor bermabdi. Uchrashuv boshalnibdi. Vakilga so'z berishibdi. U uzundan-uzoq ilk kirish so'zini so'zlabdi. Fors tilining o'ziga xos xususiyatlaridan biri jumlar ketidan jumlar ulanib ketadi. Uzoq gapirish san'at hisoblanadi, hattoki qisqa gapirish hurmatsizlik sanaladi. Talaba-tarjimon uning nutqiga quloq solib turib, oxiri eshitgan gaplarini esdan chiqaribdi va so'zlovchi gapini tugaganda, zalga yuzlanib: "Assalomu alaykum,*

<sup>1</sup> Handbuch Translation. – Tubingen, 1999. – S. 365.

aziz birodarlar!” – debdi va ma’ruzachiga qarab, “gapiraver!” deganday ishora qilibdi. Vakil hayron, lekin nutqini davom ettirishga majbur bo’libdi. Yana uzundan-uzoq so’zlabdi. Gapi tugab, tarjimonga yuzlanibdi. Tarjimon ham “U “Yashasin O‘zbekiston va Eron do‘stligi!- deydapti” – debdi. Hamma qarsak chalib yuboribdi.

Ko‘ramizki, tarjimon so‘zlovchi aytgan gaplarning kichik bir qismini yetkazib beryapti. Rasmiy uslubdagi mantin bilan bayon etilgan uzun nutq qisqartirilgan, umumlashtirilgan faqat qisqa ma’lumot qolgan. Axborotning neytral bo‘yog‘i emotsional bo‘yoqdor bo‘lgan, rasmiy uslub so‘zlashuv uslubi bilan almashgan. Tarjimadagi barcha gaplar og‘zaki so‘zlashuv tiliga xos.

Endi tarjima vaziyati muhokamasiga o‘taylik. Tarjima vaziyatida axloqiy me‘yorlarga rioya etish tarjima natijasiga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi. Og‘zaki tarjima insonlar bilan bevosita aloqadagi ish turi ekan, avvalombor tarjimondan muloqot etikasi me‘yorlariga amal qilish talab etiladi, zero bu talab deyarli barcha kasblar etikasi tarkibiga kiradi. Demak, tarjimon o‘zini tutishni biladigan, tarbiyali odam bo‘lishi kerak. “tarbiyalilik” haqidagi tasavvurning doirasi nihoyatda keng. Ammo “boodoblilik” asosida har doim ham bir qoida bosh qoida hisoblangan: o‘zingni qanday hurmat qilsang, boshqalarga ham shu darajada hurmat ko‘rsat”. Muloqotda ishtirok etayotgan odamlar orasida oddiy so‘zlashuv nutqida gapirish boshqalarga nisbatan hurmatsizlik bo‘ladi. Shuningdek, suhbatda ishtirok etayotgan odam oldida “U” deb gapirish ham tarbiyasizlik alomati. Ustiga-ustak, bunday tarjima asl matn ma’nosini buzadi. Chunki so‘zlovchi mamlakat nomidan so‘zga chiqayotgan ekan, “biz”, “bizning mamlakat”, juda bo‘lmaganda, “men” deb gapiryapti. Malakali tarjimada olmoshlar shaxsi o‘zgartirilishiga, ya’ni bir grammatik shaklini ikkinchisi bilan almashtirishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Endi tarjimon yo‘l qo‘ygan xatoliklar muhokamasiga asoslanib, tarjimonlik kasbi etikasining asosiy qoidalarini shakllantirishga harakat qilamiz:

1. Tarjimon buyurtmachining suhbatdoshi yoki muxolifi emas, balki bir tilda yaratilgan yozma yoki og‘zaki matn boshqa tilda qayta tiklab beruvchi *translyator*<sup>1</sup>dir.

2. Birinchi qoidalan ma’lum bo‘ladiki, matn tarjimon uchun

---

<sup>1</sup> translyator – (mashina vositasida tarjima qilish programmasi yoki apparati);

*daxlsizdir.* Tarjimon, agar buyurtmachi tomonidan moslashtirish, tanlash, qo‘shish kabi qo‘shimcha vazifalar belgilangan bo‘lmasa, o‘z xohishiga ko‘ra tarjimada matnning ma‘nosi va tarkibini o‘zgartirish, qisqartirish yoki kengaytirish huquqiga ega emas.

3. Tarjimada tarjimon har doim unga ma‘lum bo‘lgan tarjima usullarini qo‘llash orqali, asl matnning vazifalaridagi ustuvor yo‘nalishga asoslanib, birlamchi matnning *invariantini* maksimal darajada yetkazishga harakat qiladi.

3. Tarjima vaziyatida tarjimon og‘zaki muloqot etikasiga amal qilishi, buyurtmachining shaxsiy erkinligini hurmat qilishi, obro‘cini to‘kmasligi kerak (bu haqda keyinroq batafsil to‘xtalamiz).

4. Ayrim vaziyatlarda, og‘zaki tadrijiy tarjimada yoki sinxron tarjimada tarjimon diplomatik vakolatga ega shaxs rolini bajarishi mumkin (masalan, xalqaro aloqalarda yirik siyosatchilar gaplarini tarjima qilishda). Agar tarjimongan diplomatik vakolat huquqi berilgan bo‘lsa, diplomatik munosabatlarni qo‘llab-quvvatlashda yordamchi shaxs vazifasini bajarar ekan, asl matnning murakkablashuvi oldini olish uchun unga o‘zgartirishlar kiritishi mumkin, ammo bunda qaysidir bir tarafning manfaatlarini himoya qilishi shart emas.

5. Qolgan vaziyatlarda tarjimon taraflar munosabatiga aralashishga haqqi yo‘q, shaningdek, tarjima qilinayotgan matn mazmuniga o‘z nutqai nazariga muvofiq o‘zgartirish kiritmasligi kerak.

Birinchi keltirilgan misolda ko‘rsatilgan barcha qoidalarini buzdi, shu tarzda o‘z kasbiy vazifasini ado etmadi. Tarjimon kasbining boshqa axloqiy qoidalariga o‘tishdan avval yana bir latifani misol qilib keltiramiz:

*Bir professor taklifga ko‘ra bir yapon universitetiga dars berishga kelibdi. Ma‘ruza paytida professor latifa aytib beribdi. Tarjimon bu latifani bir jumla bilan tarjima qilib berganida, hamma kulib yuborganini ko‘rgan professor hayratga tushibdi. Ma‘ruzadan keyin professor tarjimondan latifani qanday qilib bunday qisqa shaklda o‘girib berganini so‘rabdi.*

*Tarjimon javob beribdi: “Juda oson, janob professor. Janob professor hozir juda kulgili latifa aytib berdim. Marhamat qilib, kulinglar!, dedim”.*

Demak, bu vaziyatda ham tarjimon kasbiy etikaning hamma qoidalarini buzmoqda. U gapning mazmunini o‘zgartiryapti, asl matnning invariantini e‘tibordan chetda qoldiryapti, tadrijiy tarjima o‘rniga asl matn mazmuni bo‘yicha o‘z sharhi va bahosini bildiryapti.

Tarjimonning kasbiy etikasi notiq nutqining shaxsiy, individual xususiyatlariga nisbatan o'zini qanday tutish kerakligini ham belgilab beradi. Chunki notiq nutqi har doim ham me'yorlarga bo'ysunmagan bo'lishi mumkin. Og'zaki matn muallifi me'yordan turli og'ishlarga yo'l qo'yishi mumkin:

1. U shevada so'zlashi mumkin (hududiy og'ishlar).

2. Uning nutqida me'yorning mahalliy variantlari alohida belgilari kuzatilishi mumkin.

3. Uning nutqida individual nuqsonlar bo'lishi mumkin: duduqlanish, «r» yoki «l» tovushlarini chuchuk talaffuz etish, «s» tovushi o'rniga «sh», «z» o'rniga «j» aytish, dimog'da gapirish va boshqalar.

4. U nutqida "parazit"so'zlarni (kirish so'zlar) ishlatishi mumkin.

5. U tilni buzib gapirishi, boshqa tillarni aralashtirishi mumkin (chet ellik).

Bu kabi barcha vaziyatlarda notiq nutqidagi g'alati, g'ayritabiiy jihati tarjimonning har qancha kulgisini qistatsa ham, g'ashiga teksta ham, o'z munosabatini ko'rsatmasligi lozim. Buning uchun u ayni holatlarga oldindan tayyor bo'lmog'i zarur. Agar nutqdagi hududiy og'ishlar bo'lsa, tarjimon oldindan bunday o'ziga xoslik bilan tanishib chiqishi shart. Har qanday holatda ham tarjimon yo'l qo'yilgan hududiy og'ishlarni tarjimada tushirib qoldirib, uning o'rnini tarjima tili adabiy til me'yorlariga mos muqobillari bilan almashtirishi lozim.

Notiq nutqidagi uzun jumlar va qaytariqlar tarjimonga anchagina muammo tug'diradi. Agar bu takrorlar tasodifiy bo'lsa yoki gapning muhimligiga urg'u berish maqsadida aytilgan bo'lsa, tarjimon ularni qisqartirishi mumkin, biroq albatta izoh berib o'tishi shart (masalan: "Hurmatli jano'b mer baliqchilik sohasida yaqin hamkorlik qilish zarurligini uch marta ta'kidlab o'tdilar" ).

Ma'lumki, tarjimon ham tirik jon, u ham nimanidir bilmasligi yoki tushunmasligi mumkin, shu bilan birga, og'zaki tarjimon, vaqt taxchilligi vaziyatida ishlar ekan, lug'atni ochib ko'rib, ma'lumot-nomalarni varaqlab ko'rishga imkoniyati bo'lmaydi. Bu holatda, tarjimon kasbi etikasining muhim qoidalaridan biriga ko'ra, tarjimon asl matnni tushunmaslik hollari va o'zining yetarlicha malakasi yo'qligini yashirmasligi, bu haqda vaqtida xabar qilishi zarur. Shunday holatlarda, tarjimon aniqlashtiruvchi savollar berishi, takrorlashni iltimos qilishi, agar atamalarni yaxshi eshitmagan bo'lsa, eslab qolmagan bo'lsa, atamalarni bilmasa, takrorlashni, izoh berishni so'rashi mum-



kin. Basharti tarjimon oldindan ma'lum bo'lgan mavzu (ilmiy anjuman, rasmiy muzokaralar) bo'yicha tarjima qiladigan bo'lsa, avvaldan tayyorgarlik ko'rishi, o'z ishchi tezarus-lug'atini tuzish, mutaxassislardan maslahat olishi lozim.

Afsuski, tarjimonlar amaliyotda notiq nutqi tushunishmaganda, butunlay boshqacha yo'l tutishadi. Tarjimon nimanidir tushunmaganligini ko'rsatmaslikka tirishadi. Tarjima davomida tarjimon xayoliga nima kelsa, o'shani gapiradi yoki tarjimasidagi jumlalarni shunaqangi murakkab shaklda tuzadiki, tinglovchilar ham tushunishmaydi, ammo ular ham rasmiy vaziyatda bo'lganliklari bois, anglamaganliklarini bildirishmaydi. Shu tarzda, tarjimon kasbiy halollik qoidasiga rioya etmaydi hamda bu bilan unga bo'lgan ishonchni yo'qotadi. Tarjimonlarning o'z bilimi yetarli emasligini tan olmasligi natijasida yozma tarjimalarni ham buzib berishlar amaliyotda ham ko'p uchraydi.

Yuqorida tilga olingan axloqiy qoidalarning ko'pchiligi yozma tarjima uchun ham muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, yozma tarjimaning mahsuli yozma matn ekan, tarjima tilidagi yozma matnni rasmiylashtirish, matn tarkibini ifodalash qoidalariga rioya etish ham tarjimon kasbi axloqiy me'yorlariga kiradi. Agar yozma matn tarjimoni zimmasiga alohida vazifa yuklatilmasa, u matnning barcha komponentlari – sarlavha, muallif ma'lumotlari, iqtiboslar, rasmlar tagidagi yozuvlar va h.larni tarjima matnida to'liq aks ettirishi kerak. Asl matn tilidan boshqa tillardagi so'z va lavhalar (masalan, turkcha matnda fransuzcha, inglizcha so'z va iboralar, xitoycha matnda koreyscha, yaponcha so'z va birikmalar uchrasa, ular tarjima matniga o'zgarishsiz ko'chadi. Biroq ko'pincha tarjimonlarga, matnning umumiy mazmunini tushunish uchun mutaxassislar bilan gaplashib, ushbu so'zlarning qanday ma'no bildirishini aniqlashlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, hozirgi ilmiy matndagi ingliz tilidagi Summary tarjima qilinmaydi. Tarjima matnida asl matn betlari ko'rsatilishi kerak, shunda o'quvchi har ikkala matnni solishtirishi mumkin bo'ladi. Grafik ajratish belgisi (tagiga chizish, kursiv) tarjimada ham aks etishi kerak yoki o'xshash grafik belgilar bilan ajratilishi zarur. Qisqartmalar imkon qadar yoyiq shaklda berilishi va tarjima matnida asl matndagi qisqartma, uning o'girilgan yoyiq shakli hamda qisqartmasi berilishi lozim (UNO/ Birlashgan millatlar tashkiloti, BMT). Tarjima oxirida tarjimon albatta matn tarkibining to'liq tarjima qilganini tekshirib ko'rishi shart, chunki har qanday tajribali tar-

jimon ham matndagi biror o'rinni tushirib qoldirgan bo'lishi mumkin. Ushbu qoidalarining barchasiga amal qilish va matnni yozma tarjimada berish buyurmachiga bo'lgan mas'uliyatli munosabatini ta'minlaydi.

Tarjimon kasbiy talablaridan biri – uning sog'lig'i masalasidir. Tarjimon o'z sog'lig'i haqida qayg'urishi, og'zaki tarjimonlarning ovozini saqlashi darkor. Shunday vaziyat yuzaga kelgan: fransuz tili tarjimoni yuqori rasmiy doiralarda ikki tomonlama tarjimon sifatida ishtirok etgan. Ya'ni ham fransuz tilidan o'zbek tiliga, ham o'zbek tilidan fransuz tiliga tarjima qilgan. Bu tarjimon yuqori malakali bo'lishiga qaramay, biroq o'ng qulog'i shamollab qolgan. Tarjima jarayonida o'zbek tilida gapirayotgan vakilning gapini yaxshi eshitmagan va takrorlashini so'ragan. Bu hodisa uning malakasiga shubha tug'ilishiga sabab bo'lgan.

So'nggi mulohaza, tarjimon tarjima jarayonida bilib olgan ma'lumotni boshqalarga yetkazish huquqi bormi-yo'qmi, shu masalaga oid. Ma'lumotni hech kimga yetkazmasligi haqidagi hujjatga imzo chekish faqat harbiy sohada, jinoiy ishlarda, sud-huquq tizimida hujjatlar tarjimasida talab etiladi. Qolgan vaziyatlarda odatda tarjimonning ishi maxfiy emas, uning natijalari yoki ish vaqtida (anjumandagi og'zaki tarjima nashr hisoblanadi) yoki keyinchalik (kitob shaklida) nashr qilinadi. Ammo shunday vaziyatlar bo'ladiki, tarjima maxfiy bo'lishi kerak. Masalan, hukumat va ish bo'yicha muzokaralar mazmuni e'lon qilinmasligi kerak. Tarjimon nihoyatda shaxsiy bo'lgan suhbatlarda ishtirok etishi kerak. Bunday suhbat natijalarining e'loni Konstitutsiya bilan himoya qilinadigan buyurtmachilar shaxsiyatiga tegishi mumkin.

Demak, tarjimon kasbiy etikasining yuqorida sanab o'tilgan oltita qoidasiga quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

7. Tarjimon o'z sog'lig'i ustida qayg'urishi kerak, zotan, tarjima sifati uning jismoniy ahvoriga bog'liq bo'ladi.

8. Tarjimon notiq nutqidagi individual nuqsonlarga e'tibor bermasligi va tarjimada ularni tushirib qoldirishi kerak; u og'zaki tarjimada tarjima adabiy tili me'yorlariga amal qilish shart.

9. Tarjimon o'z bilimi va malakasining yetarli emasligi haqida darhol xabar berishi zarur va uning tarjimasida ko'rsatilgan kamchiliklarni berkitmasligi, balki to'g'rilashi lozim. Bu holat tarjimonning yuqori sifati va atrofda tilarning unga ishonchi kafolotidir.

10. Yozma tarjimada tarjimon buyurtmachiga bo'lgan to'g'ri munosabatni ta'minlab beradigan hujjatlarni rasmiylashtirish qoidalariga amal qilishi shart.

11. Zarur holatlarda tarjimon tarjima qilinayotgan matnning maxfiylikni sir tutishi va ehtiyoj tug'ilmaganda, uning mazmunini oshkor etmasligi kerak.

**Tarjimonning kasbiy xulqi me'yorlari.** Tarjimonning axloqiy tamoyillari birinchi navbatda o'z mehnati va uning o'z ishininng natijasi sifatiga taalluqli edi. Tarjima vaziyatidagi tarjimon xulqining umuminsoniy me'yorlari bavosita ayni muammolar bilan bog'liq.

Vaziyatga ko'ra o'zini tutish qoidalari tarjimondan u tushgan vaziyatga to'la moslashishni taqozo etadi. Buyuk olim yoki mashhur kino yulduzi kishining g'ashiga tegadigan darajada ochiq-sochiq kiyinishi yoki jamoa orasida o'zini haddan ziyod bemalol tutishi mumkin, hattoki belgilangan chegaradan chiqishi mumkin. Tarjimon o'zini bunday erkin tutishi mumkin emas, chunki u "translyator" vazifasini bajarar ekan, u e'tiborni o'ziga jalb etmasligi kerak, uning ishi – ma'lumotni yetkazish bo'g'ini vazifasini bajarishdan iborat. Shuning uchun umum tomonidan qabul qilingan tartib-intizom qoidalariga muvofiq, shuningdek, did va nazokat bilan kiyinishi zarur. Masalan, masalan u rasmiy tushlikda ishtirok etsa, yeyishi va ichishi mumkin emas. Norasmiy muloqotda ham, mavzu qanchalik qiziqarli bo'lmasin, tarjimon teng huquqli suhbatdosh sifatida ishtirok eta olmaydi. Chunki bu holatlarda u birlamchi manbaning ma'lumotiga o'zgartirish kiritishi va "translyator" sifatidagi ishonchliligini yo'qotishi mumkin. Tarjimonning vazifasi vaziyatga moslashish, ammo ishini bajarishdan iborat.

Kiyinishda axloq qoidalariga amal qilish va saranjom-sarishtalik tarjimonga ortiqcha diqqat jalb etmaslikda muhim rol o'ynaydi. Chunki, afsuski, agar tarjimon betartib keyingan bo'lsa, so'zlovchining nutqini bo'laversa, o'zini erkin, bemalol tutsa, uning tarbiyasizligi muloqot ishtirokchilariga salbiy ta'sir ko'rsatadi, axborotni qabul qilishiga xalaqit qiladi. Natijada tarjimonga ishonchsizlik bilan qarashadi. Yoqimsiz taassurot uyg'otar ekan, tarjimon o'z tarjimasiga nisbatan ham ishonchsizlik bilan qaralashiga sabab bo'ladi.

Shu bilan birga, tarjimon tomonidan kasbiy xulqi doirasini o'z ixtiyori bilan buzgan, biroq ijobiy taassurot qo'ldirgan holatlar ham bo'lgan. Odatda bu holatlar keng umumiy filologik bilimlarga ega bo'lgan tarjimonlar, masalan, universitetni tugatganlar va jamoada o'zini tutishni biladiganlarga taalluqli. Ular aql-zakovatli odamlar va qiziqarli suhbatdoshlar bo'lishadi. Bunday tarjimonlar suhbatda teng

ishtirok etish va o'z fikrini bildirishga o'rganishgan. Biroq ularning haqiqiy tarjimon kasbini bajarishlari qiyinchilik tug'diradi. Ular doim suhbatga aralashishadi, har ikkala tarafga ham o'z munosabatini bildiradi, uni qiziqtirmagan yoki o'zi ahamiyatsiz hisoblagan luqmalarni tushirib qoldiradi yoxud e'tibor bermaydi. Bu hollarning barchasi tarjimon axloqiy me'yorlarining buzilishi hisoblanadi. Axir tarjimon hattoki ovozining ohangi bilan ham tarjimasini mazmuniga o'z munosabatini bildirishga haqli emas. Shuning uchun ko'pchilik firmalar bunday erkin tarjimonlarga qaraganda tilni yetarlicha kam bilsada, o'zini tutishni biladigan tarjimonlarni ijobiy qabul qilishi tasodif emas. O'zini erkin tutuvchi tarjimonlar esa odatda o'zini tarjimon sifatida qabul qilishmaydi yoki bu kasbni o'z karerasidagi oraliq bosqich yoxud qo'shimcha ishlab topiladigan pul manbai, deb o'ylashadi.

Tarjimonning kasbiy burchlari chegaralari ko'pincha aniq belgilanmagan bo'ladi, har bir aniq vaziyatda tarjimon o'z vazifalarining belgilanishida faol ishtirok etishi kerak. Chunki sinxron tarjimondan kun bo'yi anjumanda og'zaki tarjima qilib bo'lganidan keyin kechqurun anjuman hujjatlarini tarjima qilib berishni so'rab qolishlari mumki. U uyda kechasi bilan tarjima qilib chiqib, ertasiga yana to'yib uxlab olmasdan, og'zaki tarjimalarda ishtirok etishi kerak bo'ladi. Tarjimon bu holatda buyurtmachilarga keyingi kungi tarjima ishi sifatini xavf ostiga qo'yilayotganini tushuntirishi kerak. Chet elga ketayotgan guruhga biriktirilgan tarjimonning ishi ayniqsa og'ir bo'ladi. U bunda guruhning har bir a'zosi shaxsiy tarjimon vazifasini ijro etishi, barcha rasmiy va norasmiy tadbirlarda tarjima ishlarini bajarishi (press-konferensiyadan tortib restorangacha), ekskursivod gid ishini qilishi, madaniyatlararo muloqot uchun maslahat berishi, ba'zida hattoki ish boshqaruvchi, menejer, guruhning barcha hujjatlarini yozma tarjimoni bo'lib ishlashi, barcha ishga oid va shaxsiy telefon muloqotlarini olib borishiga to'g'ri keladi. Tarjimon kino suratga olinayotganda ko'pincha rejissyorning ikkinchi yordamchisi, hattoki ssenariyning hammuallifiga aylanadi. Ishning sifatini ta'minlashni ko'zlagan tarjimon bu mushkul vaziyatda ham o'zining bandligi darajasiga doim diqqat qaratishi va uni oqilona chegaralanishiga muvaffaq bo'lishi zarur.

Afsuski, quyi va o'rta bo'g'in tarjimonlari ko'pincha hamma narsaga tayyor bo'lishadi: professionalizmning yetarli emasligini va

kasbiy axloq borasidagi savodsizlik ularni boshi berk ko'chaga olib kirib qo'yadi. Natija esa kunday ayon: tarjimaning sifatining pastligi – ish haqining kamligi – o'z-o'zini hurmat qilmaslik (har qanday ishga rozilik). Tarjimonlar o'z-o'zini hurmat qilmasligi oqibatida bu sharaflı kasbning obro'si to'kilmoqda.

Tarjimon ishiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillardan yana biri uning kasbiga, ishiga ikkinchi darajali deb qaralishida namoyon bo'ladi. Bu holat ham tarjimonlarning o'zini-o'zi hurmat qilmasligiga sabab bo'ladi. Chunki ko'pincha tarjimonlarga ikkinchi darajali xizmat ko'rsatuvchi xodimga qaraganday qarashadi. Eng murakkab kasblardan biri hisoblangan tarjimonlikka bunday past nazar bilan qarash, ehtimol, tarjimonlarning xizmatidan foydalanadiganlar munosabati oqibatida shakllangan bo'lsa kerak. Tarjimon buyurmachilarning kasbi haqidagi munosabatidan qat'i nazar o'z mehnatini yuqori baholashi zarur. Qisqacha qilib aytganda, har bir mutaxassis o'z qadrini bilishi kerak va o'z-o'zini yuqori baholashi lozim.

Shu paytga qadar, tarjima sharoitida tarjimonning o'zini tutishdagi umuminsoniy tamoyillar haqida gapirar ekanmiz, biz konstruktiv muloqot vaziyatini nazarda tutdik. Ammo ba'zan muloqot doirasida munozarali vaziyatlar ham yuzaga kelishi mumkin. Albatta, tarjimonning qo'ldan munozarani hal qilish kelmaydi. U har qancha istasa ham, vaziyat murakkabligini hisobga olgan holda, o'zini axloq qoidalari mutanosib tutishga muvaffaq bo'lishi kerak. Har qalay, u o'z sha'niga nomunosib bo'lgan ishni qilmasligi kerak, biroq bunda taraflar tomonidan aytilgan gaplarning qaysi birini tarjima qilish-qilmasligini hal qilishi darkor. Axloq-odob qoidalari tarjimonga urush-janjalda qatnashish, so'kish, haqorat gaplarni tarjima qilishga izn bermaydi. Tarjimon ularning gaplari umumiy mazmunini adabiy til me'yorlariga asosda qilishi, haqorat so'zlarini faqat izohlab o'tishi kerak, masalan: «X xonim qo'pol haqorat so'zlarini ishlatdi».

### **Nazorat uchun savollar**

1. "Tarjimon kasbi etikasi", "axloqiy tamoyillar", "kasbiy xulq me'yorlari"ni B/B/B jadvali asosida guruhlashtiring.
2. Tarjimon kasbga yaroqlilik talablari nimalarni o'z ichiga oladi?
3. "Tarjimonning huquqiy mavqei" deganda nimani tushunasiz?
4. Tarjimaning texnik ta'minotiga nimalarni kiritish mumkin?

5. Tarjimon “translyator” bo‘lishi kerak, degan fikrga munosabat-ingizni bildiring.

6. Tarjimonning ish faoliyatida notiq nutqida qanday “og‘ishlar” muammo tug‘dirishi mumkin?

7. Tarjimonning kasbiy xulqi me‘yorlarini sanag va izohlang.

### 2.2.2. Tarjimon mahorati: kasbiy yaroqlilik masalasi va kasbiy talablar

**Tayanch so‘z va iboralar:** *kasbiy yaroqlilik, kasbiy talablar, nutqiy hozirjavoblik, yaxshi xotira, ruhiy barqarorlik, tez moslanuvchanlik, kirishuvchanlik, o‘qimishlilik, tarjimaning texnik ta‘minoti, tarjimonning huquqiy va ijtimoiy mavqei, mualliflik huquqi.*

“Kasbiy yaroqlilik” deganda, odatda mazkur faoliyatni amalga oshirish uchun tabiatan ato etilgan qobiliyat va ruhiy tayyorgarlik tushuniladi. “Kasbiy talablar” nisbatan keng tushuncha bo‘lib, u kasbga yaroqlilik tushunchasi bilan birgalikda bir qator ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lish ham talab etiladi. Ushbu ikki tushunchaning bir o‘rinda berilishi tasodif emas. Boshqa kasblarda bo‘lgani kabi, tarjimonda tabiatan ato qilinadigan xususiyatlarni o‘qish-o‘rganish jarayonida ham egallash, rivojlantirish, takomillashtirish mumkin.

Kasbiy yaroqlilikni ta‘minlovchi belgilar sirasiga quyidagilar kiradi: nutqiy hozirjavoblik, yaxshi xotira, ruhiy barqarorlik, tez moslanuvchanlik, kirishuvchanlik, o‘qimishlilik.

*Nutqiy hozirjavoblik* begona nutqni tez qabul qilish va tezlik bilan o‘z nutqini yaratish qobiliyatidir. Hattoki bu qobiliyat tabiatan ato etilgan bo‘lsa-da, uni har qanday vaziyatda ham tizimlashtirish va rivojlantirish kerak. Ba‘zi insonlar uchun haddan tashqari asabiy so‘zlash xosdir. Bunday odamlar og‘zaki tarjima sohasida ishlashni istasa, o‘zini -o‘zi boshqarishni o‘rganishi zarur. Kamdan-kam vaziyatlarda insonlarda nutq tezligini rivojlantirish qobiliyati bo‘lmaydi. Bu singari odamlarga og‘zaki tarjimani tanlashga hojat yo‘q.

Endi *xotira* masalasiga to‘xtalaylik. Favqulodda xotira egasi bo‘lgan odamlar ko‘p emas. Tarjimonga kasbga moslashgan, ma‘lum bir tartibga bo‘ysungan xotira kerak. Tarjimon xotirasi, bir tomondan, katta hajmdagi axborotni saqlashi kerak, ikkinchi tomondan, ortiqcha bo‘lgan, zarur bo‘lmagan ma‘lumotni tezlik bilan unutishi darkor.

Uzoq muddatga mo'ljallangan xotira o'z ona tili va chet tilidagi nisbatan katta hajmdagi leksikani faol leksika sifatida qamrab olishi kerak. Operativ xotira oddiy odam xotirasiga nisbatan ko'proq til birliklarini qisqa muddatga eslab qolish xususiyati bilan xarakterlanadi. Demak, tarjimon yaxshi xotiraga erishish uchun ko'p mashq qilishi kerak.

*Tez moslanuvchanlik* u yoki bu darajada barcha odamlarga xos xususiyatdir. Ayollar erkaklarga nisbatan tez moslashadi, degan qarash ham bor. Ammo tarjimada bir tildan boshqa tilga tez o'tish uchun o'ziga xos shakldagi moslanuvchanlik zarur.

Shu bois, avvalboshdan mavjud bo'lgan tez moslanuvchanlik tarjimaga o'rganish jarayonida rivojlanib, til doirasida bir tildan boshqa tilga tez o'tish uchun barqaror ko'nikma va malakaga aylanishi kerak.

*Ruhiy barqarorlikni* tarjima bo'yicha ko'pchilik mutaxassislar kasbga yaroqlilik tarkibiga kiradigan xususiyatlar orasida birinchi o'ringa qo'yishadi va bu tasodif emas. Chunki majburan uzoq so'zlash, ko'p marta ikki tildagi nutqqa qayta-qayta moslashish, nutqning yuqori tezligi, kun bo'yi o'z munosabatini bildirmagan holda begonalarning fikrlariga quloq solish zarurati – bularning barchasi ortiqcha ruhiy zo'riqishga olib keladi. Ruhiy barqarorlik tug'ma og'ir-vazminlikdan tashqari, o'zini tutish, iroda, ishtiyok, murakkab vaziyatlardan chiqish yo'llarini topish qobiliyatini taqozo etishidan ma'lum bo'ladiki, ruhiy barqarorlikka erishish uchun o'z ustida ongli ravishda ishlash, xarakterini mukammallashtirishga harakat qilish kerak.

*Kirishuvchanlik*, ya'ni har bir odamga tug'ilishdan xos bo'lgan, boshqa odamlar bilan muloqot qilishga intilish xususiyati. Ko'p odamlarda shaxsiyati shakllanishi mobaynida boshqalar bilan muloqoti cheklanadi, hayotiy tajriba, kasbiy faoliyatning o'ziga xos xususiyatlari, hayotidagi maqsadlari natijasida odamovi bo'lib qoladi. Ammo bir qator kasblarda, xususan, tarjimonlik kasbida kirishuvchanlik darajasi yuqori bo'lishi kerak. Bu o'rinda insonga tabiatan ato etilgan tug'ma muloqotga ochiqlik emas, balki *aloqaga ongli ravishdagi ruhiy yo'nalganlik* nazarda tutilmoqda. Tarjimon nafaqat tillar bo'yicha, balki kamida kamida ikki madaniyat va xalq bo'yicha ekspert ekanligini yaxshi anglamog'i zarur va taraflar o'rtasidagi aloqani yaxshilashga ko'mak berishi kerak.

Va nihoyat, *o'qimishlilik*. Bu o'rinda ensiklopedik bilim emas, balki zarur vaqtda qo'llash mumkin bo'lgan keng bilim, ijodiy fikrlash

tarzi, tiyrak aql-zakovat nazarda tutilmoqda. Mazkur vaziyatda hamma narsa – bolalikda olingan bilim, qiziqishlar doirasining kengligi, faol mustaqil ta'lim ham yuqori darajada ko'mak beradi. Tarjimon keng qamrovli qiziqish, ko'p qirrali dunyoqarash sohibi bo'lishi zarur, chunki u turli kasbdagi odamlar bilan, har xil mavzudagi va uslubdagi matnlar bilan ishlaydi, shuning uchun biron-bir tor soha bo'yicha ixtisoslashish (hattoki shu soha bo'yicha tarjimon bo'lsa ham) uni vaziyatdan qutqarmaydi.

Endi kasbiy talablarga diqqat qarataylik:

1. Tarjimon mutaxassislar ko'rigidan o'tib turishi, sozlangan ovozga ega bo'lishi va undan foydalanishni bilishi darkor, shuningdek, ovoz zo'riqqan paytda uni qayta tiklash usullarini ham bilishi zarur.

2. Bexato talaffuz, nutqiy nuqsonlarning mavjud emasligi tarjimon kasbiy talablaridan biridir.

3. Tarjimon tarjimaning texnik usullarini egallagan bo'lishi kerak. Ularga: mnemotexnika (eslab qolish usullari); turli tipdagi kodlash-tirishlarni o'zlashtirish ko'nikmasi, nutqni qisqartirish va kengaytirish malakasi, transformatsiyaning turli ko'rinishlari – tavsifiy tarjima, generalizatsiya, antonimik tarjima, kompensatsiyani qo'llash qobiliyati kiradi.

4. Tarjimon lug'atlar va axborotning boshqa manbalarini qo'llashni bilishi lozim.

5. Tarjimon o'z notatsiyasiga (shartli yozma belgilar tizimi) ega bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

6. Tarjimon chet tilini bilingvistga yaqin darajada bo'lishi, shuningdek, bu tilda so'zlashadigan xalqning madaniyatidan xabardor bo'lmog'i zarur.

7. Tarjimonning ona tilidagi va chet tilidagi asosiy nutqiy janrlar, matnlar tiplarida so'zlash va yozishni egallagan bo'lishi uning kasbiy faoliyatining muvaffaqiyatini ta'minlaydi.

8. Tarjimon muntazam har ikki tildagi so'z boyligi zaxirasini to'ldirib borishi kerak.

**Tarjimaning texnik ta'minoti.** Tarjimon kasbga oid bilim va ko'nikmalardan tashqari, uning faoliyatida ko'mak beradigan turli moslamalar, qurilmalar, shuningdek, yordamchi vositalardan oqilona foydalana bilishi darkor.

Tarjimonning eng oddiy yordamchisi – bu uning yon daftarchasi. Yon daftarchada qaydlar vertikal tarzda yoziladi, bunda yoki tarjimon



o‘zi ishlab chiqqan yoxud tarjima dunyosida mashhur bo‘lgan qaydlar tizimlaridan foydalana bilishi kerak.

Og‘zaki nutq tarjimoni (u sinxronist tarjimon bo‘lmasa ham) sinxronist bo‘lmasida ishlashni bilishi lozim, ya‘ni bu bo‘lmadagi qurilmalar va texnik asboblarni qo‘llashdan xabardor bo‘lishi zarur. Bo‘lmadagi tovush sifati past bo‘lsa yoki tovush sifati qoniqarli bo‘lmasa, u darhol doim bo‘lmaga yaqin joyda joylashadigan naybatchi texnik xodimga murojaat qilishi kerak. Bunday texnika bilan birinchi tanishuv odatda tarjimonlarni o‘qitish jarayonida, o‘quv konferens-zalida va maxsus moslamalar bilan ta‘minlangan xonalarda (masalan, «Prizma» va «Spektr» moslamalari bilan jihozlangan) bo‘lib o‘tishi kerak. Tarjimon, shuningdek, magnitafon, videomagnitafon, diktafon, kompyuterni ishlatishni bilishi kerak. Zamonaviy darajadagi tarjimon Internetdan foydalanish, elektron lug‘atlarni ishlata olish ko‘nikmalarini ham talab etadi.

**Tarjimonning huquqiy va ijtimoiy mavqei.** Har bir davlatda tarjimon ishi mehnat qonunchiligi me‘yorlari bilan boshqariladi. Tarjimon biron-bir muassasa yoki firmaga shtatga ishga qabul qilinishi mumkin yoki u bilan ma‘lum bir tarjima ishlarini bajarish bo‘yicha shartnoma tuzilishi mumkin. Tarjimonning har bir ish faoliyati oldindan kelishib olinishi va shartnomada aks etishi zarur. Masalan, yozma tarjima uchun nashriyot bilan shartnoma tuziladi, shartnomada tarjimonning tarjimaga mualliflik huquqi bo‘yicha alohida band bo‘lishi zarur, ya‘ni tarjimon bu huquqdan ma‘lum bir vaqtga foydalanishni nashriyotga topshirishi qayd etiladi.

Tarjimon o‘zining faoliyati huquqiy mavqeini belgilashda faol ishtirok etishi zarur. Buning uchun u “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi”ni yaxshi bilishi, O‘zbekiston Respublikasining 1995 yil 21 dekabrda qabul qilingan 161–I-sonli Qonuni bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksini, O‘zbekiston Respublikasining 2006 yil 20 iyulda qabul qilingan «Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida»gi O‘RQ-42-sonli Qonuni mazmunini yaxshi bilishi zarur. O‘z faoliyatining kundalik huquqiy masalalari bo‘yicha huquqshunosdan maslahat olishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasining 2006 yil 20 iyulda qabul qilingan «Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida»gi O‘RQ-42-sonli Qonunining 7-moddasida tarjima asarlarining ham mualliflik huquqi bilan himoya qilinishi belgilab qo‘yilgan:

**“7-modda. Mualliflik huquqi ob’ektlari hisoblanuvchi asar-ning qismlari, hosila va jamlama asarlar.**

Ushbu Qonunning 5-moddasida belgilangan talablarga javob beradigan:

asarning mustaqil ravishda foydalanilishi mumkin bo‘lgan qismlari (shu jumladan uning nomi);

hosila asarlar (tarjimalar, ishlanma asarlar, annotatsiyalar, referatlar, muxtasar xulosalar, sharhlar, inssenirovkalar, aranjirovkalar, sod-dalash tirishlar hamda fan, adabiyot va san’at asarlarining boshqa qayta ishlanmalari);

to‘plamlar (ensiklopediyalar, antologiyalar, ma’lumotlar bazalari) va materiallarning tanlanganligi yoki joylashtirilganligiga ko‘ra ijodiy mehnat natijasi bo‘lgan boshqa jamlama asarlar mualliflik huquqi ob’ektlari hisoblanadi.

Hosila va jamlama asarlar, ularning yaratilishi uchun asos bo‘lgan yoki ularning tarkibiga kirgan asarlar mualliflik huquqi ob’ektlari bo‘lishi yoki bo‘lmasligidan qat’i nazar, mualliflik huquqi bilan muhofaza qilinadi”.

Endi ushbu Qonunning 5-moddaga kiritilgan muallif huquqi ob’ektlariga diqqat qilamiz:

**“5-modda. Mualliflik huquqi ob’ekti.**

Mualliflik huquqi ijodiy faoliyat natijasi bo‘lmish fan, adabiyot va san’at asarlariga nisbatan, ularning maqsadi va qadr-qimmatini, shuningdek ifodalanish usulidan qat’i nazar, tatbiq etiladi.

Mualliflik huquqi quyidagi biron-bir ob’ektiv shaklda bo‘lgan oshkor qilingan asarlarga ham, oshkor qilinmagan asarlarga ham tatbiq etiladi:

yozma (qo‘lyozma, mashinkalangan yozuv, notali yozuv va hokazo);

og‘zaki (omma oldida so‘zlash, omma oldida ijro etish va hokazo);

ovozli yoki video yozuv (mexanik, magnitli, raqamli, optik va hokazo);

tasvir (rasm, eskiz, manzara, tarh, chizma, kino-, tele-, video-yoki fotokadr va hokazo);

hajmli-fazoviy (haykal, model, maket, inshoot va hokazo);

boshqa shakllardagi.

Mualliflik huquqi g‘oyalar, prinsiplar, uslublar, jarayonlar, tizimlar, usullar yoki konsepsiyalarga emas, balki ifoda shakliga nisbatan tatbiq etiladi.”

Ayni chog‘da rasmiy hujjatlar tarjimasida mualliflik huquqiga ega emasligi ham qayd etilgan:

**“8-modda. Mualliflik huquqi ob’ektlari hisoblanmaydigan materiallar**

Quyidagilar mualliflik huquqi ob’ektlari bo‘lmaydi:

rasmiy hujjatlar (qonunlar, qarorlar, to‘xtamlar va shu kabilar), shuningdek ularning rasmiy tarjimalari.”

Yana bir masalaga to‘xtalib o‘tishimiz kerak: tarjimon shtatda ishlaydimi yoki shartnoma bo‘yicha ishlaydimi, baribir ushbu tashkilot yoki firmaning manfaatlari uchun xizmat qiladi. Albatta, bu holatda tarjimonning “neytral translyator” bo‘lishini talab qilib bo‘lmaydi. Shu sababli, xalqaro, davlatlararo muzokaralarda ikki tarafdan ham tarjimon ishtiroki bejiz emas. Ikki tarafdan o‘z tarjimonining qatnashishi vaziyatni neytral baholashga ko‘mak beradi. Tarjimon etikasini buzishi mumkin bo‘lgan holatlarning oldini olish masalalarining yechimini oxirgi paytlardagina izlay boshlashdi. Masalan, BMT va Yevropa Ittifoqi tashkilotlarida “xalqaro aloqalar bo‘yicha xodim” huquqi kiritilgan bo‘lib, unga bo‘ysunadigan tarjimon faqat shu tashkilotga xizmat ko‘rsatadi va hech bir mamlakatga tobe bo‘lmaydi.

Butun dunyodagi tarjimonlar o‘z kasbiy huquqlarini himoya qilish, obro‘ini mustahkamlash, tarjiba almashish, axborot almashish, mehnat bozorini tartibga solishda ishtirok etish maqsadida turli uyushmalar, assotsiatsiya va ittifoqlarga birlashmoqda. Nisbatan mashhur bunday birlashmalar qatorida quyidagilarni tilgan olish mumkin: FIT (Federation Internationale des Traducteurs) – Tarjimonlarning xalqaro federatsiyasi; AIS (Association Internationale des Interpretes de Conference) – Og‘zaki Konferens-tarjimonlarning xalqaro assotsiatsiyasi, CEATL (Conseil Europeen des Associations de Traducteurs) — Yevropa badiiy matn tarjimonlarining assotsiatsiyasi va boshqalar. Deyarli har bir mamlakatda tarjimonlar ittifoqi mavjud. Masalan, AQShda ATA – Amerika tarjimonlar assotsiatsiyasi; Germaniyada BDU – Yozma va og‘zaki tarjimonlarning federal ittifoqi, VdU – Badiiy va ilmiy adabiyot tarjimonlari federal ittifoqi va h. Bu tashkilotlarning aksariyati Ikkinchi jahon urushidan keyin, tarjimon kasb sifatida mavqe qozonganidan keyin tashkil topgan.

Hozirda mamlakatimizda O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasida Xalqaro aloqalar va badiiy tarjima bo‘limi va ayni nomdagi kengash faoliyat ko‘rsatmoqda. Ushbu bo‘lim hamda kengashga filologiya

fanlari nomzodi, dotsent Adhambek Alimbekov raislik qilmoqda. Xalqaro adabiy aloqalar va badiiy tarjima bo'limining bajaradigan vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Tarjimonlar bilan ishlash va ular bilan shartnoma tuzish uchun rahbariyatga tavsiya berish;

2. Tarjima qilingan asarlar qo'lyozmasini kengash muhokamasidan o'tkazish;

3. Tugallangan qo'lyozmalarni tegishli hujjatlar:

a) taqrizlar;

b) kengash qarori va hk. bilan Yozuvchilar uyushmasi rahbariyatiga tavsiya qilish.

### **Nazorat uchun savollar**

1. Tarjimonning "kasbiy yaroqliligi" va "kasbiy talablari" deganla nimani tushunasiz?

2. Tarjimonlik mahoratini shakllantirishda nutqiy hozirjavoblik va yaxshi xotirani o'rni va rolini tushuntirib bering.

3. Nima sababdan malakali tarjimon "ruhiy barqarorlik", "tez moslanuvchanlik", "kirishuvchanlik", "o'qimishlilik" kabi talablarga javob berishi kerak?

4. Nima sababdan tarjimonning huquqiy va ijtimoiy mavqei masalasi diqqat markazda turishi kerak?

5. Sizningcha, tarjimon ishi natijasi mualliflik huquqi bilan himoyalinishi kerakmi va qanday tartibda?

### 3-BO‘LIM

## TARJIMON MAHORATINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

**Maqsad:** tarjima strategiyasi va tarjima amallari haqida tushuncha hosil qilish, tarjima oldi tahlili va tarjimadan keyingi tahririni amalga oshirish ko‘nikmalarini shakllantirish.

### 3.1. “Tarjima strategiyasi” tushunchasi

**Tayanch so‘z va iboralar:** *tarjima strategiyasi*, “*tarjimon amallari*”, *think aloud* («*ovoz chiqarib o‘ylash*»), X. Krings, *makrostrategiya*, *mikrostrategiya*.

Tarjima amaliyotida “tarjima strategiyasi” tushunchasi anchadan beri mavjud. Bu tushuncha ostida ma‘lum bir matnning tarjimasida tarjimon tomonidan qo‘llaniladigan xatti-harakatlarning mohiyati va tartibi tushuniladi. Ba‘zan bu vaziyatda “tarjimon amallari” tushunchasi ham qo‘llaniladi.

Biroq “tarjima strategiyasi” tushunchasi tarjimashunoslik diqqatini so‘nggi paytlarda jalb etdi. Keyingi yillarda D. Seleskovich va M. Lederer, S. Bassnett-Makgayr va X. Krings kabilar bu masala bilan shug‘ullana boshlashdi<sup>1</sup>. Tarjimadagi qo‘llaniladigan amallarning tahlilini birinchilardan boshlagan olim sifatida Yu. Xols-Myanttyarini tilga olish mumkin<sup>2</sup>. Tarjima strategiyasini ishlab chiqishga o‘rgatuvchi amaliy qo‘llanmalar ham mavjud. Eng mashhur amaliy qo‘llanmalardan biri X. G. Xenig va P. Kusmaulning «Strategie der Ubersetzung» (5-nashri 1999 yilda chiqqan) kitobi bo‘lib, unda bo‘ljak tarjimonlar keng faktik materiallar misolida to‘g‘ri qaror qabul qilishga o‘rgatiladi.

Shu bilan birga, “tarjima strategiyasi” tushunchasining nazariy asoslanganini kam holatlarda kuzatamiz. Ustiga-ustak, odatda strategiya haqidagi fikrlarda ko‘proq yo‘l-yo‘riq ko‘rsatuvchi tavsiyalar uchraydi.

---

<sup>1</sup> Seleskovich D., Lederer M. *Interprete r p o u r traduire*. – Paris, 1987; Bassnett-McGuire S. *Translation Studies*. – Methuen; London and New York, 1980; Krings H. P. *Wasinden Kopffenvon Ubersetzem vorgeht*. – Tubingen, 1986;

<sup>2</sup> Holz-Manttari J. *Translatorisches Handeln. Theorie und Methode*. – Helsinki, 1964.

Tarjima strategiyasining ob'ektiv va sub'ektiv komponentlarini aniqlash va bu tushunchaning mohiyatini belgilashga harakat qilamiz. Bu o'rinda "tarjimon amallari" va "tarjima strategiyasi" tushunchalari o'rtasidagi farqni belgilab olish kerak. "Tarjimon amallari" deganda, tarjimani amalga oshirishda qo'llaniladigan barcha imkoniy xatti-harakatlar yig'indisini tushunamiz, "tarjima strategiyasi" deganda esa ma'lum bir matn (yoki matnlar majmuini) tarjimasi uchun tarjimon tomonidan ongli ravishda bu xatti-harakatlardan tanlab olib, ishlab chiqqan algoritmini nazarda tutamiz.

Yu. Xols-Myanttyarining ta'kidlashicha, tarjimadagi amallarning mazmuni birinchi navbatda ekspert sifatidagi kommunikativ faoliyatda emas, balki ma'lum bir niyatda boshqa odamlar uchun muayyan "mahsulot"ni (bunda u "dizayner mahsuloti" atamasini ishlatadi) yaratishda namoyon bo'ladi<sup>1</sup>. Tarjimon amallariga berilgan bu tavsifga X. Risku tarjimonning respipientlar bilan muloqotda bevosita ishtirok etishi zarurligini qo'shimcha qiladi. Bu muloqot natijasida tarjimon respipientga qanday matn kerakligini aniqlashtiradi<sup>2</sup>.

Tarjimon amallarini "dizaynarlik mahsuloti"ni yaratish jarayoni tarzida tavsiflar ekan, Yu. Xols-Myanttyari "matn dizayni" uchun zarur bo'ladigan quyidagi amallarni sanab o'tadi:

— "mahsulot" haqidagi o'z tasavvurlarini va unga bo'lgan ehtiyojni aniqlashtirish;

— O'z xatti-harakatlari rejasini tuzish;

— Matnni yaratishni boshlash;

— Bu jarayonni nazoratda tutish;

— Tarjima usullarini izlash;

— Topilgan materialni aynan shu vaziyatga moslashtirib o'zgartirish;

— O'z qarorlarini asoslash;

— O'z xatti-harakatlarini muntazam ravishda moslashtirib borish<sup>3</sup>.

Aksariyat tadqiqotchilar tarjima amallari va ularning qo'llanilish ketma-ketligi (ya'ni strategiyalari) haqida o'z fikrlarini bildirishar

<sup>1</sup> Holz-Manttari J. Evolutionare Translationstheorie // Die Evolutionare Erkenntnistheorie im Spiegel der Wissenschaften. – Wien, 1996. – S. 306-332.

<sup>2</sup> Risku H. Constructivist Consequences: Translation and Reality // New Trends in Cognitive Science. – Wien, 1997.

<sup>3</sup> Holz-Manttari J. Textdisign – verantwortlich und gehirngerecht // Traducere navem. Festschrift fur Katharina Reiss zum 70. Geburtstag / Hrsg. J. Holz-Manttari, Ch. Nord. – Tampere, 1993.

ekan, odatda yozma tarjimani e'tiborda tutishadi. Bu o'rinda M. Lederer tomonidan sinxron tarjima materiallari misolida chiqargan xulosalari alohida ahamiyat kasb etadi. Unga ko'ra, aksariyat vaziyatlarda tarjimon amallari tarjimaning har xil ko'rinishlari uchun bir xil ado etiladi. M. Lederer sinxronist tarjimon ishi davomida kuzatiladigan 8 xil amalni ajratadi:

1. Og'zaki nutqni qabul qilish.
2. Eshitilganni anglash.
3. Asl matndan olingan birliklarning anglangan ma'nolarini avvalgi bilimlar bilan birlashtirish.
4. Kognitiv xotira asosida tarjima tilida jummalarni shakllantirish.
5. Jummalarning unsurlarini avtomatik tarzda reallashadigan bevosita muqobillarini qo'llash orqali chet tilida tiklash.
6. Verbal xotira orqali jumla unsurlarini tiklash (anglangan tushunchani ifodalash uchun so'z izlash).
7. Tarjimonning o'z nutqiga quloq solib tekshirishi.
8. O'rab turgan muhitning anglanishi<sup>1</sup>.

Qayd etilgan amallardan faqat yettinchisi "tarjimonning o'z nutqiga quloq solib tekshirishi" yozma tarjimada ishlatilmaydi. Qolgan amallar ozmi-ko'pmi darajada, ayrim hollarda ma'lum bir shaklda o'zgargan holda qo'llaniladi. Og'zaki nutqni qabul qilish yozma matni qabul qilishga o'xshash bo'ladi, biroq yozma tarjimada ko'rish reseptorlari ishga tushadi. Yozma tarjimada matn birliklari tushunchalarini tarjimonning oldingi bilimlari bilan birlashtirilishi tarjimon tomonidan nafaqat avvalgi, balki keyingi matndan anglangan ma'noviy birliklarni ham qamrab oladi. O'rab turgan muhiyatni anglash amalini yozma tarjima uchun situativ vaziyatni anglash deya moslashtirish mumkin.

Qayd etish kerakki, hattoki sinxron tarjimada ham alohida tarjimon amallari ma'lum bir tartibda bajariladi, albatta, ular bir paytda ham bajarilishi mumkin. Masalan, og'zaki tarjimada vaziyatni tushunish va qabul qilish ustma-ust va bir paytda qo'llanilishi mumkin, shunday bo'lsa-da, anglash qabul qilishdan avval ro'y berishi mumkin emas. Bir qator olimlar tarjima jarayonini bosqichlar sirasi sifatida ko'rishadi. Masalan, J. Delil quyidagi 3 bosqichni ajratishni taklif etadi: anglash, qayta ifodalash, tahlilning tasdiqlanishi, bunda

<sup>1</sup> Lederer M. La traduction simultanee. Experience et theorie. – Paris, 1981.

har bir bosqich yanada o'z ichida kichikroq bosqichlarga bo'linadi<sup>1</sup>. S. Bassnett-Makgayrning fikricha, muqobil tarjimani yaratishning kafo-lati bo'lgan tarjimon amallarining ob'ektiv mavjud bo'lgan aniq tartibi mavjud<sup>2</sup>.

Tarjimon amallariga va ularning ketma-ketligiga yuqorida beril-gan ta'riflarda "tarjima strategiyasi" haqidagi tasavvur yashiringan. Haqiqatda asl "tarjima strategiyasi" tushunchasiga birinchi bo'lib X. Krings e'tibor qaratgan. **think aloud** («ovoz chiqarib o'ylash») meto-dikasini qo'llash orqali to'plangan tajriba materiallariga asoslanib, "tarjima strategiyasi" tushunchasi ostida aniq tarjimaga oid muam-moni hal qilishga qaratilgan tarjimonning ongli rejalarini tushunishni taklif etadi. X. Krings tarjima strategiyasining ikki turini tasniflash fikrini ilgari suradi: Makrostrategiya – bir qator tarjima masalalarini hal etish usullari majmuini hamda mikrostrategiyani – bir vazifani hal qilish usullari majmuini ajratadi. Makrostrategiya nuqtai nazaridan tarjima jarayonida muallif 3 bosqichni ajratadi: tarjima oldi bosqichi, sof tarjima va tarjimadan keyingi bosqich. Bir qator tarjimonlarning guvohligiga ko'ra, birinchi va uchinchi bosqich fakultativ, ya'ni ixtiyoriy xarakterga ega.

X. Krings, xususan, chet tiliga tarjima qilish va chet tilidan tar-jima qilishda tarjima strategiyalari algoritmi farqlanishi mumkinligini qayd etib o'tadi. E'tiborga molik jihati shundaki, chet tiliga o'girishda, tarjimon chet tilini to'liq (ona tili darajasida) egallamaganligi sababli muqobilarni topishda qiyinaladi, shuning uchun unga ko'pincha mu-qobilni aniqlash ishini osonlashtirish maqsadida asl matn tilida fikrni qayta ifodalashiga to'g'ri keladi. Chet tilidan o'girishda, aksincha, tarjimon mukammal biladigan ona tilidagi lug'at boyligidan tanlab qo'llashi kerak bo'ladi.

Tarjima strategiyasining asosiy uch bosqichiga quyida batafsilroq to'xtalamiz.

### Nazorat uchun savollar

1. "Tarjima strategiyasi" tushunchasi bo'yicha qaysi tarjima-shunos olimlar fikrini bilasiz? Ulardan qaysi mulohazalarga qo'shilasiz?

<sup>1</sup> Delisle J. L'analyse du discours commemethode de traduction. – Ottawa, 1984.

<sup>2</sup> Бу хакда каранг: Комиссаров В. Н. Современное переводоведение. – М., 1999. – С. 57-58.



2. “Tarjimon amallari” deganda nimani tushunasiz?

3. X. Kringsning **think aloud** («ovozi chiqarib o‘ylash») metodikasini qaysi tamoyillarga asoslaniladi?

### 3.2. Matnning tarjima oldi tahlili va tarjima natijalari tahriri

**Tayanch so‘z va iboralar:** *sovuqqonlik bilan hisob-kitob qila olish (rejalashtirish) malakasi, ilhom (aniqrog‘i, ijodiy intuisiya), matn haqidagi tashqi ta‘lumotlar, manba, resipient, axborot tarkibi va uning zichligi, kognitiv axborot, operativ (rahbarlik qiluvchi) axborot, emotsional axborot, estetik axborot, kommunikativ vazifa, nutqiy janr, tarjima tahriri.*

Tasavvur qilaylik, tarjimon ro‘parasida asl matn va oq qog‘oz yoki kompyuter monitori turibdi. Uzoq vaqt, tarjimon malakali mutaxassis bo‘lib yetishmaguncha, matnni olib bir chekkadan tarjima qilib ketaverish ishtiyoqi “qitiqlab” turadi. Matn bilan tanishishga vaqtni sarflashga hojat bormi, axir vaqt bu ishsiz ham taxchil!

Ammo vaqt o‘tib, tajriba ortgach, qaytanga bu tartibdagi tarjimada zamon ko‘p talab etilishini anglaysiz. Chunki uch-to‘rt sahifani tarjima qilib bo‘lgach, birdaniga ma‘lum bo‘ladi: matndagi sub‘ektiv baholi so‘zlar neytral so‘zlarga almashtirilgan, matn tili rasmiy emas, balki so‘zlashuv nutqiga yaqin uslubda yozilgan, atamalarni ham bu darajada ilmiylashtirishga hojat yo‘q edi, balki hammaga tushunarli ilmiy-ommabop so‘zlarni tanlash lozim edi. Endi matnni tahrir qilib, to‘g‘rilab chiqish kerak bo‘ladi. Tahrir qilish jarayonida u yoki bu so‘zni takroran ishlatgan-ishlatmaganini esda tutish qiyin bo‘ladi, qaytariqlar boshlanadi, uslub “oqsqoq”lana boshlaydi. Natijada bu tarjima qoralama nusxa bo‘lib qoladi. Shu sababli, tarjimaga tayyorgarlik ko‘rib, keyin kirishish har tomonlama foydaliroq bo‘lishi ayon bo‘ladi.

Bu esa, albatta matnga oldindan ko‘z yugurtirib chiqish zarurligini bildiradi. Agar kitobni tarjima qilish mo‘ljallangan bo‘lsa, turli joylarini varaqlab, o‘qib ko‘rish kerak, keyin matnning bir necha bo‘laklarini tanlab olib, maxsus tayyorgarlik tahlilini o‘tkazish kerak. Bunday tahlilning vazifasi tarjima qilinishi kerak bo‘lgan matnning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlashdan iborat. Bundan tashqari, buyurtmachining maqsadini va tarjimaning kimga mo‘ljallanganini bilib olish ham foydadan xoli bo‘lmaydi. Faqat ana shu bosqichdan

so'ng tarjima qilish bosqichiga o'tish zarur. Shu vaziyatda tarjimani qayta o'zgartirishga hojat bo'lmaydi. Shu tariqa, xatolarga, anglashilmovchiliklarga yo'l qo'yadigan ekstensiv usul o'rniga maqbul bo'lgan intensiv yo'l taklif etiladi.

Biroq insonga xos bo'lgan o'z-o'ziga ishonish tuyg'usi tarjimonning sarkashlik qilishiga sabab bo'ladi. Tarjimon taxminan shunday fikr yuritadi: "Tilni juda yaxshi bilaman, so'z boyligim ham yuqori darajada. Chet tilidagi uslubni nihoyatda yaxshi his qilaman. Matnni bir boshdan tarjima qilaversam, ichki tuyg'uim ham yo'l ko'rsatadi".

Darhaqiqat, ba'zida haqiqatda ham ichki tuyg'u yordam beradi. Va boshqalar (yoki tarjimonning o'zi): "Bu senbop matn, qanday tarjima qilishni darrov his qilasan", -deyishadi. Boshqa safar tarjima qilishda muqobillarni tanlashda adashadi. U holda: "Bu senbop matn emas, bunday matnlarni tarjima qilish uchun tug'ilmagansan," -deyishadi. Afsuski, yetarlicha tajribali bo'lmagan tarjimonlar o'z johilligi sababli bu safosatga ishonishadi. Har qanday matnni tarjima qilish mumkin. Shunchaki, yomon tayyorgarlik ko'rgan, tajribasiz tarjimonlar bo'ladi, xolos. Aslida, bor-yo'g'i talab etiladigan narsa - yelkada ko'tarib turgan hushyor bosh bo'lsa bo'lgani!

Hushyor bosh va hayotiy tajribalar har qanday kasbdagi yuqori malaka uchun ilhom va sovuqqonlik bilan hisob-kitob qila olish (rejalashtirish) malakasi zarurligini ko'rsatadi. Sovuqqonlik bilan hisob-kitob qila olish (rejalashtirish) malakasi - avtomatlashtirish darajasiga yetkazilgan sayqallangan kasbiy ko'nikmalar bo'lsa, ilhom (aniqrog'i, ijodiy intuisiya) - kasbiy ko'nikmalardan "o'sib" mukammallashgan, kerakli usullarni tanlash, ularni birlashtirish qobiliyatidir. Bu shunday hissiyotki, yagona to'g'ri yechim go'yoki o'z-o'zidan, o'ylanmasdan paydo bo'lgandek tuyuladi, aslida esa hamma narsa allaqachon anglangan bo'ladi va tahlil bosqichini o'tkazib yuborilgan bo'ladi. Bunday yechimlarga yetishish yo'lini bosib o'tish uchun ba'zi tarjimonlarga ko'p vaqt talab etiladi, boshqalarning miyasida esa fikr "yarq" eti paydo bo'ladi. Biroq matn ustida butun diqqat-e'tiborni to'plab, "ko'milib" ishlanmasa, bu bosqichni bosib o'tib bo'lmaydi. Agar bu bosqich bosib o'tilsa, har qanday so'z boshqalarni tanlash uchun ishora qiladi. O'shanda haqiqatan ham tarjima ilhom bilan tug'ilayotganday tasavvur uyg'otadi.

Sovuqqonlik bilan hisob-kitob qila olish (rejalashtirish) bosqichini bosib o'tishga harakat qilar ekanimiz, tarjimaga tayyorlanish

uchun talab etiladigan matnlarning tahliliga zarur bo'lgan asosiy aspektlarni belgilab olamiz.

*Matn haqidagi tashqi ta'lumotlarni to'plash.* Matn haqidagi qaysi asosiy tashqi ma'lumotlarni bilishi zarur?. Ularni kelajakda hisobga olish darkor. Bular – matn muallifi, matnning yaratilish payti va nashr bo'lish vaqti, qaysi asosiy manbadan olinganligi (gazeta, jurnal, ensiklopediya). Ushbu tashqi ma'lumotlar tarjimada nimani tushirib qoldirib bo'lmazligi haqida yo'llanma beradi. Masalan, o'tgan asrga taalluqli matn tarjimasida arxaizmlarni qo'llash, ya'ni eskirgan so'zlar va sintaktik qurilmalar, grammatik shakllarni ishlatish afzalligini ko'rsatadi. Publisistik, ilmiy-ommabop matnlarda, memuarlar matnlarida esa asl matn muallifi uslubini hisob olish kerak. Bu belgi tarjimada invariantga kiritiladi. Asosiy manba (tarjima matni olingan manba) va tarjima qilinishi mo'ljallangan matnning undagi joylashish o'rni qanday matnni o'g'irishimiz kerakligini aniqlashga ko'mak beradi.

Tarjima buyurtmachisining xohishlarini hisobga olishni ham tashqi ma'lumotlarni to'plash bosqichiga kiritamiz. Buyurtmachiga nafaqat tarjima, balki yo'l-yo'lakay matnga ishlov berilishi – tanlangan tarjimani amalga oshirish, uslubni o'zgartirish, moslashtirish va boshqalar talab etilganda, ayniqsa, muhim ahamiyat kasb etadi. Boshqa vaziyatlarda, tarjimondan muqobil tarjima (aniq) tarjima talab etilsa, u asl matn tipiga asoslanadi.

*Manbani va resipientni aniqlash.* Matn kim tomonidan (kimning manfaatlari uchun) va kim uchun yaratilganini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Agar matn manbasi va o'quvchisi noto'g'ri belgilansa, tarjima matnida anglashilmovchiliklar yuzaga kelishi mumkin. Masalan, rasmiy xat ko'rinishidagi matn aniq muallif nomidan yozilgan, hattoki xat oxirida imzosi ham bo'ladi. Biroq xat firma nomidan, firmaning manfaatlari yo'lida yozilgan, demak, haqiqiy manba firmadir. Ensiklopediyadagi maqolaning muallif bor, biroq haqiqiy manba tahririyat hisoblanadi. Chunki ensiklopedik maqolada aks etgan ma'lumotlar insoniyat tomonidan e'tirof etilgan, umum tomonidan qabul qilingan fikrlardan tashkil topadi (masalan, ma'lum bir shahar, muayyan bir olim yoki yozuvchi haqidagi maqolaga diqqat qiling.).

Resipientni, ya'ni matnning kimga mo'ljallanganligini aniqlash osonroq. Bu ma'lumot asosiy manba annotatsiyasida yoki kirish qismida ko'ratilgan bo'lishi mumkin (kitob bo'lsa, so'z boshida, jurnal bo'lsa, tahririyat murojaatida). Boshqa vaziyatlarda ushbu ma'lumot

keyingi tahlillarda aniqlanadi. Bu bosqich nima uchun kerak? Gap shundaki, matnning kimga mo'ljallanganligini bilish tarjima matnida qaysi uslubdan foydalanish uchun ko'rsatma bo'ladi. Masalan, matn bolalar uchun ko'zlangan bo'lsa, sodda sintaktik qurilmalarni qo'llash kerak, bolalarga monand sodda, yorqin so'zlar, bolalarbop obrazli so'zlarni saqlab qolish kerak. Basharti matn mamlakatning katta yoshdagi aholisi uchun mo'ljallangan bo'lsa (maishiy asbob uchun yo'riqnomaga, ensiklopedik maqola), u holda turli sodda sintaktik qurilmalarni ishlatish mumkin, lekin tor mutaxassislikka oid so'zlar, shevaga oid so'zlarni ishlatishdan qochish kerak.

Manba haqidagi to'g'ri tasavvur muhim ahamiyatga ega. Aso-siysi, bu tasavvur nimani berishida: muallif nomining ko'rsatilishi har doim ham uning individual uslubini ifoda etmaydi. Masalan, kundalik gazetadagi axborot muallifi nomi har doim ham ko'rsatilishi mumkin, biroq bu holat ma'lumotni ma'lum bir mas'ul shaxsga birlashtirish uchun kerak bo'ladi.

*Axborot tarkibi va uning zichligi.* Matnga singdirilgan ma'lumot turi ham muhim ahamiyatga ega. Har bir tarjimaga mo'ljallangan matndagi to'rt tipdagi axborotni aniqlash zarur. Buni rasmiy xat misolida ko'rib chiqaylik.

Birinchi o'rinda matndagi kognitiv ma'lumotni aniqlash kerak. Tarjima qilinayotgan rasmiy xatda *kognitiv axborot*, ya'ni tashqi dunyo haqidagi ob'ektiv ma'lumotlar bormi? Albatta, bor. Bu xat muallifi, firmalar nomlari, mahsulotlar nomlari, ularni yetkazish muddatlari, yetkazish shartlari. Bu ma'lumotlarning barchasi xatda o'ziga xos shaklda rasmiylashtiriladi. Birinchi navbatda, ular atamalar – neytral ma'noli, monosemantik, sohaga doir so'zlar orqali beriladi. Bu, tarjima uchun yo'l-yo'riqdir! Demak, tarjimada bir ma'noli muqobillar ishlatilishi kerak. Ikkinchi muhim xususiyat: matnda kognitiv ma'lumot yozma adabiy tilda bayon etilgan bo'ladi (rasmiy uslub, ilmiy uslub – aniq bir vaziyatlarda yozma nutq me'yorlari turli nom oladi, lekin mohiyati, belgilari bir xil bo'ladi). Asl matnda bu xususiyatni ko'rib, tarjimada ham neytral yozma adabiy til me'yorlariga amal qilinadi. Agar tarjima qilinayotgan rasmiy xatda adresat uchun buyruq, farmoyish, ko'rsatma mavjud bo'lsa, ya'ni *operativ (rahbarlik qiluvchi) axborot* bo'lsa, unda matn ma'lum bir til vositalari bilan – buyruq maylidagi fe'llar, zaruriyat yoki imkoniyat semantikasini bildiruvchi fe'lli qurilmalar, modal so'zlar bilan

ifodalanadi. Tahlil natijasida bu shakllar aniqlansa, tarjimada mos keluvchi shakllar bilan ifodalash kerak.

Endi rasmiy xatda *emotsional axborot*, ya'ni bizning hissiyotlarimiz uchun yangi ma'lumot bormi, yo'qmi, shunga diqqat qilamiz. Ha, mavjud. Bu salomlashish va xayrlashish so'zlari, xatda ifodalangan fikr va baho emotsional axborot hisoblanadi. Albatta, rasmiy xatda emotsional axborot rasmiy etiket bilan chegaralangan, "silliqlangan". Shu sababli, shaxsiy xatda uchraydigan, emotsional bo'yoqdor so'zlashuv nutqiga xos vositalar, masalan, "juda xursand bo'ldim", "chin dildan tabriklayman" kabi jumalalar rasmiy xatda ishlatilmaydi.

Demak, tarjima uchun muhim qarorga kelamiz: emotsional axborot emotsional bo'yoqdor leksika orqali beriladi, biroq bu vositalar rasmiy etiket doirasida cheklangan bo'ladi.

Va, nihoyat, rasmiy xatda *estetik axborot* bormi? Bu matn go'zallikni his qilishga imkon beradimi? Unda maxsus vositalar — metafora, vazn, qofiya, so'z o'yini, ritmika, g'aroyib erpitetlar bormi?

Yo'q, biz estetik axborotning belgilarini rasmiy xatni ko'r-maymiz.

Demak, rasmiy xatning axborot mazmunini tahlil etish bizni bu matnni qanday qilish bo'yicha aniq xulosalarga kelishimizga yordam berdi.

Tarjimaning amaliy tajribasi shuni ko'rsatadiki, tarjimonga ko'pincha turli tipdagi axborotlar aralashgan matnlarni tarjima qilishga to'g'ri keladi. Masalan, reklamada to'rt tipdagi axborot o'ziga xos shaklda birikkan holda namoyon bo'ladi. Bunda kognitiv axborot — firma nomi, mahsulot nomi, uning o'lchamlari va narxi, operativ axborot — mahsulotni sotib olishga bevosita da'vat yoki bilvosita — hayotning yangi qadriyatlariga ega bo'lishga chaqiriq, emotsional axborot mahsulot sifatining orttirilgan ijobiy bahosi, og'zaki so'zlashuv nutqiga yaqin jumalarning yangrashi, estetik axborot — so'z o'yini, qofiya, iboralar, qaytariqlarning qo'llanilishida ifodalanadi.

Shunday bo'lsa-da, inson muloqotni osonlashtirish uchun o'ylab topgan tarkibdagi matnlardan tashqari bir tipdagi axborotni yetkazishga xoslangan matnlar mavjud. Masalan, ilmiy matn kognitiv axborotni yetkazishga, maishiy muloqotga oid matn emotsional axborotni ifodalashga, badiiy matn estetik axborotni aks ettirishga xizmat qiladi. Aynan shunday matnlar tarjimasi strategiyasini belgilash tarjimonga oson. Biroq bu matnlar bir tipdagi axborotni

tamomila “sof” ko‘rinishda aks ettirmaydi. Hattoki, eng ilmiy matnda ham emotsional axborotning bir qatrasini aks etishi mumkin. Biroq shunisi muhimki, axborotning turi tarjimada lisoniy vositalarni tanlash uchun yetakchi rol o‘ynaydi. Tarjima strategiyasi deb nomlangan tarjimon amallari majmuasini belgilash uchun ham axborotning tipini aniqlash zarur.

Matnning axborot mazmunini tahlil etishda tarjima uchun muhim o‘rin tutadigan o‘lcham – **matnning zichligi** o‘lchami mavjud. Turli matnlarni ko‘zdan kechirar ekanmiz, masalan, ensiklopedik maqolalarda ko‘plab qisqartmalar ishlatiladi, sintaktik qurilmalarda ikkinchi darajali bo‘laklar tushirib qoldiriladi va hokazo. Ushbu holat matnda axborot zichligining ortiqchiligini bildiradi va tarjimada buni ifodalash uchun o‘xshash vositalarni qo‘llash kerakligiga ishora qiladi. Qayd etish kerakki, axborot zichligining ortiqchiligi faqat kognitiv axborot turiga xos, biroq axborot zichligining ortiqchiligi (masalan, qisqartmalar) badiiy matnda qo‘llanilishi hamda bu vosita estetik axborot ko‘rsatkichi bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

*Kommunikativ vazifa.* Matnning axborot mazmuni tarkibi aniqlangach, keyingi bosqichga qadam qo‘yish kerak – matnning kommunikativ vazifasini belgilab olish. Bu vazifa har xil bo‘lishi kerak: yangi muhim ma‘lumotlarni yetkazish, o‘zining haqligiga ishonitirish, aloqa o‘rnatish va hokazo.

Ko‘pincha kommunikativ vazifalar uyg‘unlikda ifodalanadi: yangi ma‘lumotlarni xabar qilish va uni sotib olishga ishonitirish, ayni paytda matnning tuzilishi orqali zavq, qoniqtirish hosil qilish (reklama). Bu vazifalarni belgilab olish tarjimonga tarjimadagi asosiy belgilarni ajratib olishga yordam beradi.

*Nutqiy janr.* Yuqorida bayon etilgan tarjima oldi tahlillarining aspektlari matnning qanday shakllantirilganligi haqida to‘liq tasavvur hosil qilish uchun yetarli emas. Agar matnning qaysi nutqiy janrga taalluqli ekanligini belgilasak, yakuniy tasavvur hosil qilinadi. Insoniyat matnlarning o‘z tarixi, o‘z an‘analariga ega bo‘lgan turg‘un tipik shakllarini ishlab chiqqan. Qayd etish kerakki, bu tipik shakllar, ayrim istisnolarni hisobga olmasa, baynalminal xarakterga ega, ya‘ni ma‘lum bir tilga bog‘liq emas. Zero, tarjima oldi tahlili har qanday til uchun joriydir aytaylik, intervyu yoki ilmiy ma‘ruza nutqiy janri o‘zbek tilida ham, turk, yapon tillarida ham bir xilda shakllantiriladi. Nutqiy janrlar bilan funksional stilistika shug‘ullanadi, shuning uchun tarjimon bu soha va nutqiy janrlar bilan alohida tanishib chiqishi lozim.

Nutqiy janrning tarjima oldi tahlillarida aniqlangan xususiyatlarining barchasini tarjimada hisobga olish shart emas. Masalan, tarjimonning qoʻlidan tarjimada matn abzaslarini oʻzgartirish, monologni dialog bilan almashtirish, uchinchi shaxs tilidan qilingan bayonni birinchi shaxs bayoniga oʻtkazish kelmaydi. Biroq bularning barchasi birgalikda nutqiy janr tizimini tashkil etadi hamda tarjimada nimani (qaytariqlar, emotsional boʻyoqdor leksika va boshqalarni) ifodalashni bilish uchun ayni tizimni toʻlaligicha bilish kerak.

*Ogʻzaki tarjimada tarjimon tahlili.* Ogʻzaki tarjimada vaqt taxchilligiga qaramay, bu vaziyatda ham tarjimon maʼlum bir strategiya asosida ish koʻradi. Mazkur strategiyani belgilash uchun ham oldin muayyan tahlillarni amalga oshirish kerak. Chunki tarjimani boshlashdan avval, matnni bevosita qabul qilishdan avval, tarjimon matn haqidagi boshlangʻich maʼlumotlarni oladi. Buyurmachidan olingan bu boshlangʻich maʼlumotlarga tayangan holda tarjimon matnning murakkabligi darajasi, xususiyatlari, atamalar mavzui, tarjimada qaysi usullarni qoʻllashi haqida maʼlum bir xulosaga keladi. Bular ogʻzaki matnning tahlili hisoblanadi. Bu tahlil tarjima ishi boshlangunicha bajariladi va tarjima jarayonida davom ettiriladi. Ogʻzaki matn tahlili alohida vaqtni talab etmaydi, malakali tarjimonda bu amalning ijrosi avtomatlashgan boʻladi.

Ogʻzaki tarjimadagi matn tahlili yozma matn tahlili sxemasiga oʻxshaydi, faqat ogʻzaki matnda oʻziga xos yetakchi belgilarning turli-tumanligi cheklangan boʻladi hamda vaqt taxchilligi asnosida bajarilganligi sababli invariantni saqlash darajasining past boʻlishiga yoʻl qoʻyadi.

Har qanday vaziyatda manba ham, respient ham aniq boʻlishi kerak. Manba axborotni xabar qiladi va oʻzi taqdim etayotgan insonlar guruhi nomidan fikr yuritadi. Misol uchun, radio orqali yetkazilayotgan axborot axborot agentligi nomidan yetkaziladi va ayni paytda hukumatning nuqtai nazariga muvofiq boʻlishi yoki zid kelishi mumkin. Rasmiy nutq ijtimoiy tashkilot nomidan, hamkasblar jamoasi nomidan jaranglashi mumkin. Intervyuni bank direktori, sportchi, siyosatchi va boshqalardan olish mumkin. Manbani toʻgʻri belgilash matnda qoʻllaniladigan lisoniy vositalarni, birinchi navbatda leksikaning mavzuiy yoʻnalishini aniqlashga koʻmak beradi.

Intervyu janrida manbani tavsiflash murakkablashadi, chunki manba nafaqat guruh vakili sifatida, balki shaxs sifatida ishtirok etadi.

Bu o'ziga xos lisoniy vositalar qo'llanilishida (adabiy til me'yorlaridan chetga chiqish, kutilmagan leksikaning ishlatilishi, matnda ortiqcha allyuziyalarning ishlatilishi va b.) namoyon bo'ladi. Tarjimon esa tarjimada bunday lisoniy vositalar uchrashini bilishi kerak.

Og'zaki matn yozma matnga qaraganda resipientga – tinglovchiga ko'proq moslashgan bo'ladi. Agar tinglovchilar ma'lum bir soha bo'yicha mutaxassislar bo'lsa (masalan, quruvchilik, suvni tozalash moslamalar sohasi bo'yicha), matnda kasbiy malakaning yuqori darajasiga mo'ljallangan o'ziga xosliklar uchrashi mumkin. Axir ushbu yo'nalishdagi ilmiy maqolaning yozma matnini qabul qilishda biz ma'lumotnomalar, lug'atlar yordamida yetishmayotgan bilimlarimizni to'ldirishimiz mumkin, og'zaki tarjimada esa bu bilimlarni tayyor holda, aktiv lug'at zaxiramizda saqlashimiz darkor. Boshqa tarafdin, og'zaki matni yetkazishdagi mimika va ohangdagi emotsional axborotning mavjudligi tarjimonga matn mazmunini osonroq qabul qilishiga yordam beradi.

Demak, tarjimon tarjima tinglovchilarining o'ziga xos xususiyatlarini taxminan belgilab olishi kerak.

Keyingi navbatda mazkur matnning kommunikativ vazifasi haqida aniq tasavvurga ega bo'lish muhim ahamiyatga ega. Bu og'zaki tarjimaning uchinchi bosqichidir. Matn janrlariga muvofiq ravishda tarjimon quyidagi tipik holatlarga duch kelishi mumkin: axborot yetkazuvchi xabarning vazifasi manba nuqtai nazarini asosida kognitiv ma'lumotni yetkazishdan iborat. Rasmiy nuqtada ham axborot yetkazish vazifasi bor, ham operativ – rahbarlik qilish vazifasi bor, chunki emotsional vositalar tarafdorlarni jalb qilishga xizmat qiladi. Intervyuda qayd etilgan vazifalarga reklama qilish vazifasi ham qo'shiladi.

Manba, resipient, kommunikativ vazifa aniqlangan tahlilning to'rtinchi bosqichida tarjimon mazkur janrdagi matn tarjimasida qo'llaydigan aniq lisoniy vositalarni tanlashi kerak bo'ladi. Birinchi uch bosqichda matn spesifikasi haqida aniq tasavvur hosil qilingach, bu vazifani ado etish qiyin emas, biroq vaqt taxchilligini e'tiborga olsak, bu paytda tarjimon bo'lajak matniga ko'z yugurtirib, mavzuini bilishi va tahlilni amalga oshirishi kerak bo'ladi. Qayd etib o'tish kerakki, tarjima sifati ko'p hollarda tarjimonning tarjima oldi tahlilini nechog'lik bilishiga bog'liq bo'ladi. Takroran ta'kidlash kerakki, yetakchi lisoniy vositalar majmui deyarli har doim barqarordir.

Asosiy lisoniy vositalarga to'xtalib o'tamiz. Barcha janrlar uchun tarjimaning dominanti - til adabiy me'yorining og'zaki ko'rinishi fon



vazifasini o'taydi. Og'zaki axborot yetkazish ko'zlangan matnda sodda sintaksik tuzilmalarning bo'lishi, ergashgan qo'shma gaplarning cheklangan miqdorda ishlatilishi, atoqli otlar, geografik joy nomlarining nihoyatda ko'p ishlatilishi, miqdorni bildiruvchi axborotning ko'pligi, tor sohaga doir atamalarning yo'qligi, "silliqlangan" emotsionallikning asosan so'z tartibida ifodalanishi, baholovchi epitetlarning qo'llanilishi shular jumlasidandir.

Intervyularda adabiy me'yordan chetga chiqish ko'proq bo'ladi, raqamli axborot kamroq ishlatiladi, ba'zida maxsus atamalar va ekzotizmlar qo'llanilishi kuzatiladi(bu tushunchalar albatta izohlanadi). Emotsionallikni ifodalovchi vositalar axborot matnlariga qaraganda ko'proq bo'ladi. Qayd etilgan vositalarga iboralar, iqtiboslar, maqollar va matallar kiradi. Murakkab sintaktik qurilmalar uchramaydi. Savollar va javoblar mazmuniy yaxlitlikka ega bo'ladi, ba'zan esa sintaktik butunlikni tashkil etadi. Tarjimonga avvalgi luqmalarning mazmuni va tuzilishini xotirada saqlab turishiga to'g'ri keladi. Bu tipdagi matnlarda notiqning individual uslubi muhim rol o'ynashi mumkin.

Rasmiy nutqda yetakchi lisoniy belgilarga quyidagilar kiradi: adabiy til me'yorlariga yetarlicha qat'iy amal qilish; matn boshi va oxirining an'anaviy qoliplarga egaligi, iboralar, iqtiboslarning faol ishlatilishi, matn sintaksisiga ta'sir ko'rsatuvchi ritorik uslublar, ritorik so'roq gaplar va undovlarning ishlatilishi, leksik va sintaktik takrorlar vitasida murakkab qurilgan ritorik period, metafora, qiyolash, epitetlar, zamon shakllarning almashinishi va hokazo.

Muhokamalar va munozaralar uchun ham o'ziga xos lisoniy vositalar ishlatiladi. Odatda bu sintaktik jihatdan murakkab bo'lmagan, tasodifiy tarzda shakllanadigan gaplardan tashkil topadi. Mavzuga daxldor tarzda tor sohaga doir atamalar ham uchraydi. Tarjimon bunday matnlar tarjimasida– muhokama jarayonida ixtilof kelib chiqsa, to'satdan paydo bo'ladigan emotsional vositalarning ko'p ishlatilishiga tayyor bo'lishi kerak.

Deklaratsiya yoki manifest – shunday janrki, unda emotsional bo'yoq adabiy til me'yorlari doirasida bo'ladi, yuqori uslubga xos cheklanishlar, arxaik so'zlar va yuqori usulbda qo'llaniladigan nutqiy qurilmalar qoliplari ishlatiladi. Bu tipdagi hujjatlar huquqiy mavqega ega bo'lganligi sababli huquqiy atamalar ham keng qo'llaniladi, manifest odatda qat'iy kompozision tuzilmagan ega bo'lib, uning

alohida parchalari sarlavhalangan bo‘ladi va qonun moddalariga o‘xshab rasmiylashtiriladi.

Tahlilning oxirgi bosqichida qayd etilgan belgilarning qaysilari invariantga xosligi, ular tarjimada qanday vositalar orqali ifodalanishi mumkinligi haqida xulosa qilinishi kerak. Masalan, atoqli otlar, geografik nomlar, tashkilot va muassasalar nomlari bir ma’noli muqobillari orqali, iboralar imkon qadar aynan shu darajadagi semantik bog‘liqlikka ega birikmalar yoki semantik ekvivalent so‘zlar orqali berilishi kerak.

Tarjimonning kasbiy mahoratining zamonaviy darajasi og‘zaki nutq tarjimasida matn muallifi individualligini saqlab qolishni talab etadi. Vaqt taxchilligi vaziyatida bu – o‘ta murakkab vazifa. Agarda tarjimon mashhur notiq bilan ishlasa, uning uslubini yaxshi bilsa yoki oldindan muallif uslubini haqida ma’lumot olish imkoniga ega bo‘lsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi. Notiq sevimli nutq o‘ramlaridan, obrazlar tizimidan foydalanadi, ularning nutqidagi nuqsonlar hammaga ma’lum bo‘ladi. Tarjimon ularni nafaqat tanishi, balki ushbu uslublarning yetakchi xarakteristikalarini ham bilishi kerak. Biroq notiq nutqning individual xususiyatlari tarjima jarayonida aniqlansa, qiyinchilik tug‘iladi. U holda tahlil etish ko‘nikmasi ham notiq nutqining barcha jihatlarini aniqlay olmaydi, ular tarjimada “zaiflashib” namoyon bo‘ladi.

**Tarjima matnini yaratish.** Tarjima jarayonining keyingi bosqichi – tarjima matnini yaratish.

Matnni o‘g‘irish jarayonida tarjimon nima ish qiladi? Bilamizki, u bir tilda yaratilgan matnni boshqa tilga o‘tkazadi. Ammo u aynan nima ish qiladi va bu amallarni qanday optimallashtirish mumkin?

Tarjima jarayoni – izlanish. Tarjimon o‘z izlanishini ko‘r-ko‘rona olib borishi mumkin hamda tasodifan yo dog‘da qolishi yoki aniq mo‘ljalga tekkizishi mumkin. Biz bu vaziyatga tushmaslik uchun tarjimaga oldindan tayyorgarlik ko‘rganmiz. Biz matnning qaysi xususiyatlarini tarjima berishimiz kerakligini bilamiz. Endi texnik uslubni qo‘llasak bo‘lgani. Bu maqsadda analitik usulni qo‘llash, ya’ni sovuqqonlik bilan tarjimani rejalashtirish yo‘lidan borishimiz darkor.

Demak, izohlashda biz tarjima birligini, uning muqobili tipi va ko‘rinishini aniqlaymiz.

**Tarjima natijalari tahlili.** Tarjima bajarildi. Endi tarjima natijasini ko‘rib chiqib, asosli baholashimiz kerak: tarjimaga tayyorgarlik ko‘rish va tarjima jarayonida tarjima ishini nazorat qilganligimiz uchun asosan bu bosqichda texnik ishni ado etishimiz lozim bo‘ladi.

Avvalombor tarjima matnini asliyatga solishtirib chiqish va matnning biron-bir soʻzi yoki boʻlagi tushib qolmaganligini aniqlash kerak. Keyin asl matnga solishtirmay turib, tarjima matni uslubini koʻzdan kechirish kerak, yaʼni tarjima tahrir qilinishi lozim. Albatta, tarjimon oʻzi yoʻl qoʻygan uslubiy xatolarni koʻrmasligi mumkin, shuning uchun matn nashrga moʻljallangan boʻlsa, nashr maqsadiga muvofiq ravishda adabiy, ilmiy va nashriyot tahriridan oʻtishi zarur. Biroq, birinchi navbatda tarjima matni uslubining adabiy til meʼyorlariga mutanosibliigi va uslubning bir xildaligi - yaxlitligi tekshirilishi kerak boʻlib, bu ishini tarjimonning oʻzi amalga oshirishi shart. Uslubning yaxlitligi tekshirilganda, tarjima matniga asliyat uslublariga mos kelmagan soʻz kirib qolmaganmi, tarjimon ishlatgan yoki yaratgan stilistik figura umumiy matnda haddan ziyod sunʼiy koʻrinmayaptimi, degan masalalar oʻz yechimini topishi kerak. Yoʻl-yoʻlakay juzʼiy uslubiy kamchiliklar, masalan, bir soʻzning qayta-qayta takrorlanishi, ergash gaplarning oʻrinsiz birikuvi, zamonning notoʻgʻri qoʻllanganligi, moslashuvning toʻgʻri emasligi singari noqisliklar bartaraf etib boriladi.

Tarjima strategiyasi va uning algoritmini tashkil etuvchi bosqichlarni tadqiq etar ekanmiz, biz faqat tarjima matnini yaratishning umumiy qonuniyatlariga asoslangan holda zaruriy komponentlarini tavsifladik. Bunda xususiy mikrostrategiya holatlariga diqqat qaratilmadi. Tarjima strategiyasi doirasida aniq tarjima amallarining tanlovi uchun asosiy omil vazifasini matn tipi, matnga singdirilgan axborot bajaradi.

Bayon etilgan bu fikrlar amalda mavjud strategiyalarning tipik belgilarini oʻrganuvchi umumiy mulohazalardir. Zero, yuqorida koʻrib chiqilgan strategiyada biz ideal matnning ideal tarjima strategiyasini tasavvur qilamiz. Real mavjud boʻlgan matn tarjimasining strategiyasini shakllantirishda tarjimon koʻpincha matnning biron-bir tipiga aynan mos kelmasligi, ayrim hollarda matn uslubining bir uslubga xos emasligi, turli past-balandliklari borligiga guvoh boʻladi. Tarjima strategiyasining tahriri uchun bu oʻrinda manba tavsifi asos boʻlib xizmat qiladi. Agar manba individual boʻlsa, yaʼni matnda muallif uslubini ifodalovchi xususiyatlar boʻlsa, tarjimon matndagi barcha past-balandliklarni saqlab qolishi kerak boʻladi. Agar matnning muallifi boʻlmasa, tarjimon matn tipiga koʻra uning uslubini oʻzgartirib berishi mumkin.

Bu yoʻnalishdagi tadqiqotlar, shuningdek, tajribalar tarjimon shaxsiyati, uning kasbiy malakasiga, xususan, tarjimonning tarjima

strategiyalarining maqbulini tanlashida xatoga yo‘l qo‘yishi mumkinligi bilan bog‘liq ravishda tarjima strategiyalarining variantlarini aniqlashga yordam beradi. Bu holat tarjima jarayonlari va uning muqobiligi mezonlari haqidagi tasavvurlarimizni aniqlashtirishga ko‘mak beradi. Tarjima didaktikasida aks etadigan bunday tadqiqot natijalari tarjima sifatining ko‘tarilishiga imkon beradi.

### **Nazorat uchun savollar**

1. Tarjimonga “sovuqqonlik bilan hisob-kitob qila olish (rejalashtirish)” malakasi nima uchun kerak?
2. Matn haqidagi tashqi ma‘lumotlarga nimalar kiradi?
3. Axborot tarkibi va uning zichligini tashkil etuvchi komponentlarni misollar asosida tahlil eting.
4. Kognitiv axborot, operativ (rahbarlik qiluvchi) axborot, emosional axborot, estetik axborotlardan qaysi birini tarjimada berish muammolar tug‘ilishi mumkin? O‘rganilayotgan sharq tili misolida tahlil eting.
5. Tarjima oldi tahlilida qaysi vazifalarni bajarish kerak?
6. Tarjima natijalarini tahlil qilishda tarjimon qanday amallarni bajarishi zarur?

## 4-BO‘LIM

### TARJIMA METODOLOGIYASI

**Maqsad:** tarjima turlari, yozma va og‘zaki tarjima tasnifi, tarjima invarianti, tarjima usullari va ularning qo‘llanilishi haqida ma‘lumot berish.

#### 4.1. Tarjima turlari

**Tayanch so‘z va iboralar:** *og‘zaki tarjima, yozma tarjima, og‘zaki tadrijiy tarjima, tarjimadagi tez yozuv, bashorat qila olish ko‘nikmasi, sinxron tarjima, nazorat sinxroni, videomatnning sinxronlashtirilishi, qog‘ozdan tarjima qilish, kommunal tarjimon, mashina tarjimasi, moslashtirish (adaptatsiya), stilistik ishlov, mualliflashtirilgan tarjima va hammualliflik, tanlangan tarjima, rezyume shaklidagi tarjima.*

Tarjimashunoslik sohasining tuzilmasiga quyidagilar kiritiladi:

Barcha fanlarni nazariy va amaliy fanlarga tasniflash mumkinligi ma‘lum. Bu fanlar o‘rtasidagi farq nazariya va amaliyotning o‘rtasidagi o‘zaro munosabatga asoslanadi. Odatda tarjimashunoslik amaliy tilshunoslikning bir qismi sifatida izohlangan. Biroq bu munosabatni asosli, deyish qiyin. Tarjimashunoslik sohasining tarkibini mustaqil ilmiy yo‘nalish sifatida quyidagicha tavsiflash mumkin:

Tarjimaning umumiy nazariyasi tillararo muloqotning eng umumiy masalalari bilan shug‘ullanadi va so‘zsiz nazariy fanlarga taalluqli bo‘ladi. Bu sohaning vazifalariga quyidagilarni kiritish mumkin: tarjimashunoslikka oid universalialarni o‘rganish, tarjima yordamida amalga oshiriladigan ikki yoki ko‘p tilli muloqotning mohiyati va xususiyatlari haqidagi ilmiy konsepsiyani yaratish.

*Tarjimaning xususiy nazariyasi* asosan tarjimachilik faoliyatining amaliy aspektlari bilan shug‘ullanadi. Shu ma‘noda, V.A.Zvyaginseving e‘tirofiga ko‘ra, tarjima «xususiy farazlar ham, keng miqyosdagi nazariy qarashlar ham tekshiruvdan o‘tadigan empirik poligon – tajriba maydonidir». Tarjimaga o‘qitish, tarjima tanqidi, tarjimachilikning turli yordamchi vositalarini ishlab chiqish kabi vazifalar ham amaliy tarjimashunoslik zimmasiga yuklatiladi.

*Tarjimaning maxsus nazariyasi* tarjima faoliyatini asl matndagi axborotni namoyon etish – qabul qilish va tarjimini shakllantirish

shart-sharoitlarini o'rganadi. Ayni ma'noda yozma tarjimani misol qilib keltirishimiz mumkin, zero, bunda asl matnga qayta-qayta murojaat qilib, asl matn va tarjima matnini solishtirish mumkin. Og'zaki tarjimada matnlar ham og'zaki ko'rinishda bo'lib, asl matnni faqat bir marta eshitish mumkin. O'zgaruvchan tarjima shakllari bo'lishi mumkin, ya'ni og'zaki tarjima yozmaga, yoki aksincha, yozma tarjima og'zakiga o'tishi mumkin.

Tarjima qilinayotgan matnlarning mavzuiy va funksional-uslubiy xususiyatlariga ko'ra ijtimoiy-siyosiy, ilmiy-texnik, badiiy tarjima turlari ajratiladi. Hozirgi vaqtda tarjimaning yangi ko'rinishlari paydo bo'lmoqda, masalan, tele-radio ko'rsatuvlar, filmlar, reklamalar tarjimasi. Tarjima "tabiiy tarjima" va "mashina orqali qilingan tarjima"ga ham bo'linadi. Afsuski, hozirgi vaqtga qadar, tarjimashunoslik sohasining tipologik tasnifi terminologiyasida yakkidillik yo'q. Ba'zi olimlar "shakl" deb nomlagan tushunchani boshqalar "tur" yoki "tip" yoxud "ko'rinish" deb nomlashlari ma'lum darajada chalkashlikka sabab bo'ladi.

Tarjimalarni tasniflash muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki tarjimashunoslik tipologiyasining to'g'ri yechimi nazariy tarjimashunoslikning ham, amaliy tarjimashunoslikning ham dolzarb va muhim masalalarini ilmiy-nazariy yoritish vazifasini samarali bajarishga ko'mak beradi.

#### **4.1.1. Og'zaki tarjima turlari**

Og'zaki tarjima ikki xil – tadrijiy tarjima (ketma-ket tarjima) va sinxron tarjima shakllariga bo'linadi.

#### **Og'zaki tadrijiy tarjima**

Og'zaki tadrijiy tarjima insoniyat eng ko'p qo'llaydigan tarjima ko'rinishlaridan biri. Bu tarjima turida notiq (yoki suhbatdosh) bir necha gap yoki nutqning ma'lum bir bo'lagini aytib bo'lgani zahoti tarjimon tarjimani amalga oshiradi. Bunday tarjima turi ko'pincha "abzasli-jumlali tarjima" deb ham yuritiladi. Aksariyat hollarda tarjimon so'zlovchi yonida turadi, shuning uchun uning yuz va qo'l imoisholarini ko'rib turadi, mazkur holat esa nutqning mazmunini to'g'ri tushinishga yordam beradi. Biroq ba'zida tarjimon sahna ortida yoki tarjimonlar bo'lmasida bo'lishi, notiq nutqini quloqliklar

orqali qabul qilishi mumkin, bunda tarjimon uchun notiqni uzoqdan bo'lsa-da ko'rib turishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadrijiy tarjima tarjimonining vazifasi shundan iboratki, u chet tilidagi matn bo'lagi mazmunini esda saqlab qolishi, keyin uni boshqa tilda qayta tiklashi kerak. Bunda imkon qadar axborotning yangi bilim, ma'lumot beradigan tomonini, notiqning so'zlash uslubini, so'zlovchi ma'ruzasining emotsional yukini saqlab qolishi zarur. Demak, bunday tarjimon kuchli xotiraga ega bo'lishi, asl matn tili va tarjima tili uslublarning farqini bilishi kerak, shuningdek, aktyorlik qobiliyatiga ega bo'lmog'i darkor.

Og'zaki tarjimaga qo'yiladigan majburiy talablarga uning yuqori tezlikda bajarilishi kiradi. O'rtacha olinganda, bu tezlik og'zaki nutqni qabul qilish tezligining yuqori chegarasiga teng kelishi lozim. Agar so'zlovchi tez gapirsa, tarjimon shunday tezlikda gapirishi lozim, agar so'zlovchi sekin gapirsa, tarjimon ma'ruzachiga nisbatan tezroq gapirishi kerak. Notiq nutqi va tarjimon nutqi o'rtasidagi tanaffus minimum darajada bo'lishi zarur.

Tarjimon uchun tadrijiy tarjimaning eng sodda ko'rinishi – rasmiy ma'ruza, axborot yoki nutqni tarjima qilishdan iborat. Bunda, odatda, ma'ruza, axborot, nutq matnini oldindan olishi mumkin yoki hech bo'lmaganda, uning mavzuini bilishi mumkin. Tarjimon tarjima matnini o'rganib chiqish, mavzuga doir maxsus adabiyotlar bilan tanishib chiqish, «tezaurus» – mavzuga doir so'zlarning muqobillari yozilgan o'z lug'atini tuzib olish imkoniga ega bo'ladi. Ammo bu vaziyatda ham tarjimon kutilmagan tasodiflardan himoyalangan. Chunki notiq nutqi davomida ma'ruzasini qisqartirishi yoki kengaytirishi, mavzudan chetga chiqishi va hattoki matnni o'zgartirishi mumkin. Shu sababli tarjimon tarjimada kutilmaganda o'zgarishlar bo'lishiga ruhiy tayyor bo'lmog'i zarur.

Deyarli har qanday anjumanda tarjimon muhokamalarni tarjima qilishga majbur bo'lib qoladi. Bunday muhokamalar yo'nalishi va mazmunini oldindan aytib berish qiyin. Chunki, bunday muhokama rasmiy yoki norasmiy muloqotda bo'ladimi, farqi yo'q, tarjimon e'lon qilingan umumiy mavzudan tashqari so'zga chiquvchi ishtirokchilar nutqi mazmuni, munozara davomida ko'tariladigan masalalardan be-xabar bo'ladi. Bunday tashqari, muhokama davomida munozara ham kelib chiqishi mumkin. Shu bois, tarjimon kasbi etikasi bilan yaxshi tanish bo'lishi, munozara paytida o'zini qanday tutishi kerakligini,

nimalarni tarjima qilish mumkin yoki mumkin emasligi haqida aniq tasavvurga ega bo'lishi shart.

Og'zaki tadrijiy tarjima bir taraflama va ikki taraflama bo'lishi mumkin. Bir taraflama tarjimada bir tarjimon chet tilidan ona tiliga tarjima qiladi, ona tilidan chet tiliga boshqa tarjimon o'giradi (odatda tarjima tili egasi). Zamonaviy xalqaro tarjimonlik amaliyotida shu holat afzal ko'riladi. Ikki taraflama tarjimada bir tarjimon ham ona tilidan tarjima tiliga, ham tarjima tilidan ona tiliga tarjimani amalga oshiradi.

Qayd etish zarurki, ona tilidan chet tiliga o'girish sifati chet tiliga ona tildan tarjima qilish sifatidan farqlanadi. Chet tilidan ona tiliga o'girilgan matn ikkinchi tipdagi matnga nisbatan yaxlitroq, mantiqiy bog'langan ko'rinishda bo'ladi. Shu bilan birga, asl matnни qabul qilishda anglashilmovchiliklar va xatoliklar bo'lishi mumkin, chunki tarjimon chet tilini qanchalik yuqori darajada bilmasin, baribir ona tilichalik til nozikliklarini bilmaydi. Aksincha, ona tilidan chet tiliga o'girishda asl matnни anglashda muammo bo'lmaydi (albatta, notiqning nutqida nuqsonlar bo'lgan, ovozi past bo'lgan yoki yaxshi eshitilmagan holatlar bundan mustasno, ya'ni shu kabi sub'ektiv sabablar xalaqit bermasa), biroq tarjima qilingan matnda turli grammatik, leksik, stilistik xatolar bo'lishi mumkin. ko'pchilik tarjimonlar, yangi ish boshlagan tarjimonlar ham, tajribali mutarjimlar ham ona tiliga o'girishdan ko'ra chet tiliga o'girishni oson, deb hisoblashadi. Bu holat tarjima murakkabliklari haqida o'z fikriga ega odamlarning odatiy tasavvuriga zid keladi, zero, odatda ona tiliga tarjima qilish oson sanaladi. Bu paradoksni oddiygina izohlash mumkin. Birinchidan, to'laqonli tarjimani amalga oshirishning bosh omili asl matnни tushunishga bog'liq, demak, ona tilidan o'girishda bu, qo'l keladi. Asl matnни anglashga bo'lgan ishonch jiddiy ruhiy omil vazifasini o'taydi. Tarjimon asl matnни yaxshi tushunar ekan, kamroq hayajonlanadi va o'z kuchiga ko'proq ishonadi. Ikkinchidan, chet tilidagi variantlarni tanlash imkoniyati. Tarjimon chet tilidagi so'z va iboralarni kam biladi, shuning uchun tanlov yengillashadi, muqobil variantni tanlash uchun ona tiliga nisbatan kamroq vaqt sarflanadi, tarjima tezroq amalga oshiriladi. Ammo bu holat tarjimaning sifatli chiqishini kafolatlamaydi.

Tarjimon yon daftarchasiga yozib boradigan qaydlar og'zaki tadrijiy tarjimada yordamchi eslatish vositasi vazifasini bajaradi. Qaydlar uchun "tarjimadagi tez yozuv" yuqori samara beradi.

Keyingi yillarda og'zaki nutqning katta bo'lagini (10-15 daqiqalik qismini) yoki butun nutqni (40 daqiqagacha) og'zaki tadrijiy tarjima uslubida o'girish qobiliyati yuqori baholanmoqda. Tarjimon nutqning



katta qismini yoki boshidan oxirigacha eshitish bilan bir paytda axborotning asosiy mazmuniga tegishli qaydlarni (tarjimadagi tez yozuvda) yozib boradi, keyin avval qayd etilgan talablar asnosida (nutqning yuqori tezligi, notiq nutqi uslubi va emotsional bo'yog'ini saqlab qolgan holda) tarjima tilida aytib beradi. Konferens-tarjimon vazifasiga hozirda bu tartibdagi tarjimani amalga oshirish qobiliyati zaruriy talab sifatida kiritilgan. Avvallari konferens-tarjimon vazifasi doirasiga nutqni abzas-jumlali tarjima qilish, ikki taraflama rejimda muhokamani tarjima qilishni bilish kirgan bo'lsa, bugungi kunda to'liq va yaxlit matnni tarjima qilish malakasi ham talab etilmoqda. Hozirda dunyodagi tarjimonlarning yetakchi oliy maktablarida mana shu uslubda tarjima qilishga o'rgatilmoqda, ba'zi holatlarda og'zaki tarjimaga o'qitish metodikasi butun matnni anglash va tarjima qilish orqali tarjimaga o'rgatishga asoslanadi. Masalan, Sarbonnadagi Tarjima oliy maktabida shu tartib mavjud. Bu ko'rinishdagi og'zaki tadrijiy tarjimaning ikkita afzal tomoni bor: birinchidan, bu uslub maksimal darajada muqobil tarjimani amalga oshirishga imkon beradi. Chunki tarjimon butun matnni bilganligi sababli matn mazmunini to'laroq tarjima qiladi. Abzasli-jumlali tarjimada esa tarjimon keyingi kontekstni bilmaydi. Bundan tashqari, tarjimon alohida so'z va ifodalarga yopishib olmaydi, shu tariqa, bukvalizmdan xoli tarjima yuzaga keladi. Ikkinchi afzallik shundan iboratki, tarjimon notiq nutqini bo'lmaydi, so'zlovchi axborotni to'laligicha yetkazib beradi. Chunki majburiy tanaffuslar birinchi navbatda chiqishning emotsional foniga zarar yetkazadi. Matnni to'liqligicha tarjima qilishning ham kattagina kamchiligi bor. Notiq nutqini tugatgunicha, notiq tilini tushunmagan tinglovchilar zerikib qolishlari aniq.

Og'zaki nutq tarjimonining muhim kasbiy xususiyati asl matn va tarjima matni adabiy tillari me'yorlarini yaxshi bilishda namoyon bo'ladi. Ayrim vaziyatlarda boshqa funksional uslublarda ham so'zlashni bilish talab etiladi. Yozma adabiy tildan farqli o'laroq og'zaki adabiy tilda og'zaki so'zlashuv nutqining ayrim unsurlari uchraydi. Masalan, eng ko'p uchraydigan belgilar – so'zlar tartibining o'zgarishi va iboralarning faol qo'llanilishi.

Og'zaki tadrijiy tarjima matni odatda hech qaerda qayd etilmaydi, chunki u faqat og'zaki aloqada zarur. Biroq ba'zan og'zaki tadrijiy tarjima anjumanning materiallari matnini yaratish maqsadida magnitafonga, videoga, diktafonga yozib olishadi. Yozma matnlarni yaratish

yoki ma'lum bir ma'lumotni olishda tarjimon yon daftarchasidagi qaydlar ham qo'l keladi.

### Sinxron tarjimon

Sinxron tarjimada matn uning talaffuzi bilan deyarli bir paytda tarjima qilinadi (biroz, 2-3 soniya kechikish bilan). Bu tarjima turi tarjimondan bir paytning o'zida eshitish, tarjima qilish va gapirish malakalarini talab etgani sababli, eng murakkab tarjima turi hisoblanadi. Mashhur tarjimon G.E. Miram uni hattoki «kasb sifatidagi psixofiziologik anomaliya»<sup>1</sup>, deb nomlagan. Biroq og'zaki matnning malakali tarjimonlari bu fikrga qo'shilishmaydi, murakkablik va kuch sarflanishi nuqtai nazaridan tadrijiy tarjimani birinchi o'ringa qo'yishadi. Darhaqiqat, bir paytning o'zida tinglash va so'zlash odamdan til bilish tajribasini emas, alohida tayyorgarlikni talab etadi. Biroq biz bilamizki, muhokama jarayonida bir necha odam baravar gapirishi mumkin, bunda bir vaqtning o'zida ham gapirish, ham boshqalarni tinglashga to'g'ri keladi. Demak, nutqdan bunday foydalanishni ko'p kuchni, katta zo'rishni talab etsa-da, psixofiziologik anomaliya deb bo'lmaydi.

Sinxron tarjimada tarjimon maxsus ajratilgan bo'lmada o'tiradi va notiqni maxsus darchadan yoki monitor ekranidan ko'rib turadi, nutqini esa quloqliklar orqali eshitadi. Tarjima zaldagi har bir o'rindiqqa o'rnatilgan quloqliklar vositasida eshittirilganligi sababli efrida qo'shimcha tovushlar, shovqinlarning, yo'talishlarning yangrashiga yo'l qo'yimaslik kerak. Tadrijiy tarjimada tarjimon nutqning benuqsonligi, nutq artikulyatsiyasining to'g'riligi, nutqda "parazit" tovushlar va so'zlarga yo'l qo'yilmasligi muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, tarjimonning "sozlangan" ovozi bo'lishi kerak. Sinxron tarjimada ovozni zo'riqtirish xavfi bo'ladi, chunki tarjimon nutqi odatiy nutqdan tez talaffuz qilinadi, nutqda tanaffuslar deyarli bo'lmaydi. Har bir sinxronist tarjimonda ovozni sozlash uslublari bo'lishi kerak (bir qadah gazsiz suv, yo'talga qarshi hapdorilar, kofe).

Shuningdek, sinxronist tarjimon ohang madaniyati sohibi bo'lishi kerak. Uning tarjimalari ohangi asabiy emas, bir maromda og'ir-bosiq, ishonch tuyg'usini uyg'otadigan bo'lishi kerak.

Sinxronist tarjimonlar juft bo'lib ishlashadi va har 10-20 daqiqada o'rin almashishadi. Tarjimonlar joy almashgach ham notiq nutqini

<sup>1</sup> Мирам Г.Э. Профессия: переводчик.– С. 81.

kuzatishda davom etadi va bo'sh vaqtini lug'atlar hamda anjuman materiallarini titib, kerakli axborotni izlash, kerak bo'lsa, sherigiga yordam berish bilan o'tkazadi.

Sinxron tarjima matnning juda kichik segmentlari asosida amalga oshiriladi, bunday ayni segmentlar tarjima birliklari vazifasini bajaradi. Shu sababli bu tarjima ko'rinishida asl matnga tarjima matnining muqobilligini ta'minlovchi asosiy ko'nikma – **bashorat qila olish ko'nikmasi** bo'ladi. Biroq, hattoki, bashorat qilish ko'nikmasi o'ta rivojlangan holatlarda ham xatoga yo'l qo'yish mumkin. Tarjimon o'z xatolarini keyingi nutq bo'lagiga o'zgartirishlar kiritish orqali to'g'rilashga harakat qiladi, va bunga vaqtini sarflaydi. Shu bilan birga, tarjimon so'zlovchidan orqada qolib ketmasligi mumkin, bo'lmasa, u nutq mazmunining yo'nalishini yo'qotib qo'yadi. Vaqtning tejash zarurati sinxronist tarjimonga nutqni siqishtirish, nisbatan qisqa so'z va va grammatik qurilmalarni tanlash va uning nazarida ikkinchi darajali bo'lgan ma'lumotlarni tushirib qoldirishga o'rgatadi. Shu tariqa, sinxron tarjimada avvalombor analitik va nutqiy malakalar ish beradi, xotira esa keyingi o'rinda turadi. Tadrjijiy tarjimada bo'lgani kabi, tarjimon nihoyatda katta so'z boyligi zaxirasiga ega bo'lmog'i darkor.

Sinxronist tarjimon tarjima qiladigan o'rtacha nutq – notiqning oldindan tayyorlangan (yoki oldindan tayyorlanmagan) ona tilida anchagina yuqori tezlikda (chunki har doim rasmiy tadbirlarda reglament mavjud bo'ladi) so'zlanadigan og'zaki monologi. Lekin, shu bilan birga, vaziyatni murakkablashtiradigan sharoitlar ham bo'ladi. Masalan, arab, yapon, fors tillarida so'zlangan nutq odatda ingliz tili orqali tarjima qilinadi. Bunda bir tarjimon yapon tilidan ingliz tiliga o'giradi. Qolgan tarjimonlar uning tarjimasidan boshqa tillarga o'giradi. Ayni vaziyatda boshqa tarjimonlar ishining sifati yetakchi tarjimon ishiga bog'liq bo'ladi, demak, asosiy tarjimonda ikki baravar katta mas'uliyat yuklanadi. Notiqning aksenti nutqni tarjima qilishni yanada qiyinlashtiradi, ustiga-ustak, agar tarjimon o'zining ona tilida emas, balki masalan, ingliz tilida gapirsa, nutq noto'g'ri tuzilishi mumkin. Masalan, ko'plab xorijliklarning, xususan, yaponlar, hindiy-lar, shvedlarning inglizcha nutqini tushunish qiyinligi ma'lum. Ular tillarining o'ziga xos xususiyatlari, ayniqsa, talaffuzi tarjimonga nutqni qabul qilishini qiyinlashtiradi. Agarda notiq me'yoriy hujjatlarni, misol uchun, qonunlardan iqtiboslarni tez o'qib bera boshlasa, bu holat ham tarjimon uchun qiyinchilik tug'diradi. Va nihoyat, agar

soʻzlovchi juda sekin gapirsa, koʻp tanaffuslar qilsa, nutqida qaytariqlar koʻp uchrasa, bular ham tarjimon ishini ogʻirlashtiradi. Chetdan qaralganda, tarjimonning nutqi katta pauzalar bilan boʻlinib qolsa, fikr yoʻnalishini yoʻqotib qoʻyganday, hattoki tarjimon nutqning hammasini tarjima qilmayotganday, talab darajasida oʻgirmayotganday tuyulishi mumkin. Bunday vaziyatda tarjimon oʻz nutqini tahrir qilib borishi, nutqdagi pauzalarni toʻldirishi kerak. Bunda u matnni kengaytirishni bilishi, yoyiq sintaktik qurilmalarni ishlata olishi zarur.

Tavsiflangan sinxron tarjimaning asosiy koʻrinishidan tashqari yana ikki koʻrinishi bor. Birinchisi – “shivirlashli sinxron tarjima”. Tarjimon odam yoki odamlar guruhi yonida turadi va boshqalarga xalaqit bermaslik uchun soʻzlovchining yoki muhokama ishtirokchisining nutqini yarim ovozda yoki shivirlab tarjima qiladi. Shu sababli tarjimonlar oʻrtasida “shivirlovchi” (sheptun) nomini olgan. Bunday shaxsiy xizmat koʻpchilikka tarjima qilish hojati boʻlmagan paytda koʻrsatiladi. Ayni tarjima turi norasmiy holatlarda, masalan, teatrga borganda, chet tilidagi koʻrsatuvlarni tamosha qilganida, keng ishlatiladi. «Shivirlovchi tarjimon» murakkab vaziyatlarda, koʻpincha kutilmagan toʻsiqlarda (baland tovushdagi begona nutq, musiqa, mijozlarning savollari va fikrlari) ishlaydi, biroq unga konferens-sinxronistga qoʻyiladigan talablarga qaraganda pastroq talablar qoʻyiladi. Odatda, undan chet tilidagi nutqning umumiy mazmuni qisqartirib yetkazilishi kutiladi.

Sinxron tarjimaning keyingi koʻrinishi – “nazorat sinxroni” koʻproq yirik anjumanlarda qoʻllanilishi uchraydi. Tarjimon alohida boʻlmada oʻtiradi va notiq nutqi unga quloqliklar orqali yetkaziladi. U notiqni umuman koʻrmaydi yoki gohida monitor ekrani orqali koʻrishi mumkin. Chunki tarjimonning asosiy vazifasi – eshitilgan matnni xayolida tarjima qiladi va uni darrov kompyuterga kiritadi. Shuning uchun tarjimon monitordagi matnni kuzatib borishi kerak. Bu tarjimonning vazifasi sinxronist tarjimonnikisi kabi, notiqdan ortda qolmaslik va imkon qadar nutq mazmunini toʻliq yetkazish. Shu bilan birga, nazoratchi tarjimon ayni paytda tez va “koʻr-koʻrona” (klaviaturaga qaramay) kompyuterda terish malakasiga ega boʻlishi zarur. Albatta, bunday matn toʻliq boʻlmasligi mumkin. Shuning uchun ish vaqti tugaganidan keyin tarjimon oʻz matni ustida qayta ishlashni davom ettiradi. Koʻramizki, tarjimaning bu turi maʼlum bir jihatdan

yozma tarjimaga qo‘shilib ketadi, chunki natijada yozma tarjima matni hosil bo‘ladi. Bu yozma matnlar konferensiyalar materiallari uchun asos vazifasini o‘tashi mumkin va shuningdek, og‘zaki sinxronist tarjimon ishlari nazorati uchun ishlatilishi mumkin.

### **Videomatnning sinxronlashtirilishi**

Sinxron tarjimaning bu ko‘rinishida bir qator o‘ziga xos xususiyatlari mavjud. Videomatnning tarjimon tomonidan jonli sinxronlashtirilishi, ya‘ni ayni bir paytda kinofilm qahramonlari yoki boshlovchi (hujjatli film bo‘lsa) nutqini mikrofon orqali sinxron tarjima qilish keyingi paytlarda dublyajni (chet tilida yangrovchi matnni tarjima tilida tayyorlangan ko‘rinishining aktyorlar ijrosidagi matnga almashtirish) siqib chiqarmoqda. Bu holatning sabab shundaki, kino-ning tovushlari – ovoz tembri, ohang, asl matn tilidagi luqmalarning talaffuzi, kadrdagi fon tovushlar kinorejisserning maqsadini bir qismi hisoblanadi. Shu bois, tamoshabinlar ularni muallif yaratgan shaklda ko‘rish imkoniyatiga ega bo‘lishlari zarur.

Jonli sinxronlashda qahramonlarning chet tilidagi luqmalari ovoz bandlatuvchi moslamalarda biroz bo‘g‘iq eshitiladi, tarjimon ovozi quloqliklar orqali yetkaziladi. Odatda, oldindan tayyorlangan sinxron tarjima bo‘ldai. Tarjimonga oldindan filmning nusxasi, kadrlar va sahnalar bo‘yicha matnlar yozilgan qog‘ozlar (montaj varaqlari) chet tilidagi beriladi. Tarjimon tarjimani tayyorlab, o‘z montaj varaqlarini yaratadi. Bunda o‘z bo‘lajak sinxron matnini takrorlab, repetisiya qilib olish imkoniga ham ega bo‘ladi. Tarjimonga matnni kadrda moslash-tirish qiyinchilik tug‘diradi, chunki tarjima matnining talaffuzi vaqti asl matnga mos kelmasligi mumkin. Bunda tarjimon matnni qisqartirishi yoki kengaytirishi kerak bo‘ladi.

Bundan tashqari, film qahramonlarining hissiyotlarini yetkazish muammosi turadi. Videomatnni sinxronlashtirishda bu borada ikki xil nuqtai nazar mavjud va shunga mutanosib ravishda kino sinxronizatorlarining ikki farqli uslubi bor. Birinchi qarashga ko‘ra, tarjimon aktyorlik qobiliyatiga ham ega bo‘lishi zarur va imkon qadar kinodagi voqealarning hissiy yukini ovoz hamda ohang bilan ifodalab berishi kerak, ya‘ni “hissiyotlarning translyatori” bo‘lishi kerak. Ushbu yondashuv tarafdorlari bo‘lgan tarjimonlar tarjimada qahramonlarning gapirish ohangiga taqlid qilishadi va ularning his-tuyg‘ularini

ko'rsatishga urinishadi (kulgu, g'azab, qo'rquv va h.). Ikkinchi nuqtai nazarga muvofiq, "hissiy yuk" asl matndan, ekrandagi harakatlar namoyishidan yetkazilishi kerak, tarjimon esa matnni hissiz tarjima qilishi darkor. Tarjimonning bir maromdagi tovushi qahramonlarning his-tuyg'ulariga to'la ovozidan keskin farq qiladi, natijada filmning hissiz foni yanada yorqinroq ko'zga tashlanadi, yanada ta'sirchan chiqadi. Aslini olganda, ba'zida bu keskin farq asl matnga biroz kinoya ohangini kiritganday ko'rinadi.

Kamdan-kam holatlarda, masalan kinofestivallarning rejalashtirilmagan namoyishlarida tarjimon kino matnini tayyorgarliksiz tarjima qilishga majbur bo'lib qoladi. Shubhasiz, bunday sinxronlashtirish sifati pastroq bo'ladi.

### **Qog'ozdan tarjima qilish**

Qog'ozdan tarjima qilishni og'zaki tarjimaning eng oson ko'rishlaridan biri deb hisoblashadi. Biroq, bu, faqat yuzaki tasavvur. Qog'ozdan tarjima qilishga barcha yirik tarjima maktablarida o'qitishadi, bu ta'lim uzoq davom etadi. Qog'ozdan tarjima qilishning murakkabligi nimada namoyon bo'ladi? Tarjimon tayyorgarliksiz (yoki bir necha daqiqa davomida tanishib chiqib) yozma matnni xuddi "qog'ozdan o'qiyotganday" og'zaki tarjima qilishi kerak. Ko'rinishidan, hamma jarayon oson. Xotirani zo'riqtirishga hojat yo'q, yozma matn har doim tarjimonning ko'z oldida. Ammo, yozma matn tarjimonidan farqli o'laroq qog'oz tarjimoni matnga to'liq asoslana olmaydi. "Qog'oz tarjimoni" tezda, bir necha belgilariga ko'ra matn tipini belgilashi, uning stilistik xususiyatlarini ajratishi, matnda ko'tarilgan muammoni, mavzuni va bilim sohasini aniqlay olishi zarur. Hattoki, eng oddiy vaziyatda ham, rasmiy matnni tarjima qilish talab etilganda ham, matndagi atamalar, spetsifik nutqiy qurilmalar tarjimoniga tarjimani qiyinlashtirib beradi. Yanada murakkab vaziyatlarda huquqiy hujjatlarni tarjima qilishga to'g'ri keladi, zero, bunday tarjimadan alohida aniqlik talab etiladi.

### **Kommunal tarjimon**

"Kommunal tarjimon" atamasi ostida og'zaki nutq tarjimoni faoliyatining taraqqiyotidagi eng zamonaviy yo'nalishlardan biri – tibbiy va ma'muriy muassasalardagi tarjima nazarda tutiladi. Bunda tarjimaning o'ziga xos xususiyati emas, balki tarjimon vazifasidagi o'ziga

xoslik tushuniladi. Albatta, og'zaki nutq tarjimonlari zarurat tug'ilganda sudda ham, FDHYoda ham, kasalxonada ham, turmada ham tarjima qilishgan. Ularning vazifasi tillararo aloqani ta'minlashdan iborat bo'lgan. Ammo keyingi paytlarda tillararo to'siqdan o'tishning o'zi yetarli emas. Yashayotgan mamlakati tilini bilmagan, uning qonunlari, qoidalari va qadriyatlari haqida tushunchaga ega bo'lmagan chet ellik fuqaroning to'liq teng huquqliligini ta'minlash uchun millatlararo to'siqni ham yengib o'tishi kerak. Bo'lmasa, ko'plab anglashilmovchiliklar yuzaga kelishi mumkin. Kommunal tarjimon vazifasi chet ellik fuqaroga hukumat bilan til topishga yordam berishdan iborat. Buning uchun tarjimon har ikki til taalluqli bo'lgan xalqlar va mamlakatlar madaniyati va ijtimoiy hayoti haqida ma'lumotga ega bo'lishi kerak, shuningdek, bu xalqlarning ijtimoiy va shaxsiy ruhiyatidan xabardor bo'lishi zarur. Boshqa og'zaki nutq tarjimonlaridan farqli ravishda kommunal tarjimon tarjima tili og'zaki nutqi, so'zlashuv nutqi, shevalarini ham bilishi kerak. Ayni paytda u sud-huquq va tibbiyot tizimi, rasmiy idoralar tilini egallagan bo'lishi lozim. Konferens-tarjimonga qaraganda, kommunal tarjimonga ko'proq sabrtoqat, asabiy vaziyatlarda chidam-bardosh kerak bo'ladi.

Xulosa sifatida e'tirof etish kerakki, og'zaki tarjimonning barcha ko'rinishlari vaqtning taxchilligi sharoitida amalga oshiriladi, kasbiy bilim va malakalardan tashqari katta bardosh va ruhiy barqarorlik talab etiladi. Binobarin, ularning kasbi haqida gap ketganida, aynan shu sifatlar tilga olinadi<sup>1</sup>.

#### **4.1.2. Yozma tarjima turlari**

Yozma tarjima bir tilda yaratilgan matnni boshqa bir tilda yozma shaklda qayta ifodalash, matnlarning turli-tumanligiga qaramay ayni bir sxema bo'yicha amalga oshiriladi va odatda quyidagi harakatlar ketma-ketligidan tashkil topadi: avvalo tarjimon asl nusxa matni bilan tanishib chiqadi, keyin birlamchi tahlilni o'tkazadi, bunda matn tipi, janr va uslubiy xususiyatlarini aniqlaydi, matn aloqador bo'lgan sohani va mavzuni belgilaydi, keyingi bosqichda tarjima matnini yaratishga o'tadi. Zaruriyat tug'ilganda tarjimon qo'shimcha axborot manbalariga

---

<sup>1</sup> Материалы «Круглого стола» по практическим вопросам устного перевода. Институт иностранных языков, СПб., 30 октября 1999 г. // Вестник ИИЯ. – СПб., 2000. – N° I. – С. 101-102.

murojaat qiladi. Qo‘shimcha axborot manbalari matn haqidagi fon bilimlarni shakllantirishga yordam beradi. Bu manbalarga lug‘atlar, ma‘lumotnomalar, mutaxassislar maslahati kabilar kiradi. Tarjimoni tugallagach, tarjimon tarjima matni bilan asl matnni solishtiradi, kamchiliklarni to‘g‘rilydi, tahrir qilib, texnik jihatdan tegishli tartibda rasmiylashtirib, buyurtmachiga topshiradi. Agar matn nashr uchun mo‘ljallangan bo‘lsa, tarjimondan keyin matn ustida muharrirlar va musahhihlar (albatta tarjimon bilan hamkorlikda) ishlaydi.

Og‘zaki tarjimadan yozma tarjimaning farqli tomonlaridan biri vaqt taxchilligining yo‘qligida namoyon bo‘ladi. Yozma tarjima tarjimonni qat’iy vaqt bilan chegaralab qo‘ymaydi va asl matnga nisbatan tarjima matnining maksimal darajadagi muqobilligini ta‘minlab beradi. Shubhasiz, yozma tarjimada vaqtning taxchilligi nisbiy tushunchadir. Yozma tarjimalarning aksariyat qismi hozirda tezlik bilan bajarilishi talab etilmoqda. Badiiy asarlar tarjimasigina bundan mustasnodir. Agarda badiiy bo‘lmagan matn tarjimasida tarjimon kuniga o‘rtacha 7 tadan 10 tacha sahifa (bir sahifada 1800 taga yaqin belgi bo‘ladi) tarjima qilsa, badiiy asarning necha betini tarjima qilishi mumkinligini aytish qiyin. Matnning estetik bo‘yoqdorligi, muallif uslubining o‘ziga xosligi tarjimon uchun qiyinchilik tug‘diradi. Bunday matnlarning badiiy yaxlitligi tarjimonni qayta-qayta asarga murojaat qilishiga, bir necha nusxalarini yaratishiga, faqat shu muallif va shu asargagina mos bo‘lgan tarjimaning spesifik usullarini ishlab chiqishga majbur qiladi.

Yozma matn tarjimonlari ba‘zan ma‘lum bir tipdagi matnlarga ixtisoslashadi. Birinchi navbatda huquqiy kuchga ega bo‘lgan hujjatlar nazarda tutiladi. Firmalar, tashkilotlar, konstruktorlik idorasi shtatidagi tarjimonlar o‘zlariga taalluqli texnika va ishlab chiqarish sohalari bo‘yicha tarjima qilishga ixtisoslashgan bo‘ladi. Badiiy asar tarjimonlari alohida guruhni tashkil etadi. Bunday tarjimonlar keng filologik bilimga, ijodkorlik ruhiga ega bo‘lgan, yozuvchilikka moyil odamlar orasidan chiqadi. Shu bilan birga, qayd etish kerakki, yozma tarjimalarda turli tipdagi matnlarni o‘g‘irishga to‘g‘ri kelganligi bois, yozma matn tarjimonlariga keng profildagi tarjimon bo‘lish, turli mavzu va tipdagi matnlarni tarjima qilishni bilish zarur bo‘lmoqda. Zero, zamonaviy tarjimonga xos bo‘lishi talab etilgan moslanuvchanlik, tarjima tipi va yo‘nalishini tez o‘zgartira olish va muntazam innovatsiyalarni o‘zlashtirib borish ko‘nikmasi har qanday matnni tezda o‘g‘irishga yordam beradi.



## Mashina tarjiması

Mashina, aniqrog‘i, kompyuter tarjiması ham yozma tarjima turi hisoblanadi, chunki biz bunday tarjima natijasida yozma tarjima matnini olamiz. Bunda tarjimani tarjimon emas, balki kompyuterdagi tarjima dasturi amalga oshiradi. Zamonaviy kompyuter dasturlari anchagina mukammallashgan bo‘lsa-da, biroq hozirgacha tarjimadek murakkab vazifani to‘la bajara olmayapti, chunki hozirgacha har bir tarjima matnida turli sabablarga ko‘ra farqli ma‘nolarda ishlatiladigan so‘zlarning kontekstga mos variantni tanlash muammosi hal etilmagan. Bugungi kunda mashina tarjiması bo‘lajak tarjima matnining (albatta tarjimon tahrir qiladigan) qoralama nusxasi sifatida ishlatilishi mumkin. Mazkur tarjima, xususan, tarjimon yo‘qligida, asl matnning mavzusi va mazmuni haqida umumiy tasavvur hosil qilish uchun ham qo‘l keladi.

Og‘zaki nutqni tanib tarjima qilishga mo‘ljallangan kompyuter dasturlari yanada murakkab vazifani bajaradi. Zero, kompyuter tomonidan og‘zaki nutqni tanish masalasini hal etish bo‘yicha ishlar endi boshlangan. Hozirgi kunga qadar nutq talaffuzining individual bo‘yog‘i yengib o‘tib bo‘lmas to‘siq hisoblanmoqda, chunki har qanday tilda bunday nutqni “qoliplashtirish” muammo tug‘diradi.

### 4.2. Tarjimada matnga ishlov berishning alohida ko‘rinishlari

Ayrim vaziyatlarda tarjimonga matnни tarjima qilish bilan bir paytgа, unga ishlov berish topshirig‘i ham berilishi mumkin. Zamonaviy tadqiqotlarda matn tarjima qilinganidan keyin unga ishlov berilsa, unda tarjima matni haqida emas, lisoniy vositachilik haqida gapirish kerak, degan fikr bildiriladi. Chunki lisoniy vositachilikka tarjima bilan bir qatorda «referat tayyorlash, qayta so‘zlab berish va boshqa moslashtirilgan, qayta ishlangan matnlar kiradi»<sup>1</sup>. Darhaqiqat, bir til doirasidagi matn ushbu qayta ishlovlardan keyin butunlay boshqa matnga aylanishi mumkin. biroq, bunda matn, ayni paytda boshqa til vositalari bilan ifodalansa, qayta ishlangan matndan tashqari, tarjima matnining ma‘lum bir ko‘rinishi haqida so‘z ketadi.

Matnga ishlov berishda matnda aks etgan ma‘lumot, ma‘lumotni yetkazish murakkabligi sababli matn uslubi o‘zgartirilishi mumkin. Qo‘yilgan maqsadga bog‘liq ravishda tarjima matniga ishlov berishning bir qancha ko‘rinishlari ajratiladi.

<sup>1</sup> Виноградов В.С. Введение в переводоведение. – М., 2001. – С. 5.

**Moslashtirish (Adaptatsiya).** Adaptatsiya matnni resipient darajasiga moslashtirish, ya'ni kitobxon begona manbalarga murojaat qilmay tushunadigan darajadagi matnni yaratishdir. Adaptatsiyaning eng ko'p uchraydigan ko'rishi – turli matnlarning bolalarga moslashtirilishi, nomutaxassislar uchun matnni soddalashtirilishi, lingvoetnik moslashtirish kabilardir.

Adaptatsiya deganda, birinchi navbatda matnni ham shaklan, ham mazmunan soddalashtirilishi tushuniladi. Xususan, maxsus leksika (atamalar, mavzuga doir murakkab tushunchalarni bildiruvchi so'zlar) tarjimada umumiste'moldagi so'zlar bilan almashtiriladi yoki tarjimon tomonidan matn ichida yoki iqtibos tarzida izohlanadi. Murakkab sintaktik qurilmalar soddalashtiriladi, gap hajmi kamaytiriladi. Badiiy matnning moslashtirilishi asarning obrazlari tizimida ham soddalashtirishni nazarda tutadi va bolalarni murakkab badiiy adabiyot bilan tanishtirish uchun ko'p qo'llaniladi. Boshqa madaniyat vakillari uchun matnni moslashtirish, ya'ni lingvoetnik adaptatsiya boshqacha xarakterga ega. Bunda matn leksikasi va sintaksisini soddalashtirish emas, balki begona madaniyat realiyalari va lisoniy hodisalarini qabul qilishni osonlashtirish nazarda tutiladi. Masalan, umumiy tilshunoslikka oid bo'lgan sharq tillaridagi tilidagi darslik o'zbek tiliga o'girilsa, sharq tilidagi misollar o'zbek tilidagi o'xshash misollar bilan almashtirilishi mumkin. Biroq, masalan, so'zning morfem tarkibiga oid o'ziga xosliklar, jins kategoriyasiga oid misolning izohi keltiriladi, chunki kitobxon o'sha sharq tilini bilmasligi mumkin. Yoki o'zbek tilidagi o'xshash misol tanlanishi mumkin (masalan, be-quvvat-lik, no-xush-liklar). Chet tilidagi publisistik yoki badiiy matnda uchraydigan begona madaniyatning ko'p sonli realiyalari tarjimada izohlanadi. Matn bunday holatda hajman kengayadi, va albatta hissiy ta'sirchanlik darajasi pasayadi, biroq kitobxonga tushunarli bo'ladi.

**Stilistik ishlov.** Asl matn har doim ham mukammal bo'lavermaydi. Har qalay, asl matn sifati tarjima buyurtmachisini qoniqtirmasligi mumkin. Buyurtmachi o'zi asl matnni baholay olmaydi, ammo ekspert bahosiga ishonishi mumkin. Bu vaziyatda tarjimondan nafaqat asl matnni tarjima qilish, balki "yaxshilash" so'raladi, masalan, matnni soddalashtirish, uzun gaplarni qisqartirish yoki bir necha gaplarga bo'laklash, mantiqsiz tuyulgan joylarni tushirib qoldirish, so'zlashuv nutqiga xos so'zlarni va jumalarni shaklini qo'llash, yoki rasmiy hujjat bo'lsa, haddan ziyod erkin qo'llanilgan so'z va jum-

larni rasmiy uslubga o'tkazish shular jumlasidandir. Bu ishlov turi "adabiy ishlov" deb ham yuritiladi. Tarjimon muallif erisha olmagan ishni bajaradi, ya'ni deyarli uslubning bir xilligini va matn mazmunidagi mantiqiylikni tiklaydi.

Bu tarjima turi faqat badiiy va publisistik matnlar tarjimasida uchraydi, bunda tarjimon tarjima qilingan matnning muallifi sifatida e'tirof etiladi.

**Mualliflashtirilgan tarjima va hammualliflik.** Mualliflashtirilgan moslashtirish uslubiy ishlovdan shunisi bilan farqlanadiki, tarjimon (odatda muallif ruxsati bilan) asl matnning badiiy tizimiga o'z o'zgartirishlarini kiritadi, syujetni, asar qahramonlari tarkibini o'zgartiradi, o'z badiiy vositalarini ishlatadi. Masalan, sobiq Sovet Ittifoqi davrida asarlar tarjimasida "zararli" g'oyalar chiqarib tashlanardi, "foydali" kommunistik g'oyalar singdirilardi. Ba'zan mualliflashtirish moslashtirish bilan birgalikda qo'llaniladi. Masalan, 1930-yillarda Rossiyada nashr etilgan Selma Lagerlefning «Необикновенное приключение Нильса с дикими гусями» kitobi aslida shved maktablari uchun geografiya fanidan darslik bo'lgan. Mazkur darslikning mualliflashtirilgan va moslashtirilgan nusxasi kichik bolalar uchun nashr bo'lgan. Mutaxassislar uchun esa bu darslikning to'liq tarjimasi amalga oshirilgan.

Tarjimada hammualliflik kam uchraydi. Bunda asl matn muallifi tarjimon bilan doimiy aloqada ishlaydi, uning fikrlariga to'la qo'shiladi, tarjimon kiritgan o'zgartirishlarni uniki deb hisoblaydi. Ba'zida muallif tarjimonni o'zi hammuallifi deb e'lon qiladi. Masalan, 2000 yilda Peterburg haqidagi hujjatli film muallifi, nemis millatiga mansub Manfred Vaffender «Music city: St. Petersburg» filmining hammuallifi sifatida mashhur peterburglik tarjimon Marina Koreneva e'lon qilgan. Bunda tarjimonning yuqori darajadagi madaniy kompetensiyasi, ya'ni nemis tamoshabinini tarjimon ona shahrining qaysi taraflari qiziqtirish mumkinligini bilishi muhim rol o'ynagan.

**Tanlangan tarjima.** Ba'zan buyurtmachiga matn boshdan-oxirigacha kerak bo'lmaydi, uni ma'lum bir savollar bo'yicha ma'lumotlarni ajratib berish zarur bo'ladi. Masalan, viruslar haqidagi ilmiy adabiyotlar sharhidan faqat ateroskleroz kasalligini keltirib chiqaradigan viruslar haqidagi ma'lumot kerak bo'lganda, yoki olimpiada haqidagi ma'lumotlardan faqat o'zbek sportchilariga oidlarini ajratib olish kerak bo'lganda, mazkur tarjima turidan foydalaniladi. Birinchi

galda tarjimon matnga ko'z yugurtirib chiqishi kerak. Ikkinchi bosqichda matnning zarur parchalari topilib, belgilangandan so'ng, ajratilgan matn qismlari bir chetdan boshlab tarjima qilinadi. Bu qoralama nusxani tarjimon tahrir qiladi va mantiqan bog'langan bir yaxlit matnga aylantiradi.

**Rezyume shaklidagi tarjima.** Tarjimada matnga ishlov berishning eng murakkab va sermashaqqat ko'rinishidir. Tarjimonning vazifasi matn mazmunining qisqa shaklini – rezyumesini yaratishdan iborat. Tarjimon avvalombor matnni boshdan-oxirigacha o'rganib chiqishi kerak. Tarjimaga mo'ljallangan matn hajmi katta bo'lishi, ya'ni roman, monografiya, ko'p jildli tarixiy tadqiqot bo'lishi mumkin. Bundan keyin tarjimon o'z oldiga qo'ygan maqsadlardan kelib chiqqan holda asl matn mazmunini qisqacha shaklda bayon qilishning o'z sxemasini chizadi. Amaliyotdan ma'lumki, 120 betlik pesa matnining 10 betlik tarjima rezyumesi yaratilgan, 700 betlik falsafiy asar hajmi ikki marta kichik shaklidagi tarjimasini amalga oshirish buyurtmasi bo'lgan. Bu o'rinda gaplarni qayta shakllantirish yetarli bo'lmaydi, ko'p gaplarni asl matn asosida tarjimonning o'ziga yozishiga to'g'ri keladi. Rezyume shaklidagi tarjimani bajarish uchun tarjimon matn mazmunini tahlil etish va qabul qilingan axborotdan xulosa chiqarish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak.

### **Nazorat uchun savollar:**

1. Og'zaki tadrijiy tarjimaning o'ziga xos xususiyatlari haqida so'zlang.
2. Sinxron tarjima tarjimoniga qanday talablar qo'yiladi?
3. Qog'ozdan tarjima qilish amaliyoti tarjimonda qanday ko'nikmalar shakllantirishga yordam beradi?
4. Yozma matn tarjimasida qaysi belgilarga e'tibor qilish kerak, deb o'ylaysiz?
5. Tarjimada matnga ishlov berishning qanday alohida ko'rinishlari mavjud? O'rganilayotgan sharq tili misolida izohlang.

### 4.3. Tarjima usullari va uslublari

#### 4.3.1. Tarjima invarianti

**Tayanch soʻz va iboralar:** *Tarjima invarianti, transformatsiya, asl matn, tarjima matni, konnotativ muvofiqlik, maʼlumot, pragmatik moslashish, kommunikativ taʼsir, til belgilari.*

Maʼlumki, tarjima jarayoni matnni koʻp bora oʻzgartirishlarga uchrashini taqozo etadi. Bunda nafaqat ifoda plani, balki mazmun plani ham oʻzgarishi tayin. Bu holat ayniqsa tarjimaning transformasion usuli koʻp qoʻllanilganda roʻy beradi. Zero, tadqiqotchilarning koʻpchiligi tarjima jarayonini tillararo transformatsiya, yaʼni asl matnni tarjima matniga aylanishi jarayoni deb bilishadi. Aytish kerakki, bu oʻrinda asl matnning shartli oʻzgarishi haqida gapirish mumkin, chunki asl matnning mohiyati oʻzgarishsiz qoladi. Bu masalada asl matn va tarjima matnining shakli va mazmunini solishtirish natijasida aniqlanadigan katta tafovutlar haqida gap ketyapti. Asl matn va tarjima oʻrtasidagi bunday farqlar qatoriga turli tillardagi tushunchalar hajmidagi tafovutlar, tushunchalar tizimining mos emasligi, solishtirilayotgan tillardagi tabiatan farqli boʻlgan koʻp maʼnolilik hodisalari, asl nusxa tili va tarjima tilidagi goʻyoki muqobil boʻlgan birliklarning turli semantik sathlarda turlicha maʼnolarni bildirishi, ularning nooʻxshash boʻlgan konnotativ muvofiqligi, tillar grammatik qurilishining bir-biriga tushmasligi kabi hodisalar qayd etilgan tafovutlarning yuzaga kelishiga sabab boʻlishi mumkin<sup>1</sup>.

Tarjima natijasida matnning mazmuni va shakliga anchagina oʻzgartirishlar kiritilishini eʼtiborda tutib, tarjima matnini asl matnga tenglashtirish hamda tarjima matnidagi bir qator oʻzgarishlar, moslashish ishlaridan keyin asl matnga teng, deb qabul qilish uchun nima asos boʻladi, matnning barcha oʻzgarishlaridan keyin nima barqaror qoladi, degan savol tugʻiladi.

Maʼlum bir oʻzgartirishlar natijasida turgʻun, oʻzgarishsiz qolgan narsa "invariant" deb nomlanadi. «invariant» atamasi matematikadan oʻzlashtirib olingan boʻlib, maʼlum bir ifodaga bogʻliq boʻlgan oʻzgaruvchilarni maʼlum bir tarzidagi oʻzgarishi holatida ham oʻzgarmaydigan ifoda, degan tushunchani bildiradi<sup>2</sup>.

<sup>1</sup> Стрелковский Г. М., Латышев Л. К. Научно-технический перевод. – М.: Просвещение, 1980. – С. 23.

<sup>2</sup> Словарь иностранных слов. Изд. 15-е, испр. – М.: Рус. яз., 1988. С 190-191.

Rus tilining lug'atida "invariantlik" so'zi quyidagicha ta'riflanadi: «O'lovlar, tenglashtirishlar, qonunlarning koordinatlar va zamonning ma'lum bir o'zgarishlari ro'y berganda ham o'zgarmas bo'lib qolish xususiyati»<sup>1</sup>. Xorijiy so'zlar lug'atida invariantga lingvistik nuqtai nazardan ta'rif berilgan: «kontekstdan ajralgan holdagi, ya'ni nutq ko'rinishidan ajralgan holdagi tilning tuzilmaviy birligi (fonema, morfema, leksema va boshqalar.)»<sup>2</sup>.

Tilshunoslikda «invariant» atamasi turlicha sharhlanadi: a) referensiyalarning ayniligi yoki ma'nolarning umumiyligida reallashadigan lisoniy reallik; b) umumiy xususiyatni yoki umumiy belgilar majmuasini ajratishga imkon beradigan mavhumlashtirish natijasida vujudga keladigan konstrukt, ideal mohiyat; v) variantlarning ko'psonliligi yoki yig'indisi<sup>3</sup>. Demak, har qanday vaziyatda ham invariantning har bir izohi qandaydir umumiy, o'zgarmas va istisnosiz barcha variantlarda qatnashadigan narsani nazarda tutadi.

Tarjimaning invariantini tarjima va asl matnning barcha nusxalariga xos bo'lgan qandaydir umumiylilik, boshqa tilga yoki tillarga tarjima qilinganda o'zgaraydigan bir narsa, deb qabul qilish mumkin. L.G.Nechaevning yozishicha, «...invariant o'z nusxalaridagi ayrim o'lovlarining saqlanib qolishi va ularga teng bo'lishi xususiyatlari bilan xarakterlanadi. Uning nusxalari, aksincha, u yoki bu belgilarning o'zgaruvchanligi, ko'plab variantlarni umumlashtirishga imkon beradigan tafovutlari bilan ajralib turadi»<sup>4</sup>. Nusxalarning yig'indisi invariantning mavjudlik shakllari, invariant «mavjudligining ekzistensial aspekti»<sup>5</sup>dir. Bunda asl matnni uning boshqa til yoki tillarga tarjimasi nusxasining teng huquqli ko'rinishi sifatida tarjimaning invarianti deb hisoblashimiz mumkin (bu o'rinda tarjimaning invariantini bir emas, bir necha tillarga o'girilgan nusxalaridan ham mavhumlashtirish orqali ajratishimiz mumkin).

Bu masalada eng murakkab muammo tarjima jarayonida matnda saqlanadigan va tabiiyki, tarjimaning invarianti sifatida qabul qili-

<sup>1</sup> Словарь русского языка в 4-х томах. Изд. 2-е, испр. и доп. – М.: Рус.яз., 1981. – С. 664.

<sup>2</sup> Словарь иностранных слов. – С. 191.

<sup>3</sup> Нечаев Л. Г. О понятии «инвариант перевода»//Теория и практика перевода: Сб. науч. трудов. Вып. 295. -М.: МГПИИЯ, 1987. -С. 33-34.

<sup>4</sup> Там же. – С. 37.

<sup>5</sup> Там же. – С. 36.

nadigan o'lovchlarni aniqlashda kuzatiladi. Ayni borada tadqiqotchilar turli fikrlarni ilgari surishgan. Ilmiy adabiyotlarda invariantning belgisini ko'rsatuvchi so'z bilan qo'llangan holatlarini ko'p uchramiz: «ma'noviy invariant», «funktional invariant», «situativ invariant», «informasion invariant»<sup>1</sup>, shuningdek, «qurilmaviy invariant»<sup>2</sup>. Biroq, turli tillardagi matnlarning ayniligini ta'minlash uchun mazkur sanalgan mezonlar (ma'no, vazifa, vaziyat, axborot) ning hammasi ham saqlanishi shartmi yoki faqat bir mezonga ko'ra invariantlikning saqlanishi yetarli, bu, tushunarli emas. Shuning uchun tarjima invarianti tabiatini yanada aniqroq belgilash zarurga o'xshaydi.

L.S.Barxudarov birlamchi asl matn va tarjima matni o'rtasidagi semantik mazmunning umumiyliги tarjimaning invariantligini belgilab beradi, deb hisoblaydi<sup>3</sup>. R.K. Minyar-Beloruhev bu vaziyatni tanqid qiladi, uning fikriga ko'ra, mualliflar birlamchi matn va tarjima matni o'rtasiga "tenglik" belgisini qo'yadi. Ammo tarjima matni invariant asosida emas, birlamchi asl matn asosida yaratiladi. Shu bois, tarjima matni bilan asl matnni solishtirish orqali invariantni aniqlash mantiqqa unchalik to'g'ri kelmaydi. Bundan tashqari, L.S. Barxudarov faqat semantik mazmun bilan cheklanadi, vaziyatga aloqador ma'lumotni hisobga olmaydi<sup>4</sup>. Muloqotning ekstralingvistik komponentlari I.I. Revzin va V.Yu. Rozensveyg tomonidan invariantga berilgan ta'rifda ham hisobga olinmagan. Olimlar ma'lum bir ifodaga mutanosib ravishda vositachi tilda tanlangan oddiy ma'noviy birliklarning o'xshashligini "invariant" deb baholashadi<sup>5</sup>. Shu tariqa, bu mualliflar birlamchi matn va tarjima matni o'rtasiga emas, balki asl matn va vositachi til o'rtasiga "tenglik" belgisini qo'yishadi. Bunda vositachi til va invariant o'rtasidagi aloqa birlamchi matn orqali ro'yobga chiqadi.

A.D. Shveyser invariant tushunchasini izohlar ekan, quyidagilarni ta'kidlaydi: «...tarjima jarayonida faqat birlamchi axborotning mazkur kommunikativ aktini va ular o'rtasidagi o'zaro munosabatni funksional

---

<sup>1</sup> Там же. – С. 33.

<sup>2</sup> Семко С. А. и др. Проблемы общей теории перевода. – Таллин: «Валгус», 1988. – С. 130.

<sup>3</sup> Миньяр-Белоручев Р. К. Общая теория перевода и устный перевод. – М.: Воениздат, 1980. – С. 35.

<sup>4</sup> Миньяр-Белоручев Р. К. Общая теория перевода и устный перевод. – С. 36.

<sup>5</sup> Ревзин И. И., Розенцвейг В. Ю. Основы общего и машинного перевода. – М.: Высш. шк., 1964. – С. 68.

xarakteristikalar bilan aniqlanuvchi va moslashuvchi mazmuni (nafaqat semantik, balki pragmatik) barqaror qoladi »<sup>1</sup>. R.K.Min'yar-Beloruhevning yozishicha, ushbu yondashuvda ham semantik, ham pragmatik (vaziyatga aloqador ma'lumotni ham o'z ichiga oluvchi) axborotning hamda kommunikativ akt xususiyatlarining tilga olinganligi yutuqdir. Lekin, R.K.Min'yar-Beloruhev fikriga ko'ra, birinchidan, A.D. Shveyser "birlamchi matn mazmuni" deganda nimani nazarda tutayotgani tushunarsiz, shuningdek, ikkinchidan, olim axborotni nutqiy asar, matnga tenglashtirmayaptimikin, degan savol tug'iladi. Bu holda invariantning berilgan ta'rif badiiy tarjimaga mos kelmaydi, chunki badiiy tarjimada matnning tuzilmasi haqidagi ma'lumotni yetkazib berish ko'p holatlarda majburiy sanaladi<sup>2</sup>.

Demak, tarjimaning invariantiga berilgan ta'riflar yoki to'liq emas yoki noaniq, shu sababli ularni qoniqarli, deb bo'lmaydi. R.K.Min'yar-Beloruhevning ko'rsatishicha, invariantni belgilashda uni ajratishning asosiy vositasi bo'lgan nutqiy asardan tashqari, manbaning maqsadi, motivlari va intensiyalarini e'tiborga olish kerak. Chunki tarjimada birlamchi matnning shakli va mazmunini saqlab qolishdan tashqari, manba tomonidan yetkazish ko'zda tutilgan ma'lumotni ham saqlab qolish kerak. "Ma'lumot" deyilganda, matnni J-jo'natuvchi (asl matn) tomonidan Q-qabul qiluvchi adresatga (tarjima matni) yetkazish mo'ljallangan axborot tushuniladi.

R.K.Min'yar-Beloruhevning mantig'i quyidagilardan iborat: Nutqiy muloqotda manba kommunikatlarni o'z fikrlari bilan tanishtirishni maqsad qiladi. Bu niyat axborotni berish orqali amalga oshiriladi. Axborotni yetkazish uchun u nutqiy asarni shakllantirishi kerak va bunda qabul qiluvchiga ma'lum bir ta'sirni ko'rsatish uchun nuqtiiy asarning shaklini diqqat markazida tutishi zarur. Manbaning turli omillariga bog'liq ravishda, manba (muallif) nutqda moddiyLashtirish uchun o'sha ma'lumotni va ushbu aniq sharoitlarda zarur kommunikativ ta'sirga ko'rsata oladigan nutqiy qurilmani shakllantirish bilan shug'ullanadi. Aniq bir kommunikativ aktda yetkazish ko'zda tutilgan axborot ham semantik, ham vaziyatga bog'liq ma'lumotni tashiydi. Bu holatda axborot mazmun bilan mos keladi (mazmun, ma'no semantik va situasion ma'lumotning birikuvidan hosil bo'lgan

<sup>1</sup> Миньяр-Белоручев Р. К. Общая теория перевода и устный перевод. – С. 37.

<sup>2</sup> Там же. – С. 37.



hosila ekanligini eslatib o‘tamiz). Badiiy tarjimada axborot mazmundan tashqari qo‘shimcha estetik ta’sirni o‘z ichiga olishi mumkin. Shu mulohazaga asoslangan holda, R.K.Minyar-Beloruhev tarjimadagi invariant yetkazish uchun mo‘ljallangan axborot yoki ma’lumot, degan fikrni ilgari suradi. Bu yoki faqat semantik yoki situasion ma’lumot, yoki tuzilma haqidagi yoxud semantik va situasion ma’lumotning qorishmasi yo barcha ma’lumotlarning birdaniga birikmasi, deganidir. Yetkazish uchun mo‘ljallangan ma’lumotlarning har qanday ko‘rinishi ham faoliyatning maqsadiga bog‘liq ravishda o‘zgaradigan ma’lumotning tuzilmasini tashkil etadi<sup>1</sup>.

Bizningcha, tarjimaning invariantiga berilgan mazkur ta’rif to‘liq. Shu bilan birga, R.K.Minyar-Beloruhev, xususan, belgilangan kommunikativ ta’sirni yaratish uchun foydalaniladigan, kommunikativ ta’sirni ta’minlaydigan matnning pragmatik moslashishini hisobga olmaydi. Matnning pragmatik moslashishi berilayotgan axborot (ma’lumot)ning tarkibi va tuzilmasini o‘zgartirishdan iborat. Demak, axborot tarjimada o‘zgaradi va uni o‘zgarmas narsa – ya’ni tarjimaning invarianti sifatida o‘rganib bo‘lmaydi. Bundan tashqari, axborotning tarkibiga ifodaning ma’nosini qo‘shish imkonsiz, chunki ma’noning tabiati ma’lumotning ta’rifiga ziddir: ma’lumotning turli ko‘rinishlari o‘zaro munosabatlari mazmun bo‘lib, ma’lum ma’noda ruhiy jarayondir. Ayni paytda ma’lumot til belgilari (leksik birliklar qurilmalar) mazmuniga singdirilgan axborotdir.

Ko‘pchilik tarjimashunoslarning fikriga ko‘ra, tarjima invarianti ifodaning mazmunidir. Darhaqiqat, tarjima matni, odatda asl matnda ifodalangan g‘oyani tashiydi, bunda albatta semantik ma’lumot biroz o‘zgaradi. Demak, mazmun, g‘oya matnning o‘zgarimchi, barqaror sifati bo‘lib, tarjima jarayonida qanday semantik o‘zgarishlarni boshidan o‘tkazganidan qat’iy nazar, tarjimaning barcha ko‘rinishlarida saqlanib qoladi, deb bema’alol ta’kidlash mumkin.

G.M.Strelkovskiy va L.K.Latishev birmuncha o‘zgacha mulohazani ilgari suradi<sup>2</sup>. Olimlarning asosli qayd etishicha, tarjima jarayonida «nafaqat belgilar o‘zgaradi, ya’ni bir tildagi so‘zlar boshqa tildagi so‘zlar bilan almashtiriladi, bu almashtirish jarayonida ular bildirgan ma’nolar hajmi ham o‘zgaradi». Ammo asl matndan tarjima

<sup>1</sup> Миньяр-Белоручев Р. К. Общая теория перевода и устный перевод. – С. 37-39.

<sup>2</sup> Стрелковский Г. М., Латышев Л. К. Научно-технический перевод. – С. 23-26.

matniga o'tar ekan, o'ziga xos nimanidir saqlab qolishi shart. G.M.Strelkovskiy va L.K.Latishev mazmunni invariant deb hisoblashmaydi, chunki, ularning fikriga ko'ra, mazmun tarjimada o'zgarishga uchraydi. Bunda, mualliflarning qarashiga ko'ra, mazmun ham o'zgaradi, zero, mazmun real voqelik, ya'ni bu voqelikning real ob'ekti bilan bog'liq bo'lib, bir ob'ektning boshqasi bilan almash-tirilishi mazmunning ham o'zgarishiga olib keladi.

G.M.Strelkovskiy va L.K.Latishevlar nimani tarjimaning invarianti deb hisoblashadi? «Tarjimaning invarianti deganda, biz fikrning o'zgarmas mazmunini, uning barcha ma'no qirralarini nazarda tutamiz», - deb yozishadi ular<sup>1</sup>. Invariant — insonning ifodalardagi o'zgarishlar jarayonini tadqiq etar ekan, o'z ongida yaratgan tushunchasi. Invariantning o'zi moddiy qobiqqa o'rallishi mumkin emas, invariantni faqat xayolan his qilish mumkin, ammo u moddiy jihatdan o'z variantlarida taqdim etilganligi uchun invariantni tasavvur ham etib bo'lmaydi. Fikr mazmunini har doim turlicha gaplar (variantlar) bilan ifodalash mumkin:

1. Tarjimaga o'rgatish – murakkab ish.
2. Tarjima qilishga o'rgatish oson ish emas.
3. Tarjima mahoratiga o'rgatish ishini amalga oshirish juda qiyin.
4. Tarjima qilishga o'rgatish sira ham oson emas.

Keltirilgan misollar bir invariantning variantlari bo'lib, ularda bir fikr mazmuni saqlangan.

Ko'rinib turibdiki, bu munosabatning an'anaviy qarashdan farqli tomoni faqatgina atamalarni odatdagiday qo'llamaslik orqali yuzaga kelgan. G.M.Strelkovskiy va L.K.Latishev fikr deb atagan tushunchani biz mazmun yoki til birliklarining ma'nosi deb qabul qilamiz. Olimlar ta'kidlagan, fikrning o'zgarmas mazmuni esa, aslini olganda, ma'nodir.

Shunday qilib, fikr, g'oya tarjimaning invarianti degan mulohaza asosli ko'rinadi. Ammo bu qarash tarjimaga kommunikativ-funksional yondashuv nuqtai nazaridan berilgan ta'rifga zid keladi. Agarda g'oya tarjimaning invarianti bo'lsa, u tarjimaning har qanday ko'rinishlarida ham haqiqatdan saqlanishi kerak. Biroq ushbu holat faqat tarjima yuqori saviyada va sifatli amalga oshirilsagina ro'yobga chiqadi.


Mazmun, shubhasiz, tarjimon tomonidan ba'zan rejadan tashqari pragmatik vazifalarni ado etishi natijasida ham o'zgaradi. Tarjima

<sup>1</sup> Стрелковский Г. М., Латышев Л. К. Научно-технический перевод. – С. 24-25.

mazmunining asl matnga qaraganda o'zgarishi holati reklama matnlari tarjimasida ham kuzatiladi. Bunda sof tarjima «rivarayting» deb nomlanuvchi hodisaga o'z o'rnini bo'shatib berishi ham mumkin. Asl matnga parallel ravishda yaratilgan tarjima matni mazmunida tarjima tilida so'zlashuvchi auditoriya hisobga olinadi. («Bu tish pastasi tejamliroq» o'rniga «Bu tish pastasi arzonroq»). Bunday tarjimada dalillash o'zgaradi, mantiqiy urg'ular o'zgaradi, xaridorlarga ta'sir ko'rsatishning boshqacha vositalari ishlatiladi. Nima saqlanib qoladi? Boshlang'ich ma'lumotni jo'natuvchining (reklama beruvchi) kommunikativ intensiyasi saqlanib qoladi: «Mahsulotni sotib oling!».

Va nihoyat, tarjimonning aybi bilan tarjima mazmuni o'zgartirilgan holda, past saviyadagi tarjimalar ham amalga oshirilishi mumkin. Shunday bo'lishiga qaramay, tarjima sifati yaxshi yoki yomon bo'lishidan qat'i nazar asl matnni almashtirib turgani sababli tarjima sifatida qabul qilinadi. («Tarjima – tarjima sifatida taqdim etiladigan har qanday matn»!).

Yuqorida qayd etilgan fikr-mulohazalardan ma'lum bo'ladiki, asl matn muallifi – jo'natuvchining kommunikativ intensiyasiga mutanosib keluvchi matn vazifasi tarjimaning har qanday ko'rinishlarida ham o'zgarmasdan saqlanadi. Ammo bu fikr asl matnning boshqa mezonlari tarjima matnidani saqlanmasligi kerak, degan xulosani keltirib chiqarmaydi. Ifodaning turli sathlarida (xabar – mazmun – vazifa) dialektik aloqa mavjud bo'lib, aynan shu aloqa sababli invariant kompleks xarakterga ega bo'ladi va matnning turli o'lchovlarini qamrab oladi. Ushbu vaziyatni quyidagicha chizmada aks ettirish mumkin:



Yuqori sath invariantining tarkibiy unsuri, ya'ni vazifasi quyi sathlar (ma'no va axborot) o'lchovlariga nisbiy bog'liq bo'ladi. Ya'ni matnning vazifasini qayta yaratish uchun axborotni ham, mazmuni ham qayta tiklash kerak. Bunday vaziyat matnga singdirilgan ma'lumotni yetkazish ma'no va matn vazifasini qayta yaratishning sharti bo'lgan tarjimaning maxsus ko'rinishlarida (ilmiy-texnik, rasmiy matnlarda) yuzaga keladi. Biz asl matnning vazifasini qayta tiklash uchun matn muallifining kommunikativ intensiyalari belgilab beradigan matn belgilarini tarjimada saqlab qolishimiz kerak, deb hisoblaymiz. Xuddi shu singari, tarjimada mazmuni qayta tiklash ko'pincha yetkazish ko'zda tutilgan mazmuni tarjima tilida ifodalashga bog'liq bo'ladi. Ammo invariant komponentlari o'rtasidagi aloqa nisbiydir. Tillararo muloqotning ayrim vaziyatlarida mazmuni to'la yetkazish uchun va demakki, matn vazifasini ifodalash (nazmiy asar) maqsadida axborotni imkon qadar to'liq aks ettirish vazifasidan voz kechish darkor. Boshqa vaziyatlarda, avval qayd etganimizday, ifodaning mazmuni o'zgaradi, lekin asosiy belgi - VAZIFA saqlanadi. Vazifa saqlanganida, tarjima matnida chizmada yuqoridagi uchburchak bilan belgilangan ifodaning xarakteristikasiga qayta yaratiladi.

### **Nazorat uchun savollar:**

1. "invariant", "invariantlik" tushunchalarini sharhlang.
2. "Tarjimaning invarianti" deganda nimani tushunamiz?
3. Tarjimashunos olimlar tarjima invarianti tushunchasiga qanday ta'riflar berishgan? Ularni solishtirib, o'rtasidagi farqni izohlang.
4. "Mazmun, g'oya - o'zgarmas" bo'ladi, shu sababli tarjimaning invarianti hisoblanadi, degan fikrga munosabatingiz?

### **4.3.2. Tarjima birliklari**

**Tayanch so'z va iboralar:** *til birliklari, ma'noviy segmentatsiya, tarjima birligi, sinxron tarjima, yozma tarjima, fonema, grafema, gap, matn.*

Tarjima jarayonida tarjimon ma'lum bir til birliklari bilan ish ko'radi, ularning mazmunini aniqlaydi va tarjima tilidagi muqobillarini tahlil etadi. S.A.Semkoning ta'kidlashicha, «Matn tarjimasi, ayniqsa, katta hajmdagi matnlar tarjimasi bir paytning o'zida amalga oshirilishi mumkin emas, matn "unsurma-unsur" tadrijiy ravishda

o'giriladi. Tarjimon asl matnning ma'lum ma'nodagi ma'noviy segmentatsiyasini o'tkazadi, ya'ni matnni bo'laklarga bo'ladi va keyin tarjima tilidan unga mos keluvchi muqobillarni izlaydi»<sup>1</sup>. Tarjima jarayonini tavsiflash maqsadida qaysi segmentlar tarjimon ish ko'radigan asosiy birliklar ekanini, ya'ni nima aynan "tarjima birligi" ekanini aniqlashi zarur (rus tilida «переводема» ёки «транслема» atamalari ham ishlatiladi). Biroq avvalombor tarjima birliklarini ajratish tamoyillarini belgilash kerak.

Tarjima birligi sifatida tilshunoslikda ajratiladigan ma'lum bir birlik yoki birliklarni qo'llash mumkin yoki "sof tarjima birligini" ajratish mumkin, degan yondashuvlar mavjud. Bundan tashqari, tarjima jarayonida ishtirok etuvchi tillardan birortasida tarjima birliklari ajratiladimi yoki ular asl matn va tarjima matni bo'laklari o'rtasidagi qandaydir munosabatni bildiradimi, bu savolga ham javob topish kerak<sup>2</sup>.

Tarjimada bir butunlik sifatida o'giriladigan, asl matnning eng kichik til birligini tarjima birligi tarzida qabul qilishimiz mumkin. Chunki tarjima matnida tarjima birligi tarkibiy qismlarining (agar bunday tarkibiy qismlar bo'lsa) ma'nosini tarjimada qayta shakllantiruvchi birlikni aniqlab bo'lmaydi<sup>3</sup>. J.-P. Vine va J.Darbelne "tarjima birligi" «axborotning eng kichik segmenti bo'lib, ushbu segmentdagi belgilar birikuvi mazkur birlikni ajratib tarjima qilishga imkon bermaydi», deb yozishgan edi<sup>4</sup>. L.S.Barxudarov "tarjima matnidan muqobilini topish mumkin bo'lgan, biroq mazkur birlikning tarkibiy qismlari alohida muqobiliga ega bo'lishi mumkin bo'lmagan, birlamchi matndagi ixtiyoriy birlik tushunilishini hisobga olgan tarzda, har qanday til sathining har qanday birligi "tarjima birligi" bo'lishi mumkin, degan qarashni ilgari suradi<sup>5</sup>. Boshqacha qilib aytganda, tarjima fonemalar yoki grafemalar sathida (masalan, turkcha *Mehmet* ismi *Mehmet* yoki *Mahmud* shaklida, *Paşa* unvoni *Pasha* yoki *Poshsho* shaklida tarjima qilinishi mumkin), morfemalar sathida (*backbencher*

<sup>1</sup> Семко С.А. и др. Проблемы общей теории перевода. – Таллин: «Валгус», 1988. – С. 115.

<sup>2</sup> Комиссаров В.Н. Слово о переводе. – С. 185-186.

<sup>3</sup> Там же. – С. 187.

<sup>4</sup> Бу ҳақда қаранг: Топер П. М. Перевод в системе сравнительного литературоведения. – М.: «Наследие», 2000.

<sup>5</sup> Бархударов Л.С. Язык и перевод /Вопросы общей и частной теории перевода). – М.: Междунар. отношения, 1975. – С. 175.

– orqa o‘rindi), so‘zlar sathida (*O eve geldi – U uyga keldi*), so‘z birikmalari sathida (*yanlış adrese başvurma – noto‘g‘ri manzilga murojaat qilish*), gap sathida (*Doğum günün kutlu olsun! – Tug‘ilgan kuningiz bilan!*) va matn sathida (masalan, nazmiy) amalga oshirilishi mumkin<sup>1</sup>. A.D. Shveyser tarjima birligining bunday ajratilishiga qarshi chiqadi. Uning fikriga ko‘ra, har qanday birlik, birinchidan, doimiy o‘lcham, ikkinchidan, bu birlik u yoki bu til birligini shakllantiradi, uchinchidan, bunday birlik go‘yoki shu o‘lchovdagi birliklarni o‘lchashga xizmat qiladi, bunda ularni bir chiziqdagi ketma-ketliklar yoki ma‘lum bir birliklar yig‘indisi tarzida berish imkoni e‘tirof etiladi. Ayni chog‘da L.S. Barxudarovning ta‘rifiga ko‘ra, tarjima birligi o‘zgaruvchan o‘lchamdir, asl matn tilining o‘zgaruvchan va noaniq bo‘lgan, tilshunoslik atamalarida ajratilmagan nutq bo‘laklari tarjima birligi deb o‘rganiladi; ayni chog‘da tarjima jarayoni tarjima birliklarining oddiy birikuvi, deb qabul qilinadi<sup>2</sup>.

V.N.Komissarovning qayd etishiga qaraganda, tarjima jarayonining mustaqil ob‘ekti sifatida ishtirok etadigan matnning eng kichik birligi tarjima birligi, deb ta‘riflanishi mumkin<sup>3</sup>. V.N. Komissarov bunda tarjimonning asl matnini ma‘lum bir bo‘laklarga bo‘lishi, bir bo‘lakni tarjima qilib bo‘lgach, keyingi bo‘lakni tarjima qilishga o‘tishini e‘tiborga olib, shunday xulosaga keladi. Muammo bunday bo‘laklarning o‘lchamlarini belgilashda kuzatiladi. V.N.Komissarovning ta‘kidlashicha, bunday bo‘laklar turli tillar va tarjimaning turli ko‘rinishlari uchun bir xilda o‘lchamga ega bo‘lmaydi. Masalan, o‘zbekcha-sharq tili (masalan, turk, yapon, xitoy tillari), sharq tili (masalan, turk, yapon, xitoy tillari) – o‘zbekcha yozma tarjimalar uchun tarjima qilinayotgan matnlarning eng kichik birligi, odatda bitta, ayrim hollarda ikkita gap shaklida bo‘lishi mumkin. Chunki bunda tarjimada muqobil keluvchi gap tuzilmasini belgilash uchun axborot yetarli bo‘lgan birlik tarjima birligi sifatida maydonga chiqadi. Sinxron tarjimada eng kichik tarjima birligi ko‘pincha ma‘noviy guruh ko‘rinishiga ega bo‘ladi. Biroq bu vaziyatda ham gap tarjima birligi o‘laroq xizmat qilishi mumkin<sup>4</sup>.

<sup>1</sup> Там же. – С. 176-185.

<sup>2</sup> Швейцер А. Д. Перевод и лингвистика. – М.: Воениздат, 1975. – С. 71-72.

<sup>3</sup> Комиссаров В. Н. Слово о переводе. – С. 186.

<sup>4</sup> Там же. – С. 186-187.

Tarjima tilining birliklarini diqqat markazida tutgan holda, tarjima birliklarni ajratishning boshqacha uslubini taklif etish mumkin. Bu yondashuvda tarjima tilidagi ayrim leksik yoki grammatik kategoriyalarga mutanosib muqobil sifatida qo'yish mumkin bo'lgan, asl matn tilidagi leksemalar yoki grammemalarning eng kichik majmuasi til birligi sifatida qabul qilinadi. Mazkur yondashuvda tarjima tilidagi leksik va grammatik kategoriyalar tizimi asl nusxa tiliga o'tadi. Natijada asl matn tilida turli tipdagi birliklar yig'indisi ajratiladi va asl matnda bunday majmuaning paydo bo'lishi tarjima tilida ma'lum bir aniq leksik yoki grammatik kategoriyalarni ishlatish zarurati haqida xabar qiladi. V.N.Komissarov bunday yondashuvning kamchiliklari qatorida quyidagilarni sanaydi: birinchidan, tarjima birligi o'laroq qabul qilingan birliklarning yig'indisini tashkil etgan birliklarning turli tipda ekanligi, ikkinchidan, bu birliklar mohiyatan olinsa, tarjima birliklari emas, balki ikki til tizimining mutanosib keluvchi birliklaridir<sup>1</sup>.

Boshqa bir yondashuvga ko'ra, tarjima birliklarini izlash faqat asl matnning mazmun planiga yo'nalgan holda olib boriladi. Tarjima birligi tarjima matnida qayta tiklanadigan asl matn mazmunining eng kichik birligi deb ta'riflanadi. Ya'ni tarjima birligi asl matn mazmunining turli sathlarining oddiy ma'nolari orasidan topiladi<sup>2</sup>.

«Agar o'sha nuqtai nazarda turib olinsa, – deb yozadi L.A.Chernyaxovskaya, – ya'ni matnning belgilari emas (tilning u yoki bu sathida), balki belgilarga eksplisit shaklda (belgilar yordamida) singdirilgan axborot tarjima qilinsa va ular tomonidan implisit shakldagi, tarjima birliklarini izlashga urinish bema'ni ish bo'lib ko'rinadi, chunki yuqorida keltirilgan misoldan ayon bo'ladiki, asl matndagi birgina so'z turli-tuman ma'lumotni tashishi mumkin. Va birlamchi ma'lumotni ifoda etuvchi so'zni tarjima tilidan topib bo'ladimi yoki topib bo'lmaydimi, bunisi noma'lum»<sup>3</sup>. L.A.Chernyaxovskaya tarjima qilinaotgan matnga boshqacha yondashishni – uning mazmunini tashkil etuvchi ma'lumotni ajratishni taklif etadi (agar birlamchi tildagi bir so'z har xil ma'lumotni anglatlsa, – ayniqsa, agarda tarjimaga qilish uchun shunday eksplikatsiya talab etilsa – bu so'z tarjimada bir butun abzas shaklida berilishi mumkin.). Shu qarashga asoslangan holda

---

<sup>1</sup> Там же. – С. 188.

<sup>2</sup> Там же. – С. 189.

<sup>3</sup> Там же. – С. 27-28.

L.A.Chernyaxovskaya tilning u yoki bu belgilari emas, balki asl matn tilidagi sifat jihatdan har xil bo'lgan eksplisit va implisit ma'lumot tarjima ob'ekti bo'lishi kerak, deb ta'kidlaydi. «Matnda sifat jihatdan turli-tuman tarkibiy qismlarni – ular fonema yoki abzas ekanligidan qat'i nazar – ajratish bizga “shubhali” tarjima birliklarini belgilab beradi»<sup>1</sup>.

L.A.Chernyaxovskaya o'zining boy tarjimonlik amaliyoti va bu soha mutaxassisi sifatida asl matn mazmunini tashkil etuvchi informatsion komponentlarni tarjimada aks ettirish zarurligini asosli ravishda qayd etadi (kommunikativ jihatdan relevant va norelevant ma'lumotni hisobga olganda holda). Ammo tarjimashunos asl matndagi ma'lumotning bu segmentlarini ajratishning aniq mezonlarini taklif etmaydi. Shu o'rinda bu kabi mezonlarni aslida ishlab chiqish mumkinmikan, degan savol ham tug'iladi.

Bunday mulohaza yuritish davrida keyinchalik tarjima ob'ekti sifatida asl matn mazmuni unsurlarini, ma'lumotning kvantlari yoki segmentlarini aniqlash, tarjimon tomonidan asl matni to'la bilishiga asoslaniladi. Asl matnning boshdan-oyoq mazmunini hisobga olish tarjimada berish ko'zda tutilgan ma'lumotning ma'lum bir kvantlarini ajratish, tarjima tilidan aynan shu axborotni tashuvchi muqobil til birliklarini izlab topishga imkon beradi Ko'p ma'noli so'zning bu matnda qaysi ma'noda kelganligini aniqlash kontekstni, ba'zan butun asar kontekstini bilishni taqozo etadi. So'zlar o'ziga xos bo'lmagan, noodatiy ma'nolarda qo'llanilishi mumkin, bu ma'noni aniqlash esa tarjima qilinayotgan matnning g'oyasini nazarda tutishni talab etadi. Masalan, o'zbek kinosevarlari qalbidan chuqur joy olgan, Tangemning hayotidan hikoya qilguvchi 대장금 – “Saroy javohiri” seriali rus tilida “Жемчужина дворца” nomi bilan namoyish etildi. Koreys tilidan tarjima qilinganida, bu nom so'zma-so'z “Saroy duri” ma'nosini beradi. Holbuki, o'zbek tilida bu shaklda emas, balki “Saroy durdonasi” shaklida berish mumkin edi. Zero, “durdona” dur shodalarining o'rtasidagi eng yirigiga nisbatan ishlatiladi. Serialni “Saroy javohiri” emas, balki “Saroy durdonasi” shaklida tarjima qilinsa, birinchi qayd etilgan nomda yo'l qo'yilgan xato, ya'ni “ko'p qimmatbaho toshlar” ifodasiga yo'l qo'yilmagan bo'lardi. Ushbu misol ayni tarjimani amalga oshirish uchun asl matni butunligicha ham mazmnini, ham g'oyasini hisobga olish kerak, degan mulohazaning asosli ekanligini ko'rsatadi.

---

<sup>1</sup> Там же. – С. 28-29.



Matnni uning barcha mazmuni va shakliy belgilari bilan birgalikda tarjima birligi tarzida o'rganish tarjimini tadqiq etishning funksional-kommunikativ yondashuviga mutanosib keladi<sup>1</sup>. Mazkur qarashga muvofiq ravishda, asl matn axborot jo'natuvchining kommunikativ intensiyasini asl matn tili vositalari bilan ifodalash usuli hamda ushbu matnni qabul qiluvchiga istalgan ta'sirni ko'rsatish vositasi o'laroq tahlil etiladi. Jo'natuvchining kommunikativ intensiyasi butun matnga singdirilganligi va uni aniqlash uchun asl matnni boshda-oyoq tahlil etish lozimligi hammaga tushunarli. Xuddi shu singari, tarjima matnini yaratar ekanmiz, agar yarim yo'lda to'xtab qolsak, ya'ni matnni oxirigacha tarjima qilmasak, yoki asl matnning ayrim qismlarini o'girsak, tarjimini qabul qiluvchiga ko'ngildagiday kommunikativ ta'sirni ta'minlay olmaymiz. Boshqa qilib aytganda, tillararo muloqotning muvaffaqiyati asl matn va tarjima matnining kommunikativ jihatdan teng qiymatga ega bo'lishi yoki bo'lmasligiga bog'liq bo'ladi. Tarjimaning vositachi til sifatidagi vazifasi ham ikki matnning aynan kommunikativ jihatdan teng qiymatli bo'lishini ta'minlashdan iborat (V.N.Komissar tomonidan tarjimaga berilgan ta'rifni esga oling). Tarjimaga bo'lgan bunday yondashuv so'zsiz qabul qilingan boshqa ta'riflarda ham namoyon bo'ladi. Masalan, A.D. Shveyserning fikriga qarganda, tarjima «tillararo va millatlararo muloqot bir tomonlama va ikki bosqichli jarayoni bo'lib, birlamchi matnning ma'lum maqsadga yo'naltirilgan holdagi tahlili vositasida uning boshqa lisoniy va madaniy muhitda o'rnini bosuvchi ikkilamchi matni (metamatn) yaratiladi; shuningdek, ko'pincha ikki til, ikki madaniyat va ikki kommunikativ vaziyat o'rtasidagi farqlar orqali o'zgaruvchi, birlamchi matnning kommunikativ ta'sirini berishga yo'naltirilganligi bilan xarakterlanuvchi jarayon» tarzida namoyon bo'ladi<sup>2</sup>. Yuqorida bayon etilgan mulohazalardan ayon bo'ladiki, til sathlari birliklari yoki asl matn segmentlarining yoki asl matn tili va tarjima tili o'rtasidagi o'zaro munosabatning tarjima birligi sifatida ajratilishi maqsadga muvofiq emas, chunki asl matnga kommunikativ

<sup>1</sup> Сдобников В. В. О прагматических аспектах перевода// Вопросы теории, практики и методики перевода: Сб. науч. трудов. Нижний Новгород: НГЛУ им. Н.А.Добролюбова, 1998.

<sup>2</sup> Швейцер А.Д. Теория перевода: статус, проблемы, аспекты. – М.: Наука, 1988. – С. 75.

jihtadan aynan teng keluvchi tarjima matnini yaratish tarjima jarayonining asosiy vazifasidir. Ammo matnni tarjima birligi sifatida qabul qilish ushbu matnning birliklari yoki uning alohida bo‘limlarini emin-erkin tarjima qilish, degani emas. Asl matn uyg‘otadigan kommunikativ ta’sir leksik birliklar va sintaktik qurilmalar mazmun-mohiyatiga singdirilgan axborotni imkon qadar to‘liq tarjimada yetkazishni ko‘zda tutadi. Mohiyatan esa bunda tillararo muqobilliklar (tarjimaning maxsus ko‘rinishlari)ga ko‘p murojaat etish taqozo etiladi. Amma o‘zgacha holatlarda aynan shu vazifa tarjimon oldiga tillararo muqobilliklarni qo‘llashdan voz kechish, demakki, asl matn birliklarida (badiiy matn, qisman, publisistik matnlarda) ifodalangan ma’nolarning barchasini yoki ma’lum bir qismini yetkazishdan voz kechish masalasini qo‘yadi. Tarjimon o‘z strategiyasini tanlashda millatlararo muloqot faoliyatining xususiyatlari, tarjima qilinayotgan matnning belgilariga asoslaniladiki, bu holat, tarjimaning birligi deganda oxir-oqibat matn tushunilishini yana bir bir ta’kidlaydi.

### **Nazorat uchun savollar:**

1. Tarjimashunos olimlar “tarjima birligi” tushunchasini ajratishda qaysi tamoyillarga asoslanishgan?
2. Siz yuqorida bildirilgan fikrlarning qaysi biriga qo‘shilasiz? Nima uchun?
3. Siz nima deb o‘ylaysiz: “tarjima birligi”ni ajratishga zaruriyat bormi?

### **4.3.3. Tarjimashunoslikda “usul” va “uslub” tushunchalari**

**Tayanch so‘z va iboralar:** *usul, uslub, metod, transformatsiya, interlinear tarjima, so‘zma-so‘z tarjima, tarjimaning belgili usuli, tarjimaning ma’noviy usuli, transkripsiya, transliteratsiya, kalkalash, transpozitsiya, modulyatsiya, turlanishi, ekvivalentsiya, adaptatsiya, matnning segmentatsiyasi uslubi, transformatsiyalash uslubi, qayd uslubi.*

Tarjima jarayonini tushuntirishda tadqiqotchilar “usul”, “uslub” “metod” singari tushunchalarni ishlatadiki, ularning har bir o‘ziga xos tushunchadir. R.K.Minyar-Beloruhevning yozishicha, «usul – real voqelikning ob’ektiv tarzda mavjud bo‘lgan qonunlarini in’ikos

ettiruvchi asosiy maqsadga erishishning bosh qoidasi... Usul faoliyat emas, xatti-harakatlar tizimi emas, balki harakatni reallashtiruvchi psixologik amaliyotdir. Shakllantirilgan fikrni ifodalash uchun bir tildan ikkinchi bir tilga o'tish, narsalarni qayta anglatish uchun tarjimaning mavjud bo'lgan usullaridan birini qo'llash darkor»<sup>1</sup>. Xo'sh, tarjimaning qanday usullari bor?

Tarjima nazariyasida bir til birligidan ikkinchi til birligiga o'tishning turli usullari, yo'sinlari ko'rib chiqilgan. Avval ta'kidlanganidek, I.I. Revzin va V.Yu. Rozensveyg tarjimaning ikki jarayonini ajratishgan — sof tarjima va interpretatsiya. Birinchi holda bir til birligidan ikkinchi til birligiga bevosita o'tish real voqelikka murojaat qilinmay, ya'ni tarjima qilinayotgan matn parchasidagi tasvirlangan voqelik bo'lagini tahlil qilmay, amalga oshiriladi. Ikkinchi holatda tarjimon asl matn tili birliklarini tahlil etar ekan, unda voqelikning qanday bo'lagi tasvirlanganini aniqlaydi, keyin tarjima tili vositalaridan foydalanib tushungan narsasini bayon etadi<sup>2</sup>. Ya'ni interpretatsiya jarayonida tarjimon go'yoki real voqelikka kiradi, keyin yana tarjima tiliga qaytadi. Tarjimani bunday qat'iy ikkiga ajratish mazkur adabiyotda tanqid qilindi. Chunki matnni tahlil etmay turib, uning matnini anglamasdan, xususan, matnda nima haqida gap ketayotganini aniqlamasdan, muvaffaqiyatli tarjimani amalga oshirish imkonsiz.

Ko'p mualliflar tarjimani qayta shakllantirish yoki tillararo transformatsiya sifatida qabul qiladi. Darhaqiqat, har qanday tarjima natijasida mazmun plani o'zgaradi. Demak, har qanday tarjima transformatsiyaga uchraydi, deya e'tirof etish mumkin. Tarjimani transformatsiyaga tenglashtirish «transformatsiya» atamasiga ortiqcha ko'p ma'nolilik baxsh etadi. Demak, transformatsiya — bir til birliklaridagi birliklarning ikkinchi bir til birliklariga aylanishi, ya'ni ma'lum bir tarjima amaliyoti va jarayonidir. Shu bilan birga, ayrim tarjimalarda ko'proq transformatsiyalar, ayrimlarida kamroq transformatsiyalar ro'y bergan bo'lishi mumkin. L.S.Barxudarov tarjimadagi transformatsiyalarga bag'ishlangan ishida shakliy-

---

<sup>1</sup> Миньяр-Белоручев Р. К. Общая теория перевода и устный перевод. -С. 100.

<sup>2</sup> Ревзин И. И., Розенцвейг В. Ю. Основы общего и машинного перевода. - С.56-60.

qurilmaviy muqobilliklar asosida amalga oshirilmaydigan transformasion tarjimalarni tahlil etadi<sup>1</sup>. Transformasion tarjimaga shakliy-qurilmaviy muqobilliklarga ko'ra amalga oshiriladigan interlinear tarjima qarama-qarshi qo'yiladi.

Shu tarzda, *interlinear tarjima/transformatasion tarjima oppozitsiyasi amalda va ko'pincha tarjima usuli kategoriyasini shakllantiradi.*

Shuni qayd etib o'tish kerakki, ko'pchilik tarjimashunoslar «interlinear tarjima» va «so'zma-so'z tarjima» tushunchalari o'rtasidagi tafovutni ko'rishmaydi. Interlinear tarjima har doim so'zma-so'z amalga oshiriladi. I.I.Revzin va V.Yu.Rozensveyg o'zgacha fikrni ilgari surishadi. Olimlarning fikricha, **interlinear tarjima** tarjimonga tarjimaga qadar ma'lum bo'lgan, avvaldan belgilangan muqobilliklarga ko'ra bajarilgan tarjimadir. **So'zma-so'z tarjimada** esa oldindan belgilangan muqobillik mavjud bo'lmaydi, asl matn va tarjima o'rtasidagi muqobillik tarjima jarayonida o'rnatiladi. Avvaldan belgilangan muqobillik bir tipda (gün — kun) yoki turli tipda bo'lishi mumkin (fes— fes/ bosh kiyim/ erkaklarning bosh kiyimi). **Interlinear tarjima** deyilganda lisoniy, ya'ni “bevosita” o'girilgan tarjima tushuniladi, shu sababli, bu tarjima turi so'zma-so'z tarjimaga xarakteriga ko'ra mos tushadi. Shunga ko'ra, S.A. Semkoning qayd etishicha, «interlinear tarjima» va «so'zma-so'z tarjima» atamaları o'z xarakteriga ko'ra bir tipda bo'lganligi sababli, avvaldan belgilangan yoki belgilanmagan muqobilliklar asosidagi tarjimalarni bir-biridan ajratish uchun muvaffaqiyatli chiqmagan<sup>2</sup>.

Ehtimol, «interlinear tarjima» atamasini faqat operasion atama sifatida, «so'zma-so'z tarjima» atamasini baholovchi atama sifatida qabul qilishimiz mumkin bo'ladi, ammo ikkinchi atama baribir tarjimaning muayyan usuli (interlinear)ga ishora qiladi.

Shu tariqa, asl nusxa matnidagi u yoki bu til hodisalari tarjimasida transformatsiyalarni ishlatishdan voz kechish va shakliy-qurilmaviy muqobilliklarga murojaat qilish tarjimaning interlinearusulini qo'llash hisoblanadi, tarjimadagi har qanday tipdagi transformatsiyalarni (leksik, grammatik, stilistik) va shakliy-qurilmaviy muqobilliklarni

<sup>1</sup> Бархударов Л. -С. Язык и перевод.

<sup>2</sup> Семко С. А. Проблемы общей теории перевода. -Таллин: «Валгус», 1988. -С.144-145.

qo'llashni inkor etish tarjimaning transformasion usulidan foydalanish demakdir. Ayni chog'da leksik tranformasion tarjima sintaktik jihatdan interlinear, sintaktik transformasion tarjima leksik jihatdan interlinear bo'lishi mumkin.

K.Min'yar-Beloruhev, bundan tashqari, tarjimaning "belgili" va "ma'noviy" deb nomlangan yana ikki turini tilga oladi. Tadqiqotchi tarjima usullari kategoriyalarini ajratish uchun «shakliy-belgi darajasidagi tarjima amaliyotlari, ya'ni bir til belgilaridan ikkinchi til belgilariga o'tish hamda bir til belgilari – denotat yoki vaziyatdan ikkinchi til belgilariga o'tish, ya'ni ma'noviy darajadagi tarjima amaliyotlari» o'rtasidagi oppozitsiyaga asoslanadi<sup>1</sup>. Qayd etish kerakki, bunday ziddiyat I.I.Revzin va V.Yu.Rozensveyg ilgari surgan tarjima jarayonlari usullari tasnifi bilan, umuman olganda, mos keladi. R.K.Min'yar-Beloruhevning qayd etishicha, tarjimaning birinchi usuli vaqt jihatdan qat'iy chegaralanganlik mavjud bo'ladigan, ya'ni kontekstni to'la qabul qilish yoki anglash imkoni bo'lmagan sinxron tarjimada yaqqol kuzatiladi. Asl matndagi belgini qabul qilgan tarjimon xotirasida bir onda (tushunchaviy assotsiatsiyalardan tezroq) muqobil (ba'zan esa, afsuski, nomuqobil) o'zga til ekvivalentni vujudga keladi<sup>2</sup>. (Qizig'i shundaki, R.K. Min'yar-Beloruhevning o'zi I.I.Revzin va V.Yu.Rozensveygning tarjimaning ikki usuli haqidagi konsepsiyasiga tanqidiy qaraydi va «tarjimon ishini uni o'rab turgan voqelikdan ajralgan holda tasavvur qilish qiyin», deb qayd etadi<sup>3</sup>). Tarjimaning ikkinchi usuli - ma'noviy usulda denotatni identifikatsiyalash, ya'ni asl matn tili belgilari o'rtasidagi semasiologik aloqalarini tushunishni taqozo etadi. Bu usulda asl matndagi vaziyatni yoki mazmunni anglash zarurati kontekstdan tashqarida belgilarni tarjima qilish imkonini inkor etadi. Tarjimon denotatni aniqlagach, jarayonning ikkinchi bosqichiga o'tadi: aniqlangan denotat yoki vaziyatni bildirishga yaraydigan boshqa til unsuri bo'lgan leksik birlik yoki nutqiy formulani izlashga o'tadi.

---

<sup>1</sup> Миньяр-Белоручев Р. К. Общая теория перевода и устный перевод. - С.100.

<sup>2</sup> Миньяр-Белоручев Р. К. Общая теория перевода и устный перевод. -С. 100-102.

<sup>3</sup> Там же. -С. 100.

Umuman, tarjima jarayoni quyidagi chizma asosida amalga oshiriladi: 1-til birligi— denotat — 2-til birligi<sup>1</sup>. R.K. Minyar-Beloruhev qoʻllagan terminologiyaning unchalik toʻgʻri emasligi kuzatiladi. «tarjimaning belgili usuli» deganda, tarjimon bu usulni qoʻllar ekan, asl matn maʼnosiga diqqat qilmaydi, degan fikr uygʻonishi mumkin. Tarjimaning maʼnoviy usuli deyilganda, goʻyoki tarjimon til belgilari bilan ish koʻrmaydi, degan xulosa ham haqiqatga toʻgʻri kelmaydi.

Turli tasniflarda ajratilgan tarjima usullari (L.S. Barxudarov tasnifida transformasion/interlinear usullar, R.K. Minyar-Beloruhev tasnifidagi belgili va maʼnoviy usullar) nazariy jihatdan olganda, umuman olganda, bir-biriga mutanosib keladi. Zotan, bunda aniq bir oʻziga xos qonuniyatlariga ega boʻlgan yagona faoliyat haqida soʻz ketyapti, ular oʻrtasidagi farq ushbu faoliyatning tavsifi usuliga aloqador. Aytish mumminki, tarjimaning interlinear usuli R.K. Minyar-Beloruhev sharhidagi maʼnoviy usulning aynan oʻzidir: bu holda har ikkala yondashuv mualliflari asl matn tili belgilaridan tarjima tili belgilariga bevosita oʻtishni nazarda tutadi, bunda ikkinchi yondashuvda asl matn tiliga formal-funksional muqobillik haqida soʻz ketadiki, bu oʻz-oʻzidan tarjimaning interlinearligini bildiradi.

«Tarjimaning transformasion usuli» va «tarjimaning maʼnoviy usuli» tushunchalari oʻrtasidagi tenglik shundan iboratki, har ikkala usulda ham asl matnda tasvirlangan vaziyat tahlili taqozo etiladi. Ular oʻrtasidagi farq shundaki, birinchi usulda bunday tahlil implisit ravishda nazarda tutiladi, ikkinchi usulda esa eksplisit shaklda taʼkidlanadi. Darhaqiqat, tarjimonning maʼlum bir til belgisi yoki butun ifodani toʻlaligicha tarjima qilishi uchun u yoki bu transformatsiyani qoʻllash boʻyicha qarori uning boshqa tildagi shakliy muqobilni qoʻllash orqali ayni vaziyatni yoki hodisani tavsiflashning imkonsizligini anglashi yotadi. Lekin, avvalombor, tarjimon asl matnda qanday vaziyat yoki hodisa tavsiflanganini tushunishi kerak. Yaʼni tarjimaning transformasion usuli qoʻllanganida ham real voqelikka murojaat qilish darkor.

J.-P. Vine va J. Darbelne qiziqarli konsepsiyani ilgari surishgan. Ular tarjimaning ikki yoʻlini — bevosita va bivosita yoʻlini tasniflashgan. Ushbu yoʻllarning har biri oʻz ichida tarjima usullariga

---

<sup>1</sup> Там же. -С. 103.

ajratiladi. J.-P. Vine va J. Darbelne bevosita tarjima usuliga o'zlashtirish (transkripsiya va transliteratsiya), kalkalash va so'zma-so'z tarjimalarni kiritadi, bivosita tarjimaga — transpozitsiya (so'z turkumlarini ifoda ma'nosini o'zgartirmay almashtirish), modulyatsiya (nuqtai nazar yoki yondashuvni o'zgartirish orqali axborotning o'zgarishi) –turlanishi (varirovanie), ekvivalentsiya (ayni bir vaziyatning tuzilma va stilistik nuqtai nazardan turli vositalar bilan yoritilishi) va adaptatsiya (bir vaziyatning boshqasi bilan, qaysidir ma'noda asl matnda tasvirlangan vaziyatga muqobil bo'lgan holat bilan almashtirilishi) usullarini kiritadi, ayni paytda ayni bir jumlaning tarjimasida tarjimaning turli usullari ishlatilishi mumkin<sup>1</sup>. J.-P. Vine va J. Darbelne “tarjima yo‘li” deb atagan tushuncha bizning tasavvurimizdagi tarjima usuliga (tarjimaning bevosita yo‘li = tarjimaning interlinear usuli, tarjimaning bivosita yo‘li = tarjimaning transformasion usuli), “tarjima usuli” tushunchasi “tarjima uslubi”ga to‘g‘ri keladi.

Tarjima usulini tarjimaning uslublari va metodlaridan farqlash kerak. R.K.Minyar-Beloruhevning yozishicha, uslub odatda xususiy vazifani ado etadi, u tarjimonning ma'lum maqsadga yo'naltirilgan faoliyatida yuzaga kelgan qiyinchilikni yengib o'tishga yordam beradi<sup>2</sup>. Shu tarzda, **tarjima uslubini** ma'lum bir muammoni yechishga yo'naltirilgan va tarjimon tomonidan amalga oshiriladigan tipik, bir xildagi xatti-harakatlarini taqozo etuvchi tarjima amaliyoti deb ta'riflash mumkin. Tillar tizimidagi va til birliklaridan foydalanish qoidalaridagi tafovutlar tarjima jarayonida muayyan muammolarning paydo bo'lishiga sabab bo'ladi, natijada tarjimon **tarjima transformatsiyalari** deb nomlangan tarjima usullarini qo'llashga majbur bo'lib qoladi. Bunday transformatsiyalar qatoriga quyidagi leksik transformatsiyalarni kiritish mumkin: tushunchalarni aniqlashtirish, tushunchalarni generalizatsiyalash, antonimik tarjima, mazmuniy taraqqiyot, kompensatsiya. Grammatik transformatsiyalarga so'zlar shakllarini o'zgartirish, so'zlar o'rnini o'zgartirish, gap bo'laklarini almashtirish, qo'shma gaplardagi sintaktik qurilmalar almashinuvi, qo'shish, tushirib qoldirish, gaplarni

<sup>1</sup> Семко С.А. Проблемы общей теории перевода. -С. 149.

<sup>2</sup> Миньяр-Белоручев Р.К. Общая теория перевода и устный перевод. -С. 100.

birlashtirish va gaplarni qayta bo‘laklarga ajratish kabi usullar kiradi<sup>1</sup>. Tarjimaning boshqa usullari boshqa tipdagi vazifalarni bajarish uchun – muqobilsizlik muammosini hal qilish maqsadida qo‘llaniladi. Muqobilsiz leksikani tarjima qilishda transkripsiya va transliteratsiya, kalkalash, tavsifiy tarjima, yaqin tarjima kabi usullar ishlatiladi. Matnning pragmatik adaptatsiya usullarini ham tarjimaning usullari qatoriga kiritishimiz mumkin. Yuqorida leksik transformatsiya usullari qatorida sanalgan usullarni matnning pragmatik adaptatsiyasi uslublari sifatida qabul qilishimiz mumkin. Biroq ularga qo‘shimcha tarzda matnda tushuntirishlar qo‘llanilishi, iqtiboslarning keltirilishi, matni sharhlash kabi usullarni ham qo‘shishimiz zarur. Tarjimaning alohida usullari o‘rtasida o‘zaro munosabat borligini ham e‘tirof etishimiz kerak. S.A.Semkoning yozishicha, tarjimaning usullarini tarjimaning yoki interlinear, yoki transformasion usullarining aniq ko‘rinishi sifatida o‘rganish mumkin<sup>2</sup>. Tarjimaning xususiy vazifalarini hal qilish uchun ishlatiladigan usullar (tarjima matnini tarjima tili me‘yorlari va uzusiga mutanosib shaklga keltirish, muqobilsizlikka baham berish) tarjimaning transformasion usuli bilan o‘zaro aloqada bo‘ladi, zero, matnda ma‘lum bir o‘zgarishlar bo‘lishini taqozo etadi. Usullarning bir qismi tarjimaning interlinear uslubi doirasida ishlatiladi. Bunday usullar qatoriga transkripsiya, transliteratsiya va kalkalash, shuningdek, so‘zma-so‘z tarjima kiradi. Matnning pragmatik adaptatsiyasining boshqa alohida uslublarini tarjimaning turli usullariga aloqador bo‘lishi mumkin. Masalan, matndagi tushuntirishlar matn shaklini o‘zgartiradi, demak, tarjimaning transformasion usuli ko‘rinishlaridan biri sifatida qaralishi kerak. Matndagi alohida olingan vaziyatlarda sahifa ostiga iqtiboslar, izohlar keltirish interlinear tarjima hisoblanadi, chunki bu holda matnda asl nusxa tilidagi birlikning tarjima tilida shakliy muqobili keltiriladi va shu sababli iqtibos, izoh shaklidagi tushuntirishlarga ehtiyoj sezadi.

Tarjima nazariyasida usullardan tashqari, “tarjima uslublari” tushunchasi ham bor. R.K.Minyar-Beloruhevning ta‘kidicha, uslub tarjimonning xatti-harakatlarini belgilab beruvchi ob‘ektiv qonuniyat

---

<sup>1</sup> Бу ҳақда каранг: Петрова О. В. Введение в теорию и практику перевода. Н.Новгород: НГЛУ им. Н.А.Добролюбова, 2001.

<sup>2</sup> Семко С. А. Проблемы общей теории перевода. -С. 149.



emas, balki insonning o'z tajribasi asnosida ishlab chiqadigan harakatlari tizimidir. Mohiyatan olsak, tarjima uslubi – bu, tarjimaning ob'ektiv tarzda mavjud usuliga moslashish va ongli ravishda eng maqbul natijalarni olishga imkon beradigan harakatdir. R.K.Minyar-Beloruhev uslubni tarjima ko'rinishini va tarjimaning qonuniy ravishda mavjud bo'lgan usullarini hisobga oluvchi, o'zaro bog'liq usullarning aniq maqsadga yo'naltirilgan tizimi sifatida ta'riflaydi.<sup>1</sup>

R.K.Minyar-Beloruhev tarjimaning uch uslubini o'rganadi<sup>2</sup>.

Yozma tarjimada **matnning segmentatsiyasi uslubi** ishlatiladi. Ushbu uslubni qo'llash bir necha amallarni bajarishni ko'zda tutadi:

- ishlov beriladigan matnning hajmini aniqlash,
- matnni segmentlarga bo'lish,
- har bir segmentdagi asosiy axborotni ajratib olish,
- maxsus qisqartmalar va shartli belgilar orqali segmentlardan olingan axborotni belgilash,
- shartli qisqartmalardan tarjima tilidagi yoyiq ifodalarga o'tish;
- qo'lga kiritilgan matnni tahrir qilish.

Matnni segmentatsiyalash uslubi yozma tarjima uchun qo'llanadigan yagona uslub emas, ammo R.K.Minyar-Beloruhevning fikricha, bu uslub alohida leksik birliklar yoki gaplar bilan emas, balki butun matn bilan ishlashga imkon berishi bilan boshqa uslublardan ajralib turadi.

Tadrijiy tarjimada **qayd uslubi** qo'llanadi. Qayd yoki tarjimonning tez yozishi ma'lum bir qoidalar asosida amalga oshadi. Ular qatorida og'zaki qabul qilinayotgan asl matndagi asosiy yoki muhim axborotni ajratish hamda shartli belgilar, qisqartmalar, ramzlar orqali yozib olishni ta'kidlab o'tish kerak. Yozib olingan qaydlar asosida tarjimon tarjima matnini yaratadi. Qaydlar tarjimon uchun asl matnning asosiy nuqtalari uchun grafik qobiq hisoblanadi.

Sinxron tarjimada asl matnni **transformatsiyalash uslubi** bor. Bu uslub birlamchi matnni shakliy-belgi sathda o'girishga, ya'ni tarjimaning belgili usulini qo'llashga tayyorladi. R.K.Minyar-

---

<sup>1</sup> Миньяр-Белоручев Р. К. Общая теория перевода и устный перевод. -С. 155.

<sup>2</sup> Там же. -С. 156-193.

Beloruche, zero, ushbu uslubni sinxron tarjimaning asosiy uslubi deb hisoblagan. Bu uslubda quyidagilar nazarga olinadi:

— tarjimonning ongida shakllangan semantik (mavzuiy) tizimga kiritilgan nutqiy birliklarni topishga bog‘liq bo‘lgan leksik transformatsiyalar;

— tarjima tilidagi keng tarqalgan va sodda sintaktik qurilmalarni e‘tiborda tutuvchi grammatik transformatsiyalar;

— transformatsiyaning barcha ko‘rinishlarini qo‘llash orqali crishiladigan nutqiy kompressiya (siquv).

Bu kabi tayyorgarlik amaliyotlari tarjimonga keyinchalik asl nusxa tili birliklari va qurilmalaridan tarjima tilining birliklari va mutanosib sintaktik qurilmalariga osonlik bilan o‘tishiga ko‘mak berishi mumkinligi nazarda tutiladi.

Birinchi navbatda, barcha yuqorida tavsiflangan uslublarning har xilligini ushbu uslublarda qo‘llaniladigan tarjima usullarining turlicha ekanligiga bog‘liq ravishda yuzaga chiqadigan qonuniyat sifatida qabul qilish mumkin. Ikkinchidan, bu uslubning ikkinchi xususiyati ularning majburiy emasligi, yozma, og‘zaki va sinxron tarjimalarning mazkur uslublarsiz ham amalga oshirish mumkinligida kuzatiladi. Faqatgina tadrijiy tarjimada qayd etish uslubidan foydalanish mumkin, biroq, shuni unutmash kerakki, har bir tarjimonning umumiy tarqanishlar asosida shakllanadigan o‘z maxsus qaydlar tizimi bo‘lishi zarur. Mazkur yondashuvlar tarjimaning ijodiy xarakteri har bir tarjimon uchun individual uslublarning yaratilishiga olib kelishi mumkin, degan qarashning maydonga chiqishiga sabab bo‘ladi. Demak, tarjima uslublarini tarjimaning umumiy qoidalari sirasida o‘rganish masalasini ham o‘ylab ko‘rish kerak.

### **Nazorat uchun savollar:**

1. Tarjimashunoslikda “usul” va “uslub” atamalari o‘rtasidagi farqni tushuntirib bering.

2. Qanday tarjima usullarini bilasiz?

3. O‘rganilayotgan sharq tilidan o‘zbek tiliga o‘girilgan badiiy matnning asliyatini bilan solishtirish orqali kalkalash, adaptatsiya usullarini izohlang.

4. Matnning segmentatsiyasi uslubini qo‘llash shart-sharoitlari va bosqichlarini misollar asosida sharhlang.

5. Transformatsiyalash uslubi tarjimonning qaysi amallariga asoslanadi?

6. Qayd uslubini qo'llashning maqsad va vazifalari, zaruriyati haqida so'zlang.

#### 4.3.4. Tarjima usullari

**Tayanch soʻz va iboralar:** *transformatsiya, leksik transformatsiyalar, grammatik transformatsiyalar, leksik-grammatik transformatsiyalar, transkripsiya, transliteratsiya, kalkalash, leksik-semantik almashtirishlar, konkretizatsiya, generalizatsiya, modulyatsiya, ekvivalentsiya, sintaktik tenglashtirish, gaplarni bo'laklarga taqsimlash, gapni umumlashtirish, grammatik almashtirish, antonimik tarjima, eksplikatsiya (tavsifiy tarjima), kompensatsiya, adaptatsiya.*

Avvalombor, tarjimadagi transformatsiyalar nima va nima uchun kerak, degan savolga javob berish kerak. Tarjimonning birinchi va asosiy xususiyati tarjimaning muammolarini ko'ra bilishi zarur, birinchi navbatda asl nusxa tilidagi so'zlarni tarjima qilinayotgan tildagi so'z bilan almashtirishdan o'zini tiyishi lozim. Bu holatning "bukvalizm" deb nomlanuvchi tarjima nuqsoni kelishiga olib keladi. Komissarovning tarjimashunoslik atamalari izohli lug'atida "bukvalizm" quyidagicha izohlanadi: Grammatik bukvalizm — asl matndagi grammatik tuzilmalar va shakllarni tarjima matnida saqlab qolish.<sup>1</sup>

Har xil olimlar tarjimaga oid transformatsiyalarni turlicha ta'riflashgan. Masalan, R. K. Minyar-Beloruhev quyidagicha ta'riflaydi: «Transformatsiya – tarjimaning ko'plab usullari asosidir. Yetkazish uchun nazarda tutilgan ma'lumotni saqlash uchun birlamchi asl matn semantik komponentlari (semantik transformatsiyalar) yoki shakliy komponentlar (leksik yoki grammatik transformatsiyalar)ning o'zgarishi transformatsiya hisoblanadi».<sup>2</sup>

Ya. I. Resker transformatsiyani «asl matn tilidagi so'zlarning ma'nosini kontekstda anglashimiz va tarjima tili lug'atiga mos

<sup>1</sup> Комиссаров В.Н. Теория перевода.– С. 156.

<sup>2</sup> Миньяр-Белоручев Р.К. Общая теория перевода и устный перевод.– С. 201.

kelmaydigan, unga mutanosib keluvchi muqobil soʻzni topishimizda qoʻlidaydigan mantiqiy mushohada usullari», deb taʼriflaydi.<sup>1</sup> A. D.Shveyser: «Tarjima-dagi transformatsiyalar – mazmun–mohiyatni tillararo qayta ifodalash amaliyoti», degan fikrni ilgari surdi.<sup>2</sup>

Asliyatga toʻliq semantik muvofiqlikka erishish uchun tarjimada turli oʻzgarishlar, oʻzgartirishlar (transformatsiya yoki almashinuv) talab etiladi. Komponent ekvivalentlikka erishish uchun asosan fikrning grammatik strukturasi-da roʻy beradigan transformatsiyalar ishlatiladi. Denotativ ekvivalentlik darajasi ifodaning semantik strukturasi-da yuz beradigan nisbatan murakkab leksik–grammatik transformatsiyalarni taqozo etadi.<sup>3</sup>

Ushbu transformatsiyalar mazmun va ifoda planiga ega boʻlgan til birliklarida amalga oshganligi bois, ular formal–semantik xarakterga ega boʻlib, birlamchi soʻzning shakli va maʼnosini oʻzgartiradi. Asl nusxa tarjimasini shaklan oʻzgartiruvchi ushbu transformatsiyalarni tatbiq etish tarjimon strategiyasining asosiy tamoiylarini toʻldiradi. Asl nusxa tilidan tarjima ning uch koʻrinishini tasniflashimiz mumkin:

1. Leksik transformatsiyalar.
2. Grammatik transformatsiyalar.
3. Leksik-grammatik transformatsiyalar.

**Leksik transformatsiyalarning** asosiy turlarini quyidagicha tasniflaymiz:

- Transkripsiya va transliteratsiya;
- Kalkalash;
- leksik-semantik almashtirishlar (konkretizatsiya, generalizatsiya, modulyatsiya, ekvivalentsiya);

Nisbatan keng tarqalgan **grammatik transformatsiyalar** quyidagilarni oʻz ichiga oladi:

- sintaktik tenglashtirish (soʻzma–soʻz tarjima);
- gaplarni boʻlaklarga taqsimlash;
- gapni umumlashtirish;
- grammatik almashtirish (soʻz turkumlarini, gap boʻlaklarini, soʻzshakllarini almashtirish);

<sup>1</sup> Рецкер Я.И. Теория перевода и переводческая практика. М.: Международные отношения, 1974. – С. 116.

<sup>2</sup> Швейцер А.Д. Теория перевода.- С. 116.

<sup>3</sup> Бархударов Л.С. Язык и перевод.- С. 10

Kompleks leksik-grammatik transformatsiyalarga quyidagilar kiradi:

- antonimik tarjima
- eksplikatsiya (tavsifiy tarjima)
- kompensatsiya
- adaptatsiya

Ushbu transformatsiya usullari **tarjima usullari** hisoblanadi. mumkin. Chunki tarjimonlar bu usullarning eng yaxshi variantlarini ongli ravishda tanlab ishlatishadi. Tarjimada eng murakkablik tug'diradigan birliklar idiomalar va frazeologizmlardir, chunki ularning mazmunini, ekspresiv–stilistik bo'yog'ini tarjimada aniq berish tarjimaning turli usullarini va transformatsiyalarni qo'llashni talab etadi.

Har bir usulni alohida ko'rib chiqamiz:

**Transkripsiya va transliteratsiya** usullari hammaga yaxshi ma'lum. Birinchi usulda sharq tilidagi so'zning talaffuzi, ikkinchi usulda sharq tilidagi so'zning yozilishi o'zbek tilida beriladi. Bu usulda asosan atoqli otlar, masalan, ismlar, geografik joy nomlari tarjima qilinadi. Masalan, Warner Brothers = Uorner Brazerz, Smith = Smit, 麦当劳 [maydanlao] «Makdonalds», 托拉斯 [tolasi] «trest», 可瓦斯 [kevasi] «kvas» – transkripsiya usuliga misol, Bill Clinton = Bill Klinton, Mehmet – Mehmet transliteratsiya usuliga misol bo'ladi.

**Kalkalash** – asl matndagi leksik birlik tarjimasida uning tarkibiy qismlarini tarjima tilidagi leksik muvofiqlari bilan almashirish usulidir, bunda asl matn tilidagi leksik birlik tuzilmasi nusxa ko'chirilgani kabi saqlanib qoladi. United Nations Organisation = Birlashgan millatlar tashqiloti = 联合国之路 [sichou chjilu] «Ipak yo'li»; 新儒学 [sinjusyue] «neokonfusianlik», 陟谿政策 [tonyao chjense] «straus siyosati (qiyinchilikda qolish)», 吉尼斯世界纪录大全 [szinisi shise szilu dasyuan] «Ginnes rekordlar kitobi», 特洛伊木马 [teloi muma] «troya oti»;

**Konkretizatsiya** - asl nusxa matnidagi nisbatan keng ma'noli so'z yoki so'z birikmasini tarjima tilidagi nisbatan tor ma'noli so'z yoki so'z birikmasi bilan almashtirilishidir. Bu transformatsiyani qo'llash natijasida yaratilayotgan muqobil birlik va asl matndagi birlik mantiqiy munosabatga kirishadi: asl nusxa matnidagi birlik turdosh,

jinsdosh bo'lgan tushunchani bildiradi, tarjima tilidagi birlik tasviriy tushunchani anglatadi. Masalan, “ovqatlanmoq” fe’li sharq tiliga o’girilganida, “nonushta qilmoq”, “tushlik qilmoq”, “kechki ovqatni yemoq” shaklida o’girilishi mumkin. Yoki xitoy tilidagi “打人” “(kimnidir) urmoq, tushirmoq, mushtlamoq” ma’nosini beradi, “打那” esa “qo’ng’iroqni urmoq” shaklida so’zma-so’z o’giriladi, biroq o’zbek tilida bu shaklda tarjima qilish mumkin emasligi hisobga olinib, ma’no aniqlashtiriladi, “qo’ng’iroq chalmoq” shaklida beriladi. 那客是皇帝 [guke shi xuandi] «Mijoz har doim haq (so’zma-so’z: mijoz – bu imperator)».

**Generalizatsiya**- asl nusxa tilidagi tor ma’noli birlikning tarjima tilidagi keng ma’noli birlik bilan almashtirilishi. Yaratilayotgan muqobil birlik asl nusxadagi so’z anglatgan tushunchani tavsiflash bilan bir paytda unga jinsdosh tushunchani bildiradi, tarjima tilidagi birlik jinsdosh tushunchani, asl matn tilidagi birlik tasviriy tushunchani anglatadi. Masalan, “to’n” so’zi o’rniga “ustki kiyim”, “fes” o’rniga “bosh kiyim”, “entari” o’rniga “ko’ylak” so’zlarining ishlatilishi ushbu usulga misol bo’ladi. 秀才 [syusay] – “Qadimgi Xitoyda ma’lum bir hududlarda imtihondan o’tgach, beriladigan birinchi ilmiy unvon” ma’nosini bildiradi. Biroq quyidagi maqol tarjimasida ushbu unvon umumiy tarzda “olim” shaklida beriladi: 秀才不出门, 全知天下事 [syusay bu chu men, syuan chji tyansya shi] «Olim uyning eshigidan chiqmay turib, yer yuzida nima bo’layotganini bilishi mumkin». Koreys tilidagi guruch unidan qilingan, milliy non 떡 “tok” deb yuritiladi. Bu so’z tarjimada “non” deb beriladi, ya’ni non turi, ko’rinishi uchun umumiy nom ishlatiladi.

**Modulyatsiya** atamasi, umuman olganda, “qonuniy o’zgarishlar” degan ma’noni bildiradi va tarjima natijasida yuzaga keladigan ko’plab semantik o’zgarishlarga nisbatan ishlatiladi. **Modulyatsiya** deganda, nuqtai nazar, yondashuv, ko’pincha mushohada kategoriyalarini o’zgartirish orqali erishiladigan transformatsiya nazarda tutiladi. Tarjimonlar lug’atlarda ifodalangan turg’un modulyatsiya bilan bir qatorda erkin modulyatsiyani ham farqlashadi. Masalan, inglizcha “the top floor” (so’zma-so’z: eng yuqorigi qavat) birikmasi o’zbek tiliga “oxirgi qavat” shaklida o’giriladi. Yoki turk tilida “peşından koşmak” birikuvu so’zma-so’z “oldidan yugurmoq” deb tarjima qilinadi, lekin

mantiqan olinganda o'zbek tiliga "orqasidan yugurmoq" shaklida beriladi. Yoki: 相对大惊失色。 ushbu jumla xitoy tilida o'zbek tiliga so'zma-so'z "Yuzining rangini yo'qotdi" deb o'giriladi, biroq tarjimada shundan kelib chiqadigan mazmun "Qo'rquvdan rangi oqarib ketdi" jumlasini qo'llash ham modulyatsiyaning ko'rinishlaridan biri hisoblanadi. Modulyatsiya ma'noviy o'zgarishlarni ko'plab shakllarini o'z ichiga oladi. Ayrim ishlarda modulyatsiyaning o'n bitta ko'rinishi tilga olinadi.

**Ekvivalensiya** asliyatdagi vaziyatni tarjimada tavsiflashda tamomila boshqacha til vositalarini ishlatishda kuzatiladi. Masalan, hammamizga tanish bo'lgan "Zolushka" o'zbek tiliga ayrim vaziyatlarda "Kuloy", ayrim hollarda transliteratsiya usuli bilan "Zolushka" tarzida o'giriladi. O'zbek tili lug'atlarida "shumshuk qiz" birikmasi ham ishlatiladi. Turk tilida bu ma'noda "külkedisi" – "kul mushugi" birikmasi ishlatiladi. Xitoy tilida esa 灰姑娘 [xuey guniang] "kulrang qiz" birikmasi ishlatiladi. Boshqacha aytganda, ekvivalensiya — tarjimada tayyor shakllarning qo'llanilishi, modulyatsiya — tushunchalar orasidagi mantiqiy-semantik munosabatlarga asoslangan individual tarjima yechimlarini izlash.

#### **Grammatik transformatsiyalar.**

**Sintaktik tenglashish (so'zma-so'z tarjima)**- bunday tarjimada asl matndagi sintaktik struktura tarjima tilida ham aynan shunday struktura shaklida beriladi. Sintaktik moslashuv asl nusxa va tarjima matnidagi til birliklarining soni va joylashuv ketma-ketligi to'liq mos kelishiga sabab bo'ladi. Masalan: *Kurt kocayınca köpeklerin maskarası olur. - Bo'ri qarisa ko'ppaklarning masxarasi bo'ladi...* Keltirilgan beshta so'zdan iborat bo'lgan matal o'zbek tiliga so'zma-so'z, sintaktik strukturani saqlab qolgan holda o'girilgan.

**Gaplarni bo'laklarga taqsimlash** usulida ma'lum bir tilda qo'shma gap, murakkab qo'shma gaplar, ba'zida hattoki yoyiq sodda gaplarni tarjima tiliga uslub nuqtai nazaridan ikki yoki undan ortiq bo'laklarga taqsimlab beriladi. Masalan, quyidagi dariy tilidagi jumlagga diqqat qilamiz: *زن مدعی چون این سخن بشنید، خاموش ماند و زن دیگر شور و فریاد آغاز کرد و گفت که ای قاضی! برای خدا طلق مرا دونیم مکن، اگر چنین انصاف است، طفل را نمی خواهم.*

Mazkur gapning o'zbekchaga tarjimasi:

"Da'vochi ayol bu gapni eshitgach, jimib qoldi. (va) Boshqa ayol esa dod-voy qilishni boshladi va dedi: "Ey qozi! Xudo xayringni bersin, mening bolamni ikkiga bo'lma, agar haqiqat shunday bo'lsa, bolani (olishni) xohlamayman".

Yoki:

قاضی به یقین پنداشت که مادر طفل همین است، طفل به او سپرد و زن دیگر را تازیانه یزد و براند.

*Qozi bolaning onasi aynan shu ayol ekanligiga ishonch xosil qilib, bolani unga berdi. (va) Boshqa ayolni qamchi bilan urdi va tashqariga uloqtirdi.*

Dariy tilida “va” bog‘lovchisini qo‘llash orqali gapni davom ettirib ketaverish mumkin. O‘zbek tilida esa, bu bog‘lovchini qayta qo‘llashlar uslubiy noqislik hisblanadi.

**Gapni umumlashtirish usuli** sodda gaplarni birlashtirib, sodda gap yoki qo‘shma gapning turli tiplari tarzida berishda kuzatiladi. Masalan, quyidagi misolda turk tilidagi ikki sodda gap tarjimada birlashtirilib, bitta qo‘shma gap shaklida berilgan: *Birden gözleri sevinçle parladi. Yanı başında gösterişli bir kılıç kırk yıllık arkadaş gibi yatıyordu. Yonboshida ko‘rkam bir qilich qırq yıllık yo‘ldoshidek qırq yıllık yo‘ldoshidek yotganini ko‘rib, suyundi, ko‘zlari birdan chaq nab ketdi.*

**Grammatik almashinuv** - asl nusxadagi grammatik birlik tarjima tilida o‘zgacha grammatik mazmunga aylanadigan tarjima usuli. Bu usulda masalan asliyatdagi birlik tarjimada ko‘plikka aylanadi. Aniqlik maylidagi fe‘l majhul nisbatga aylanadi. Bunday tarjimada so‘z turkumlari almashinishi mumkin – ot sifat orqali ifodalanishi mumkin. Misol uchun, ‘*gülistüler*’ fe‘li o‘zbek tiliga o‘g‘irilganida “*kulishdilar*” emas, balki birlik shaklda – “*kulishdi*” deb beriladi. Chunki o‘zbek tilidagi birgalik nisbat ham, ko‘plik qo‘shimchasi ham ish-harakatning ko‘pchilik tomonidan bajarilganini bildiradi, har ikkala qo‘shimchani qo‘llash lisoniy ortiqchalik hisoblanadi.

### **Leksik-grammatik transformatsiyalar.**

**Antonimik tarjima** leksik-grammatik transformatsiya ko‘rinishi bo‘lib, asl nusxa matnidagi bo‘lishli shakl tarjimada bo‘lishsiz shaklga aylanadi va aksincha, asl matndagi inkor shakli tarjima tilida tasdiq shaklida beriladi.

Masalan, quyidagi misolda asl matndagi bo‘lishsiz shakl tarjima matnida bo‘lishliga aylangan:

— Artık merhamet et, dedi, zannederim, bana bir emek daha **yedirecek değilsin...** /- Ortiqcha mulozamat... bu, deyman, menga yana **ovqat yedirmoqchisan shekilli...** (so‘zma-so‘z tarjima: **yedirmoqchi emassan**)



**Eksplikatsiya (tavsifiy tarjima)**da begona madaniyat unsurlariga turli darajadagi izohlar kiritiladi. Izohlar tushunishni osonlashtirish, kitobxon leksik zaxirasini kengaytirish uchun kiritiladi. Bunday izohlar ikki xil bo'lishi mumkin:

- Ensiklopedik izohlar (ma'lumotnomalardan olingan aniq ma'lumotlar kiritiladi)
- Chet el madaniyatiga xos unsurning milliy xarakterining ochib beruvchi izohlar.

Masalan, quyidagi asar parchasidagi "konak" joy nomini tarjima qilishda ham transliteratsiya ham tavsifiy tarjima usulidan foydalanilgan. Ya'ni qo'noqning qanaqa joy ekanligini tasavvur qilish uchun qavs ichida "katta va haybatli uy" izohini kiritib ketgan.

*Saip Pasha'nun Karantina'daki zengin **konaği**, Bozyaka'da imaret gibi işleyen muhteşem kulesi, ne Melek Hanım'ı, ne de Kenan'la Afife'yi mesut edememişti.*

*Soib Poshoning Qorontinada qo'nog'i (katta va haybatli uyi), Bo'zyoqada katta imoratlar kabi muhtasham minorali bog'i bor edi, ammo bular na Malakxonimni, na-da Kanon ila Afifani mas'ud qilolmagandi.*

Yoki: 寿面 [shoumyan] «tug'ilgan kunda uzoq umr ko'rish ramzi sifatida taqdim etiladigan lag'mon turi», 春爽 [chunlyan] «yangi yilda yoziladigan juft yozuvlar»; koreys tilida 갓[kat] ot yolidan qilingan koreyscha erkaklar shlyapasi.

**Kompensatsiya** usulining mohiyati milliy spesifik, madaniy to'siqni olib tashlashdan iborat. Buning uchun asl nusxa tilidagi madaniyatning spesifikasini bildiruvchi so'z tarjima tilidagi teng keluvchi yoki o'xshash tushunchaga almashtiriladi.

Masalan:

*Ertesi sene tatil aylarında İzmir'e döndüğü zaman Leylâ'yı da dayısının büyük oğlu Cemil'e **nişanlanmış** buldu.*

*Kelasi yili tatil oylarida Izmirga qaytgan chog'ida Layloni tog'asining katta o'g'li Jamilga unashtirilgani ustidan chiqdi.*

Keltirilgan misoldagi "**nişanlanmak**" turmush qurish niyatida bo'lgan ikki yoshning bu haqda xalqqa ma'lum qilib, bir-biriga uzuk taqish marosimi hisoblanadi. O'zbeklarda esa unashilish quda bo'lishni niyat qilgan ota onalar tomonidan non sindirilgandan keyingi holat hisoblanadi. Bu o'rinda o'zbek tilidagi o'xshash marosim nomi qo'llangan.

**Yoki:** 고무신 [komu:ʃin] – koreyslarning rezinadan tayyorlangan milliy oyoq kiyimi bo‘lib, o‘zbek tiliga tarjimada “kalish” deb beriladi.

**Adaptatsiya** aslyatda aks ettirilgan vaziyatning tarjima matnida boshqa vaziyat bilan almashtirilishi hisoblanadi. Misol uchun, kanadalik tilshunoslar quyidagi inglizcha misolni keltirishadi: *he kissed his daughter on the mouth*. Bu jumlaning fransuzchaga tarjimasi, hattoki o‘zbekchaga tarjimasi tasvirlangan vaziyat haqida noto‘g‘ri tasavvur uyg‘otishi mumkin: *il embrassa safille sur la bouche — u qizining lablaridan o‘pdi*. Tasvirlangan vaziyatda ingliz madaniyati uchun odatiy bo‘lgan holat aks etgan. Safardan qaytgan oila boshlig‘i – ota o‘z mehrini ifoda etmoqda. Bu sahna fransuzchaga, hattoki o‘zbek tiliga tarjima qilganda, fransuz va o‘zbek madaniyati uchun tabiiy bo‘lgan ko‘rinish bilan almashtirilishi mumkin: *il serra tendrement safille dans ses bras ota qizini mehr bilan bag‘riga bosdi*.

Shuningdek, **tushirib qoldirish** va **qo‘shish** kabi leksik-semantik transformatsiya usullari mavjud. Agarda tarjima jarayonida aslyat tili va tarjima tili o‘rtasida tizi nuqtai nazaridan tafovutlar bo‘lmasa, aynan tarjimoning “men”i ifodasi hisoblanadi. Tarjimon muallif fikriga biror so‘z yoki tushunchani kiritmoqchi bo‘lsa, yoki aksincha, uning nazarida ortiqcha, o‘rinsiz hisoblangan so‘z va birikmalarni tushirib qoldirmoqchi bo‘lsa, ataylab asl matnning tizimini noto‘g‘ri talqin qiladi, ya’ni aslyatni “deformatsiyalaydi”. Har qanday tarjimada transformatsiya albatta tushirib qoldirishlar yoki qo‘shishlar bilan analga oshiriladi. Bu o‘rinda gap faqat shakliy tafovutlar haqida ketmayapti.

### Nazorat uchun savollar

O‘rganilayotgan sharq tilidan o‘zbek tiliga o‘girilgan matn parchasini aslyat bilan solishtirib tahlil eting va tarjimaning qaysi usullari qo‘llanilganligini aniqlang.

Transformatsiyaning qaysi turlarini bilasiz?

Leksik transformatsiyaning turlariga misollar keltiring.

Leksik va grammatik transformatsiyaning o‘rtasidagi tafovutni tushuntiring.

Nima uchun leksik-grammatik transformatsiya “kompleks usul” hisoblanadi? Fikringizni misollar bilan tushuntiring.

## 5-BO'LIM TARJIMA MODELLARI

**Maqsad:** tarjimani modellashtirish masalalari haqida axborot berish, tarjimaning mavjud modellari haqida tushuncha hosil qilish.

Tarjimaning zamonaviy lingvistik nazariyasining asosiy vazifalaridan biri tarjima jarayonining o'zini tavsiflash, ya'ni tarjimonning asl nusxa matnini tahlil etishi jarayonidan boshlab yakuniy tarjima matnini yaratishgacha bo'lgan xatti-harakatlarini bayon etib berishdan iborat. Bu o'rinda asl nusxa tilidan tarjima tiliga o'tish bosqichi va tarjima matnini qurishda tarjima tilidan foydalanish masalalari qiziqish uyg'otadi. Bunday tadqiqotlar natijalari sifatida **tarjima modellari** yuzaga keladi. Tarjima modelini «tarjima jarayonining amalga oshishi bosqichlarining shartli ifodasi»<sup>1</sup>, asosiy tarjimonlik bosqichlari va xatti-harakatlarin aks ettiruvchi muayyan faraziy qurilma sifatida ta'riflash mumkin. Tarjima bosqichlari tarjimonning ongida reallashganligi sababli, uni kuzatish imkonsiz. Bu holat tarjimon xatti-harakatlarini tavsiflash muammosini yanada murakkablashtiradi. Aynan shu vaziyat tarjima modelining faraziy, taxminiy bo'lishiga sabab bo'ladi. V.N.Komissarovning fikriga qaraganda esa, tarjima modellari to'la mavhum qurilma emas. Boshqa holatlarda bo'lgani singari, tadqiqotchi kuzatish imkonsiz bo'lgan tizimni («qora quti») o'rganar ekan, modelning realligi (uning izohlovchi kuchi) tizimning «kirish» va «chiqish» nuqtasidagi ahvolini solishtirish orqali tekshiriladi. Tarjima uchun ushbu nuqtalar sifatida asl nusxa va tarjima matnlari xizmat qiladi. Basharti tarjima natijasi modelga muvofiq bo'lsa, demak, tarjima modeli ish beryapti. Albatta, bu holat, tarjimonning mazkur modelni ongli ravishda ishlatganini dailamaydi<sup>2</sup>.

Hozirgi kunda tarjima nazariyasida quyidagi modellar ko'proq e'tirof etiladi: situativ-denotativ model, transformasion model va semantik model.

### 5.1. Situativ-denotativ model

**Tayanch so'z va iboralar:** *model, denotat, situativ-denotativ model, vaziyat, interpretatsiya, A – jo'natuvchi, V – adresat, T-tarjimon, X<sub>1</sub>-xabar, RV - real voqelik*

<sup>1</sup>Комиссаров В. Н. Современное переводоведение. -М.: Изд-во «ЭТС», 1999. – С. 158.

<sup>2</sup>Комиссаров В. Н. Современное переводоведение. – С. 158.

Tarjimaning situativ-denotativ modeli barcha lisoniy belgilarning mazmuni real voqelikdagi narsa-hodisalar, munosabatlarni ifodalaydi, degan mulohazaga asoslanadi. Real voqelikdagi narsalarning tildagi ifodasi “denotat” deb nomlanadi. “Situatsiya” (vaziyat) esa real voqelikdagi denotatlar va ular o’rtasidagi munosabatlarning majumasidir. Demak, nutq bo’laklari real voqelikdagi ma’lum bir vaziyat haqidagi axborotni bildiradi.

Situativ-denotativ model asosidagi yotuvchi ikkinchi tamoyilni quyidagicha ta’riflash mumkin: insonlarning qaysi tilda gaplashishidan qat’i nazar bizni o’rab turgan voqelik umumiy bo’lganligi uchun, har qanday vaziyat umuman olganda ixtiyoriy tilning vositalari bilan tavsiflanishi mumkin. Ayni bir hodisalar turli tillarda har xil usullar bilan bayon etilishi mumkin, hattoki ma’lum bir xalqda mavjud bo’lmagan narsalarni ham til orqali tushuntirish mumkin.

Yuqorida bayon etilganlardan kelib chiqqan holda, **situativ-denotativ modelga** ko’ra tarjima jarayonini quyidagi tavsiflashimiz mumkin: asl matnni (yoki uning bo’lagini) qabul qilishda tarjimon til belgilari va ularning aloqalarini tahlil etar ekan, ushbu belgilar qaysi denotatlarni ifoda etishini hamda mazkur denotatlar yig’indisi voqelikda qanday vaziyatni yuzaga keltirishini aniqlaydi.

Tarjimon ongida asl matnda bayon ettirilgan vaziyat haqida (voqelikning ma’lum bir bo’lagini aks ettiruvchi o’ziga xos manzara, rasm) tasavvur paydo bo’lgach, u ushbu vaziyatni boshqa til vositalari bilan tavsiflaydi.

Ushbu modelni ishlab chiqqan I.I.Revzin va V.Yu.Rozensveygning tushuntirishiga ko’ra “interpretatsiya” deb nomlangan jarayon quyidagi ko’rinishga ega:

A - jo’natuvchi,

V - adresat va

T-tarjimon bor.

A asl nusxa tilidan foydalanib, RV - real voqelikda mavjud bo’lgan ma’lum bir vaziyat haqida  $X_1$ -xabarini yuboradi. Tarjimon asl nusxa tilidan foydalanib  $X_1$  va RV o’rtasidagi muvofiqlikni aniqlaydi. Keyin tarjimon tarjima tilidan foydalanib, asl matndagi vaziyat haqidagi yangi  $X_2$ -xabarini yaratadi.  $X_2$  xabarini V adresat qabul qilib oladi hamda tarjima tili tizimidan foydalanib,  $X_2$  va voqelik o’rtasida mutanosiblikni o’rnatadi.

Boshqacha qilib aytganda, tarjimon ma'lum bir nutqiy ketma-ketlikni qabul qilib oladi, ushbu ketma-ketlikdan vaziyatga o'tadi, vaziyatni o'rganib chiqib, unga yetkazilgan xabardan chetlashadi va aynan ushbu vaziyatni diqqat markazda tutib, kitobxonga faqat shu vaziyat haqida ma'lumot yetkazadi<sup>1</sup>.

Ushbu jarayonning nisbatan qisqaroq ko'rinishi I.I.Revzin va V.Yu.Rozensveyg tomonidan "sof tarjima" deb nomlangan. A - ma'lumot jo'natuvchi RV - voqelikdagi X<sub>1</sub>-xabarini yuboradi, T-tarjimon xabarni qabul qilgach, vaziyatni o'rganishga o'tmaydi, balki vositachi tilga, ya'ni asl nusxa tili va tarjima tili o'rtasidagi muvofiqliklar tizimiga murojaat qiladi, keyin vositachi tildan tarjima tiliga o'tadi. Tarjima tili yordamida X<sub>2</sub>-xabarini shakllantiradi, ushbu xabar adresatni voqelikdagi vaziyatdan xabardor qiladi. Bu holda, ko'ramizki, tarjima ishi voqelikda mavjud bo'lgan vaziyatga bevosita murojaat qilinmasdan bajarilmoqda. Bir til tizimidan ikkinchisiga o'tish oldindan belgilangan muvofiqliklar sxemasi vositachiligida amalga oshirilmoqda. Ammo, bunda muvofiqliklar sxemasi belgilanganida har ikkala tilda ham mavjud bo'lgan voqelik va vaziyatlarni ifodalovchi kategoriyalarning hisobga olingan bo'lishi shart<sup>2</sup>.

Situativ-denotativ model ayrim vaziyatlarda kuzatilgan dalillarni tushuntirib berishda qo'l keladi. Masalan, tarjima tilida asl nusxa tilidagi denotatni bildiruvchi til birligi mavjud bo'lmagan holatlar shular jumlasidandir. Ushbu holatda avvalombor tarjimon asl nusxa tilida mazkur belgi (so'z, birikma) orqali aynan qanday narsa - vaziyat izohlanayotganini aniqlaydi, keyin esa ushbu denotatni tarjima tilida imkon qadar aniqroq ifodalash uchun tarjimaning qaysi usulini qo'llashini hal qiladi. U yangi belgini - so'zni yaratishi mumkin (i-fon — ayfon, terabite - terabayt), tarjima tilida mavjud bo'lgan ma'nosi nisbatan keng yoki tor belgini ishlatishi mumkin (ایزر - izar) lozimga o'xshash afg'on kiyimi - ishton; ایزربند (izarband) - "izar" bog'ichi - belbog', churi (hindcha bilakuzuk) - bilakuzuk, churiyan - bilakuzuklar) yoki tavsifiy tarjima usulini qo'llashi mumkin

<sup>1</sup> Ревзин И. И., Розенцвейг В. Ю. Основы общего и машинного перевода. - С.57.

<sup>2</sup> Ревзин И. И., Розенцвейг В. Ю. Основы общего и машинного перевода. - С. 58.

(karvacho't — hind ayollarining maxsus eri uchun tutadigan ro'zaga o'xshash urfi, بولانی (bo'loni)— somsa (cheburek)ga o'xshash ovqat turi; کاجی — (kochi) undan tayyorlanadigan shirinlik; فرنی — (ferni) guruch uni, shakar va sutdan pishiriladigan shirinlik ).

Ushbu model asl nusxada tasvirlanayotgan vaziyat qaysi til vositalari bilan ifodalanganidan qat'i nazar, tarjima variantini tanlashda ma'lum bir darjada rol o'ynaganida ham tarjima jarayonini to'g'ri aks ettiradi<sup>1</sup>. Asl matndagi vaziyatni aniqlagan tarjimon tarjima tilida mazkur holatni berish uchun faqat bir usul mavjudligini ko'rishi mumkin (churi —bilakuzuk), yoki bir necha usullar orasida umum tomonidan qabul qilingan, keng tarqalgan usulni tanlashi mumkin. Ehtimol, tarjimaning yagona maqsadi asl matnda noaniq yoki chala tasvirlangan holatni aniq tavsiflashdan iboratdir. U holda masala mohiyatini yaxshi anglagan tarjimon tarjima tili vositalari yordamida asl matndagi holatning aniq bayoniga erishish uchun qo'shimcha to'ldirishlar va o'zgartirishlar kiritishi mumkin.

Real voqelikka murojaat tarjima matnida odatiy muqobillarni qo'llash o'rinli yoki o'rinli emasligini aniqlashda muhim o'rin tutadi.

Situativ-denotativ modelning afzalligi shundaki, tarjimonning real voqelikka murojaat qilishi bilan bog'liq tarjimonlik jarayonlarini tushuntirish imkonini beradi<sup>2</sup>. Ammo uning izohlash imkoniyati ham cheklangan. V.N.Komissarovning fikriga ko'ra, asl nusxada aks ettirilgan vaziyatni tarjima tilida berish imkonsiz bo'lgan hollarda bu model "ish bermaydi". Chunki boshqa madaniyatga mansub bo'lgan kitobxon — adresat asarning asl nusxasida ifodalangan spesifik tushunchaning tarjima tilidagi tavsifini anglay olmasligi mumkin, natijada tillararo kommunikatsiya ro'y bermaydi. Asl matnda tasvirlangan vaziyat, uni tavsiflash usuli, shuningdek, til vositalari ma'nolarining asosiy qismi tarjimada saqlanganda ham situativ-denotativ model ushbu tarjima jarayonini tushuntirishga yaramaydi<sup>3</sup>.

So'nggi fikrga qo'shilish qiyin. Chunki amaliyotda tarjimon har qanday holatda ham real voqelikka murojaat qiladi, zero, asl matnda nima haqida so'z ketayotgani, reallikning qaysi bo'lagi tasvirlanayotganini yetarlicha tushunmaslik juda kam holatlardagina

<sup>1</sup>Комиссаров В. Н. Слово о переводе. -С. 34.

<sup>2</sup> Комиссаров В. Н. Современное переводоведение. -С. 160.

<sup>3</sup>Комиссаров В. Н. Современное переводоведение. -С. 160.

muvaffaqiyatli tarjimaga to‘sqinlik qiladi. Tarjimada vaziyatni tasvirlash usullari va til vositalari ma’nolarining ayrim qismining saqlanishi tarjima boshqa model asosida amalga oshirilganini bildirmaydi. Shunchaki tarjimom reallikning ushbu bo‘lagi asl matnda va tarjima tilida bir xil uslubda tavsiflanayotganini anglagan (yoki his qilgan) bo‘lib (Benim agabeyim Istanbul’da oturuyor - Mening akam Istanbulda yashaydi), uni tarjimada berish uchun boshqacha uslubning izlashga hojat qolmagan. I.I.Revzin va V.Yu.Rozensveygning ta’kidlashicha, sof tarjima, ya’ni bir tildagi xabarning ikkinchi tilga berishda reallikka murojaat qilmaslik barcha tarjima faoliyatiga taalluqli bo‘lsa-da, asosan sinxron tarjimada ko‘proq kuzatiladi. Shu bilan birga, interpretatsiya (voqelikka murojaat) ko‘proq badiiy asar tarjimasida uchraydi. Aslini olganda, tarjimaning har qanday jarayoni asl matnни qabul qilish, tahlil qilish va interpretatsiyadan iborat bo‘lib, interpretatsiyaning maqsadi til belgilari ortidagi voqelikni aniqlashdan iborat. Yetarlicha anglanmagan asl matn tarjimaning obek’ti bo‘la olmaydi.

#### Nazorat uchun savollar:

1. Tarjima jarayonini modellashtirishdan maqsad nima?
2. Tarjima jarayonining qanday modellarini bilasiz?
3. Tarjima jarayonining situativ-denotativ modeli qaysi sxemaga asoslanadi?
4. O‘rganilayotgan sharq tilidan tarjima misolida situativ-denotativ modelni tushuntirib bering.

### 5.2. Tarjimaning transformasion modeli

**Tayanch so‘z va iboralar:** *transformasion model, Transformasion grammatika, sintaktik qurilma, mantiqiy-sintaktik aloqa, ustki qurilmalar, markaziy qurilma, tahlil bosqichi, o‘tkazish bosqichi, sintez yoki qayta tiklash bosqichi*

Tarjimaning transformasion modeli N.Xomskiyning transformasion grammatikasi qonun-qoidalariga asoslanadi. Transformasion grammatika leksemalarning umumiyiligi va asosiy mantiqiy-sintaktik aloqalarni xarakterlovchi sintaktik qurilmalarning shakllanishi qoidalarini o‘rganadi. Transformasion grammatikada mavjud

qarashlarga ko'ra, barcha imkoniy sintaktik qurilmalarni cheklangan miqdordagi sodda, markaziy qurilmalar shakliga keltirish mumkin, binobarin bunday sodda qurilmalarda mantiqiy-sintaktik munosabatlar nisbatan tushunarli va anchagina ravshan. Ma'lum bir transformasion qoidalarga ko'ra markaziy qurilmalardan yasama, ustki qurilmalar hosil qilinadi. Masalan: "Ali Valini urdi" markaziy qurilmasidan anchagina ko'p transformatsiyalar shakllantirilishi mumkin:

Ali Vali tomonidan urildi.

Vali Alini urmoqda.

Ali Vali tomonidan urilmoqda

Alining Vali tomonidan urilishi.

Alini urgan Vali edi.

Vali urgan odam Ali edi.

Yoki boshqa bir misol: agarda "Bola kitob o'qiyapti" jumlasini markaziy qurilma deb olsak («bajaruvchi — harakat» predikativ qurilmasi), transformasion grammatika qoidalariga ko'ra quyidagi yasama qurilmalarni hosil qilish mumkin: «Bolaning kitob o'qishi», «Kitob o'qiyotgan bola», «Bola o'qigan kitob». Bu qurilmalarda «bajaruvchi – harakat» munosabati saqlanib qoladi. V.N.Komissarovning yozishiga qaraganda, bu transformalar tarkibidagi birliklarning shakliga ko'ra farq qilgani holda, mazmun jihatidan yoki «invariantlik» nuqtai nazaridan anchagina umumiylikka ega<sup>1</sup>.

Ustki qurilmalardan farqli ravishda markaziy qurilmalarda mazmuniy aloqa har doim aniq ifodalangan bo'ladi: narsalar har doim ot bilan, jarayon fe'l bilan ifodalanadi, sub'ekt har doir ega vazifasini bajaradi, ob'ekt hamisha to'ldiruvchi bo'lib keladi. Boshqacha qilib aytganda, «Ustki qurilmalarning markaziy qurilmalarga transformatsiyasi grammatik va semantik kategoriyalar o'rtasida ma'nodosh muvofiqliklarni belgilash yoki birlamchi matnning grammatik konstruksiyalarini ayni ma'nodagi interpretatsiyasini amalga oshirish usulidir»<sup>2</sup>.

Tarjimaning transformasion nazariyasiga ko'ra tarjima jarayoni uch bosqichdan tashkil topgan:

1) tahlil bosqichi – asl matnning ustki qurilmalari markaziy qurilmalarga aylantiriladi, ya'ni asl matn tili doirasida transformatsiya amalga oshiriladi;

<sup>1</sup> Комиссаров Н. Слово о переводе. -С. 37.

<sup>2</sup> Швейцер А. Д. Перевод и лингвистика. -С. 40.



2) o'tkazish bosqichi – asl nusxa tilidagi markaziy qurilmalarni tarjima tilidagi muqobil markaziy qurilmaga almashtirish (tillararo transformatsiya);

3) sintez yoki qayta tiklash bosqichi – tarjima tilidagi markaziy qurilma tarjima tilidagi ustki qurilmalar shakliga o'tkaziladi va kengaytiriladi, ya'ni tarjima matnining yakuniy tuzilmasi shakllantiriladi.

Har bir tildagi transformatsiyalar majmuasi perifractalashning bir qator ko'rinishlari mavjud bo'lib, ular o'rtasida uslubiy tafovutlar borligi hammaga ayon. Shu sababli oxirgi uchinchi bosqichda tarjima tilidagi uslubiy xususiyatlar, cheklovlarni ham nazarda tutish zarur<sup>1</sup>.

A.D.Shveyser ushbu tarjima modelini sharhlar ekan, Yu.Nayda qo'llagan tashbehni keltiradi<sup>2</sup>. Yu.Nayda tarjimonni sayohatchiga o'xshatadi. Sayohatchi daryoning chuqur yoki sarkash joyidan kechib o'tish o'rniga oqim bo'ylab tepaga yoki quyiga yurib, xavfsiz joyni topadi va nihoyat aylanma yo'llar bilan daryoning u tarafidagi belgilangan joyga yetib boradi.

Tarjimachilik faoliyatini o'rganishda transformasion modelni qo'llashning bir qator afzal jihatlari mavjud. Xususan, V.N.Komissarov ushbu modelning quyidagi ijobiy tomonlarini sanab o'tadi<sup>3</sup>:

1) Transformasion nazariya turli tillardagi tarjima nuqtai nazaridan o'rtasida muqobillik munosabati belgilanishi mumkin bo'lgan shakllarni qiyosiy o'rganishga alohida e'tibor qaratadi. Bu esa, o'z navbatida ikki ma'lum bir tillarning tarjima masalasidagi munosabatlari tizimini tavsiflash uchun nazariy bazani yaratadi;

2) transformasion model tarjima sohasidagi transformatsiyaning turli ko'rinishlarini aniqlashga imkon yaratadi;

3) tarjima jarayonini til ichidagi transformatsiyalar bilan bog'lash, so'zsiz, katta qimmatga ega, chunki asl matndagi tarjima tilida muqobillariga ega bo'lmagan lisoniy dalillar tuzilmasini tushuntirishga yordam beradi.

Tarjimaning boshqa modellari singari, transformasion modelning ham bir qator kamchiliklari bor. Jumladan:

1) transformasion model uchinchi bosqichda qay tarzda imkoniy

---

<sup>1</sup> Там же. -С. 37.

<sup>2</sup> Там же. -С. 37.

<sup>3</sup> Комиссаров В. Н. Слово о переводе. -С.40-41.

transformalar tanlanishini tushuntirmaydi (axir, ushbu modelga ko'ra, transformatsiyalar alohida tillar doirasida amalga oshiriladi va demak, birlamchi va yakuniy qurilmalar bir-biridan mustaqil ravishda mavjud bo'ladi);

2) transformasion model analogik markaziy qurilmalarga aylanmaydigan qurilmalar o'rtasidagi muqobillik munosabatini o'rnatilishi masalasini izohlab bera olmaydi.

3) transformasion model "Fragile" – "Ehtiyot bo'ling, oyna!" shaklidagi qurilmalar o'rtasidagi muqobillik masalalari tushuntirib bera olmaydi<sup>1</sup>. A.D.Shveyserning ko'rsatishicha, daryoning narigi tarafiga o'tish uchun qisqa yo'l turganida, aylanma yo'llarni izlab o'tishga hojat yo'q<sup>2</sup>.

Umuman olganda, A.D.Shveyser transformasion model haqida o'z munosabatini ifoda etar ekan, grammatik transformatsiyalar haqiqatdan ham birlamchi asl matnning semantik analizi hamda yakuniy tarjima matnini qurishning usullaridang biri sifatida keng tatbiq etilishini qayd etadi. Lekin tarjimoni grammatik transformatsiyalar bilan berishga haddan tashqari moyillik haqiqiy manzarani anchagina soddalashtiradi, chunki tarjimada leksik-sintaktik perefrazalash, situativ-pragmatik omillar orqali kelib chiqadigan semantik modifikatsiyalar ham qo'llanadi<sup>3</sup>. Shu tariqa, tarjimaning transformasion modeli universal xarakterga ega (Yu.Naydaning fikri), degan fikr yetarlicha asoslanmagan, bu modelning imkoniyatlari ham ham tarjimaning boshqa modellari singari cheklangan.

### **Nazorat uchun savollar:**

1. Situativ-denotativ model va transformasion modelning ijobiy va salbiy tomonlarini misollar asosida tushuntiring.

2. O'rganilayotgan sharq tilidagi matnni transformasion usulda tarjima qiling va izohlang.

3. Ona tilidagi matnni sharq tiliga transformasion usulda tarjima qiling va amalga oshirilgan ishlarni tavsiflang.

4. Transformasion modelning tarjima qilish bosqichlari nimalardan iborat?

<sup>1</sup> Комиссаров В. Н. Слово о переводе. -С. 42.

<sup>2</sup> Швейцер А. Д. Перевод и лингвистика. -С. 42.

<sup>3</sup> Швейцер А. Д. Теория перевода. -С. 22.

### 5.3. Tarjimaning semantik modeli

**Tayanch soʻz va iboralar:** model, semantik model, ekvivalentlik, mazmuniy komponentlar, sema, semantik tafovutlar,

«Ikki matn mazmuni oʻrtasidagi ekvivalentlik (shu jumladan, turli tillardagi ikki matnda ham) mazkur matnlar mazmunini tashkil etuvchi barcha yoki ayrim mazmuniy komponentlar oʻrtasidagi aynilikni yoki yaqinlikni nazarda tutishi»ga hech qanday shubha yoʻq<sup>1</sup>. Tarjimaning semantik modeliga koʻra, tarjima jarayoni asl nusxadagi matnni mazmuniy unsurlarga (semalarga) ajratish va tarjima tilidagi aynan shunday mazmuniy komponentlarga ega birliklarni tanlash bosqichlaridan iborat.

Asl matnning har bir birligi tarkibiga kiruvchi oddiy semalar tarkibini aniqlash muammoni yuzaga keltiradi. Bu muammo differensial belgini aniqlash orqali hal qilinadi. Differensial belgini aniqlashda quyidagi ishlar bajariladi: bir tildagi maʼlum bir birlik mazmuni unga yaqin turuvchi va semantik aloqaga kirishuvchi boshqa bir birlik mazmuni bilan solishtiriladi. Masalan, arabcha طالب «tolib/talaba» soʻziga quyidagi maʼnoviy unsurlar xos: 1) tahsil oluvchi – “oʻqituvchi” emas; 2) “oliy taʼlim muassasasida oʻquvchi” – “maktab oʻquvchisi” emas; 3) “erkak jinsi” – طالبة “toliba/talaba qiz” emas; 4) “bitta shaxs” – “talabalar” emas<sup>2</sup>. Mazkur soʻzning inglizcha va oʻzbekcha muqobillarida (student - talaba) nisbatan maʼnolar miqdori kam, ularning maʼnosida jins koʻrsatkichi yoʻq. Ammo bu holat طالب soʻzi uchun tarjimada oʻzbekcha “talaba” soʻzini ishlatishga xalaqit bermaydi. Zero, til birliklari mazmunidagi barcha komponentlar muloqotning maʼlum bir shart-sharoitlarida relevant boʻlmasligi mumkin, demakki, ularning hammasini tarjimada berishga hojat yoʻq.

Shunday qilib, tarjimaning semantik modeliga muvofiq, tarjimonning vazifasi kommunikativ jihatdan relevant boʻlgan maʼnoviy elementlarni tarjimada yetkazib berishdan iborat. Tarjimadagi ekvivalentlik asl nusxa va tarjima matnlari mazmunidagi semalarning umumiylikiga asoslanadi. Bunday umumiylik semalar yigʻindisi oʻrtasida emas, balki alohida olingan semalar oʻrtasida mavjud boʻladi<sup>3</sup>.

<sup>1</sup>Комиссаров В. Н. Слово о переводе. – С. 43.

<sup>2</sup> Там же. – С. 44.

<sup>3</sup> Там же. -С. 45.

Tarjima semantik modelining imkoniyatlari keng. Bu model ikki matn o'rtasidagi semantik tafovutlar sabablarini ko'p vaziyatlarda tushuntirib bera oladi, shuningdek, tarjima variantini tanlash uchun asos bo'ladigan bir qator jiddiy omillarni ko'rsatib berishi mumkin. Shu bilan birga, bu modelning ham kamchiliklari bor. V.N.Komissarovning yozishicha, bu model turli tillarda bir xil vaziyatni ifodalash uchun farqli semantik kategoriyalarni qo'llaganda ish bermaydi (instant coffee – tez eriydigan kofe). Semantik model obrazli ifodalar va turli assotsiatsiyalarni berish muammosini ham chetlab o'tadi. Matnning ko'p ma'noni ifodalashi mumkinligi, til birliklarining ko'chma ma'noda ishlatilishi kabi holatlarni ham hisobga olmaydi. V.N.Komissarovning ta'kidlashicha, tarjima vositalarini tanlashda hal qiluvchi rolni o'ynaydigan kommunikatsiya maqsadi kategoriyasining tarjimaning semantik modeli doirasida nazarda tutilmasligi bu modelning asosiy nuqsonidir<sup>1</sup>.

#### Nazorat uchun savollar:

1. Semantik model asosida tarjima qilingan matnni aniqlang va tahlil eting.
2. Semantik model tarjimasida tarjimon qaysi amallarni diqqat marqazida tutadi?
3. Tarjimaning semantik modeli qaysi turdagi matnlarni tarjima qilishda qo'l keladi?
4. Semantik modelni qaysi matn tarjimasida qo'llab bo'lmaydi? Nima uchun?

#### 5.4. Otto Kadening uch bosqichli tarjima modeli

**Tayanch so'z va iboralar:** *O.Kade, uch bosqichli tarjima modeli, muloqot ishtirokchisi, xabar jo'natuvchi, qabul qiluvchi, kod, informasion mazmun, aynilik, invariant, kommunikant.*

Tarjimaning ko'plab an'anaviy modellarida tillararo muloqot jarayonida tarjimaning ikki bosqichi aniq ajratiladi:

- tarjimon tomonidan asl matnni qabul qilish bosqichi
- tarjima matnini yaratish bosqichi.

V.N.Komissarovning yozishicha, «...tarjimada ikkita tarkibiy, ammo nomustaqil bo'lgan bosqichni ajratish mumkin bo'lib, bu bosqichlar ayrim qo'shimcha tushuntirishlar bilan alohida ta'riflanadi.

<sup>1</sup> Там же. – С. 60-61.

Birinchi bosqichga asl matndan ma'lumotni "sug'urib" olish bilan bog'liq bo'lgan tarjimon xatti-harakatlari kiradi. Ikkinchi bosqichga tarjima tilidagi zaruriy til vositalarini tanlashning barcha jarayonlari kiradi»<sup>1</sup>. Ammo hech kim o'rtada qandaydir oraliq bosqich, eng sirli, tarjimonning ongidagina amalga oshadigan va shu sababli kuzatib bo'lmaydigan bosqich borligini inkor etmaydi. Bu aynan o'sha, bir til belgilaridan ikkinchi til belgilariga o'tish amaliyoti bajariladigan bosqich hisoblanadi. Nemis lingvisti va tarjimashunosi Otto Kade tarjima modelini xuddi shu shaklda taqdim etadi.

Tarjima kommunikatsiyasi jarayonining xususiyatlarini tadqiq etishga murojaat etishdan avval O.Kade oddiy, ya'ni bir tildagi muloqotning asosiy belgilarini ko'rib chiqadi<sup>2</sup>. Uning yozishicha, oddiy muloqot ishtirokchilari (xabar jo'natuvchi J va qabul qiluvchi Q) bir xid kodga ega, J ham ushbu koddan foydalanib, axborot yuboradi. Q qabul qiluvchi axborotni koddan xalos etib, undagi ma'lumotni oladi. Bunda O.Kade "informasion mazmun" deganda biz uchun odatiy bo'lgan, fikrning predmetlik-mantiqiy mazmunini emas, balki lisoniy ifodaning kommunikativ ahamiyatini nazarda tutadi. Ya'niki, ma'lumot yuboruvchining aniq bir niyatiga muvofiq ravishda nutqdagi belgilarning muayyan ketma-ketligi qabul qiluvchiga ma'lum bir darajada ta'sir ko'rsatish xususiyatiga ega. O.Kadening fikriga qaraganda, fikriy ifodaning tinglovchiga (qabul qiluvchiga) ma'lum bir ta'sir ko'rsatish qobiliyati va uning so'zlovchi (ma'lumotni jo'natuvchi) maqsadiga taxminan muvofiqligi muvaffaqiyatli muloqot shartidir.

Muvaffaqiyatli muloqotning eng oddiy sharti J va Q o'rtasidagi kodning ayniligi hisoblanadi. Bunda ma'lumki, muloqot ishtirokchilari kodlari o'rtasida to'liq aynilik bo'lmaydi. Bu quyidagicha aniqlanadi: birinchidan, til belgilari ma'lum bir chegaralarda o'zgarish imkoniyatlariga ega, demak, kodlarning mutlaq ayniligi til tabiatiga xos emas. Ikkinchidan, individuumlarning shaxsiy tajribasida (lisoniy planda ham, nolisoniy planda ham) tafovutlar

<sup>1</sup> Комиссаров В. Н. Слово о переводе. -С.162.

<sup>2</sup> О.Кадэ назариясининг асослари билан танишиш учун қуйидаги китобга қаранг: Кадэ О. Проблемы перевода в свете теории коммуникации //Вопросы теории перевода в зарубежной лингвистике. -М.: Междунар. отношения, 1978. -С. 69-90.

mavjud bo'ladi. Bu esa til jamoasining alohida vakillarida ideolektlarning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Uchinchidan, kodlarning aynan mos kelishiga bir til jamoasi doirasidagi alohida guruhlarning nutqiga ta'sir ko'rsatuvchi shevaga xos, mintaqaviy va ijtimoiy omillar ham xalaqit beradi.

Biroq, J va Q kodlari o'rtasidagi mutlaq aynilikning mavjud emasligi muloqot ishtirokchilarining bir-birini tushunishiga to'sqinlik qilmaydi, chunki ular qo'llaydigan kodlarning ma'lum bir qismi o'zgarmas, invariant shaklga ega. Shu tarzda, kodlarning tengligi nisbiy o'lchov bo'lib, kodlarning nisbiy tengligi ikki kommunikant o'rtasidagi muloqotni ta'minlash uchun yetarli.

Ikki tilli muloqotning o'ziga xos jihati shundagi, J va Q bir xil kodlarga ega emas. TL<sub>1</sub>dagi matnni TL<sub>2</sub> dagi matnga aylantirish orqaligina J va Q o'rtasidagi muloqotni ro'yobga chiqarish mumkin. Bunda tarjimaning vazifalari quyidagi jarayonlarni ado etishga qaratiladi:

- a) asl matndagi matnni qayta kodlashtirish uchun dekodlash;
- b) qayta kodlash, ya'ni kodlarni tor ma'noda almashtirish (TL<sub>1</sub>dagi matn belgilari o'rniga TL<sub>2</sub> dagi kodlarni qo'yish);
- v) TL<sub>2</sub>dagi matnni yaratish.

Bu vazifa ikki tilli muloqot ishtirokchilari bo'lgan J va Q o'rtasidagi oraliq a'zo sifatida maydonga chiquvchi T-tarjimon tomonidan amalga oshiriladi. J ga nisbatan u qabul qiluvchi vazifasini, yakuniy adresat Qga nisbatan vositachi-jo'natuvchi J vazifasini bajaradi.

O.Kadening ko'rsatishicha, T-tarjimonning qayta kodlashtiruvchi a'zo (QKA) sifatida ishlashi uning J-jo'natuvchi o'laroq faoliyat ko'rsatishi uchun zamin yaratadi. Aynan shu vazifasini ado etar ekan, tarjimon bir til belgilaridan boshqa til belgilariga o'tadi, aniqrog'i, TL<sub>1</sub> belgilarini TL<sub>2</sub> belgilari bilan almashtiradi. QKA vazifasining tarjimon tomonidan bajarilishi uning Q qabul qiluvchi o'rnidagi xatti-harakatlariga bog'liq bo'ladi. O.Kade tillararo muloqotdagi voqealarning ketma-ketligini aks ettiruvchi quyidagi chizmani e'tiborimizga havola qiladi:<sup>1</sup>:

---

<sup>1</sup> Каде О. Проблемы перевода в свете теории коммуникации//Вопросы теории перевода в зарубежной лингвистике. -М.: Междунар. отношения, 1978. -С. 74.



Shu tarzda, ikki tilli muloqot quyidagi uch bosqichni o'z ichiga oladi:

1. J va T o'rtasidagi muloqot. T tarjimoni  $TL_1$  axborotini qabul qiluvchi Q vazifasida qatnashadi.

2. T-tarjimoni tomonidan  $TL_1$  kodlarini  $TL_2$  kodlari bilan almashtirilishi (QKA vazifasining bajarilishi);

3. T va Q o'rtasidagi muloqot. Tarjimon Q-qabul qiluvchi uchun axborotni shakllantiradi va J-jo'natuvchi vazifasini bajaradi.

Chizmadan ko'rinib turibdiki, sof tarjima bu jarayonning faqat bir bo'lagi bo'lib, u ham bo'lsa, birinchi bosqichning ma'lum bir qismiga (tarjimon tomonidan J-jo'natuvchi yuborgan axborotni qabul qilish va dekodlash), butun ikkinchi bosqichga va uchinchi bosqichning ayrim qismiga taalluqlidir.

Ushbu modelning afzalligi shundaki, unda tillararo muloqotning barcha bosqichlari aniq ajratilgan va tarjimonning ko'p vazifalarni bajarishi ta'kidlangan. Tillararo kommunikatsiya faoliyatining tuzilmasi haqidagi bunday tasavvur uning har bir unsurida mavjud bo'lgan va tarjimaga bevosita ta'sir ko'rsatadigan barcha omillarni tadqiq etishga yordam beradi. O.Kadening modeli tarjimon faoliyatini u bajaradigan ishlarning ketma-ketligi nuqtai nazaridan ob'ektiv va asosli ochib beradi.

#### Nazorat uchun savollar:

1. O.Kade nima uchun tarjima bosqichiga oraliq bosqichni kiritgan?

2. O.Kadening uch bosqichli tarjima modeli semantik va transformasion modellardan nimasi bilan farqlanadi?

3. O.Kade “informasion mazmun” deganda nimani tushunadi? Bu fikr asoslimi?

4. O’rganilayotgan sharq tilidagi matnni uch bosqichli tarjima modeli asosida tarjima qiling va amalga oshirgan xatti-harakatlaringizni izohlang.

### 5.5.Tarjimaning interpretativ nazariyasi

**Tayanch so‘z va iboralar:** *interpretativ nazariyasi, muloqot, til birliklari, matn, matnning mazmuni, asl matn, birlamchi matn, tarjima matni, boshlang‘ich xabar mazmuni, interpretatsiya, deverbalizatsiya, muallif g‘oyasi*

Tarjimaning interpretativ nazariyasi fransuz tarjimashunoslari D.Seleskovich va M.Lederer tomonidan ishlab chiqilgan. Bu nazariyaga ko‘ra, insonlar o‘rtasidagi muloqot til birliklari bilan almashinuv natijasida emas, balki ma‘lum bir ma‘nolarga ega matnlarni nutqiy ifodalash orqali ro‘yobga chiqadi. Bunda matnning mazmuni uni tashkil etgan til birliklarining oddiy yig‘indisidan kelib chiqmaydi. Birlamchi matnning mazmunini “sug‘urib olish” va tarjima matnida qayta tiklab berish tarjimonning asosiy vazifasi hisoblanadi.

Mazkur nazariyaga ko‘ra, tarjima jarayoni quyidagi bosqichlardan tashkil topadi:

- Asl matnni yaratish;
- tarjimon tomonidan nutq mazmunini anglanishi (bunda anglangan fikr muallif tomonidan asl matnga singdirilgan fikrga aynan mos kelmog‘i zarur);
- tarjimon tomonidan boshlang‘ich fikrni ifoda etuvchi tarjima matnining yaratilishi<sup>1</sup>.

Tarjimaning boshqa modellaridagi bo‘lgani kabi, bu holatda ham tarjimon ikki vazifani bajaruvchi shaxs sifatida gavdalanadi: birlamchi matnni qabul qiluvchi (sharhlovchi/ tinglovchi) va tarjima matnini

<sup>1</sup> Seleskovitch D. Interpretation, A Psychological Approach to Translating/ZTranslation: Applications and Research/Ed, by R.W.Brislin. New York, Gardner Press, Inc.. 1976. C 97.



yaratuvchi (sharhlovchi/so'zlovchi). Mazkur modelning markaziy bosqichi tarjimon tomonidan boshlang'ich xabar mazmunining tushunilishi hisoblanadi. Bu jarayon *interpretatsiya, ya'ni xabarning lisoniy ifodasini chetlab o'tib uning mazmunini ajratish hisoblanadi.*

Interpretatsiya ushbu konsepsiyaning sof tarjimaga qarama-qarshi qo'yilgan asosiy tushunchasidir. D.Seleskovichning fikriga ko'ra, tarjima ko'pincha xabarni qayta kodlashtirish sifatida tushuniladi, bunda esa, o'z navbatida bir tildagi belgilar ketma-ketligining boshqa tildagi belgilar ketma-ketligi bilan almashtirilishi ko'zda tutiladi<sup>1</sup>. Shu tariqa, sof tarjima til birliklari bilan ish ko'radi. Tillar muvofiqliklar topilishi nuqtai nazaridan solishtiriladi va baholanadi. D.Seleskovichning kinoya bilan qayd etishicha, bunday amaliyot natijasida ikki tillardagi birliklar o'rtasidagi imkoniy muqobilliklarni qayd etuvchi ikki tilli lug'atlargina yaratilishi mumkin<sup>2</sup>. Sof tarjimadan farqli ravishda interpretatsiya til birliklari bilan emas, balki g'oyalar, ma'nomazmunni ifoda etishni maqsad qiladi va shakliy tillaro muvofiqlikni har qanaqasiga e'tiborsiz qoldiradi. Interpretatsiya usulida ifodalangan fikrni ayni o'sha paytda va aynan shu kontekstda ifodalashning mutanosib usulini topish rejalashtiriladi va bunda mazkur fikrni yetkazish uchun asl matndagi mulohaza bildirish usuli hamda tarjimada qo'llangan usul boshqa shart-sharoitlarida umuman butunlay boshqa ma'noni ifodalashi mumkinligi hisobga olinmaydi. Boshqacha qilib aytganda, interpretatsiya boshlang'ich fikrdagi muhim ma'noviy unsurlarni ajratish va boshqa til vositalarida ushbu fikrni qayta shakllantirishni taqozo etadi, bunda asl nusxa va tarjima matni faqat shu vaziyatda bir-biriga mutanosib keladi hamda ular o'rtasida shakliy lisoniy muqobilliklar bo'lishi shart emas.

Yuqorida zikr etilganlardan ayon bo'ladiki, tarjimon tarjima jarayonida fikrni uning lisoniy qobig'idan ajratadi, ya'ni ma'lumotning deverbalizatsiyasi ro'y beradi. Deverbalizatsiya – bu, tahlil etilayotgan asl nusxa matni bo'lagi muallifi aytmoqchi bo'lgan fikrning tarjimon tomonidan anglanishi. Uning mohiyati anglangan fikrni shakllantirgan ma'lum so'z va iboralarni unutishdan iborat. D.Seleskovichning obrazli tushuntirishiga qaraganda, tarjimon go'yoki bir til materialidan to'qilgan matoning iplarini yechadi, keyin

---

<sup>1</sup> Там же. – С. 92.

<sup>2</sup> Там же. – С. 93.

bu iplardan yangi mato to'qiydi. Yangi nutqiy asarni yaratishdan avval tarjimon asl nusxa muallifining shakllantirilgan g'oyasini nolisoniy ko'rishga soladi<sup>1</sup>. Bu ish oniy ravishda va ichki hissiyot orqali amalga oshiriladiki, tarjimon ongida faqat g'oya qoladi, u esa bu g'oyani tarjimada aks ettiradi.

Interpretatsiyaning muvaffaqiyatiga turli omillar ta'sir ko'rsatadi: tarjimonning asl matn tilini bilish darajasi; tarjimonning nutq predmeti haqidagi bilimi. Fransuz tarjimashunoslari D.Seleskovich va M.Ledererning fikriga ko'ra, bu omillarning ikkinchisi muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki tarjimon gap ketayotgan narsa-hodisa haqida yetarlicha ma'lumotga ega bo'lsagina, uning ongida muallif g'oyasi aniq namoyon bo'ladi. Faqat shundagina matndan ajratib olingan yangi bilimning tarjimon bilimi bilan integratsiyasisi ro'y beradi. Ayrim holatlarda tarjimon muallif g'oyasi, fikrini anglamasligi ham mumkin. Masalan, jumla tarjimonga kontekstsiz berilsa, yoki tarjimon nutq predmeti haqida yetarlicha bilimga ega bo'lmasa, shunday holat ro'y berishi mumkin.

Interpretativ nazariya mualliflarining ta'kidlashlaricha, interpretatsiya tarjimonlarga og'zaki tarjima paytida qo'l keladi. Chunki og'zaki tarjima jarayonida tarjimonda fikrning lisoniy shaklini tahlil etish uchun vaqt yo'q, natijada u faqat bosh g'oyani ilib olishi mumkin. Ustiga-ustak, bu fikr tarjimon tomonidan bir ma'noda tushuniladi, zotan, bildirilgan mulohaza ma'lum bir auditoriyaga mo'ljallangan bo'ladi va o'sha auditoriya tomonidan qabul qilinishi uchun moslashtirilgan bo'ladi<sup>2</sup>. Ammo, bu, interpretativ nazariyani yozma tarjimaga tatbiq etib bo'lmaydi, degani emas. Shunchaki yozma tarjima jarayonida tarjimon bir oz murakkab vaziyatda bo'ladi, zero, u muloqot ishtirokchilari bilan bevosita aloqaga kirishmaydi, ko'z o'ngida esa turli tinglovchilar uchun har xil shaklda sharhlash mumkin bo'lgan yozma matn turadi. Shu tariqa, aynan og'zaki tarjima jarayonida bu nazariyaning mohiyati ochiq-oydin namoyon bo'ladi, yozma tarjima jarayonida esa bu mohiyat "xiralashadi.

V.N.Komissarovning xulosasiga qaraganda, tarjimaning interpretativ nazariyasi og'zaki nutq tarjimonining o'z faoliyati

---

<sup>1</sup> Seleskovich D. Interpreting for International Conferences. Problems of Language and Communication. Washington: Pen and Booth, 1994. C.37.

<sup>2</sup> Там же. – С. 103.

xarakteri haqidagi ichki his-tuyg'ulariga asoslangan tasavvurini nazariy asos sifatida ko'rsatishga intilishga qaratilgan<sup>1</sup>. Shu bilan birga, bu nazariya nazariy va amaliy nuqtai nazardan ayrim nuqsonlardan xoli emas. V.N.Komissarov interpretativ nazariyaning quyidagi kamchiliklarini sanab o'tadi:

1. Nutqdagi ichqi tuyg'u va bevositalik rolini haddan ziyod orttirish. Ichki hissiyot bilan anglash faqat anchayin sodda matnlar uchun xos bo'lishi mumkin. To'g'ri tushunishning sub'ektivligi ob'ektiv asoslarga ega emas. Shu sababli, murakkab matnda ifodalangan real g'oyaning barcha komponentlarini aniqlash uchun ongli tahlil talab etiladi.

2. Asl matn g'oyalarini yetkazishning ishonchli usuli sifatida og'zaki tarjima ahamiyatini asossiz ravishda yuqori ko'rsatish. Ma'lumki, ko'pincha og'zaki (ayniqsa, sinxron) tarjimada tarjimon muallifning asosiy fikr-mulohazasini yetkazish bilan cheklanadi, bu maqsadda u birlamchi matnni qisqartiradi, fikrlarni tushirib qoldiradi, nutqida asl ma'nodan og'ishlar, xatoliklarga yo'l qo'yadi. Yozma tarjimada tarjimon matnni to'liq tahlil etish, asl matn mazmunini to'liqroq yetkazish imkoniga ega bo'ladi.

3. Matn mazmunini yaratishda tilning ahamiyati haqidagi noto'g'ri tasavvur. Darhaqiqat, ma'lum bir kontekstdagi fikr, g'oya, uning lisoniy qobig'iga to'la muvofiq bo'lmasligi mumkin, ammo u har doim shu mazmun va uning lisoniy qobig'i orqali sharhlanadi. V.N.Komissarovning yozishicha, tarjimon «aslida... juda tezlik bilan va ongsiz ravishda eshitilgan til birliklarini identifikatsiyalab, ularni bir-biriga nisbatan hamda real voqelikka nisbatan munosabatiga ko'ra sharhlaydi va fikrning lisoniy mazmunini to'liqmi-noto'liqmi, ifodalab beradi. Va faqat shundan keyin yoki shu jarayon bilan birgalikda u mazmundan kelib chiqadigan g'oyani anglashi mumkin...»<sup>2</sup>.

4. Gapning mazmunini qandaydir oniy, takrorlanmas, faqat muloqotning ayni shu bo'lagida shakllanadigan narsa sifatida tasavvur qilish. Har qanday gap sub'ektiv ma'nodan tashqari barcha uchun umumiy bo'lgan qandaydir ob'ektiv ma'lumotni ham tashishi zarur, chunki, boshqacha holatda insonlar o'rtasidagi muloqot va hamkorlik ham imkonsiz bo'lardi.

<sup>1</sup> Комиссаров В. Н. Общая теория перевода. – С. 42.

<sup>2</sup> Комиссаров В. Н. Общая теория перевода. – С. 43-44.

Shu bilan birga, tarjimaning interpretativ nazariyasining yaqqol ko'zga tashlanib turadigan ijobiy tomonini ham e'tirof etish darkor. Ya'ni asl matndagi g'oyaning deverbilizatsiyasini amalga oshirish zarurligi va bu ishning tarjima jarayonining bir bosqichi sifatida belgilanishi mazkur nazariyaning yutug'idir. Tarjimonning asl matn lisoniy qobig'ini unutishga qaratilgan harakatlari tarjimadagi interferensiyaning yengib o'tish va tarjima tili me'yorlari hamda uzuslariga mutanosib ravishda tarjima matnini yaratishga ko'mak beradi. Xususan, deverbilizatsiyaning yozma tarjimada ham, og'zaki tarjimada ham bir xilda muhim ahamiyatga egaligini alohida ta'kidlab tizish zarur.

### Nazorat uchun savollar:

1. Tarjimaning interpretativ nazariyasiga ko'ra tarjima qaysi bosqichlarda amalga oshiriladi?
2. Muvaffaqiyatli interpretativ tarjimaning omillari nimalardan iborat?
3. Tarjimani interpretatsiya usuli bilan berish g'oyasining ijobiy va salbiy tomonlarini tushuntirib bering.
4. Deverbilizatsiya nima?

### 5.6. Sathlar ekvivalentligi nazariyasi

**Tayanch so'z va iboralar:** *sathlar ekvivalentligi, ekvivalentlik, asl matn, tarjima matni, sathlar, Manba, reseptor, til belgilari (so'zlar) sathi, fikr ifodalash sathi, ma'lumot (tuzilmasi) sathi, vaziyatni tavsiflash sathi, kommunikatsiya maqsadi sathi, ekvivalentlik tipi.*

V.N. Komissarov tarjimaning turli nazariy modellarini tahlil etar ekan, ularning har biri tarjimonlik faoliyatining faqat ayrim aspektlarinigina aks ettirishini, va faqat ularning barchasi birgalikdagina tarjimaning ekvivalentligini ta'minlaydigan mazmuniy komponentlarning to'liq manzarasini namoyon etishini e'tirof etadi. Olimning fikricha, tarjimonlik faoliyatini har tomonlama tavsiflovchi bunday umumlashtiruvchi model vazifasini **sathlar ekvivalentligi** nazariyasi bajaradi.

«**Sathlari ekvivalentligi** — tarjimonlik faoliyati modeli bo'lib, unga ko'ra, ekvivalentlik munosabati asl matn va tarjima matnlardagi o'xshash sathlar o'rtasida o'rnatiladi. Bu modelning asosida matn

mazmunida Manbadan Reseptorga yetkaziladigan axborot xarakteriga ko'ra farqlanuvchi bir qator tadrijiy sathlarni ajratish yotadi»<sup>1</sup>.

Mazkur nazariyaning mohiyati shundaki, «asl matn tili va tarjima matni tili tizimlari o'rtasidagi tafovutlar va ularda matn yaratish spesifikasi tarjimada asl matn mazmunini to'liq saqlash imkoniyatini cheklashi mumkin. Shu sababli tarjimadagi ekvivalentlik asl matnda ifodalangan ma'noning turli unsurlarini saqlashga (xususan, yo'qotishga) asoslanishi mumkin. Tarjimada ekvivalentlikni ta'minlash uchun asl matndagi qaysi ma'noning saqlanib qolinishiga ko'ra ekvivalentlikning turli darajasi (ko'rinishlari) farqlanadi. Ekvivalentlikning har qanday darajasida tillararo muloqot ta'minlanishi mumkin»<sup>2</sup>.

Darhaqiqat, tillararo kommunikatsiyaning muvaffaqiyatini ta'minlash uchun ayrim hollarda «Men sizning chap tomoningizda turgan, anavi qizil shardan teparoqdagi va yashil kubdan pastroqdagi narsani nazarda tutyapman» degandan ko'ra, o'sha narsani ko'rsatish yetarli bo'ladi. Bunda hattoki tarjimada hech qanday so'zlar va gaplar ishlatilmagan bo'lsa-da, muloqotdan ko'zlangan maqsadga erishish mumkin. Boshqa vaziyatlarda tarjimon aynan shu vaziyatni boshqacha usullar orqali, muloqot maqsadini saqlagan holda, muayyan shart-sharoitlarni identifikatsiyalash orqali tavsiflashi mumkin.

Manbadan (asliyatdan) Reseptorga (kitobxonga) yetkaziladigan matnda V.N.Komissarov mazmunning asosiy besh sathini ajratadi:

- 1) til belgilari (so'zlar) sathi;
- 2) fikr ifodalash sathi;
- 3) ma'lumot (tuzilmasi) sathi;
- 4) vaziyatni tavsiflash sathi;
- 5) kommunikatsiya maqsadi sathi.

V.N.Komissarovning fikriga ko'ra, keltirilgan sathlarning ketma-ketligi nafaqat matnning mazmuniy tuzilmasini, balki Reseptor (kitobxon)ga yetkazilgan matnni tahlil etishning asosiy bosqichlarini ham aks ettiradi. Avval Reseptor til belgilarini identifikatsiyalaydi, «keyin tahlil etilayotgan matn mazmunini fikr-mulohaza, axborot,

<sup>1</sup> Комиссаров В. Н. Слово о переводе. – С.62.

<sup>2</sup> Комиссаров В. Н. Теория перевода. – С. 51.

vaziyatning bayoni sathlari ketma-ketligida anglaydi, muloqot maqsadi sathida mazmuni to‘laligicha tushunadi»<sup>1</sup>.

Olim ushbu sathlarni tavsiflar ekan, tarjimaning yuqori bo‘lag‘asi quyi sathdagi ekvivalentlik (ya‘ni til birliklari darajasida), tarjimaning yuqori bo‘lag‘asi yuqori darajadagi ekvivalentlik (ya‘ni muloqot maqsadi darajasida)ni yuzaga keltirishini qayd etadi.

Shu bilan birga, nisbatan yuqori darajalardagi ekvivalentlik uning quyi darajalarida ekvivalentlik mavjud ekanini bildirmaydi. Quyi darajadagi ekvivalentlik nisbatan yuqori darajalardagi ekvivalentlikni ham taqozo etadi, zotan, tarjimon asl mat mazmunini til birliklaridan boshlab to muloqot maqsadigacha bo‘lgan barcha sathlarini tadrijiy ravishda aniqlab borishi zarur.

Ushbu modelga asoslangan holda V.N.Komissarov tarjima jayronini quyidagicha tavsiflaydi:

Tarjimon matni Reseptor sifatida qabul qilar ekan, quyidan yuqoriga ketma-ket bir sathdan keyingi sathga mazmunning barcha sathlarini anglagan holda o‘tadi.

Keyin tarjima tilining lisoniy kodini qo‘llashga o‘tar ekan, tarjimon butun ierarxiyani yuqoridan quyiga qarab, teskari tartibda bosib o‘tadi. Bunda yo‘l-yo‘lakay mazmunning har bir sathi – darajasi tarjima matnining yakuniy matni mazmunini belgilab berayotganligi yoki bermayotganligini tekshirib boradi. Basharti qandaydir bir darajada alohida shakllarning majburiy qo‘llanilishi talab etilsa, tarjimon bu vazifani tanlov asosida bajaradi. Agar bunda cheklov mavjud bo‘lmasa, tarjimon keyingi bosqichga o‘tadi, bunda asl matn va tarjima matni o‘rtasida quyi sathlarda o‘rnatilgan ekvivalentliklar mazmunning yuqori sathlarida o‘rnatilgan muvofiqliklariga zid bo‘lmasligi kerak<sup>2</sup>.

Keyinchalik V.N.Komissarov bu sathlar ketma-ketligini teskari tartibda almashtirdi va “sath” atamasiga sinonim sifatida qo‘llash uchun “ekvivalentlik tipi” atamasini iste‘molga kiritdi, keyinchalik umuman ushbu atamani “sath” termini o‘rnida ishlata boshladi.

Sathlarning ketma-ketligining o‘zgartib berilishidan ko‘rinib turidiki, gap ikki tamomila farqli sathlar majmuasi haqida ketyapti. Bir tomondan, matn mazmunidagi sathlar ajratiladi, va bunda haqi-

<sup>1</sup>Комиссаров В. Н. Слово о переводе. – С. 66.

<sup>2</sup> Швейцер А. Д. Перевод и лингвистика.

qatan ham, alohida olingan soʻzlar maʼnosi quyi sathni tashkil etadi. Quyi sath “gʻishtchalari”ning oʻzaro taʼsiri natijasida muloqot jarayonida oʻz oʻrniga (aniqrogʻi, maqsadiga) ega boʻlgan, yaʼni maʼlum bir kommunikativ maqsadni koʻzlagan gapning mazmuni shakllanadi. Ikkinchi tomondan, ikki matn – asl nusxa matni va tarjima matni mazmunlari oʻrtasidagi ekvivalentlik darajalari diqqat markazda tutilayapti. Bu holda vaziyat oʻzgaradi. Til belgilari oʻrtasidagi ekvivalentlik kommunikativ maqsad + vaziyat bayoni + axborot yetkazish qurilmasi + gʻoya, fikr darajasidagi ekvivalentlikni oʻz ichiga oladi va til belgilarining mazmuni saqlanishini taqozo etadi. Shu bois, bu sathni quyi sath sifatida koʻrish mantiqqa toʻgʻri kelmaydi va texnik nuqtai nazaraan olinganda ham noqulaylik tugʻdiradi.

Ayni bir modelning turli shakldagi bayoni boʻlgan tarjima tiplari va sathlari oʻrtasidagi mutanosiblikni quyidagicha jadvalda berish mumkin:

№	Sathlar tavsifi	№	Tip (koʻrinishlar) tavsifi
1	Til belgilari sathidagi ekvivalentlik	5	Til belgilari semantikasini berishdagi ekvivalentlik
2	fikr ifodalash sathidagi ekvivalentlik	4	
3	Axborot tuzilmasi sathidagi muqobilik	3	funksional-situativ mazmunni berishdagi ekvivalentlik
4	Vaziyat bayoni darajasidagi ekvivalentlik	2	
5	Kommunikatsiya maqsadi darajasidagi ekvivalentlik	1	

Tarjimadagi ekvivalentlikning turli koʻrinishlarini quyidagi misollar asosida koʻrib chiqish mumkin:

• **birinchi tip (kommunikatsiya maqsadi darajasidagi ekvivalentlik):**

Biraz utansaymish ya!  
(Sal uyalsa bo'lar(mi)di.)

استحي قليلا

(Ozgina uyal!)

الا تستحي قليلا

(Ozgina uyalmaysanmi?)

Bu misolda kommunikatsiyaning maqsadi muhabbatdoshining gapidan jahli chiqqan so'zlovchining hissiyatini ifoda etishdan iborat. Tarjimada g'azab, jahlni anglatuvchi stereotip jumla qo'llangan. Bunda bu gaplarni tashkil etuvchi til vositalari asl matnga mutanosib emas va hattoki, unda aks etgan vaziyat ham tarjimada boshqacha ko'rinishda ifodalangan: asl matnda so'zlovchi sherigi aytgan fikrga baho beryapti, tarjimada esa bu gapni aytgan odamning o'zini tutishi masalasida tavsiya berilgan.

• **ikkinchi tip (vaziyatni tavsiflash darajasida):**

أجاب لتفون

(U telefonga javob berdi).

U telefonni ko'tardi.

Ayni vaziyatda asl matn va tarjima matni bir xildagi kommunikativ maqsadni hamda ayni bir vaziyatni tavsiflagan. Bunda asl matn va uning tarjimalaridagi o'zaro mutanosib bo'lmagan til vositalari ayni bir harakatni va ayni bir reallikni anglatgan. Ya'ni telefonni ko'tarmoq "qo'ng'iroqqa javob bermoq" ma'nosini ifoda etgan.

• **Uchinchi tip (axborot sathidagi ekvivalentlik):**

من غسل الارض اقيع

(Pol yuvishdan qayt qilaman).

Artik ev temizlemekten bıkmışım.

(Pol yuvish desa ko'nglim ketadi.)

Bu tarjimada tarjima maqsadi saqlangan, asl matndagi manzarani yorituvchi umumiy tushunchalar saqlangan va aks etgan vaziyat tavsiflangan. Biroq na sintaktik tuzilma va na tarjimada qo'llangan so'zlar asl matndagi sintaktik qurilmaga va so'zlar ma'nolariga to'la mos.

• **To'rtinchi tip (fikr, g'oya sathi tuzilmasidagi ekvivalentlik):**

قلت له ما رأيي عنه

Ben o haqqında ne düşündüğümü söyledim.

(Men u haqda nima deb o'ylashimni aytdim.)

Ekvivalentlikning bu tipida uchinchi tipdagi saqlangan uchta mazmuniy komponent bilan bir qatorda, asl matndagi sintaktik quril-



malarning katta qismining tarjimada qayta tiklanishi nazarda tutiladi. Boshqacha qilib aytganda, bunda til birliklari o'rtasidagi aloqalardan anglashilgan ma'nolar saqlanadi, ammo so'z darajasida ekvivalentlik mavjud bo'lmaydi (*o hakkindaki düşündüklerim* – u haqda nima deb o'ylashim – هذا رأی عنه – U haqida o'ylaganlarim).

**•Beshinchi tip (til belgilari darajasidagi ekvivalentlik):**

بيع البيت عشرة الاف دولار

(Uy 10 ming dollarga sotildi).

Köşk 10 bin dolara satıldı.

(Uy 10 ming dollarga sotildi).

Ekvivalentlikning bu tipida kommunikatsiya maqsadi, vaziyat bayoni, axborot mazmuni, sintaktik qurilmalar va so'zlar ma'nosi saqlanadi, ya'ni asl matn va tarjima matni o'rtasidagi maqsimal darajadagi muqobillikka erishiladi.

Shunday qilib, ekvivalentlikning keyingi tiplarida avvalgi tipdagi axborot yetkaziladi, faqat, bu axborotga qo'shimcha yana qandaydir ma'lumot qo'shiladi. Bu ma'noda haqiqatdan ham, modelning yangi, "yoyiq" shakli nisbatan mantiqli va qulay ekanligi kuzatiladi.

- "sath" atamasining "tip" atamasi bilan almashtirilishi bu modelni izohlashda yuzaga keladigan qator qiyinchiliklarni barataraf etadi. *daraja*, *sath* atamasi quyidan yuqoriga ko'tarilishni taqozo etadi. Ayni holatyb bu model uchun jo'yali deb bo'lmaydi, chunki modelning dastlabki ko'rinishidan ma'lum bo'ladiki, yuqori sathdagi tarjima asl matndagi nisbatan eng kam ma'lumotni ifoda etadi. Bundan tashqari, "sath", "daraja" atamalarining o'zi sifatga baho berishni nazarda tutadi, masalan, tarjima qanchalik yuqori daraja, sathda amalga oshirilgan bo'lsa, shu qadar sifatli bo'lishi mo'ljallanadi. Hozir tahlil etilayotgan modelda esa bu xususiyat ko'zda tutilmagan.

Aslini olganda, V.N.Komissarov taklif etgan "sath"lar tarjimonning imkoniy xatti-harakatlarini bayon etish usuli bo'lib, unga asl matn mazmunining qaysi qismidan qaysi o'rinlarda voz kechishi mumkin yoki mumkin emasligi bo'yicha ko'rsatma bera oladigan model sifatida xizmat qiladi. Shu tarzda, bu modeldan ma'lum bo'ladiki, hech qanday holatda ham kommunikativ maqsaddan voz kechib bo'lmaydi. Agarda kommunikatsiya maqsadi darajasida ekvivalentlik o'rnatilmasa, boshqa hech qaysi sathlar o'rtasidagi ekvivalentlik haqida gap bo'lishi ham mumkin emas. Ammo bu, kom-

munikativ maqsad sathidagi ekvivalentlik, aytaylik, til belgilari darajasidagi ekvivalentlikdan yuqori turadi, degani emas. Zotan, til belgilari o'rtasidagi muqobillik ham kommunikativ maqsadni saqlab qolishni taqozo etadi.

Boshqa tomondan qaralsa, asl matn va tarjima mazmunidagi yaqinlik qanchalik to'liq bo'lsa, tarjima shunchalik yaxshi chiqadi, ya'ni til belgilari darajasidagi muqobillik vaziyatni bayon etish darajasidagi muqobillikdan ko'ra har doim ham yaxshi, deb bo'lmaydi. Masalan, ingliz tilidagi "*Stop! I have a gun*" gapini uning tarkibidagi so'zlarning ma'nosi, gapning ifoda shaklini saqlagan holda turk va o'zbek tillariga o'girsak (*Dur! Ateş edeceğim! – To'xta! Qurolim bor/ Qurollanganman*), tarjima asl matnga to'la yaqin bo'lsa-da, vaziyatni tavsiflash darajasida amalga oshirilgan tarjimaga (*Sakin! Ateş edeceğim! – To'xta! Otaman!*) qaraganda muvaffaqiyatsiz chiqadi.

"tip" atamasi ierarxiklik bilan hech qanday assotsiativ bog'liqlikni yuzaga keltirmaydi va shu bois, u yoki bu ekvivalentlik tipiga monand tarjima sifatining implisit bahosini ifoda etmaydi.

Tarjima shakllari barcha imkoniy shakllarining mutanosibini tanlash jarayonini, shuningdek, tarjimaning asl nusxada aks ettirilgan voqelik xususiyatlariga bog'liqligini izohlash maqsadida yaratilgan sathlar ekvivalentligi nazariyasi, V.N.Komissarov bahosiga ko'ra, har bir alohida ajratilgan sathda "ekvivalentlik" tushunchasiga aniqlik kiritilishiga hamda har bir sath ifoda plani variantlarining aynan tavsifi, bunday variantlar o'rtasidagi ma'noviy tafovutlarga bog'liq bo'ladi.

Umuman olganda, bu tavsifiy model tarjimonga har bir alohida olingan aniq vaziyatda qanchalik asl matnga yaqin tarjimani amalga oshirishi mumkinligini aniqlashga ko'mak beradi.

### **Nazorat uchun savollar:**

1. Sathlar ekvivalentligi nazariyasiga ko'ra tarjima jarayonini qanday bosqichlarga bo'lishimiz mumkin?

2. V.N.Komissarov nima sababdan "sath" atamasini "tip" atamasiga almashtirgan, deb o'ylaysiz? Fikrlaringizni aniq misollar bilan tushuntiring.

3. Ekvivalentlikning qaysi tipida kommunikatsiya maqsadi saqlanishi diqqat markazida tutiladi? Nima uchun?

4. Ekvivalentlikning qaysi tipida asl matndagi sintaktik qurilmalarning katta qismining tarjimada qayta tiklanishi nazarda tutiladi?

## **Mustaqil ish uchun savol va topshiriqlar**

1. Tarjimashunoslikka oid ilmiy manbalarni tahlil etib, “transformatsiya” va “deformatsiya” tushunchalarini izohlang.

2. Sinxron tarjimaning o‘ziga xos xususiyatlari.

3. Tarjimonning mahoratiga qo‘yiladigan asosiy talablar.

4. Muqobilsiz leksikani tarjimada berish usullari.

5. O‘rganilayotgan sharq tilidagi hikoya va uning o‘zbekcha tarjimasini qiyoslab tahlil eting, tarjimaning qaysi usullari qo‘llanilganligini belgilang.

6. O‘zbek tilidagi hikoya va uning sharq tilidagi tarjimasini qiyoslab tahlil eting, frazeologik birliklar tarjimasida qaysi usullar qo‘llanilganligini izohlang.

7. O‘zbek tilidagi hikoya va uning sharq tilidagi tarjimasini qiyoslab tahlil eting, maqol va matallar tarjimasida qaysi usullar qo‘llanilganligini tushuntirib bering.

8. O‘zbek tilidagi hikoya va uning sharq tilidagi tarjimasini qiyoslab tahlil eting, tarjimaning qaysi usullari qo‘llanilganligini belgilang.

9. O‘zbek tilidagi hikoya va uning sharq tilidagi tarjimasini qiyoslab tahlil eting, frazeologik birliklar tarjimasida qaysi usullar qo‘llanilganligini izohlang.

10. O‘zbek tilidagi hikoya va uning sharq tilidagi tarjimasini qiyoslab tahlil eting, maqol va matallar tarjimasida qaysi usullar qo‘llanilganligini tushuntirib bering.

11. Sharq tilidagi she‘r va uning o‘zbekcha tarjimasini solishtirib, tarjimon mahoratini baholang.

12. Sharq tilidagi she‘r va uning o‘zbekcha tarjimasini solishtirib, vazn hamda qofiyalarni berishdagi tarjimon mahoratini baholang.

13. O‘zbek tilidagi she‘r va uning sharq tilidagi tarjimasini qiyoslang, lafziy san‘atlarni berishdagi tarjimon mahoratini baholang.

14. O‘zbek tilidagi she‘r va uning sharq tilidagi tarjimasini qiyoslang, ma‘noviy san‘atlarni berishdagi tarjimon mahoratini baholang.

## Glossariy

**Adabiyotshunoslik sohasidagi tarjimashunoslik.** Badiiy asarlarni tarjimalari bilan solishtirib o'rganish va tarjimaning asl nusxaga estetik nuqtai nazardan muqobilligi darajasini baholash, tarjima tilining ma'naviy madaniyatning rivojida tutgan o'rnini belgilash, tarjimaning davr axloqiy ehtiyojlariga mutanosibligi darajasini tahlil etish kabi masalalar bilan shug'ullanadi.

**Adaptatsiya** – aslyatda aks ettirilgan vaziyatning tarjima matnida boshqa vaziyat bilan almashtirilishi.

**Antonimik tarjima** – leksik-grammatik transformatsiya ko'rinishi bo'lib, asl nusxa matnidagi bo'lishli shakl tarjimada bo'lishsiz shaklga aylanadi va aksincha, asl matndagi inkor shakli tarjima tilida tasdiq shaklida beriladi.

**Videomatning sinxronlashtirilishi** – tarjimon tomonidan jonli, ya'ni ayni bir paytda kinofilm qahramonlari yoki boshlovchi (hujjatli film bo'lsa) nutqini mikrofon orqali sinxron tarjima qilish.

**Gaplarni bo'laklarga taqsimlash** – usulida ma'lum bir tilda qo'shma gap, murakkab qo'shma gaplar, ba'zida hattoki yoyiq sodda gaplarni tarjima tiliga uslub nuqtai nazaridan ikki yoki undan ortiq bo'laklarga taqsimlab beriladi.

**Gapni umumlashtirish usuli** – sodda gaplarni birlashtirib, sodda gap yoki qo'shma gapning turli tiplari tarzida berishda kuzatiladi.

**Generalizatsiya** – asl nusxa tilidagi tor ma'noli birlikning tarjima tilidagi keng ma'noli birlik bilan almashtirilishi.

**Grammatik almashinuv** – asl nusxadagi grammatik birlik tarjima tilida o'zgacha grammatik mazmunga aylanadigan tarjima usuli.

**Yozma tarjima** – bir tilda yaratilgan matnni boshqa bir tilda yozma shaklda qayta ifodalash.

**Kalkalash** – asl matndagi leksik birlik tarjimasida uning tarkibiy qismlarini tarjima tilidagi leksik muvofiqlari bilan almashirish usuli, bunda asl matn tilidagi leksik birlik tuzilmasi nusxa ko'chirilgani kabi saqlanib qoiadi.

**Kasbiy yaroqlilik** – mazkur faoliyatni amalga oshirish uchun tabiatan ato etilgan qobiliyat va ruhiy tayyorgarlik.

**Kasbiy yaroqlilikni ta'minlovchi belgilar** sirasiga quyidagilar kiradi: nutqiy hozirjavoblik, yaxshi xotira, ruhiy barqarorlik, tez moslanuvchanlik, kirishuvchanlik, o'qimishlilik.

**Kognitiv axborot** – tashqi dunyo haqidagi ob’ektiv ma’lumotlar.

**Kommunal tarjimon** – tibbiy va ma’muriy muassasalardagi tarjima.

**Kompensatsiya** – usulining mohiyati milliy spesifik, madaniy to’siqni olib tashlashdan iborat Buning uchun asl nusxa tilidagi madaniyatning spesifikasini bildiruvchi soʻz tarjima tilidagi teng keluvchi yoki oʻxshash tushunchaga almashtiriladi.

**Konkretizatsiya** – asl nusxa matnidagi nisbatan keng ma’noli soʻz yoki soʻz birikmasini tarjima tilidagi nisbatan tor ma’noli soʻz yoki soʻz birikmasi bilan almashtirilishi.

**Qogʻozdan tarjima qilish** – tarjimon tayyorgarliksiz (yoki bir necha daqiqa davomida tanishib chiqib) yozma matnni xuddi “qogʻozdan oʻqiyotganday” ogʻzaki tarjima qiladi.

**Lisoniy jamoa** – bir tilda soʻzlashuvchi odamlar yigʻindisi.

**Mashina tarjimasi** – mashina tarjimasini modellashtirish muammolari bilan shugʻullanadi, xususan, vositachi til yordamida tarjima qilish yoki uch bosqichli (analiz – qayta shakllantirish – sintez), tarjmani modellashtirish, insonning tarjimonlik faoliyatini qoliplashtirish, lisoniy ma’lumotga samarali qayta ishlov berish usullari topish, tilning sintaktik qurilmalarini aniqlash, leksik birliklar ma’nolarini tavsiflash, ma’lum bir elektron moslama uchun bir tildan ikkinchi tilga oʻgʻirish dasturlari va algoritmlarini tuzish kabilar ham aynan mashina tarjimasi yoʻnalishining vazifalaridan sanaladi.

**Modulyatsiya** – nuqtai nazar, yondashuv, koʻpincha mushohada kategoriyalarini oʻzgartirish orqali erishiladigan transformatsiya.

**Moslashtirish (Adaptatsiya).** Adaptatsiya matnni resipient darajasiga moslashtirish, ya’ni kitobxon begona manbalarga murojaat qilmay tushunadigan darajadagi matnni yaratishdir. Adaptatsiyaning eng koʻp uchraydigan koʻrishi – turli matnlarning bolalarga moslashtirilishi, nomutaxassislar uchun matnni soddalashtirilishi, lingvoetnik moslashtirish kabillardir.

**Mualliflashtirilgan moslashtirish** – uslubiy ishlovdan shunisi bilan farqlanadiki, tarjimon (odatda muallif ruksati bilan) asl matnning badiiy tizimiga oʻz oʻzgartirishlarini kiritadi, syujetni, asar qahramonlari tarkibini oʻzgartiradi, oʻz badiiy vositalarini ishlatadi.

**Nutqiy hozirjavoblik** – begona nutqni tez qabul qilish va tezlik bilan oʻz nutqini yaratish qobiliyati.

**Ogʻzaki tadrijiy tarjima.** Bu tarjima turida tarjimon odatda soʻzlayotgan odam nutqini - tarjima qilinayotgan matnni kichik nutq

bo'laklariga bo'lib tinglovchilarga o'girib beradi. "abzasli-jumlali tarjima" deb ham yuritiladi.

**Operativ axborot** – rahbarlik qiluvchi ma'lumotlar.

**Rezyume shaklidagi tarjima.** Asl matn mazmunining qisqa tarjima shakli – rezyumesi.

**Resipient** – matn mo'ljallangan shaxs yoki jamoa.

**Sintaktik tenglashish (so'zma-so'z tarjima)** – bunday tarjimada asl matndagi sintaktik struktura tarjima tilida ham aynan shunday struktura shaklida beriladi.

**Sinxron tarjimon.** Sinxron tarjimada matn uning talaffuzi bilan deyarli bir paytda tarjima qilinadi (biroz, 2-3 soniya kechikish bilan).

**Stilistik ishlov.** Tarjimondan nafaqat asl matnni tarjima qilish, balki "yaxshilash" so'raladi, masalan, matnni soddalashtirish, uzun gaplarni qisqartirish yoki bir necha gaplarga bo'laklash, mantiqsiz tuyulgan joylarni tushirib qoldirish, so'zlashuv nutqiga xos so'zlarni va jumalalar shaklini qo'llash, yoki rasmiy hujjat bo'lsa, haddan ziyod erkin qo'llanilgan so'z va jumalarni rasmiy uslubga o'tkazish shular jumlasidandir. Bu ishlov turi "adabiy ishlov" deb ham yuritiladi.

**Tanlangan tarjima.** Ba'zan buyurtmachiga matn boshdan-oxirigacha kerak bo'lmaydi, uni ma'lum bir savollar bo'yicha ma'lumotlarni ajratib berib qilingan tarjima tanlangan tarjima hisoblanadi.

**Tarjima** – bir tildagi mazmuni ikkinchi tilga muayyan til vositalari yordamida o'g'irish jarayoni bo'lgan aqliy faoliyat va ushbu jarayonning natijasi – yozma yoki og'zaki tarjima matni

**Tarjima strategiyasi** ma'lum bir matnning tarjimasida tarjimon tomonidan qo'llaniladigan xatti-harakatlarning mohiyati va tartibi. Ma'lum bir matn (yoki matnlar majmuini) tarjimasida uchun tarjimon tomonidan ongli ravishda bu xatti-harakatlardan tanlab olib, ishlab chiqqan algoritm.

**Tarjima nazariyasi va amaliyoti tarixi** – tarjimonlik faoliyatining asosiy yo'nalishlari va tarixiy bosqichlari, tarjimalarni davr-lashtirish, tarjimaning mohiyati haqidagi tasavvurlarning tadqiqi, tarjima asarlarining milliy adabiyot taraqqiyotidagi roli singari masalalarni o'rganadi.

**Tarjima tanqidi** – sohasi tarjimoni qabul qilayotgan madaniyat uchun muhim ahamiyat kasb etadigan tarjimaning asl nusxaga mutanosibli darajasiga baho beradi.

**Tarjimaning maxsus nazariyasi** – tarjimonlik faoliyatining turli ko'rinishlarini (yozma tarjima, og'zaki tarjima, sinxron tarjima, tad-

rijiy tarjima, abzas-jumlali tarjima va h.), shuningdek, tarjima qilinayotgan ishning janriga bog‘liq (badiiy asar, ilmiy, texnik, publisistik asarlar) o‘ziga xosliklar, qonuniyatlarni o‘rganuvchi soha.

**Tarjimaning umumiy nazariyasi** – tarjima jarayonining universal qonuniyatlarini tadqiq etadi, va umuman olganda, tarjima qilinayotgan matnlarning janriga bog‘liq ravishda tillararo, uslubiy, funksional va boshqa muqobilliklarining nazariy asoslarini belgilash, og‘zaki va yozma tarjimalar spesifikasini aniqlash kabi masalalarni tahlil etadi.

**Tarjimaning texnik ta‘minoti.** Tarjimon kasbga oid bilim va ko‘nikmalardan tashqari, uning faoliyatida ko‘mak beradigan turli moslamalar, qurilmalar, shuningdek, yordamchi vositalardan oqilona foydalana bilishi.

**Tarjimaning xususiy nazariyasi** – ma‘lum bir tildan boshqa bir tilga tarjima qilishning o‘ziga xosliklari, aniq til birliklari va hodisalari o‘rtasidagi muqobilliklar tiplari, okkazonal nutqiy muqobilliklar – ko‘rinishlari, tarjimonlarning individual uslublari va boshqalar masalalar bo‘yicha tadqiqot olib boradi.

**Tarjimon amallari** - tarjimoni amalga oshirishda qo‘llaniladigan barcha imkoniy xatti-harakatlar yig‘indisi.

**Tarjimonning kasbiy axloqiga** quyidagilar kiradi: axloqiy tamoyillar; kasbiy xulq me‘yorlari; kasbga yaroqlilik talablari; tarjimonning huquqiy mavqei; tarjimaning texnik ta‘minotini bilish.

**Tarjimonning kasbiy malakasi** – ikki tildagi bu kabi qoidalarning o‘zaro munosabatini bilishni va turli tipdagi matnlarni yozish qobiliyati. Reseptori.

**Tarjimonning kommunikativ kompetensiyasi** – tarjima reseptorlarining axborotni anglash imkoniyatlarini asl matndagi fikrga yo‘naltirish qobiliyati.

**Tilshunoslik sohasidagi tarjimashunoslik.** Asosiy e‘tiborni tarjima jarayonini o‘rganish, tarjimaning gipotetik modellarini yaratish, asl matn va tarjima matnini solishtirish orqali leksik, grammatik va matniy muqobilliklarni aniqlash, tarjimashunoslik qonuniyatlarini aniqlash, asl matn mazmunini berishdagi tarjima usullarini tavsiflash, tarjimada ekvivalentlikni belgilovchi mezonlarni axtarish, tarjimaga o‘qitishning samarali usullarini aniqlash kabi masalalarni o‘rganishga qaratadi.

**Translyator** – translyator (mashina vositasida tarjima qilish programmasi yoki apparati).

**Transformatsiya** – asl matn tilidagi soʻzlarning maʼnosini kontekstda anglash va tarjima tili lugʻatiga mos kelmaydigan, unga mutanosib keluvchi muqobil soʻzni topishda qoʻllanadigan mantiqiy mushohada usullari.

**“shivirlashli sinxron tarjima”**. Tarjimon odam yoki odamlar guruhi yonida turadi va boshqalarga xalaqit bermaslik uchun soʻzlovchining yoki muhokama ishtirokchisining nutqini yarim ovozda yoki shivirlab tarjima qiladi.

**Ekvivalensiya** – asliytdagi vaziyatni tarjimada tavsiflashda tamomila boshqacha til vositalarini ishlatish.

**Eksplikatsiya (tavsifiy tarjima)**da begona madaniyat unsurlariga turli darajadagi izohlar kiritiladi. Izohlar tushunishni osonlashtirish, kitobxon leksik zaxirasini kengaytirish uchun kiritiladi.

**Emotsional axborot** – inson hissiyotlariga taʼsir koʻrsatuvchi axborot.

**Estetik axborot** – goʻzallikni his qilishga yoʻnaltiradigan axborot.



## Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch.–T.: Ma'naviyat, 2008.

### O'zbek tilida:

1. Абдуллаев Ш.Д. Таржима асарларда фразеологизмлар семантикаси: Филол. фан. номз.... дисс. автореф. – Т., 2006. – 20 с.

2. Бадий таржима дўстлик қуроли. – Т.: Ўқитувчи нашриёти, 1974.

3. Бадий таржиманинг актуал масалалари. – Т.: Фан нашриёти, 1977.

4. Иброҳимова Ш. Одил Ёқубов романларидаги миллийликнинг туркча таржималарда акс этиши: Филол.фан.номз....дис. – Т., 2010.

5. Исомиддинов З. Алдоқчи сўзлар билан баҳс // Таржима санъати. 5-китоб. – Т., 1980.

6. Мусаев Қ. Таржима назарияси асослари. Дарслик. – Тошкент: Фан, 2005.

7. Сирождидинов Ш., Одилова Г. Бадий таржима асослари. Тошкент: “Mumtoz so‘z”, 2011.

8. Xoshimov G‘.M. Tarjima nazariyasi va amaliyoti kursidan lektsiyalar. – Andijon: AnDU, 2000. – 112 b.

9. Шарипов Ж. Бадий таржималар ва мохир таржимонлар. – Тошкент: Фан, 1972.

10. Ўрмонова Н.М. Таржимада тарихий-архаик лексикани акс эттириш принциплари ва таржима аниқлиги: Филол. фан. номз.... дисс. автореф. – Т., 2008. – 22 б.

11. Усманова Ш. “Таржимонлик фаолиятининг лингвوماданий аспектлари” фанидан маърузалар курси. –Тошкент: 2014.

12. Фафуров И. Таржимонлик мутахассислигига кириш. Ўқув қўлланма. –Тошкент: Мехридарё, 2008.

13. Фафуров И. Таржимада аниқлик керакмасми? // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. №. 2. –Тошкент, 2010.

14. Фафуров И., Мўминов О., Қамбаров Н., Таржима назарияси. –Тошкент: “Тафаккур Бўстони”, 2012.

### Рус тилида

1. Алексеева И.С. Введение в переводоведение. 2-е издание. – М.: Академия, 2006.

2. Бархударов Л. С. Язык и перевод /Вопросы общей и частной теории перевода). – М.: Междунар. отношения, 1975.

3. Винер Н. Кибернетика и общество. М., 1958.
4. Виноградов В. С. Введение в переводоведение. – М., 2001.
5. Виссон Л. Синхронный перевод с русского на английский. – М., 2000.
6. Влахов С., Флорин С. Непереводимое в переводе. – М.: Международные отношения, 1980.
7. Гарбовский Н.К. Теория перевода. Учебник. –М., 2007.
8. Каде О. Проблемы перевода в свете теории коммуникации // Вопросы теории перевода в зарубежной лингвистике. – М.: Междунар. отношения, 1978. – С. 69-90.
9. Комиссаров В. Н. Общая теория перевода (Проблемы переводоведения в освещении зарубежных ученых). – М., 1999.
10. Комиссаров В. Н. Слово о переводе (Очерк лингвистического учения о переводе). – М.: Междунар. отношения, 1973.
11. Комиссаров В. Н. Современное переводоведение. – М., 1999.
12. Комиссаров В. Н. Теория перевода (Лингвистические аспекты). – М.: Высш. шк., 1990.
13. Любимов Н.М. Перевод искусство. –М., 1982.
14. Материалы «Круглого стола» по практическим вопросам устного перевода. Институт иностранных языков, СПб., 30 октября 1999 г. //Вестник ИИЯ. – СПб., 2000. – № I. – С. 101-102.
15. Миньяр-Белоручев Р. К. Как стать переводчиком. – М., 1999.
16. Миньяр-Белоручев Р.К. Общая теория перевода и устный перевод. – М.: Воениздат, 1980.
17. Мирам Г. Профессия: переводчик.– Киев, 1999.
18. Нечаев Л. Г. О понятии «инвариант перевода»//Теория и практика перевода: Сб. науч. трудов. Вип. 295. -М.: МГПИИЯ, 1987. – С. 33-34.
19. Паго А. Голос из будки // Studio. – СПб., 1999. – № 1. – С. 9-16.
20. Петрова О. В. Введение в теорию и практику перевода. Н.Новгород: НГЛУ им. Н.А.Добролюбова, 2001.
21. Попович А. Проблемы художественного перевода. -М., 1980.
22. Ревзин И. И., Розенцвейг В. Ю. Основы общего и машинного перевода. – М.: Высш. шк., 1964.
23. Рецкер Я.И. Теория перевода и переводческая практика. - М.: Международные отношения, 1974.

24. Семко С. А. Проблемы общей теории перевода. – Таллин: «Валгус», 1988.
25. Сдобников В.В. Теория перевода. Учебник. –М., 2001.
26. Сдобников В. В. О прагматических аспектах перевода// Вопросы теории, практики и методики перевода: Сб. науч. трудов. -Нижний Новгород: НГЛУ им. Н.А.Добролюбова, 1998.
27. Семко С. А. и др. Проблемы общей теории перевода. – Таллин: «Валгус», 1988.
28. Словарь иностранных слов. Изд. 15-е, испр. – М.: Рус. яз., 1988.
29. Словарь русского языка в 4-х томах. Изд. 2-е, испр. и доп. - М.: Рус.яз., 1981.
30. Стрелковский Г. М., Латышев Л. К. Научно-технический перевод. – М.: Просвещение, 1980.
31. Топер П. М. Перевод в системе сравнительного литературоведения. – М.: «Наследие», 2000.
32. Федоров А. В. Основы общей теории перевода. – М., 1983.
33. Черняховская Л. А. Перевод и смысловая структура. –М., 1976.
34. Чужакин А., Палажченко П. Мир перевода, или Вечный поиск взаимопонимания.– М., 1999.
35. Чуковский К.И. Высокое искусство. Собрание сочинений в 15 т. Т. 3. – М., 2001.
36. Швейцер А. Д. Перевод и лингвистика. – М.: Воениздат, 1975.
37. Швейцер А. Д. Теория перевода: статус, проблемы, аспекты. – М.: Наука, 1988.

#### Чет тилида

2. Bassnett-McGuire S. Translation Studies. – Methuen; London and New York, 1980.
3. Delisle J. L'analyse du discours commemethode de traduction. – Ottawa, 1984.
4. Handbuch Translation. – Tubingen, 1999.
5. Holz-Manttari J. Evolutionare Translationstheorie // Die Evolutionare Erkenntnistheorie im Spiegel der Wissenschaften. – Wien, 1996.
6. Holz-Manttari J. Textdisign – verantwortlich und gehirngerecht // Traducere navem. Festschrift fur Katharina Reiss zum 70. Geburtstag / Hrsg. J. Holz-Manttari, Ch. Nord. – Tampere, 1993.
7. Holz-Manttari J. Translatorisches Handeln. Theorie und Methode. – Helsinki, 1964.

8. Koller W. Einführung in die Übersetzungswissenschaft. – Wiesbaden, 1997.
9. Krings H. P. Was sind die Aufgaben von Übersetzern? – Tübingen, 1986;
10. Lederer M. La traduction simultanée. Experience et théorie. – Paris, 1981.
11. Przybyłowska M. Uebersetzer im Ueberlebenskampf // U wie Übersetzen. – Wien, 1992. – № 9/10. – S. 23-29.
12. Risku H. Constructivist Consequences: Translation and Reality // New Trends in Cognitive Science. – Wien, 1997.
13. Seleskovich D., Lederer M. Interpreter p o u r traduire. – Paris, 1987.
14. Seleskovich D. Interpretation, A Psychological Approach to Translating/Translation: Applications and Research/Ed, by R.W.Brislin. New York, Gardner Press, Inc.. 1976. – C 97-103.
15. Seleskovich D. Interpreting for International Conferences. Problems of Language and Communication. – Washington: Pen and Booth, 1994.
16. Wilss W. Kognition und Übersetzen. – Tübingen, 1988.

### **Internet saytlari**

<http://www.ziyo-net.uz>

<http://www.kutubxona.uz>

<http://www.ru.wikipedia.org/wiki/>

<http://www.perevodovedcheskiy.academic.ru/686/>

<http://www.finlit.fi>

## MUNDARIJA

<b>Kirish</b> .....	3
<b>1-BO'LIM</b>	
<b>TARJIMASHUNOSLIK SOHASINING ASOSIY TUSHUNCHALARI VA TARJIMON MAHORATI</b>	
1.1. Tarjimaga o'qish va o'qitish zarurati .....	6
1.2. "Tarjima" tushunchasi va tarjimashunoslikning tadqiq yo'nalishlari.....	14
<b>2-BO'LIM</b>	
<b>TARJIMONNING KASBIY KOMPETENSIYASI VA XULQIY TALABLARI</b>	
2.1. Tarjimon mahoratida kompetensiya masalalari.....	21
2.2. Tarjimon mahoratini shakllantiruvchi omillar.....	34
2.2.1. Tarjimonlarning kasbiy axloqi mohiyati .....	34
2.2.2. Tarjimon mahorati: kasbiy yaroqlilik masalasi va kasbiy talablar.....	45
<b>3-BO'LIM</b>	
<b>TARJIMON MAHORATINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI</b>	
3.1. "Tarjima strategiyasi" tushunchasi.....	52
3.2. Matnning tarjima oldi tahlili va tarjima natijalari tahriri.....	56
<b>4-BO'LIM</b>	
<b>TARJIMA METODOLOGIYASI</b>	
4.1. Tarjima turlari.....	68
4.1.1. Og'zaki tarjima turlari .....	69
4.1.2. Yozma tarjima turlari .....	78
4.2. Tarjimada matnga ishlov berishning alohida ko'rinishlari .....	80
4.3. Tarjima usullari va uslublari.....	84
4.3.1. Tarjima invarianti.....	84
4.3.2. Tarjima birliklari.....	91
4.3.3. Tarjimashunoslikda "usul" va "uslub" tushunchalari .....	97
4.3.4. Tarjima usullari .....	106

## **5-BO‘LIM**

### **TARJIMA MODELLARI**

5.1. Situativ-denotativ model .....	114
5.2. Tarjimaning transformasion modeli .....	118
5.3. Tarjimaning semantik modeli.....	122
5.4. Otto Kadening uch bosqichli tarjima modeli.....	123
5.5. Tarjimaning interpretativ nazariyasi.....	127
5.6. Sathlar ekvivalentligi nazariyasi.....	131
<b>Mustaqil ish uchun savol va topshiriqlar .....</b>	<b>138</b>
<b>Glossariy.....</b>	<b>139</b>
<b>Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati .....</b>	<b>144</b>

**Xudaybergenova Zilola Narbaevna**

# **TARJIMASHUNOSLIKNING TADQIQOT METODOLOGIYASI**

**O'quv qo'llanma**

Mas'ul muharrir:

TDSHI Tarjima nazariyasi va amaliyoti kafedrası dotsenti X.Hamidov

Taqrizchilar:

O'zR FA Til va adabiyot instituti katta ilmiy xodimi, f.f.n. E.Ochilov

TDSHI Turkiy tillar kafedrası mudiri, dotsent, f.f.n. J.Shabanov

O'quv qo'llanma Toshkent davlat sharqshunoslik instituti Kengashining  
2015-yil 5-oktyabrdagi 2-sonli qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

Bosishga ruxsat etildi 20.10.15.

Bichimi 60x84 <sup>1</sup>/<sub>16</sub>. Shartli 9,5 b.t. 100 nusxada bosildi.

Buyurtma № 8

© Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, 2015.

